O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

**Gularam Kamilovna Masharipova,**
**Tamara Jo’rayevna Xo’janova**

# KASBIY MA’NAVIYAT

**FANIDAN**
**(BARCHA TA’LIM YO’NALISHLARI 1 KURS MAGISTRATURA TALABALARI UCHUN DARSLIK)**

**“Fan ziyosi” nashriyoti**
**Toshkent – 2022**

**KBK: 74.200.51**

**UO’S: 871.74.621**

**ISBN 978-9943-7477-4-6**

**Masharipova G.K.. Xo’janova T.J.**

**Kasbiy ma’naviyat:** barcha ta’lim yo’nalishi 1 - kurslar magistrlar uchun darslik / G.K. Masharipova, T.J. Xo’janova. – Toshkent: Fan ziyosi nashriyoti, 2022. – 258 b.

**Mualliflar:**

**G.K.Masharipova –** Toshkent to’qimachilik va yengil sanoat instituti professori, falsafa fanlari doktori

**T.J.Xo’janova** – Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti falsafa fanlari bo’yicha falsara doktori (PhD), dotsent v.b.

**Taqrizchilar:**

**A.K.Berdimuratova** **–** falsafa fanlari doktori, professor

**O. G’aybullaev** **–** falsafa fanlari doktori, professor

Ushbu darslik O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi Oliy ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg’or texnologiyalarni tatbiq etish markazining 2021-yil 7 oktyabrdagi 02/01/01-554-son xatiga asosan barcha magistratura ta’lim mutaxassisliklari uchun tayyorlangan.

Mazkur darslik O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 3-sentyabrdagi 302-sonli buyrug’iga asosan, barcha ta’lim yo’nalishi 1 - kurslar magistrlar uchun talabalari uchun nasrga tavsiya etilgan.

**© Masharipova G.K., Xo’janova T.J.**
**© “Fan ziyosi” nashriyoti, 2022.**

## ANNOTATSIYA

Kasbiy faoliyat ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida maqsadlar, vazifalar, mavzu, vositalar, usullar, natijalarni o'z ichiga olgan murakkab tuzilishga ega. Mutaxassisning yuqori kasbiy madaniyati kasbiy muammolarni hal qilishning rivojlangan qobiliyati bilan tavsiflanadi, ya'ni rivojlangan professional tafakkur va ong, kasbiy ma'naviyat fanini o'zlashtirilishi magistrlar kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantiradi, reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ fikrlashi, o'quv fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot jarayonida ishlanmalarini tayyorlashi, kasbiy-pedagogik ijodkorligini modernizatsiyalashi va rivojlantirishning didaktik tuzilmasi, klasterli modeli, algoritmik xaritasini ishlab chiqish kabi bilim, ko'nikma, malakasi va amaliy faoliyat tajribasi shakllanadi va kompetentsiyasi rivojlanadi.

***

Профессиональная деятельность как социокультурный феномен имеет сложную структуру, включающую цели, задачи, темы, средства, методы и результаты. Высокая профессиональная культура специалиста характеризуется развитой способностью решать профессиональные задачи, т.е. развитым профессиональным мышлением и сознанием, освоение науки о профессиональной духовности развивает профессионально-педагогическое творчество мастеров, репродуктивное, продуктивное, частично поисковое, формируется творческое мышление, педагогическое развитие дидактического обеспечения предметов, подготовка разработок в процессе обучения, модернизация профессионально-педагогического творчества и развитие дидактической структуры, кластерной модели, алгоритмической карты освоения знаний, умений, навыков и опыта практической деятельности развивается компетентность.

***

Professional activity as a socio-cultural phenomenon has a complex structure, including goals, objectives, themes, means, methods and results. A high professional culture of a specialist is characterized by a developed ability to solve professional

problems, i.e. developed professional thinking and consciousness, mastering the science of professional spirituality develops the professional and pedagogical creativity of masters, reproductive, productive, partly exploratory, creative thinking is formed, pedagogical development of didactic support for subjects, preparation of developments in the learning process, modernization of professional pedagogical creativity and development of didactic structure , cluster model, algorithmic map of mastering knovvledge, skills and practical experience develops competence.

# Kirish

Kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan fazilatlar o’qituvchi shaxsining kasbiy ijtimoiylashuvi jarayonida shakllanadi, o’zgaradi, zaiflashadi yoki mustahkamlanadi (o’qituvchi shaxsining kasbiy ijtimoiylashuvi - kasbiy tajriba va madaniyatni o’zlashtirish va individuallashtirish (o’qituvchi shaxsini individuallashtirish - kasbiy munosabatlarni o’zlashtirishning o’ziga xos individual usuli va shakli). Bu jarayonda o’qituvchi bir vaqtning o’zida o’zi egallagan kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan fazilatlarning tashuvchisi va direjyori, ijtimoiy sharoitlarning unga ta’sir qilish Obyekti va pedagogik faoliyatni va o’zini faol ravishda o’zgartiruvchi sub’ekt sifatida ishtirok etadi.

**Fanning maqsadi** – «Kasbiy ma’naviyat» fanini o’qitishdan asosiy maqsad, magistrantlarga o’z mutaxassisiligi bo’yicha mustaqil fikrlay olish, hamkasblari orasida muomala odobi, kasbiy etikasi, estetikasi hamda shaxsiy sifatlari rivojlanishida muhim o’rin tutadi. Kasbiy ma’naviyat fani shakllanishining taraqqiyot bosqichlari, xalqimizning tarixan boy madaniy, ma’naviy merosi, ma’naviy-ma’rifiy takomil bosqichlari, milliy ma’naviyatimizning umumbashariy qadriyatlar bilan uyg’unligi, uning o’ziga xos betakror xususiyatlari, inson va jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish yo’llarini o’rgatish hamda ularni amalda tadbiq etish ko’nikmasini hosil qilishdan iborat.

Axloq – kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo’lgan munosabatlarida namoyon bo’ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma’naviy ta’sir ko’rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma’qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o’rganadi. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o’rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan. Inson axloqiy, umuman ma’naviy va ma’rifiy jihatdan kamol topishi jarayonida turli tarixiy bosqichlardan – johillik, nodonlikdan ilmga, yovuzlikdan ezgulikka, vahshiylikdan insoniylikka o’tarkan, jamiyat ham shu tariqa rivojlanadi.

Kasbiy etika paydo bo'lishidan oldin ilmiy axloqiy ta'limotlarni yaratishga, bu haqda nazariyalar yaratilishidan oldin, har kuni tajriba, bir yoki boshqa kasbning o'zaro bog'liqligini tartibga solish zarurati, muayyan etika talablarining xabardorligi va dizayniga olib keldi. Kasbiy etika har kuni axloqiy ongning namoyon bo'lishi sifatida sodir bo'ladi, keyin har bir professional guruh vakillarining xulq-atvorining umumiy amaliyoti asosida ishlab chiqiladi. Ushbu boshlanmalar yozma va yozilmagan xatti-harakatlar va nazariy xulosalar shaklida saqlangan. Bu har kungi ongdan professional axloq sohasida nazariy ongga o'tishni bildiradi. Kasbiy axloq normalari darhol tan olinmaydi, bu fikrlarning kurashi tufayli sodir bo'ladi. Kasbiy ma'naviyat va jamoat ongi o'rtasidagi munosabatlar an'anaga bog'liq. Turli xil professional etika o'z an'analariga ega, bu asrlar davomida ma'lum bir kasb vakillari tomonidan ishlab chiqilgan asosiy axloqiy normalarning davomiyligi mavjudligini ko'rsatadi.

**Fanning vazifalari:**

- magistrantlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish;

- ularda nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni tashkil qila olish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

- bo'lajak magistrlardagi jahon ilmiy axborotlari (jumladan, internet tizimi)dan foydalanish, mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llay olish, ilmiy izlanishda echimlari eng qulay va sodda variantlarni topa bilish va amalga joriy etish qobiliyatini rivojlantirish;

- ularga axborot xurujlari, ma'naviy tahdidlar va ommaviy madaniyatning zararli oqibatlarini oldini olishda mutaxassislik fanlari yutuqlariga tayanish, uning ilmiy-nazariy-metodologik uslublaridan foydalanish metodlari, usul va vositalarini o'rgatishdan iborat.

Shuningdek, kasbiy ma'naviyat fani rivojida jismoniy tarbiyaning uyg'unligi, tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari, shaxs tarbiyasiga ijtimoiy muhitning ta'siri, zamonaviy axloqiy tarbiyaning yutuqlari va kamchiliklari;

- kasbiy ma'naviyat fanini rivojlantirishda axloqiy madaniyatni shakllantirishning dolzarb masalalari, magistrlar fanni o'zlashtirish orqali bilim,

ko'nikma, malaka va amaliy tajribaga ega bo'lishlari zarur.

Ushbu fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi asosida magistrlar "Kasbiy ma'naviyat" fani o'quv rejasidagi inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatini o'rganuvchi – "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi", "Umumiy psixologiya", "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi" kabi fanlar bilan uzviy bog'liqlikda rivojlantiriladi.

"Kasbiy ma'naviyat" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida magistrlarda namoyon bo'ladigan kasbiy sifatlar quyidagilar:

- kasbiy ma'naviyat fanini o'zlashtirish jarayonida magistrlar professor-o'qituvchi tomonidan yuklatilgan kasbiy sifatlarini rivojlantiruvchi vazifa va talabalarni mustaqil bajara olish ko'nikmasini hosil bo'lishi, o'quv-tarbiyaviy sifatlari, mustaqil ilmiy faoliyatini tashkil etish asosida magistrlar dunyoqarashini rivojlanadi, o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirish bo'yicha innovatsion interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha kompetentsiyalari shakllanadi;
- kasbiy ma'naviyat fanining boshqa fanlar bilan o'zaro a'loqadorlik asosida tahlil etish asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-ijodiy pedagogik ijodkorligi mazmun-mohiyati va ijtimoiy holati, ijtimoiy-psixologik sifatlari oshib borishi, kreativ fikrlashlarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari va didaktik imkoniyatlari aniqlashtiriladi;
- kasbiy ma'naviyat fani o'zlashtirilishi magistrlar kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantiradi, reproduktiv, produktiv, qisman izlanishli, kreativ fikrlashi, o'quv fanlarining didaktik ta'minotini ishlab chiqish, mashg'ulot jarayonida ishlanmalarini tayyorlashi, kasbiy-pedagogik ijodkorligini modernizatsiyalashi va rivojlantirishning didaktik tuzilmasi, klasterli modeli, algoritmik xaritasini ishlab chiqish kabi bilim, ko'nikma, malakasi va amaliy faoliyat tajribasi shakllanadi va kompetentsiyasi rivojlanadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyat insonni jamiki boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi ijtimoiy hodisa, odam ruhiy va aqliy olamining majmui, inson qalbidagi ilohiy nur bo'lsa, kasbiy ma'naviyat kasb-hunar ta'limi tizimining kasbga yo'naltirilgan nazariya va amaliyot bosqichidafi faoliyatidir.

# I-BOB. KASBIY MA’NAVIYATGA KIRISH

## 1-MAVZU. KASBIY MA’NAVIYAT FANINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI

**Reja:**

**1. Kasbiy ma’naviyat fanini o’rganishning dolzarb muammolari.**

**2. Kasbiy ma’naviyat fanlarining o’qitish asosiy talablari.**

**3. Professional etika tushunchasi va ahamiyati.**

**4. Kasbiy ma’naviyatning mutaxassislar tayyorlashdagi o’rni va ta’lim yo’nalishidagi boshqa fanlari bilan bog’liqligi.**

***Tayanch atamalar:*** *kasb, ma’naviyat, kasbiy tayyorgarlik, ixtisoslik, talablar, mutaxassislar tayyorlash, amaliy ko’nikmalar, mehnat faoliyati, malakali inson, qadr-qimmat, odob, axloq, milliy qadriyatlar, muomala madaniyati, mayllar, onglanmaganlik, ruhiy tahlil, etiket, zamonaviy etiket, milliy etiket, axloqiy madaniyat.*

### KASBIY MA’NAVIYAT FANINI O’RGANISHNING DOLZARB MUAMMOLARI

Kasb - (lotincha: professio - rasmiy ko‘rsatilgan mashg‘ulot, ixtisoslik) - maxsus nazariy bilimlar va amaliy ko‘nikmalar majmuiga ega tajribali shaxsning mehnat faoliyati turi hisoblanadi. Kasb - bu juda keng qamrovli tushuncha bo’lib, uni turlicha ta’riflash mumkin. Ba’zi bir olimlar kasb - bu inson ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati turi bo’lib, moliyaviy to’qlik yoki etishmovchilik uning natijasidir deb aytsalar, yana boshqa guruh mutaxassislar «kasb» tushunchasiga insonning bilim darajasi, dunyoqarashi va boshqa shunga o’xshash omillarga bog’liq holda o’z o’zini realizatsiya qilish jarayoni sifatida qaraydilar.

Kasb - kishining mehnat faoliyati, doimiy mashg‘uloti turi; muayyan ish turini malakali bajarishga imkon beradigan bilim, mahorat, tajribani talab etadi. Kasblar ichida mehnat faoliyatining eng tor sohasi bilan ajralib turadigan ixtisoslar bor

(masalan, vrachlik kasbida xirurg , oftalmolog , dermatolog va boshqa). Kasb, odatda, shaxsning asosiy tirikchilik manbai hisoblanadi.

Insoniyat paydo bo’libdiki u har doim o’zini boqishga, ehtiyojlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo’ldan bormoqda. Inson o’z ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshpana, kiyim – kechaklarga bo’lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo’lgach, ya’ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o’z ehtiyojlariga kerak bo’lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo’lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo’lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo’lgan va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to’plaganlar. Kasb – inson ish faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir.

Kasbga umumiy yoki maxsus ma’lumot hamda amaliy tajriba yo’li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba’zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig’uvchi chilangar kabi yo’nalishlar mavjud. Dunyoda 60 ming O’zbekistonda 6 mingdan ziyod kasblar mavjud. Shuni aytish joyizki, jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko’payib boradi. Shu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ qonunlarga amal qilishi zarur bo’ladi. Shulardan kelib chiqib kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo’lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o’ziga xos murakkab bo’lgan jarayon deb belgilashimiz mumkin. Insonda ma’lum kasbga, uni egallashga xavas, mayil, orzu, ishtiyoq, xafsala bo’lmasa u hech qanday kasbni egallay olmaydi. Insondagi shu jarayonlar odamning o’z kelajagini to’g’ri anglashga, tushunishga olib keladi.

Kasbiy madaniyat - umuminsoniy axloqiy qadriyatlar bilan bir qatorda ma’lum bir kasbiy faoliyatga qo’yiladigan maxsus axloqiy talabdir. Mehnat axloqining yana bir ta’rifi uni odamlar hayoti va tegishli hayotiy tajribani egallash jarayonida ishlab chiqilgan umumlashtirilgan axloqiy talablar to’plami sifatida ko’rsatadi. Bunday

talablar oddiy mehnat va kasbiy faoliyatni ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisaga aylantirishga imkon beradi. Mehnat axloqi aslida shaxslarning kasbiy faoliyatida mujassam bo'lganligi aniq. Shuning uchun ham ancha vaqt davomida «mehnat» va «kasbiy axloq» tushunchalari aniqlanib, nafaqat ommaviy va jamoat ongida, balki axloq kursiga oid o'quv adabiyotlarida ham aniqlandi. Biroq, bu faqat ushbu tushunchalarni eng umumiy ma'noda tavsiflashda amalga oshirilishi mumkin. Kasbiy axloq mehnatga o'xshaydi, chunki ikkinchisining asosiy yo'nalishlari barcha kasbiy faoliyat turlariga aniq yo'naltirilgan. Mana bu xislatlarning bir nechta namunalari: mas'uliyat, vijdonlilik, ishdagi ijodiy tashabbus, intizom.

Shu bilan birga, iloji boricha, «kasbiy axloq» kabi tushunchaning to'liq mehnat axloqiga aylanganligini ta'kidlash mumkin emas.Ushbu haqiqatning asosiy izohi juda aniq: ba'zi kasblar axloq darajasida paydo bo'lgan juda aniq muammolar to'plamini o'z ichiga oladi. Ushbu muammoli masalalar, bilvosita va mehnat axloqiga tegishli bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ammo, har qanday holatda, belgilangan kasbning (vrach, o'qituvchi, jurnalist va boshqalar) ma'lum bir iziga ega. Umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga ko'ra kasbiy axloq - bu kasb axloqining asosiy printsipi. Ushbu hodisalarning shakllanishi qanday sodir bo'lganligi juda qiziq. Bir qator kasblar uchun kasbiy axloqni shakllantirish juda uzoq tarixga ega. Tasavvur qiling, allaqachon qadimgi zamonda bo'lgan istisno kasblar o'zlarining kasbiy axloq qoidalari bilan maqtanishlari mumkin edi.

O'zbekistonda kasbga yo'naltirilgan ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- umumiy o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishi: akademiy litsey yoki kasb-hunar maktabida o'qiishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqligi;

- ta’lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- bilimli bo’lishni va iste’dodni rag’batlantirish;
- ta’lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg’unlashtirish.

Respublikamizda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar o’sib kelayotgan yosh avlodda intellektual qobiliyatlar va kasbiy bilimlarni rivojlantirishni ko’zda tutadi. Bunday kelib chiqqan holda mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi fanining maqsadi bo’lajak mutaxassislarning ixtisoslik fanlaridan ta’lim berish metodikasi, oliy ta’lim tizimida o’qitish shakllari hamda o’qitishning ilg’or pedagogik va axborot texnologiyalariga oid bilim va ko’nikmalarini shakllantirishdan iboratdir.

Mutaxassislik fanlarini o’qitish metodikasi fani «Pedagogika» fanining tarmog’i sifatida quyidagi asosiy vazifalarni amalga oshirishga qaratiladi:

- Kasbiy ta’lim vazifalarini asoslash, uning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish;
- O’quv materiali mazmunini asoslash;
- Oliy ta’lim tizimida ta’lim jarayonini tashkil etish;
- Bo’lajak mutaxassislarda kasbiy bilimlarni shakllantirishning pedagogik va axborot texnologiyasini asoslash.

Kasb ma’naviyati fanini o’zlashtirgan magistr: o’qitishning didaktik qonunlari va tamoyillarini, ta’lim-tarbiya berishning nazariyasi va amaliyotini, o’qitishning zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini, ta’lim jarayonini tashkil etishning turli usul va shakllarini, jumladan ma’ruza o’qishni, amaliy mashg’ulotlarni o’tkazishni, talabalar mustaqil bilim oliisharini tashkil etishni, malakaviy bitiruv ishlariga rahbarlik qilishni, ta’lim jarayonida o’qitishning texnik vositalari va axborot texnologiyalarini qo’llash ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak.

Kasbiy ma’naviyat sanoat, ishlab chiqarish va mehnat pedagogikasiga oid masalalar bilan shug’ullanadi.

### Kasbiy ma’naviyat fanining o’qitishning asosiy talablari

Kasbiy ma’naviyat fanini o’qitish asosiy talablariga quyidagilar kiradi:

1. Kasviy mahoratini oshirish.

2. Talabalarning ongliligi oshirish.

3. Talabalarni shaxsiy hususiyatlarini hisobga olish.

4. Talabalar faolligini oshirish.

5. Bilim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishini puhtaligini nazorat qilish.

6. Didaktik reduksiyadan foydalanish.

7. Kasbiy ma'naviyati shakllantirish.

8. Namunalardan foydalanish.

9. Ilmiylik.

10. Ko'rgazmalilik.

11. Faoliyatda nazariya bilan amaliyotning bog'liqligini tushuntira olish.

12. Yetuk mutaxassislarni tayyorlash.

O'qituvchi yuqori talablarni qo'llagandagina talabalar bilimi yaxshiroq chuqurroq bo'ladi va mavzuni eslab qoladi hamda unga bo'lgan qiziqishi ortadi. Yangi O'zbekistonda mamlakatimizda so'z borayotgan o'zgarishlar ta'lim tizimi mazmunini davr nuqtai nazaridan yangilashni taqazo etmoqda.

Bunday yangilanish O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Jumladan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida shakllantirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimida kasb ta'limiga alohida o'rin berilishi natijasi sifatida kasb-hunar maktablari va litseylar tizimi shakllandi.

Bugungi kunda fanning boshqa sohalari bilan bog'liq ravishda ishlab chiqilgan yangi kontseptsiyalar va nazariyalar rivojlantirilmoqda. Kasbiy ma'naviyat uzoq davrlar mobaynida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalashga yo'naltirib boradi. Bu holat kasbiy mahoratni va layoqatni oshirish, insonning butun umri davomida o'zi bilimini takomillashtirib borish va o'z-o'zini tarbiyalash ehtiyojini oshirishga xizmat qilishi lozim. Respublikamiz ta'lim tizimdagi islohatlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, ta'lim oluvchi shaxsida kasbiy mahorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda.

Ta'lim islohatlari natijasida umumta'lim maktablari, litsey, kasb-hunarga yo'naltirish va boshqa yangi turdagi o'quv muassasalarining shakllantirilishi va

rivojlanishi; Oliy o'quv yurtlarida kasb ta'limini tashkil qilish alohida bo'lim fakultetlarning tashkil etilishi; kasbiy pedagogikaning boshqa fanlar bilan yanada jipsroq bog'lanib borshi, istiqbolda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan, bilim sohalari tutashuvda yangi kontseptsiya va nazariyalarning yuzaga kelishi; kasb ta'lim muassasalarining aholiga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi, mehnatni tashkil qilishning ilg'or shakllarini joriy etish va boshqalar.

Talabalarda umumta'lim va malakaviylikni o'zaro bog'liqlik asosi. Hozirgi vaqtda pedagogik ilmda nazariy uch ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik ilgari surilmoqda:

1-ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik. Bir obyektni turli xil fanlarda o'rganish.

2-ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik. Bir ilmiy metodni turli xil o'quv fanlarida o'rganish.

3-ko'rinishdagi o'zaro bog'liqlik. Bir qonunni turli fanlarda isbotini topish.

Respublikamiz ta'lim tizimdagi islohotlar natijasida kasbiy ta'lim ishchi kasblariga maxsus tayyorlash masalasiga, talim oluvchi shaxsida kasbiy maxorat va layoqat sifatlarini shakllantirishga aloxida e'tibor berilmoqda. Kasbiy ta'lim muassasalarining axoliga ta'lim xizmatlarini ko'rsatish turlarining ortib borishi, o'z bazasida tayyor maxsulot ishlab chiqarish va unga xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yishi; mehnatni tashkil qilishning ilgor shakillarining joriy etishi va boshqalar.

O'quv jarayon umumiydan shaxsiyga qarab yo'nalgan bo'lib, bunda ishlab chiqarishning texnologik asoslarini o'rganishdan - maxsus bilim, ko'nikma va malakalarni jamlashga, ma'lum mehnat va o'rganishga o'tish demakkdir. Bunday vaziyatdan ta'limning natijasi - malakasi mutaxasis tayyorlash jarayoni bu va moddiy yoki loyiq xarajatlar kamligi bilan ifodalanadi.

Inson kamoloti ko'p qirralidir. Uning buyukligi ma'naviy kamolot darajasi bilan belgilanadi. Yetuk ma'naviyatga ega bo'lgan insongina jamiyat muammolarini aqli va zakovati bilan yechishga harakat qiladi. Chunki, inson o'z atrofidagi odamlar ta'sirida kamolotga erishadi. Zotan, inson jamiyatda yashar ekan, undan chetda turolmaydi. Insonlarga xos bo'lgan axloq meyyorlari jamiyat taraqqiyoti va hayotiy

ehtiyojlar ta’sirida o’zgarib turadi. Ta’lim-tarbiya, ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi insonlarning hatti–harakatlarini, ular o’rtasidagi munosabatlarni ma’naviyat bilan bog’lanmagan tabiiy ehtiyojlar va imkoniyatlar chegarasidan tobora uzoqlashtirib boradi.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, davlat boshqaruvining asosiy yo’nalishi umume’tirof etilgan tamoyillar, xalqaro huquqiy hujjatlar hamda demokratik standartlar asosida huquqiy davlat qurishni belgilab oldi.

Huquqiy davlatning shakllanishi va jamiyat ishlari boshqaruvining takomillashuvi o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik kuchayib borayotgan hamda erkin fuqaro ma’naviyatini, ozod shaxsni shakllantirish masalasi oldimizdagi muhim vazifaga aylanib borayotgan hozirgi paytda davlat boshqaruvi qat’iy qonunlar asosida amalga oshishini taqazo etmoqda. Bu esa bevosita davlat xizmatchidagi xodimdan yuksak fazilatlarni o’zlashtirishni talab qiladi.

Davlat xizmatidagi xodimlarning huquqiy va axloqiy madaniyati bir-biriga mutanosib bo’lishi kerak. Shu munosabat bilan mansabdor shaxslarda siyosiy xislatlar bilan bir qatorda axloqiy fazilatlarni shakllantirish zaruriy holdir. Axloqiy barkamollik davlat xizmatidagi xodimlarning ishbilarmonlik sifatlaridan biri hisoblanadi.

Jamiyatda mutloq, abadiy va o’zgarmas axloq yo’q. Axloq tarixan o’zgaruvchan va nisbiy mustaqillikka ega bo’lgan ijtimoiy hodisadir. Uning bu xususiyatlari umumiy axloqning tarkibiy qismlaridan biri bo’lgan **Professional etikada** ham yaqqol namoyon bo’ladi. Jamiyat rivojining tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo’lishi mehnatning bir turi bilan band bo’lgan kishilar guruhlarining kasb – hunar jihatidan ajralib chiqishiga va shunga muvofiq ravishda turli xil mutaxassisliklarning vujudga kelishiga sabab bo’ldi. Bu esa har bir insonning qilayotgan mehnat tarziga, mehnatni tashkil qilish usullariga qarab, ulardan muayyaan turdagi harakatlar va ruhiy quvvatlarni sarflashni talab etadigan qaytarilmas, o’ziga xos ko’nikmalarni vujudga keltiradi. Inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach o’z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo’ladi.

## PROFESSIONAL ETIKA TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI

Xalqimiz farovonligi maqsadida davlatchilik va qonunchilik yanada rivojlanib borayotgan bir paytda «Professional etika» fanining o’qitilishi zarur, ya’ni kasb madaniyatini egallash, madaniy gapirishga intilish, fikr mahsulini matnga to’laqonli tushira olish mahorati barcha kasb egalarining orzusi bo’lmog’i lozim. Bu shubhasiz, bundan tashqari, hozirgi kunda professional etika muammosini kun tartibiga hayotning o’zi qo’ymoqdaki, kishilik jamiyatining madaniy-ma’rifiyligini busiz tasavvur qilish qiyin. Shu sababli kasb madaniyati, qonuniy «kasb ehtiyoji» hayotiy talabga aylanishi aniq.

Har bir fanning o’zining predmeti bo’lgani kabi professional etika fanining ham o’z predmeti mavjuddir. Professional etika fanini axloq tashkil qiladi. Etika axloqning kelib chiqishi, mohiyati, xususiyatlari, jamiyatda tutgan o’rni taraqqiyoti qonuniyatlarini o’rganuvchi va haqiqatini amalda isbotlagan olimlar majmuidan iboratdir.

Jamiyatning axloqiy hayoti deb kishilarning ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda, ularning ijtimoiy – siyosiy va huquqiy faoliyatda, oilasida va kundalik turmushida yuzaga keladigan munosabatlar; ularning xulq atvori, yurish – turishi; adolat, sadoqat, burch, baxt kabi munosabatlarining majmuiga aytiladi. Shundan kelib chiqqan holda, jamiyatning ko’p qirrali va murakkab axloqiy hayotini aks ettiruvchi “axloq” tushunchasini kategoriya sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin:

Axloq inson va jamiyat o’rtasidagi ob’yektiv aloqadorlik tufayli kelib chiqadigan, shaxsiy va umumiy manfaatlarni muvofiqlashtirib turish asosida har bir shaxsning hayotiga faoliyatini boshqaradigan, tartibga soladigan muayyan xulq-atvor, odob, hatti-harakat prinsip va normalarning majmuidir.

Axloq ijtimoiy hodisa bo’lib, insoniyat jamiyat vujudga kelishi bilan bir vaqtda jamoalar bilan shaxslar o’rtasidagi ehtiyoj va manfaatlarga xizmat qiluvchi ijtimoiy munosabat tariqasida vujudga kelgan. U o’zining tarixiy taraqqiyotida quyidagi vazifalarni bajargan:

- umuminsoniy madaniyatning inson tabiiy xislatlarini o’zgartiruvchi faoliyat shaklidagi tarkibiy qismi;
- jamiyatda yashovchi har bir shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi ma’naviy-ijtimoiy omil asoslaridan biri;
- kishilarning ichki tuyg’ularini, hissiyotlarini takomillashtirib, umuminsoniy moddiy va ma’naviy qadriyatlarni anglab etish, ularni asrash va kelgusi avlodlarga yetkazib berish yo’llaridan eng afzali;
- axloqshunoslik – insonlarga axloq-odob, burch, qadr-qimmatni shunchaki aks ettirmaydi, balki ularni tanqidiy baholaydi, tahlil etadi[1].

Ma’naviyatni harakatga keltiruvchi kuch, uning ijodkori *shaxs ma’naviyati* hisoblanadi. Shaxs ma’naviyati qanchalik yuksak bo’lsa, umuminsoniy va milliy ma’naviyat ham shunchalik umrboqiy bo’ladi. Shaxs ma’naviyati - har bir kishining o’zini insoniyat farzandi, muayyan *millat vakili, davlat fuqarosi* deb bilgan holda o’z vatani tuprog’ini, suvini, havosini va jamiki boyliklarini ko’z qorachig’iday asrashlari, uning ozodligi-obodligi, ravnaqi, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini hurmat qilish, izzatini joyiga qo’yish yo’lida chin vijdon, imon, e’tiqod, sadoqat, ishonch, halollik, dovyuraklik, beg’arazlik, hurmat, katta fidoyilik va aqliy teranlik bilan faoliyat olib borishga qaratilgan ichki ruhiy va aqliy olamining majmuiga aytiladi.

Shunday qilib, shaxs ma’naviyati: *birinchidan*, hissiy va aqliy jihatdan o’zining kimligini, ya’ni o’zligini anglash, aniqrog’i, qaysi odamning, millatning, Vatanning farzandi ekanligini idrok etish; *ikkinchidan*, o’zi mansub bo’lgan oila, millat, Vatan bilan faxrlanish, g’ururlanish*; uchinchidan*, oilasi, millati, Vatanining ravnaqi yo’lida ilm olish, tarbiya topish hamda unga sadoqat, imon-e’tiqod bilan xizmat qilish; *to’rtinchidan*, har qanday insonning haq-huquqlarini hurmatlash; *beshinchidan*, ilm-fanni insoniyat rivojini ta’minlovchi, jafokash mehnat ahlining og’irini yengil qiluvchi vosita deb bilish, shuningdek, ajdodlar xotirasiga chuqur hurmat bajo keltirish kabi bir qator ichki ruhiy va aqliy his-tuyg’ular, qarashlar, teran bilimlar va hatti-harakatlarni o’z ichiga oladi.

[1]Muhammadiev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati. - Toshkent, 2005, 5-8 bet.

Shaxs avvalo inson, odam bolasi sifatida eng oliy qadriyat hisoblanadi. Uning ma’naviy kamoloti hozirgi kunda ko’p jihatdan umuminsoniy, milliy va shaxsiy qadriyatlarning ta’siriga, aks ta’siriga bog’liq.

Axloq va axloqiy normalar kishilar faoliyatining muayyan sohasigagina taalluqli bo’lmay, balki xalq hayotining hamma jabhalariga kirib boradi. Axloqiy xislatlar sohasi ko’plab masalalarni, ya’ni fuqarolik jamiyatining axloqiy mezonlariga, bozor iqtisodiyoti sharoitining axloqiy qarashlariga bo’lgan munosabati va boshqalardan tortib to zamonaviy turmush qoidalari, shaxsiy xulq-atvorgacha bo’lgan masalalarni o’z ichiga oladi. Bu esa ongni qayta qurishda axloqiy tarbiyaning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ma’lumki, insonning botiniy go’zalligi bevosita axloqiy fazilatlar va axloqiy munosabatlar bilan bog’liq holda namoyon bo’ladi. Chunki axloq, avvalo, ijtimoiy-ma’naviy hodisa sifatida inson kamolotida muhim ahamiyatga ega. Bu xususda akademik E.Yusupov: «Axloq insonning konkret sharoitlarda bo’layotgan voqea va hodisalarga mustaqil baho berishi, ularga nisbatan o’z munosabatini bildirishi hamdir”, - deydi. Umuman, axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo’lgan insonlarning o’z-o’zini idora qilish shakllari va meyyori, o’zaro muloqot va munosabatda ularga xos bo’lgan ma’naviy kamolot darajasining namoyon bo’lishidir. Axloq yo’q joyda inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi. Faqat yetuk axloq zaminidagina kishilarda hayotning mazmuni va maqsadi, jamiyat oldidagi burchi va mas’uliyati, baxt, diyonat, yaxshilik va yomonlik, yovuzlik, haqlilik va nohaqlikka nisbatan muayyan munosabat shakllanadi»[2].

Ana shu jihatdan xulq tushunchasi axloqning tarkibiy qismi sifatida inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, xulq ikki ko’rinishda namoyon bo’ladi:

***Birinchisi*** - yaxshi, chiroyli xulqlar. Bunga shirinsuxanlik, muloyimlik, halollik, iffat, diyonat, or-nomus, nafsni tiyish, vijdon, shijoat, sabr, ilmlilik, g’ayrat, riyozat, qanoat, sabr, intizom, munislik, haqiqatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, adolatparvarlik va shu singari ijobiy tuyg’ular kiradi. Bular o’z navbatida insonda

[2]Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 1998, 116-bet.

xulqiy go'zallikni namoyon qiladi va insonni axloqiy jihatdan kamolotga etkazadi.

***Ikkinchisi*** - yomon, xunuk xulqlar. Unga xudbinlik, hasadgo'ylik, ta'magirlik, ikkiyuzlamachilik, firibgarlik, ig'vogarlik, tuhmatchilik, badnafslik, badniyatlik, badjaxllik, bachkanalik, dilozorlik, andishasizlik, bevafolik, berahmlik, tovlamachilik, behayolik singari illatlar kiradi. Bular insonni tubanlik sari yetaklaydi va ma'naviyatini qashshoqlashtiradi. Mazkur illatlarni odat qilgan kishilar umum tasavvurida jirkanch taassurot qoldiradi.

Bu xususda ma'rifatparvar alloma **Abdulla Avloniy** shunday degan edi: «Bu sanagan yomon xulqlarning fanoliqlarini, yuqorida sanagan yaxshi xulqlarning go'zalligini insof muvozanasi ila o'lchab, vijdon muhokamasi ila ta'qiqlab, yaxshilarini tinglab amal qilmak, yomonlarini anglab, hazar qilmak, lozimdur. Zeroki, insonning izzati, dunyoning lazzati yaxshi so'zlarni eshitub va ko'rub hissa olmak, yomon va zararliklarini o'qub, bilub, o'zini tiymak, qo'ldan kelgancha xalq va millat foydasiga tortmoq va bu fano dunyodan yaxshilik otini olub ketmakdadur»[3].

Sharq odobida «Ulug'lar huzurida sergak bo'ling va o'zingizga loyiq so'z so'zlang» deyilishi bejiz emas. Bu umumiy tilni asrash barobarida o'z og'zimiz orasidagi tilni «ehtiyot» bo'lib, o'ylab ishlatish kerak demakdir. Chunki, so'z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini ko'rsatadigan me'zon bo'lib, aql sohiblari kishining dilidagi fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qiymatini so'zlagan so'zidan biladilar. Zero, so'z insonning qiymati qadar qadrlidir. Shirin so'z ilonni inidan chiqarganidek, muloyim so'z vahshiylarni ulfatga aylantiradi. Shuning uchun do'stu dushman bilan muomalada ehson yo'lini tutish lozimki, bunda do'stlarning mehru-muhabbati ortadi, dushmanlarning adovati kamayadi.

*Sharq hikmatlari durdonalarida yaxshi xulqning o'nta belgisi alohida ko'rsatib o'tiladi.* Bular:

1. Bo'lar-bo'lmasga odamlar bilan janjallashmaslik.
2. Insoflilik.
3. Birovning aybini qidirmaslik.
4. Biror kishidan noloyiq ish sodir bo'lsa uni yaxshilik yo'liga solib yuborishlik.

---

[3]Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. T.2. –Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 71 b.

5. Agar aybdor o'z aybini bo'yniga olsa uni kechirish.

6. Muhtojlarning hojatini chiqarish.

7. Boshqalarga yordam qo'lini cho'zish.

8. O'z nafsini tiya bilishlik.

9. Boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilishlik.

10. Doimo yaxshi so'zlash.

Ushbu yaxshi xulqlar ichidagi uchta belgi ya'ni, «Bo'lar-bo'lmasga odamlar bilan janjallashmaslik», «Boshqalarga ochiq chehra bilan muomala qilishlik», «Doimo yaxshi so'zlash» insonning hatti-harakati bilan emas, balki chiroyli, shirin so'zi natijasida amalga oshadigan axloqiy hodisalardir. Shuningdek, boshqaruvda, muloqotda so'zga ayniqsa, shirin so'zga e'tibor sharq odobining ziynati sanaladi. Bu borada «Qobusnoma»dagi fikrlar diqqatga sazovordir: «Har so'zni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul bo'lsun va haloyiq sening so'z bila baland martabaga egalig'ingni bilsunlar. Nedinkim kishining martabasini so'z bila bilurlar, ammo so'zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o'z so'zining ostida pinhondur, ya'ni bir so'zni bir iborat bila aytsa bo'lur, eshitg'on kishining esa ko'ngli undin to'la bo'lg'ay va yana o'shal so'zni bir ibrat bila aytsa bo'lurkim, eshitg'on kishining oni undin rohatda bo'lg'ay»[4]. Shuning uchun odamlarga achchiq va dag'al so'zlamaslik lozim. Zero, dag'allik misli olov, kuydirguvchi yo'ldir.

Umuman olganda, sharq xalqlari pandnomalarida, hikmatlarida shirinso'zlikning inson hayotidagi o'rni beqiyos ekanligi mutafakkirlar nazaridan chetda qolgan emas. Biz ana shu an'analarni davom ettirishimiz, ulardan tegishli xulosalar chiqarishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

Inson ma'naviy madaniyatining asosiy mezoni – axloqiy yetuklik hisoblanadi. Axloqiy yetuklik esa o'zida – halollik, insoflilik, vijdoniylik, sahovatpeshalik, shafqatlilik, mehribonlik singari axloqiy fazilatlarni mujassam etadi. Shunday ekan, muomala madaniyatining asosiy mezonini yaxshi xulq va go'zal fazilat uyg'unligi tashkil etadi.

---

[4]Kaykovus. Qobusnoma. –Toshkent: O'qituvchi. Matbaa ijodiy uyushmasi, 2006. – 98 b.

Shuni qayd etish lozimki, insonni hayvondan farq qiladigan eng muhim xususiyatlaridan biri, uning o'zini yashashi, turmush uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish malakasiga ega ekanligidir. Bu malaka insonning insonlararo muomala madaniyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

**Xulqiy go'zallikning estetik-axloqiy mohiyatiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkin:**

1. Mavjudligi muayyan ichki va tashqi ta'sirlarga, vositalarga bog'liq bo'lmagan go'zallik. Bu ko'proq insonning tashqi qiyofasiga daxldor xususiyat; insonning chinakam go'zal chehrasi har qanday soxta bezamaslikdan, «yasama go'zallikdan» ustun turadi.

2. Muayyan ijobiy faoliyatlar, hatti-harakatlar, amallar, botiniy tuyg'ular orqali paydo bo'ladigan go'zallik. U ezgulik vositasida xulqiy go'zallikni takomillashtiradi.

Barcha kasb xodimlarning ishi – og'ir yumush. Uni sharaf bilan ado etmoq uchun, kishi o'zi rahbarlik qiladigan sohani bilishigina emas, balki yana bir qator sifat va fazilatlarga ega bo'lmog'i kerak. Ular ichida avvalo til va nutq imkoniyatlarini ishga sola bilishni ajratib ko'rsatish darkor.

Nutqiy muloqotga kirishgan kishining maqsadlari doirasini umumlashgan holda quyidagilar bilan belgilish mumkin:

- o'zga(lar)ga, muayyan jamoaga o'z g'oya va fikrlarini yetkazish orqali hamfikrlar doirasini kengaytirish;
- ma'naviy (ruhiy) hayotini uzaytirish orqali hayotda iz qoldirish;
- hukmronlikka bo'lgan intilishni amalga oshirish;
- shartnomaga asosan o'z xizmat doirasida muayyan (siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy) masalani hal etish;
- e'tibor qozonish;
- jamiyatda tutgan baland mavqeini saqlab qolish va h.k.

Barcha kasb xodimlari axloqiy sifatlarining quyidagi jihatlarini tavsiflash mumkin:

- xulqiy nuqtai nazardan xodimning axloqiy tutgan yo’li, uning did-farosati va yashashdan maqsadi yo’nalishi:
- adolat, vijdon va burch faoliyatidagi yuksak axloqiy fazilat sifatida:
- axloqiy meyyorlarga bo’ysinish:
- etiket qoidalariga rioya qilish.

Shuningdek, barcha xodimlarga qo’yiladigan axloqiy talablar huquqiy asosga ega bo’lib, ular qonunlar, nizomlar va yo’riqnomalar tarzida rasmiylashtiriladi: ularni buzgan xodimlar intizomiy jazoga, qonunga zid ish ko’rganlar esa jinoiy javobgarlikka tortiladi. Shuning uchun davlat xizmatidagi xodimlarning professional etika, jasurlik, shijoat, adolat va sadoqatlilik kabi axloqiy meyyorlarga tayangan holda har bir ishga beg’araz va xolis yondashishni taqozo etadi.

Professional etika bo’yicha mutaxassis **Leandro Valente** o’zining **“Etiketning oltin qoidasi»** asarida quyidagilarni keltiradi:

1. Har doim yaxshi narsalarga qarab intilish kerak, bu birinchi qoida. Yaxshilik deganda, yaxshi xizmat, jamoat va rahbar tasarrufida siz haqingizda yaxshi fikr qoldirish kerak.

2. Sadoqat bilan xizmat qilish. Har sohaning mas’uliyati bor, unga amal qilish zarur.

3. Kasbdoshlar orasida o’zaro hurmat va ishonch qozonish, bir-biriga do’stona va yaxshi muomalada bo’lish. Jamoani va o’z-o’zini hurmat qilish har bir mutaxassis uchun kerak.

4. Kasbdoshlaringiz bilan do’stona munosabatda bo’lishingiz kerak.

5. Haqqoniy, adolatli bo’lish – har bir insonning ma’naviy aspekti. Bu xususiyatni ish jarayonida har bir insonda ijobiy jihatlarini namoyon bo’lishida kuzatish mumkin.

6. Bilimli, hissiyotli, xulq atvorli bo’lish va boshqalarga namuna bo’lish ish jarayonining eng yaxshi xislatlaridan biridir.

7. Har bir inson odob-axloqli va namunali xulqli bo’lishi, etiket qoidalariga amal qilishi doimo kerak.

8. Har doim har bir inson saxiy, ko'ngli toza, shaxsiy hayotda xushxulqli bag'rikeng bo'lishi talab qilinadi.

9. Har qanday axborotni (sirni) har bir inson saqlay bilishi, shundagina jamoa oldida hurmat qozonishi va karyeraga ega bo'lishi va jamoat oldida katta hurmat qozonishi lozim.

10. Barchaga siz yaxshi xulq-atvoringiz va kasbiy mahoratingiz bilan namuna bo'lishingiz zarur[1].

Etiket axloqiy madaniyatning yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishlaridan biri sifatida ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun-qoidalarning bajarilishini boshqaradi.

## Kasbiy ma'naviyatning mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni va ta'lim yo'nalishidagi boshqa fanlari bilan bog'liqligi

Bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy va siyosiy dunyoqarashlarini, ma'naviy qiyofasini hamda mutaxassisligilik bo'yicha muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlarini va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish uchun bakalavriat davrida talabalar mutaxassis fan materiallarini o'zlashtirishlari lozim. O'quv rejalarida fanlar gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy, matematika va tabiiy ilmiy, umumkasbiy hamda maxsus fanlar guruhlariga bo'linib ko'rsatiladi. Gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar guruhi bo'lajak mutaxassislarning ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashlarini hamda ma'naviy qiyofasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Matematika va tabiiy ilmiy fanlar guruhi yoshlarning har tomonlama rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Umumkasbiy hamda maxsus fanlar guruhlari yoshlarda mutaxassisligi bo'yicha zaruriy nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalar majmuini shakllantiradi.

***Kasb egalari quyidagilarni bilishi lozim hisoblanadi:***

1. Har qanday kasb egasi qasamyodini buzmasligi va unga amal qilishi va kasbiy mohir ustasi bo'lishi zarur.

---

[1]LeandroValente10GoldenRules To Professional Ethics In The Workplace.https://www.linkedin.com/in/leandrovalente.

2. XVI asrda: har bir soha mutaxassisi o’z sohasi bilan bir qatorda uchta kasbga - diniy, tibbiyot va qonunlarni bilishi lozim bo’lgan.

3. XIX asrda: yangi kasblar paydo bo’lgan va eski kasb mutaxassislariga kattaroq hurmat qilishgan.

Professional etika va etiket fani umumkasbiy fanlar guruhiga kiritilgan. Bu fan bo’lajakda har tomonlama yetuk mutaxassislarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Ushbu fan materiallari bo’yicha bo’lajak mutaxassislar muvaffaqiyatli faoliyat ko’rsatish uchun zaruriy umumiy va kasbiy axloqiy qoidalarni va meyyorlarni o’rganadilar. Ushbu fanning mutaxassislar tayyorlashdagi o’rni ana shulardan iborat.

Tabiatda bironta voqea o’z-o’zidan sodir va bironta narsa o’zicha paydo bo’lmaydi. Voqealarning sodir va narsalarning paydo bo’lishi bir-birlari bilan bog’liq bo’ladi. Fanlar ham o’z-o’zidan vujudga kelmaydi. Bir fan boshqa fandan ajralib chiqishi yoki bir nechta fanlar o’rtasida paydo bo’lishi mumkin. Shuning uchun Professional etika va etiket o’quv fani  o’quv rejasining boshqa fanlaridan ajratilgan holda o’qitiladi deyish xato bo’ladi, chunki u dinshunoslik falsafa, ruhshunoslik (psixologiya), sotsiologiya, madaniyatshunoslik, iqtisodiy geografiya va ekologiya, sayyohlarga xizmat ko’rsatish hamda servis xizmatlarini tashkil etish kabi fanlar bilan o’zaro bog’liq.

Professional etika va etiket  falsafa fani bilan ham bevosita bog’liq bo’lib, ular bir xil masala, ya’ni axloq bilan shug’ullanadi. Agar falsafa axloqning kelib chiqish tarixini va uning rivojlanish qonuniyatlarini o’rgansa, professional etika va etiket esa uning amaliy tomonlarini o’rganadi. Shunday qilib, falsafa axloqning nazariy masalalari bilan shug’ullanadi, professional etika va etiket esa jamiyatda qo’llaniladigan axloqiy qoida va meyyorlarni o’rganadi.

Psixologiya va professional etika va etiket fanlari o’rtasida ham ma’lum bog’liqlik mavjud. Agar ruhshunoslik fanining mehnat psixologiyasi bo’limi mehnat turiga xos xossalarning odamga ruhiy ta’sirini o’rgansa, professional etika va etiket fani esa turli kasb egalarining qanday axloqiy qoidalarga rioya qilish kerakligini o’rganadi.

Professional etika va etiket iqtisodiy geografiya va ekologiya fanining ekologiya

qismiga aloqador. Ekologiya va etikaning bir–birlari bilan chambarchas bog'liqligi, ayniqsa oxirgi yillarda, tasdiqlanmoqda. Ma'lumki, jamiyat a'zolarining tabiat qonunlariga rioya qilmasligi va undan yovuzlarcha foydalanishlari natijasida oxirgi yillarda ekologik fojiali holatlar vujudga kelmoqda. Ulardan biri dunyoda o'rtacha yillik haroratning oshib borishi va uning natijasida muzliklarning erishi,yoki ba'zi bir mintaqalarda, masalan, Orol dengizi ko'rfazida qurg'oqchilikning yuzaga kelishi va boshqalar. Kelib chiqishi mumkin bo'lgan fojiyalarning oldini olish va tabiatdan oqilona foydalanish uning qoida va meyyorlarini zudlik bilan amalga tadbiq etishni talab qiladi. Amaliy meyyor va qoidalarni ishlab chiqish professional etika va etiket fanining asosiy masalalaridan hisoblanadi.

Madaniyatshunoslik va etika fanlarining o'rtasida ham uzviy bog'liqlik mavjud, chunki etika fani odamlarga hamda kasb guruhlariga axloqiy qonun-qoidalarni o'rgatish orqali ularning, qolaversa jamiyatning umumiy madaniyatini oshirishga yordam beradi.

Etika fani maxsus fanlar, chunonchi «Sayyohlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish» fani bilan ham bevosita aloqador. Uning boisi shundan iboratki, sayyohlarga va aholiga xazmat ko'rsatishda ovqatlanish korxonalari xodimlari etika qoidalariga qat'iy rioya qilishlari shart. Shundagina mehmonlar kayfiyati buzilmaydi va iste'mol qilingan taom yaxshi hazm bo'ladi.

Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish. Kasbiy pedagogika fanida nazariy dars – rejali tashkillashtirilgan, aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladigan ta'lim va tarbiya jarayonidir. Bu jarayonda ma'lum bir soxa bo'yicha nazariy bilimlar tizimli ravishda bilim oluvchilarga etkaziladi. Bu jarayonda ta'lim beruvchi nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash yo'llari bilan tanishtiradi. Nazariy dars asosan maxsus jixozlangan darsxonalarda o'tkaziladi. Bu sinfxonalarda turli texnik vositalar ishlatilishi mumkin. Amaliy mashg'ulot – aniq maqsadga qaratilgan va ta'lim beruvchi tomonidan boshqarib turiladi.

Aniq bir topshiriqni bajarish uchun keraqli nazariy darsda tayanch so'z va iboralar kiritiladi. Nazariy dars, amaliy mashg'ulot, ditaktik xatti-xarakatlar, darsni rejalashtirish, metod, maqsad, mazmun, sharoitlar, o'qitish va o'qish sikli, ta'lim

beruvchi, amaliyot ustaxona olingan maxsus bilimlar asosida malaka va ko’nikmalarni shakllantirish maqsa’dida olib boriladi.

Amaliy mashg’ulot kasb-hunar ta’limining tarkibiy qismi bo’lib o’quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda, o’quv paligonlarida ish o’rnida joylashgan real vositalardan foydalanilgan xolda o’tkaziladi.

Kasb-hunar ta’limi tizimi - nazariya va amaliyot bir biridan aloxida, yani nazariy ta’lim o’quv auditoriyada, amaliyot ustaxona va laboratoriyalarda amalga oshiriladi. Nazariy darsda kerakli maxsus bilimlar amaliy darsga nisbatan ilgariloq berilishini ta’minlash kerak. Amaliy mashg’ulotlarda ta’lim berivchi ish faqat ish topshiriqlariga tegishli qo’shimcha bilimlarni berishi kerak. Agarda amaliy masho’ulotlarda ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilarning avvalgi bilimlarida kamchilikni aniqlasa, u keraqli nazariy bilimlarni beradi.

Darsni rejalashtirish – kutilayotgan o’quv natijalariga erishish maqsadida o’quv jarayoniga tayyorgarlik ko’rish: ta’lim metodlarini tanlash, tarqatma materiallar va o’quv ditaktik vositalar tayyorlash. Barcha imkoniyatlarni hisobga olgan xolda, bir marta tuzilgan rejada o’zgartirishlar bo’lmasligiga xarakat qilishi kerak.

Ta’lim beruvchi uchun rejalashtirish o’quv jarayonini boshqarishda xatolarga yo’l qo’ymaslik deganidir. Ta’lim oluvchi uchun rejalashtirish, u bo’lajak o’quv jarayoni to’g’risida va ta’limdan nimalarni kutishi mumkinligi haqidagi aniq tasavvurga ega bo’lishi zarur.

Nazariy dars va amaliy mashg’ulotlarni rejalashtirish quyidagi darajalarda amalga oshirilishi mumkin:

- butun ta’lim davri darajasida;
- bir o’quv yili darajasida;
- bir smestr darajasida;
- bir oy darajasida;
- bir xafta darajasida;
- bir kun darajasida;
- nazariy darsning bir soat darajasida;
- ko’pincha xar xil vaqt darajalari uchun mo’jallangan rejalar bir vaqtning

o'zida qo'llaniladi.

Maqsadlar va mazmunlarni rejalashtirish odatda maxsus bir soha bo'yicha olib boriladi va uni ta'lim beruvchining o'zi tayyorlaydi. Buning uchun tanlangan maxsus soxa bir necha mavzularga yoki material soxalariga bo'linadi. Songra metodlar rejalashtiriladi. Bu munosabatda e'tibor «Ta'lim beruvchining didaktik xatti-harakatlari» modeliga qaratiladi.

Yuqorida tasvirlangan ta'lim beruvchining didaktik xatti-xarakatlari modeli bir maxsus soxani rejalashtirish maqsadida qo'llanilishi mumkin. Nazariy dars va amaliy mashg'ulotlarni to'g'ri rejalashtirish uchun, ta'lim beruvchi o'zining vaziyatidan boshlashi lozim, ya'ni «Mavzuni ilm-fanning eng so'nggi zamonaviy talablariga muvofiq o'rgata olamanmi yoki buning uchun men yana aloxida tayyorlanishim kerakmi?» hamda «Biror ishlab chiqarilgan nazariy dars rejasi yoki amaliy mashg'ulotlarning rejasi bormi?» degan savolga javob berishi kerak. Bundan keyin, ta'lim beruvchi ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim va ko'nikmalarini aniqlab olishi lozim.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Professional etika va etiketning kelib chiqishidagi omillarni izohlab bering.
2. Etiket tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
3. "Odob" tushunchasini ta'riflang?
4. Etiket axloqiy madaniyat sohasi sifatidagi mazmunini tushuntiring.
5. Axloq bilan etiket o'rtasidagi farq nima?
6. Etiketning zamonaviy ahamiyati qanday ko'rinishda namoyon bo'ladi?
7. Etiketning axloqiy madaniyatni shakllantirishdagi ahamiyati nimada?
8. Sayyohlarga va aholigaxizmat ko'rsatishda ovqatlanish korxonalari xodimlariga qanday etika qoidalariga rioya qilish tavsiya etiladi?
9. Fanning maqsad va vazifalari nimalardan iborat?
10. Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash milliy dasturi‖ qachon qabul qilingan?
11. Kasb ta'limi metodikasi fanining boshqa fanlar bilan qanday aloqasi bor?
12. Pedagogik qonuniyatlar nimalardan iborat?

13. Keng malakali ishchi-mutaxassisning modeli qanday ko'rinishda bo'ladi?

14. Kasb ta'limining mazmun-mohiyati nimalardan iborat?

15. Kasb ta'limiga bo'lgan e'tiborning ortishini nimalar bilan izohlash mumkin?

16. Kasbiy pedagogikaning asosiy tushunchalarini aytib bering?

17. Hozirgi kunda O'zbekistonda ta'lim islohatlari qanday o'zgarishlarga ega?

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.

2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 tomlik. T.2. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998.

3. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.

4. Aliqulov H. Falsafiy meros va ma'naviy-axloqiy fikr rivoji. – Toshkent: Falsafa va huquq instituti, 2009.

5. Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy. Kimiyoi saodat. Ruh haqiqati. – Toshkent: Adolat, 2005.

6. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: O'qituvchi. Matbaa ijodiy uyushmasi, 2006.

7. Komilov N. Komil inson haqida to'rt risola. – Toshkent: Ma'naviyat, 1997.

8. Muhammadiyev N.E. Ichki ishlar idoralari xodimlarining kasb etikasi va estetik madaniyati - Toshkent, 2005.

9. Yusupov E. Inson kamolotining ma'naviy asoslari. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 1998.

10. Richerson and Boyd, «The Evolution of Human Ultra Sociality», In press: I. Eibl-Eibisfeldt and F. Salter, eds. Ideology, VVarfare, and Indoctrinability, 1997.

11. Akademik litsey va kasb-hunar maktablari uchun meyoriy-huquqiy hujjatlar to'plami. O'MKHTM. - Toshkent, 2005.

12. Olimov Q.T. va boshqalar. Ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2004.

13. Mirsaidov K.J. Ixtisoslik fanlarini o'qitish va ishlab chiqarish ta'limi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.

**TARQATMA MATERIALLAR:**

*Axloqiy madaniyat*

*Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o'z ichiga olgan tuzilmadir.*

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri- ***muomala odobi.*** U mohiyatan o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmona yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi.

Muomala odobiga «siz» va «sen»ning o'z o'rnida qo'llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, uchinchi shaxs ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar bo'lganida ularga nisban birlikdagi u olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi «ular» yoki «u kishi» shaklini qo'llash odobdan: M., «Otam shunday dedi» emas, «Otam shunday dedilar», «U kishi shuni hohlayaptilar»

## Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri-*muomala odobi*

- Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi u siz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.




**Kasbiy odobning axloqiy ma'naviy bilan uyg 'unligi**

Yuksak maxorat

Adolat

Kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy xayotida o'zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma'naviy xodisa

ma'suliyat burch

**KASBIY AXLOQNING KELIB CHIQISHI**

Umumiy qabul qilingan nuqtai nazarga ko'ra kasbiy axloq - bu kasb axloqining asosiy printsipi. Ushbu hodisalarning shakllanishi qanday sodir bo'lganligi juda qiziq.

Bir qator kasblar uchun kasbiy axloqni va kasbiy axloqni shakllantirish (an'anaviy kichik ko'rinish haqida keyinroq muhokama qilinadi) juda uzoq tarixga ega. Tasavvur qiling, allaqachon qadimgi zamonda bo'lgan istisno kasblar o'zlarining kasbiy axloq qoidalari bilan maqtanishlari mumkin edi.

Masalan, qadimgi yunon ibodatxonalari ostida asklepiyadalarning tibbiyot maktablari mavjud bo'lgan va faol rivojlangan. Siz hech qachon "Asclepiades" tushunchasini uchratgansiz. Bu qadimgi yunon shifobaxsh Asklepiy xudosi nomidan kelib chiqqan. Aynan shu ta'lim muassasalari tufayli yunon tibbiyoti yuqori darajada rivojlanib, mukammallikka yaqinlashdi (o'sha davrlar uchun). Qiziqarli fakt, Asklepiadalar maktabini tugatgan davolovchilarning professional qasamyod qilishlari bilan bog'liq. Hech narsaga o'xshamaydimi? Ha, aynan mana shu matn keyinchalik biz bugungi Gippokrat qasamyodi deb biladigan versiyaga qo'shildi.

**Kasbdagi axloqning ta'rifi**

- Bu kabi professional axloq tizimi juda qadimdan shakllana boshlaganini ko'ramiz. Muammoni mutlaqo tushunish va tahlil qilish uchun ushbu kontseptsiyaning batafsil ta'rifi berilishi kerak.
- Kasbiy etika deganda uning kasbiy faoliyati va burchining xususiyatlarini, shuningdek, o'ziga xos vaziyatni hisobga olgan holda mutaxassislar (shu jumladan aniq bir xodim) uchun axloqiy qoidalar, xatti-harakatlar me'yorlari va tamoyillari tizimi tushuniladi.

## KASBDA AXLOQNI TASNIFLASH

- Kasbiy axloqning mazmuni (har qanday kasbda) umumiy va o'ziga xos xususiyatlardan iborat ekanligi odatda qabul qilinadi. Umumiylik, avvalambor, belgilangan umuminsoniy axloqiy me'yorlarga asoslanadi. Asosiy printsiplar quyidagilarni taklif qiladi:
- kasbda sharaf va burchni maxsus, eksklyuziv idrok etish va tushunish;
- professional birdamlik;
- huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning maxsus shakli, bu faoliyat turi va ushbu faoliyat yo'naltirilganligi bilan bog'liq.
- Xususan, o'z navbatida, ma'lum bir kasbning mazmunining o'ziga xos shartlariga, o'ziga xos xususiyatlariga asoslanadi. Xususiy printsiplar, asosan, barcha mutaxassislarga zaruriy talablarni belgilaydigan axloq kodekslarida ifodalanadi.

## AXLOQ KODEKSINING FUNKTSIYALARI

- Odob-axloq qoidalari an'anaviy ravishda ushbu kodni ishlab chiqarishga mo'ljallangan kasb tashkilotlari tomonidan ishlab chiqiladi. Ularning mazmuni ushbu ijtimoiy funktsiyalarni sanab o'tishga asoslangan bo'lib, tashkilot o'zi mavjud bo'lgan narsalarni saqlab qolish va saqlashga qaratilgan. Kodekslar, shu bilan birga, jamiyatni ulardagi funktsiyalar eng yuqori axloqiy tamoyillar va me'yorlarga muvofiq ravishda bajarilishini kafolatlaydi.
- Axloqiy nuqtai nazardan, professional axloq qoidalari ikkita asosiy funktsiyani bajaradi:
  - jamiyat uchun sifat kafolati sifatida harakat qilish;
  - ma'lum bir soha mutaxassislari faoliyati doirasida o'rnatilgan standartlar va ushbu kodlar ishlab chiqilgan kasblar uchun cheklovlar haqida ma'lumot bilan tanishishga imkon beradi.

## 2-MAVZU. SHARQ MUTAFFAKIRLARINING TA’LIM-TARBIYA VA KASB-HUNAR HAQIDAGI QARASHLARI

**Reja:**

**1. Sharq mutafakkirlari (Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Davoniy, Navoiy, Avloniy va boshqalar) barkamol shaxs tarbiyasi haqida.**

**2. Sharq mutafakkirlari asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalari.**

**3. Oilada komil inson tarbiyasi.**

***Tayanch atamalar:*** *ta’lim-tarbiya, kasb-hunar, komil inson, ma’naviy barkamol inson, ma’naviy madaniyat, umuminsoniy qadriyat, inson kamoloti.*

### SHARQ MUTAFAKKIRLARI (FOROBIY, BERUNIY, IBN SINO, JOMIY, DAVONIY, NAVOIY, AVLONIY VA BOSHQALAR) BARKAMOL SHAXS TARBIYASI HAQIDA

Pedagog olimlarning Sharq mutafakkirlari ijodida ta’lim-tarbiya, shaxs ma’naviy kamoloti masalalariga bag’ishlangan ilmiy tadqiqotlari pedagogika fanining rivojida muhim o’rni bor. Markaziy Osiyo allomalarining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma’naviy qadriyatlarga bo’lgan e’tibor asosiy o’rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo’la oladigan hodisadir.

Sharq Birinchi va Ikkinchi Renessansi deb nomlangan IX-XV asr Markaziy Osiyo ma’naviy madaniyatining eng yuksaklikka ko’tarilgan, boy davri bo’lib, bu davrda ilm-fanning ikki yo’nalishi: birinchisi inson uchun tabiiy fanlardirki, u aql ko’zi bilan egallanadi, ikkinchisi bu fanlar inson tomonidan taqlid qilib o’rganiladi

Yaqin va O’rta Sharq xalqlari moddiy va ma’naviy madaniyatining qo’shilishi asosida hozirgi Markaziy Osiyo madaniyatining mahsus bir-biridan ajratilmagan ko’p qirrali qorishiq turi vujudga keldi. Bunday ko’p qirrali ilmiy qadriyatlarning maydonga kelishida Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy (780-850), Ahmad al-Farg’oniy (247-861), Ahmad ibn Abdulloh al – Marvaziy (IX asr), Abu Nasr Forobiy

(870-950), Abu Ali Ibn Sino (980-1037), Abu Rayhon Beruniy (975-1050) va boshqalarning xizmatlari katta bo'lgan.

Demak, bu davr o'zining har tomonlama yuksakligi, yaratgan boy madaniy merosi, milliy qadriyatlari, jahonga mashhur allomalarning etishib chiqqanligi bilan qimmatlidir. Sharq mutafakkirlarining ma'naviy madaniyat sohasiga qo'shgan ulushlari nihoyatda boy bo'lib, mazmunan qadriyatlarning barcha yo'nalishlarini qamrab olganligi bilan xarakterlidir. Ular:

- aqliy madaniyatni shakllantirish bilan bog'langan qadriyatlar;
- ma'naviy-ruhiy qadriyatlar;
- ijtimoiy-siyosiy qadriyatlar;
- badiiy-nafis qadriyatlar;
- diniy qadriyatlar tarzida o'z ifodasini topgan.

Inson axloqi aqlga, hulq va hatti-harakati esa ilm-fanni o'rganishga va ma'rifatga asoslangandagina ma'naviy kamolotga erishadi. Mutafakkir allomalarning fikricha, insonparvarlik g'oyalarining amalga oshishi, ma'naviy barkamollikka erishuv, chuqur bilim olish va ma'rifatli bo'lishga bog'liq . Shuning uchun ham ular ilmiylikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug'laydilar, jamiyatning barcha a'zolarini ilm egallashga chaqiradilar, ilmning inson ma'naviy hayotda tutgan o'rnini yuqori baholaydilar.

Forobiy pedagogik qarashlarida ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limotini o'rganishda inson hislatlari to'g'risidagi falsafiy fikrlari nihoyat muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy o'zining falsafiy qarashlarida olamning tuzilishi, ruhiyati, moddiy va ma'naviy olamni o'rganishga ahamiyat beradi.

Forobiy ta'limotiga, inson barcha boshqa jismlarda bo'lmagan qobiliyat va kuchga-ruhiy quvvatga - aql va so'zlash qobiliyatiga ega, bu kuch uni tabiatdagi boshqa jismlardan ajratib turadi va uning ustidan boshqarish imkoniyatini berganligi namoyon bo'ladi.

Forobiy dunyoqarashida narsa hodisalarni bilish, inson aqlini bilim bilan boyitish uni ilmli, ma'rifatli qilish uchun xizmat qiluvchi ruhiy jarayonlarga alohida e'tibor beradi.

Forobiy o’zining “Baht-saodatga erishuv haqida”, “Fanlarning tasnifi”, “Falsafani o’rganishdan oldin nimani bilish kerakligi to’g’risida”, “Ilmlar va san’atlar fazilati” kabi ko’plab risolalarida insonning ma’naviy rivojlanishi ilm-ma’rifatga bog’liqligini ta’kidlaydi.

Abu Rayhon Beruniy bilim umuminsoniy qadriyatlarni o’rganishning kaliti ekanligini alohida ta’kidlaydi. Ilm-ma’rifatli odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoq bo’ladi. “Ilmning foydasi ochko’zlik bilan oltin-kumush to’plash uchun bo’lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo’lishdir”.

Umuman, Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning buyuk homiysi va muhlisi sifatida mamlakatning obodonchiligi ilm-fanning gullashida, odamning baxti esa uning bilim va ma’rifatida deb bildi. Beruniy yaratgan asarlarida u ta’lim-tarbiyaga doir she’r va hikmatlardan misollar keltirib, ular orqali har bir inson o’z qalbining farmoyishiga ko’ra xayr-ezgulikka intilishi, sun’iy obro’, shuhrat qozonish uchun muruvvat va sharofat ko’rsatmasligi kerakligini ta’kidlaydi.

Yusuf Hos Hojibning “Qutadg’u bilig” asarida aqliy, axloqiy, mehnat, jismoniy va nafosat tarbiyasiga doir fikrlari katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. U insonni ulug’laydi. Uning fikricha, insonning ulug’ligi aql-idroki, so’zlash qobiliyati, bilimi, o’quvi, hunarga egaligidadir.

Adib o’quv va bilimni farqlaydi: o’quv tug’ma ravishda inson ruhiyatida mavjuddir, bilim esa o’qish-o’rganish va mehnat tufayli egallanadi. Agar ularning har ikkisi o’zaro birlashsa, insonning qadri ortadi:

Zakovat qayerda bo’lsa, ulug’lik bo’ladi,
Bilim kimda bo’lsa, buyuklik oladi.
Zakovatli uqadi, bilimli biladi,
Bilimli, zakovatli tilakka etadi.

Yusuf Hos Hojib ta’lim va tarbiyaning uzviy bog’liq holda bo’lishini tavsiya etadi, o’g’il bolalarning bir necha san’at turlarini va hunarlarni tugal o’rganmog’i lozimligini ta’kidlaydi, bu - ularning kelajak hayotlari, jamiyat rivoji uchun zarurligini aytadi.

Alloma farzandlarga turli bilim va hunarlar o'rgatilmog'i kerakligini aytib, ularni go'zal axloqli qilib, voyaga etkazishni ota-onalarga maslahat beradi.

Yusuf Hos Hojib "Qutadg'u bilig" dostonida til odobi, rostgo'ylik, poklik, kamtarlik sevgi va vafo, muruvvat, sabr-toqat kabi fazilatlar hususida qilgan Hikmatli pandu-nasihatlari bilan kishilarni, yoshlarni har bir ishda aql-idrokli, o'zgalarga g'amxo'r va mushfiq bo'lishi, har bir ishni o'z o'rni va o'z vaqtida ado etishga da'vat etadi. Bir so'z bilan aytganda, bugungi davr talabiga hamohang ravishda insonni komillikka hidoyat qiladi.

Abu Ali ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy-pedagogik asosida yoritib berishga harakat qiladi. U ayniqsa, oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib: "Bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiyalashi kerak", deb maslahat beradi.

Al-Xorazmiy insonning hulq-atvori, hatti-harakati mantiqiy fikrlashga asoslangandagina mukammal shakllanishi mumkin, degan g'oyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy nazdida ta'ma aralashgan yaxshilik hikmat, himmat insonning ma'naviy hissiyotiga salbiy ta'sir etuvchi holatdir. Ta'masiz yaxshilik qilish bu sahiylikdir. Odamgarchilikning eng yuksak belgisi sahiylik va himmatdir. Yuksak insoniylikning o'lchovi bu vijdon hisoblanadi. Shu boisdan, Sharq mutafakkirlari vijdon pokligi, oila, ota-ona, xalq, farzand burchi haqida olg'a surilgan g'oyalarning asosini insonparvarlik tashkil etadi.

Chunonchi, ota-ona farzandlarning o'zaro munosabati, burchi ma'naviy qadriyatlarning oltin kalitidir. Alisher Navoiy bu haqda quyidagicha fikrlaydi:

"Boshni fido ayla ato qoshig'a,
Jismni qil sadqa ano boshig'a.
Tun-kuningga aylagali nur fosh,
Birini oy angla, birisin quyosh".

Sharq mutafakkirlari didaktik xarakterdagi ilmiy asarlarida ma'naviy madaniyatni shakllantirishning shakl, usul va vositalarini qorishiq holda bayon etdilar. Chunki o'rta asr pedagogik fikrlar nazariyasi va amaliyoti tarbiyaning lisoniy shakl va usullariga tayangan. Ta'lim-tarbiya berishning vositasi esa amaliyot bo'lib

hisoblangan. Bu qoida ayniqsa, Abu Ali ibn Sinoning tibbiy risolalarida, urjuzalarida, “Donishnoma” asarida, Kaykovusning “Qobusnoma”, Yusuf Hos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Sa’diyning “Guliston”, “Bo’ston”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror”, “Mahbub ul-qulub” asarlariga bevosita taalluqlidir.

Mutafakkir olimlar yuksak ma’naviy fazilatlarni umuminsoniy qadriyatlar doirasida talqin etdilar, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ma’naviy omillarni yuksak baholadilar. Ular “Fozil jamoa”, “Fozil shahar”, komil insonni shakllantirishning asosi ma’naviy omillarga bog’liq degan g’oyani ilgari surdilar.

Hulosa qilib aytganda, ta’lim-tarbiya jarayonida o’tmish merosimiz Sharq allomalarining bebaho asarlaridan to’g’ri foydalana olish, nafaqat milliy qadriyatlarimiz va ma’naviyatimizni yuksaltiradi, balki komil inson shaxsini shakllantirishda ham muhim hissa qo’shadi. Chunki inson hayoti davomida qadrlanib, rivojlantirilib kelayotgan nazariy va amaliy sayqal topgan yaxshilik, adolat, do’stlik, tinchlik, tenglik, erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, ota-ona, keksalarga hurmat, iymon, e’tiqod, ustoz va shogird va boshqa umuminsoniy fazilatlar keyinchalik milliy qadriyatlarning asosiy tarkibiy qismlariga aylanib qolgan.

Tarbiya vazifalari va mazmuni shaxsning milliy va umumbashariy qadriyatlarni o’rganishi, uning intellektual (aqliy), fuqarolik, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, mehnat, iqtisodiy, ekologik, estetik tarbiyani shakllantirish bugungu kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Aqliy tarbiya – shaxsga tabiat va jamiyat taraqqiyoti to’g’risidagi bilim asoslarini berish, uning aqliy (bilish) qobiliyati, tafakkurini shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik faoliyat jarayoni bo’lib, shaxs tomonidan tabiat, jamiyat, shuningdek, inson tafakkuri haqidagi bilimlarni o’zlashtirish, unda ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Aqliy tarbiya yuksak ma’naviy va axloqiy sifatlarga ega shaxsni tarbiyalashda etakchi o’rin tutadi.

Bilimlar tizimini ongli ravishda o’zlashtirish mantiqiy fikrlash, hotira, diqqat, idrok etish, aqliy qobiliyat, mayillik va iqtidorni rivojlantirishga ko’maklashadi.

Aqliy tarbiyaning vazifalari quyidagilar sanaladi:

- shaxs tomonidan ilmiy bilimlarning muayyan hajmini o’zlashtirilishiga erishish;
- bilishga bo’lgan qiziqishlarni yuzaga keltirish;
- aqliy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish;
- bilishga bo’lgan faollikni kuchaytirish;
- mavjud bilimlarni muntazam ravishda boyitib borish, umumiy kasbiy tayyorgarlik darajasini oshirishga bo’lgan ehtiyojni rivojlantirish.
- ilmiy dunyoqarashni shakllantirish.

Hadislarida aytilganidek: «Ilmga ilm olmoq yo’li bilan erishilgaydir. Ilmu hunarni Hitoyga borib bo’lsa ham o’rganinglar. … Ilm egallang. Ilm sahroda do’st, hayot yo’llarida tayanch, yolg’iz damlarda yo’ldosh, baxtsiz daqiqalarda rahbar, qayg’uli onlarda madadkor, odamlar orasida zebu-ziynat, dushmanlarga qarshi kurashishda quroldir». Shuningdek, «Ilm olmoqqa intilish har bir muslim va muslima uchun farzdir» deyiladi.

Alisher Navoiy o’zining «Farhod va Shirin» dostonidan Farhodning aqlu-idrokli, bilimdon, hunarmand, kamtar, insonparvar, irodali va e’tiqodli bo’lganligini tasvirlaydi.

Axloqiy tarbiya muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan tartib, odob, o’zaro munosabat, muloqot va hulq-atvor qoidalari, mezonlarini talabalar ongi, hayoti, turmush tarziga singdirish maqsadida tashkil etiluvchi pedagogik jarayondir. Axloqiy tarbiya ham ijtimoiy tarbiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Axloqiy tarbiya asosini shaxsni ijtimoiy axloqiy meyyorlardan xabardor etish tashkil qiladi.

Axloq (lot. «moralis» – hulq-atvor ma’nosini bildiradi) ijtimoiy ong shakllaridan biri hisoblanib, ijtimoiy munosabatlar hamda shaxs hatti-harakatini tartibga soluvchi, muayyan jamiyat tomonidan tan olingan va rioya qilinishi zarur bo’lgan tartib, odob, o’zaro munosabat, muloqot va hulq-atvor qoidalari, mezonlarining majmui sifatida aks etadi.

Qur’oni Karim va hadislardagi axloqqa oid ibratli maslahatlar, hikoyatlar asrlar davomida tarkib topgan milliy urf-odatlar, an’ana va qadriyatlar mazmunida o’z

ifodasiga ega bo'lgan. Sharq mutafakkirlari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ahma

d al-Farg'oniy, Imom Ismoil al-Buhoriy, Ahmad Yassaviy, Bahovuddin Nahshband, Amir Temur, Muhammad Tarag'ay Ulug'bek, Abdurahmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Alisher Navoy, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalarning axloq haqidagi qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: «Kattalarni hurmat qilish, oila va farzandlar to'g'risida g'amxo'rlik qilish, ochiq ko'ngillik, millatidan qat'iy nazar odamlarga hayrihohlik bilan munosabatda bo'lish va o'zaro yordam tuyg'usi – kishilar o'rtasidagi munosabatlarning meyyori hisoblanadi. O'z Vataniga mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlariga, ma'rifatparvarlarga nisbatan alohida hurmat-ehtirom O'zbekiston aholisiga hos fazilatlardir».

Imom Ismoil al-Buhoriy «Axloqning yaxshi bo'lishi, taomning pokizaligi, rostlik va omonatga hiyonat qilmaslik – mana shu to'rt hislatni Olloh Taolo senga bergan bo'lsa, dunyoviy ishlardan chetda qolgan bo'lsang ham, zarari yo'qdir», degan edi.

Demak, axloqiy tarbiya barkamol inson tarbiyasida etakchi bo'g'in, insoniy sifatlarni yaratuvchi, shakllantiruvchi, mukammalikka erishtiruvchi vosita hisoblanadi. Abdulla Avloniy ta'kidlaganidek, axloqiy tarbiya insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir omildir. Yaxshi hulqlarning yaxshiligi, yomon hulqlarning yomonligini dadil va misollar bilan bayon qiladurg'on kitobdir.

Huddi shu ma'noda ahloh kishining hulq-atvori, e'tiqod-iymoni, yurishturishi, fikr-mulohazalari, mushohada va muloqotida namoyon bo'ladi. Axloqli inson o'zini qattiq hurmat qiladi, unda ichki intizom kuchli bo'ladi. Suhbatdoshning ko'ngliga qarab gapiradi, kishining dilini og'ritmaydi, muloqot odobiga rioya qiladi.

Yoshlarni aqliy zakovoti bilan birga jismoniy sog'lomligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadfi. Jismoniy tarbiya talabalarda jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirish, ularni aqliy va jismoniy jihatdan mehnat hamda Vatan mudofaasiga tayyorlashga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, ijtimoiy tarbiyaning ajralmas

tarkibiy qismi sifatida namoyon bo’ladi. Yuqori darajada rivojlangan ishlab chiqarishga asoslangan mavjud ijtimoiy sharoit jismonan baquvvat, ishlab chiqarish jarayonida yuqori unum bilan ishlashga qodir, qiyinchiliklardan cho’chimaydigan, shuningdek, vatan himoyasiga doimo tayyor bo’lgan yosh avlodni tarbiyalash zarurligini ko’rsatmoqda.

Jismoniy tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarning sog’lig’ini mustahkamlash, ularni to’g’ri jismoniy rivojlantirish;
- talabalarning aqliy va jismoniy ish qobiliyatlarini oshirish;
- ularning tabiiy harakatchanligini rivojlantirish va mukammalashtirish;
- talabalarni harakatning yangi turlariga o’rgatish;
- ularning irodaviy sifatlari (kuch, chaqqonlik, uquvlilik va boshqalar)ni rivojlantirish;
- talabalarning gigienik ko’nikmalarni rivojlantirish;
- ularda ma’naviy-ahlohiy sifatlar (dadillik, qat’iyatlik, intizomlilik, mas’uliyatlik, jamoa bilan bo’lish)ni tarbiyalash;
- talabalarda jismoniy tarbiya va sport bilan doimiy va muntazam shug’ullanishga bo’lgan ehtiyojni shakllantirish;
- talabalarning sog’lom va baquvvat bo’lishlariga erishish.

Jismoniy tarbiyani bolalarning maktabgacha yoshidan boshlab muntazam tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Jismoniy tarbiya ta’lim muassasalarida o’qitilishi yo’lga qo’yilgan fanlardan biri sanaladi. Sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda tashkil etiluvchi jismoniy mashg’ulotlar jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini ta’minlovchi qo’shimcha tadbir hisoblanadi. Jismoniy tarbiya tarbiyaning boshqa tarkibiy qismlari bilan mustahkam bog’langan hamda ular bilan birgalikda har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirish vazifalarini hal etadi.

Demak, yuqorida ta’kidlanganidek, yoshlarni aqliy jihatdan kamol toptirishning birinchi sharti ularni ilm olishga da’vat etishdir.

Ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi mehnat tarbiyasi sanaladi. Mehnat tarbiyasi shaxsga mehnatning mohiyatini chuqur anglatish, ularda mehnatga ongli munosabat, shuningdek, muayyan ijtimoiy-foydali harakat yoki

kasbiy ko’nikma va malakalarni shakllantirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayondir. asosi, hayot manbai, umr mazmuni hisoblanadi. Mehnat tarbiyasidan ko’zlangan maqsad, avvalo, talabalarga mehnatning mohiyati, mazmunini chuqur anglatishdan iboratdir.

Mehnat ijtimoiy hayotning muhim asosi, shaxsda ma’naviy-axloqiy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning kafolatidir. Mehnat qilayotgan kishi o’zi bajarayotgan ishning natijalarini ko’rsa, his qilsa, o’sha natijalardan qoniqsa, rohatlansagina mehnat tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. halol mehnat – kishi hayotining mazmunini tashkil qiladi.

Xalqimizning «Mehnat – mehnatning tagi rohat», «Bugungi ishni ertaga qoldirma», «Daryo suvini bahor toshirar, inson qadrini mehnat oshirar», «Ishlagan tishlaydi, ishlamagan kishnaydi», «Mehnatdan qo’rqma, minnatdan qo’rq», «Odamning husni mehnat» kabi maqollar bejiz yaratilmagan. Buyuk alloma Bahouddin Nahshbandning «Dil ba yoru, dast ba kor» degan hikmati bugungi kunda ham o’z ahamiyatini yo’qotmagan. Allomaning fikricha, «Agar kishi hunarli bo’lsa, u bilimini haqiqatga bag’ishlaydi, o’z mehnati bilan kun kechiradi, bordi-yu kasbi bo’lmasa, bilimini kun kechirishga sarflaydi, halollikni unutadi».

Ta’kidlash lozimki, mehnatsiz kelgan boylik inson ruhiyatini buzadi, har qanday muqaddas narsani qadrsizlantiradi. Mehnat jarayonida kishilarda do’stlik, birodarlik, jamoa bo’lib ishlash kabi barcha tarbiyaviy sifatlar shakllanadi. Eng muhimi, mehnat muhtojlik, bekorchilik, axloqiy jihatdan buzilishdan saqlaydi.

Mehnat orqali inson o’zining va o’zgalarning qadrini biladi.

Ajdodlarmiz bola tarbiyasida, eng avvalo, uni mehnatga o’rgatish, kasb-hunarga qiziqtirishga alohida e’tibor berishgan. O’zlari farzandlariga mehvarliklari bilan namuna bo’lganlar. O’zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek: «Har bir insonning, ayniqsa, endigina hayotga qadam qo’yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular o’rtaga qo’yilgan maqsadlarga erishish o’zlariga bog’liq ekanligini, ya’ni, bu narsa ularning sobitqadam, g’ayrat-shijoatiga, to’la-to’kis fidokorliliga va cheksiz mehnatsevarligiga bog’liq ekanligini anglab etishlari kerak. Huddi shu narsa davlatimiz va xalqimizning

ravnaq topishining asosiy shartidir».

Bu vazifalarni amalga oshirishda ota-ona, ustoz va murabbiy, keng jamoatchilik o’z mehnatini ayamasliklari, ayniqsa, maktab talabalarida mehnatga va mehnat ahliga to’g’ri munosabatni shakllantirishdagi mas’uliyatni chuqur his qilishlari kerak.

**Nafosat tarbiyasi** (estetik tarbiya: lot. «estezio» – «go’zallikni his etaman» ma’nosini bildiradi) shaxsni ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush turmush go’zalliklarini anglash, idrok etish, to’g’ri tushunishni o’rgantish, ularning estetik didini o’stirish, ularda go’zallikka muhabbat uyg’otish, shuningdek, go’zallikni yaratish qobiliyatlarini tarbiyalash jarayoni bo’lib, ijtimoiy tarbiyaning yana bir muhim tarkibiy qismi sanaladi. Aqliy, axloqiy, mehnat tarbiyasini estetikasiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Estetik tarbiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsga ijtimoiy voqelik, tabiat va mehnat munosabatlari hamda turmush go’zalliklari va ularni anglash to’g’risidagi bilimlarni berish;
- shaxsda idrok qilish qobiliyatini tarbiyalash, unda mavjud go’zalliklarni qadrlash hissi hamda estetik didni shakllantirish, go’zallikka muhabbat uyg’otish;
- go’zallikni yaratish ehtiyojini qaror toptirish, bu boradagi qobiliyat va estetik madaniyatni shakllantirish.

Estetik tarbiya axloqiy qiyofa, ijobiy hulq-atvor meyyorlarini tarkib toptirish, ularning ijodiy qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga katta ta’sir ko’rsatadi. Ta’lim muassasalarida musiqa va tasviriy san’at darslari, adabiyot kabi fanlarning o’qitilishi estetik tarbiyani samarali yo’lga qo’yish vositasi hisoblanadi.

Estetik tarbiya bola tug’ilgandan boshlab umrining ohirigacha amalga oshiriladi. Shu sababli, u nafaqat maktabda, balki sinfdan va maktabdan tashqari sharoitlarda uyushtiriluvchi tadbirlarda, turli anjumalarda yosh avlodni go’zallik va nafosatni his etishga undovchi vositadir.

Xalqimizda, «Oq bo’lmasin, pok bo’lsin», «Pokliging – sog’lig’ing», «Sog’ yuray desang, ozoda bo’l», «Yaxshi libos tanga oroyish» kabi maqollari bilan yoshlarimizni tabiat va jamiyatdagi go’zalliklarini ko’ra bilishga, ularni qadrlashga o’rgatib kelishgan.

Estetik tarbiya faqat narsa va hodisalarning mohiyatini anglash, go’zal jihatlarini

ko’ra bilishnigina emas, balki ichki go’zallikni his qilish hislatini ham tarbiyalaydi. Insondagi hulqiy go’zallikni qadriga etishga undaydi.

Alisher Navoiy o’zining «Farhod va Shirin» dostonida Shirinni zohiriy va botiniy go’zallik sohibasi sifatida tasvirlaydi. Bilamizki, uning bu darajaga etishishda holasi Mehribonuning tarbiyaviy ta’siri katta bo’lgan. Shirin mamlakat obodonchiligi, kanal qizish, suv chiqarish kabi ishlarda ishtirok etadi va o’sha hayrli ishlarga rahbarlik qiladi.

Shirin eng og’ir damlarda ham Farxodga vafodor, sadoqatli, irodali yor bo’lishi bilan birga tadbirli murabbiya, odil va donishmand davlat arbobi, komila, oqila va fazilatli, latofatli qiz. Shirinning bu fazilatlari minglab qizlarga o’rnak bo’lib keldi va bundan keyin ham shunday bo’lib qoladi.

Estetik tarbiya tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalarini shartli ravishda quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

- talabalarga nazariy estetik bilimlarni berish;
- ularda amaliy estetik ko’nikmalarni shakllantirish.

Nazariy va amaliy estetik bilimlarni egallash asosida talabalarda quyidagi holatlar ko’zga tashlanadi:

- estetik bilimlarning tarkib topganligi;
- estetik madaniyatning tarbiyalanganligi;
- estetik va madaniy meros namunalaridan xabardor bo’lish;
- estetik tuyg’uning rivojlanganligi;
- ijtimoiy hayot, tabiat va mehnat go’zalliklarini his etishi;
- go’zallikka intilish ehtiyojining rivojlanganligi;
- estetik idealning shakllanganligi;
- fikrlash, faoliyat, hatti-harakat hamda tashqi ko’rinishda go’zal bo’lishga intilish.

Estetik faoliyatga kirishish vazifasi har bir tarbiyalanuvchining tasviriy san’at, musiqa, xoreografiya to’garaklarida faol ishtirok etishi, ijodiy birlashmalar, guruhlar, studiyalar va hokazolarda qatnashishini nazarda tutadi.

Biroq, hozirgi zamon maktablarida tashkil etilayotgan estetik tarbiya shaxsni

estetik jihatdan shakllanishini ta’minlash borasidagi mavjud talablarga javob bermayapti.

Ijtimoiy tarbiya maqsadi va vazifalarini amalga oshirish uchun tarbiya jarayonining hususiyatlarini anglab olish muhim ahamiyatga ega.

## SHARQ MUTAFAKKIRLARI ASARLARIDA BILISH HAMDA INSON AQLIY TAFAKKURI MASALALARI

Sharq mutafakkirlari o’z asarlarida bilish hamda inson aqliy tafakkuri masalalariga alohida o’rin bergan. Hususan, Abu Nasr Forobiy inson tomonidan borliqni anglanishi, tabiat sirlarini anglashida ilm-fanning rolini hal qiluvchi omil sifatida baholaydi. Allomaning fikricha, inson tanasi, miyasi, sezgi organlari u tug’ilganda mavjud bo’lgan bo’lsa, aqliy bilimi, ma’naviyati, ruhiyati, intellektual va axloqiy sifatlari, xarakteri, dini, urf-odatlari, ma’lumoti tashqi olam, ijtimoiy muhit ta’sirida, odamlar bilan tashkil etayotgan munosabatlari jarayonida shakllanadi.

Abu Nasr Forobiyning e’tiroficha, inson aqli, fikri uning ruhiy jihatdan yuksalishining mahsulidir. Inson bilimlarni o’zlashtirar ekan, borliqda tirik mavjudotning yaratilish tarixigacha bo’lgan ma’lumotlarni o’zlashtira oladi, ularni yaratadi, ilmiy jihatdan asoslaydi.

Allomaning mazkur fikrlarini davom ettirgan holda Abu Rayhon Beruniy quyidagilarni ilgari suradi: «Inson narsa va hodisalarning faqat tashqi sifati hamda hususiyatlari haqida bilim olmay, balki tafakkuri, aqli tufayli narsa va hodisalarni taqqoslaydi, bir-biri bilan solishtirib ko’radi, o’z bilimlarining chinligini aniqlaydi». Mutafakkir, shuningdek, odamlar tomonidan bilimlarni o’zlashtirilib borishi yangi bilimlarning yaratilishiga olib kelishini aytadi: «Ilmlar ko’pdir. Ular zamoni iqbolli bo’lib, turli fikr va hotiralar ularga qo’shilib borsa, ko’payadi. Odamlarning ilmlarga rag’bat qilishi, ilmlarni va ilm ahllarini hurmatlashi o’sha iqbolning belgisidir. Ayniqsa, hukmron kishilarning ilm ahlini hurmat qilishi turli ilmlarning ko’payishiga sabab bo’ladi» Abu Ali ibn Sino o’z asarlarida bilim tushunchasiga sharh berish bilan birga bilimning chuqur o’zlashtirilishi donishmandlik ekanligini alohida qayd etadi:

«Ilm narsalarning inson aqli yordami bilan o'rganilishidir. Bilim deb esa, narsalarni idrok qilishga aytiladi. Bu shundayki, inson aqli uni xato va yo'ldan toymasdan turib unga erishishi kerak bo'ladigan narSadir. Bordiyu, bu dalillar ochiq-oydin bo'lsayu, isbotlar chinakamiga bo'lsa, u holda bungay hikmat – donishmandlik deyildi».

Yusuf Hos Hojibning «Qutadg'u bilig» («Saodatga boshlovchi bilim») asari ta'bir joiz bo'lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta'minlashdagi roli, yozuvliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to'g'risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo'lish ezgu ishlar tantanasini ta'minlovchi garov bo'lib, uning yordamida hatto osmon sari yo'l ochiladi:

Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidur,

Bilim tufayli, go'yo ko'kka yo'l topiladi.

Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma haqdir. Zero, oradan to'qqiz-o'n asr vaqt o'tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo'ldi.

Bahovuddin Naqshbandiy tariqatida avliyolik kuch-quvvatini ezgulikka, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga yo'naltirish etakchi o'rin tutadi. Binobarin, ilm-ma'rifat zulm va bid'atdan forig' bo'lish yo'lidir. Alloma tomonidan ilgari surilgan «Hilvat dar anjuman», «Safar dar vatan» g'oyalari mavjud bilimlarni suhbat hamda amaliyot yordamida o'zlashtirish maqsadga muvofiqligiga ishoradir. Zero, bahs-munozaralarda, doimiy izlanishlarda hosil bo'lgan ilm puxta va mustahkam bo'ladi.

Alisher Navoiy bilimlarni izchil, uzluksiz o'zlashtirish zarurligini uqtiradi. Shuningdek, ilm o'rganish mashaqqatli yumush bo'lib, uni o'rganishda ayrim qiyinchiliklarni engib o'tishga to'g'ri kelishi, bu yo'lda chidamli, qanoatli, bardoshli bo'lish orqaligina mukammal bilimga ega bo'lish mumkinligini ta'kidlaydi.

Abdulla Avloniy esa inson aqliy kamoloti hususida to'xtalar ekan, quyidagilarni bayon etadi: «Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidir. Ilm inson uchun g'oyat muqaddas bir fazilatdur, zeroki, ilm bizga o'z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko'rsatur, zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o'tkir qilur, ilmsiz odam mevasiz daraxt kabidur». Alloma bilim insonni jaholatdan qutqarishning eng samarali vositasi

ekanligiga ham urg’u beradi: «Ilm bizni jaholat qorong’usidan qutqarur, madaniyat, ma’rifat dunyosiga chiqarur, yomon fe’llardan, buzuq ishlardan qaytarur, yaxshi hulq, odob sohibi qilur. Bugun hayotimiz, salomatligimiz, saodatimiz, sarvatimiz, maishatimiz, himmatimiz, g’ayratimiz, dunyo va ohiratimiz ilmga bog’liqdur».

Talaba dunyoqarashini shakllantirishning bir necha maqbul shakl, metod va vositalari bo’lib, ular sirasida ma’naviy-axloqiy, ijtimoiy-g’oyaviy, iqtisodiy, huquqiy, estetik va ekologik mavzularda tashkil etiluvchi suhbatlar, bahs-munozaralar, ma’ruzalar, muammoli vaziyatlarni yaratish asosida talabalarni fikrlashga undovchi amaliy treninglar, debatlar, mustaqil ishlar, shuningdek, ishchanlik o’yinlari yanada samarali sanaladi.

Mustaqil ishlarni tashkil etish, hususan, muayyan mavzu asosida talabalarni kichik ilmiy izlanishlarni olib borishga yo’llash ularning dunyoqarashlarini yanada boyib borishida poydevor bo’lib hizmat qiladi. O’smir hamda o’spirinlarni ma’lum nazariya yoki ta’limotlarning g’oyalariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirish, metodologik mohiyatini ochib berish, shaxsiy fikrlarini bayon etishda asosli dalillarga tayangan holda ish ko’rishga undash ham o’zining ijobiy natijalarini beradi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining izchil, uzluksiz, tizimli hamda aniq ijtimoiy maqsad asosida tashkil etilishi, mazkur jarayonda fanlararo aloqadorlik, shuningdek, dunyoqarashni shakllantirishda samarali sanaluvchi barcha mavjud omillarning birligiga tayangan holda ish ko’rish ko’zlangan maqsadga erishishning kafolatidir. Mazkur holat ma’lum ijtimoiy voqea-hodisalar mohiyatini turli nuqtai nazardan baholash, ularning rivojini ko’ra bilish, bir holatdan ikkinchi holatga o’tishini kuzatish, ularning o’zaro bog’liqligi va aloqadorligi, bir-birini taqozo etishini tushuna olish imkonini beradi.

## OILADA KOMIL INSON TARBIYASI

Axloq kishilarning hulq-atvor normalari va qoidalarini, ularning o’z-o’ziga boshqa kishilarga, mehnatga, jamiyatga munosabati kabi axloqiy tushunchalarni o’z ichiga oluvchi ijtimoiy ongning shakllaridan biridir. Axloq tarixiy hususiyatga ega, chunki u kishilik jamiyatida allomalar tomonidan to’plangan axloqiy tajribalar va munosabatlarni aks ettiradi. Axloq ilmiy yaxshilik bilan yomonlik o’rtasidagi

muammolar haqida bahs yuritib, insonlarning kamolatga erishish yo'lini yoritib boradi. Har bir inson bir olam bo'lgani kabi uning axloq odobi ham juda murakkab olamdir. Chunki shaxsning ichki va tashqi olamini o'rganish, bilish, tahlil qilish g'oyatda murakkab, bu ruhiyat bilan bog'liq holatdir. Axloqli, odobli komil insonda odamiylikning eng yaxshi hislatlari: mehr-muhabbat, rahm-shavqat, adolatu-diyonat, hayoyu-iffat, imon-e'tiqod kabilar mujassam bo'ladi, ayni paytda shu hislatlarning aksi - beburd, axloqsiz kimsalar fe'lida ko'rinadi. Har bir xalqning nufuzi va obro'-shuhrati kishilarning axloq-odobi, yaxshi hislat fazilatlari bilan belgilanadi.

Qadimgi yunon faylasuflari Platon va Arastu bola tarbiyasini jamiyat o'z eitiyoriga olishi, tarbiya jarayonidagi barcha zarur ishlarni davlat bajarishi lozim degan g'oyani ilgari surgan edilar. Ular o'z fikrlarini farzand tarbiyasi jamiyat ma'nfaatlari bilan bog'liq deb isbotlamoqchi bo'lganlar. Shunga ko'ra bola tarbiyasi bilan asosan davlat shug'ullanishi kerak, degan g'oya ilgari surilgan. Ammo, Sharq mutafakkirlari bola tarbiyasi bilan asosan ota-ona shug'ullanishi kerak, degan xulosaga kelganlar. Bu bilan ular oilaviy tarbiyaning roliga katta e'tibor berganlar.

Eramizdan avvalgi 528-529 yillar orasida buyuk mutafakkir Zardusht tomonidan yaratilgan "Avesto" kitobida ham ta'lim-tarbiyaga, axloq-odobga oid qator s'oya va qarashlarni ko'rish mumkin. "Avesto"da ta'kidlanishicha, tarbiya hayotning tayanchi, shu boisdan har bir yoshni yaxshi o'qish va yozishga o'rgatish lozim. Uni yosh paytidanoq mehnat qilib, mehnatning tagi roxat ekanligini anglatish uchun daraxt ko'chati o'tkazishga, uy-ro'zg'or qurollari yasash, yerga ishlov berish va chorva bilan shug'ullanishga o'rgatilishi shart. Zotan, Zardusht fikricha, yaxshi va ezgu ishlar yaratish uchun kishi mehnat qilishi zarur, o'z qo'llari bilan moddiy noz-ne'matlar yaratmas ekan, u yashash lazzatini ham his qilmaydi, hayotning qadriga ham etmaydi.

Zardusht yuqoridagi fikrni davom ettirib, "Inson nafaqat mehnati tufayli o'zini va oilasini boqadi, balki unda yerga va yurtga bo'lgan muhabbati ham paydo bo'ladi. Zotan, har bir inson o'zi o'sib ulg'aygan zaminni, mamlakatni eng yaxshi va go'zal mamlakat deb tushunmog'i kerak". Uning bu fikrlaridan har bir inson faqat o'zining emas, balki farzandlarini ham mehnatsevar qilib tarbiyalashi lozim. Chunki

mehnatsevar bo'lmasdan turib, o'z yerini, o'z Vatanini seva olmasligi tabiiy.

Qur'oni Karim, hadisi Shariflarda oila, oilaviy munosabatlar va oilaviy tarbiyaga oid bir butun izchil qarashlar tizimi mavjud bo'lib, u o'z ichiga oilaning shakllanishi, rivojlanishi va mustahkamlanishiga qaratilgan barcha jihatlarni qamrab oladi. Bu qarashlar ilohiyot nuqtai nazaridan kishilarning turmush tarzlari, oilaviy munosabatlari talabidan kelib chiqqanligi uchun ham kundalik turmushga muvofiqdir. Islomda oilaviy tarbiyaning o'ziga hos hususiyatlari ham ko'rsatib o'tiladi. Bu hususiyatlar musulmonchilik talablaridan kelib chiqqan bo'lib, insonni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash haqidaga umumiy g'oya bilan bog'liq . Musulmon oilalarida kuyov va kelinning avlod-ajdodlarining kelib chiqishini o'rganish, jismoniy va ma'naviy poklikka e'tibor berish an'anaga aylangan. Islomiy ma'naviyatda bolani oilada axloqiy tarbiyalash haqidagi qarashlar insoniylikka, ezgulikka va yahshlikka da'vat etgani uchun ham umuminsoniy mazmunga egadir. Shunga ko'ra, islom musulmonlariga xos bo'lgan diniy qadriyatgina bo'lib qolmasdan, balki umuminsoniy qadriyatdir. Milliy mustaqillik natijasida dinga va diniy qadriyatlarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi va u oilada bolalarni axloqiy tarbiyalashning muhim omillaridan biriga aylanib, oilada tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Sharq mutafakkirlarining ta'lim-tarbiya, oila va oilaviy tarbiya haqidagi qarashlari islom mafkurasi va uning qobig'ida shakllangan. Sharq mutafakkirlari ijodida aks etgan umuminsoniy g'oyalar islomiy ma'naviyat bilan hamohangdir.

Sharq mutafakkirlari ilmiy merosida oila va oilada farzand tarbiyasi masalalariga katta e'tibor berganlar. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Muhammad Qoshqariy, Yusuf Hos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi mutafakkirlarning qator asarlarida bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalari o'rtaga qo'yilgan va ularni hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjuddir. Uning quyidagi so'zlari anchayin ibratlidir: "Zamondan yaxshiroq ta'lim beruvchi muallimni, insondan yaxshiroq talim oladigan o'quvchini

ko’rmadim”. Uning bu so’zlaridan bir tomondan ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta’sirini anglasak, ikkinchi tomondan inson shaxsi ta’lim natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

Abu Rayhon Beruniy insonning axloqiy fazilatlarini, umuman axloqiy tushunchalarini insonning tabiati bilan bog’laydi. Inson tabiati esa avvalo oilada shakllanadi. Shunga ko’ra bola tarbiyasida ota-ona ta’siri benihoya kattadir. Beruniy tan va ruh pokligi masalasini ham o’rtaga tashlaydi. Oilada tozalik, poklik va tartiblilik mavjud ekan, u yerda ma’naviy poklik ham bo’ladi. Bu fikrlarni toza tutish bilangina cheklab bo’lmaydi, balki ko’p harakat qilishga chaqiradi. Bu harakat mehnat qilish demakdir. Uning qalb va harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to’g’risidagi g’oya bilan bog’liqdir. Bu narsa bola tarbiyasi jismoniy sog’lomlik bilan ma’naviy-axloqiy boylik o’rtasidagi o’zaro muvofiqlik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir. Beruniy ota-onalarga qarata bolaning mo’tadillikda saqlashni tavsiya etadi. Bunga asosan bolani qattiq g’azablanishdan, qo’rqish va hafalikdan, uyqusizlikdan saqlash orqali erishilishini aytib, ularni hohlagan va foydali narsasini topib berishga, sevmagan narsasidan uzoqlashtirishga harakat qilish kerakligi uqtiriladi. Ota-onaning bolaga turli munosabati turlicha hulqlarni keltirib chiqaradi. Mutafakkir bola-hulq atvorining mo’tadilligi natijasida tan va ruh sog’lomligi kelib chiqishini ham ilmiy asoslab beradi.

Beruniy bola tarbiyasida irsiyat muhit va tarbiya ta’sirini birdek muhim ekanligini ta’kidlab o’tgan edi. Beruniy axloqiy tarbiyaga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondoshadi. Axloqiylik yaxshilik va yomonlik o’rtasidagi kurash natijasida namoyon bo’ladi va shakllanadi. Uning bu fikri o’z davri uchun yangi va ilmiy bashorat edi.

Oilada bola tarbiyasi masalasi Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy merosida ham muhim o’rin egallaydi. U o’zining qator asarlarida bolaning salomatligi, uning tarbiyasi haqida, eng muhimi bola ruhiyatini o’rganish borasida ko’plab qimmatbaho fikrlarni yozadi. Ularning hammasi bir butun bo’lib, muayyan pedagogik qarashlar tizimini tashkil etadi va u ma’naviy-axloqiy barkamol insonni shakllantirish haqidagi

g'oyaga borib taqaladi. Ibn Sinoning "Tadbiri al-manozil" nomli asarida katta bir bob oila va oilaviy tarbiya masalalariga bag'ishlangandir.

Ibn Sino oilada bola tarbiyasi ancha murakkab va nozik bo'lib, uni bolaning yoshligidan boshlab va izchillik bilan olib borish lozimligini uqtiradi. U ona allasining tarbiyaviy ahamiyati haqida to'xtalib, "Alla" ikki vazifani bajaradi, deydi. Birinchisi, uni tebratish orqali bolaga jismoniy orom bag'ishlanadi; ikkinchisi, beshikni bir maromda tebratishdan onaning mehri jo'sh uradi, bolasiga bo'lgan muhabbatidan onaning orzu-umidi yurak to'ridan toshib chiqadi. Bu o'ziga hos qo'shiq bolasi uchun qasidadek yangraydi va u farzandining murg'ak qalbiga singib boradi. Shu tarzda bolada o'zi ham anglolmagan holat paydo bo'ladi. U asta-sekin bu yorug' olamni anglay boshlaydi. Ana shu anglashdan o'rganish boshlanadi. Huddi shu o'rganish tarbiyalanishdir. Zotan o'rganish sezishdan kelib chiqadi. Ibn Sino ana shu holatga e'tiborini qaratib, "Yosh bolaning sezgirlik quvvati katta odamga teng keladi", degan fikrni bildiradi.

Abu Ali ibn Sino bola tarbiyasida oila boshlig'i otaning roliga alohida e'tibor beradi.

"Agar oilada – deydi u, oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda bundan yomon natijalar kelib chiqishi mumkin". Bola yaxshi yo'lga qo'yilsa, oila baxtli bo'ladi. Oilaning eng muhim vazifasi bola tarbiyasi hisoblanadi. Ota-ona kim bo'lishidan qat'iy nazar, bu vazifani ma'suliyat bilan ado etishi lozim. Ibn Sino "Tadbiri al-manozil" asarida er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, kelajak taqdirini belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligi alohida uqtiriladi.

Ibn Sino oilada bolani ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda mehnatsevarlikning roliga alohida urg'u berib, ota-onalarni farzandlariga nisbatan kasb-hunar o'rgatishga chaqiradi. Mehnatni ulug'laydi. Mehnatsiz hayot kechirishning bolaga bo'lgan salbiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

XI asrda yashab ijod etgan mutafakkir Yusuf Hos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" asarida bola tarbiyasi haqida to'xtalib, shunday yozadi: "Farzand qanchalik

bilimli, aqlli-hushli bo’lsa ota-onasining yuzi shunchalik yorug’ bo’ladi”. U bola tarbiyasida otaning ma’suliyatiga alohida e’tibor beradi. “Kimning o’g’il-qizi erka bo’lsa, deb yozadi u unga shu kishining o’zi mungli bo’lib yiqlaydi. Ota bolani kichikligida bebosh qilib qo’ysa bolada gunoh yo’q, barcha jafo otaning o’zida; o’g’il-qizning hulq-atvori yaramas bo’lsa, bunday ishni kim qilhganini aniqlash lozim. Ota bolalarini nazorat qilib, turli hunarlarni o’rgatsa, ular ulg’aygach, o’g’il-qizim bor deb sevinadi; o’g’il-qizga hunar va bilim o’rgatish kerak, toki bu hunar bilan ularning fe’l-atvorlari go’zal bo’lsin”. Yusuf Hos Hojib o’z asarida shunday fikrlarni o’rtaga tashlaydiki, ular bola tarbiyasi uchun madhiyadek yangraydi.

Yusuf Hos Hojib bolalar tarbiyasini juda murakkab jarayon deb tushunadi. U beldan madorni, tandan quvvatni, ko’zdan nurni, dildan oromni talab qiladi.

Uning ta’kidlashicha, agar insonning o’zida go’zal fazilatlar bo’lsa, ularni boshqalarga o’rgatishi lozim. Lekin odob-axloq, rasm-rusum odat va irodani hosil qilish uchun zo’r kuch va harakat kerak bo’ladi. Bu narsa ta’lim tarbiya natijasida paydo bo’ladi. Uning bu tarzdagi pedagogik qarashlari bitta asosiy masalaga borib taqaladi. Bu barkamol inson masalasidir. Inson, uning mohiyati, jamiyatda tutgan o’rni, ijtimoiy vazifasi mutafakkir tomonidan turli jihatlarda tahlil qilinadi. Odam bolasi bu yorug’ olamda ezgulik qilish uchun yaratilgan. Shunga ko’ra uni tarbiyalashdan maqsad uning ongiga odamlar uchun yaxshilik qilish tuyg’usini singdirishdan iborat. Bu olijanob vazifani bajarish esa ota-onaning zimmasidadir.

Sharqda keng tarqalgan pandnoma tarzida yozilgan mashhur asarlardan biri Kaykovusning “Qobusnoma”sidir. Bu asar Sharq pedagogik fikr taraqqiyotida muhim o’rinni egallaydi va qanchadan-qancha avlodlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda o’z hissasini qo’shib kelmoqda. “Qobusnoma” falsafiy didaktik asar bo’lib, shaxs shakllanishining barcha tomonlarini o’z ichiga oladi. Uning “Farzand parvarish qilmoq zikrida” degan bobi bevosita oiladagi bola tarbiyasiga bag’ishlanadi.

“Qobusnoma”da ota-onaning qator vazifalari sanab o’tiladi. Ular quyidagilardan iborat:

- bolaga yaxshi ism qo’yish;

- ➢ to'y-tomosha qilib, sunnat to'y o'tkazish;
- ➢ o'q ish – yozishni o'rgatib, kasb – hunar va ilmli qilish;
- ➢ harbiylar ahlidan bo'lsa, sipohiylikni o'rgatish.

Kaykovus bola tarbiyasida talabchanlik bilan mehribonlikni birga olib borish lozimligini ta'kidlaydi. "Yosh bola ilm bilan odobni tayoq bilan o'rganur, o'z ihtiyori bilan o'rganmas. Ammo farzand beadab bo'lsa va sening ul sababdan qahring kelsa, o'z qo'ling bilan urmagil, muallimlarning tayoqi bilan qo'rqitgil.

Bolalarga muallimlar adab bersinlar, toki sendan o'g'lingni ko'nglida gina qolmasin".

Kaykovushning "Qobusnoma" asari bugungi kunda ham axloqiy qadriyat sifatida yosh avlodni ma'naviy axloqiy ruhda tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Oilada bola tarbiyasi masalasi buyuk mutafakkir shoir Alisher Navoiy merosida ham munosib o'rinni egallaydi. Uning fikricha, jamiyatning etukligi, uning taqdiri va kelajak yoshlar kamoloti bilan bog'liqdir, shunga ko'ra bola tarbiyasi ota-onalar oldida turgan olijanob vazifadir, deydi.

Alisher Navoiy ota-onalarning yaxshi sifatlarini ulug'laydi. Bunday sifatlarning ularda jamuljam bo'lishi bola tarbiyasida muhim rol o'ynashini ko'rsatib o'tadi.

Masalan, Alisher Navoiyning ayollar haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir: "Yaxshi xotin, deydi Navoiy – oilaning davlati va baxti, uy egasining hotirjam va osoyishtaligi, undan, husnli bo'lsa – ko'ngil oziqi, hushmuomala bo'lsa jon oziqidir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi. U beandisha bo'lsa, ko'ngil undan ozor chekadi, yomonlik ahxtaruvchi bo'lsa, undan ruh azoblanadi. Agar mayxo'r bo'lsa, uy obodligi yo'qoladi, aqlsiz bo'lsa, oila rasvo bo'ladi".

Alisher Navoiy oiladagi ayrim illatlarni va o'zaro kelishmovchiliklarni bola tarbiyasiga salbiy ta'siri va uning buzilishiga sabab bo'luvchi asosiy omillar haqida ham yozadi. Yaxshi va yomon hulqlar va ularning kelib chiqishi sabablarining ko'rsatib beradi. Bolada paydo bo'ladigan yomon hulqlarni oldi olinmasa, bora-bora illatga aylanadi, - deb uqtiradi.

Abu Nasr Forobiy bilimidan ma'rifatli yetuk odamning obrazini tasvirlar ekan,

bunday deydi: «Har kimki ilm xikmatni o'rganmagan desa, uni yoshligidan boshlasin, sog' – salomatligi yaxshi bo'lsin, yaxshi axloq va odobi bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlangan bo'lsin, barcha qonun – qoidalarni bilsin, bilimdan va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol – dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimga ega bo'lsin».

Bu fikrlardan Abu Nasr Forobiyning ta'lim – tarbiyada yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda xususan, aqliy – axloqiy tarbiyada aloxida e'tibor berganligi ko'rinib turibdi, uning e'tiqodicha, bilim, ma'rifat, albatta yaxshi axloq bilan bezatmog'i lozim, aks holda kutilgan maqsadga erishilmaydi, bola yetuk bo'lib etishmaydi.

Ibn Sino bola tarbiya va tarbiya usullari haqida qimmatli fikrlarini bildirgan. Ibn Sino bolaning axloqiy tarbiyasi haqida bildirgan fikrlarida uy – ro'zg'or tutish masalalari xususida ham so'z yuritadi. Bolani tarbiyalash oila ota – onaning asosiy maqsadi va vazifasidir. O'z kamchiliklarini tuzatishga qodir bo'lgan ota – ona tarbiyachi bo'lishi mumkin.

Axloqiy tarbiyada eng muhim vositalar bolaning nafsoniyatiga, g'ururiga tegmagan holda, yakkama – yakka suhbatga bo'lish unga nasixat qilishdir.

Ibn Sino bolada axloqiy xususiyatlarni mehnat, jismoniy aqliy tarbiya bilan uzviy birlikda shakllantirishni, uni inson qilib kamol toptirishda asosiy omil deb biladi.

Yusuf Xos Xojibning uqtirishicha, har bir kishi jamiyatga munosib bo'lib kamol bo'lmog'i kerak. Buning uchun u tug'ilgan kundan boshlab zarur tarbiyani olmog'i lozim. U qobil qizning tarbiyasi haqida fikr yuritar ekan, ularning o'zlariga xos xususiyatiga e'tibor berishni ta'kidlaydi.

Farzandlar tarbiyasi nihoyatda erta boshlanmog'i shart. Shundagina ularning noo'rin xatti – harakatlariga berilishining oldi olinadi.

Mirzo Ulug'bekning oila muhiti sog'lom avlodni etishtirish haqidagi fikrlari shundan iboratki, alloma uqtirishicha, bolaning bilim olishiga bo'lgan qiziqish, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muhim o'rinni egallaydi. Oilada ota –

onalar o’z farzandlarining haqiqiy inson bo’lib kamol topishiga aloxida e’tibor berishlari lozim.

Alisher Navoiy bolaning voyaga etishida, kamol topishida tarbiyaning kuchi va qudratiga alohida e’tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo’lib o’sishiga ishonadi. Yosh bolaning juda kichik yoshidan boshlab tarbiyalamoq zarur. Tarbiya insonga o’zida yaxshi odat va fazilatlar hosil qilishga yordam beradi. U odam shaxsi kishilar bilan munosabatda, ayniqsa kishilarning bir – birlariga bo’lgan ruxiy ma’naviy ta’sirlari natijasida tarkib topadi, deb voyaga yetkazishda asosiy omillardan biri tarbiya ekanligini uqtiradi.

Voiz Al – Koshifiyning uqtirishicha, insonni ta’lim – tarbiya orqali qayta tarbiyalash aqliy qobilyatni o’stirishi mumkin. Koshifiy o’zining pedagogik qarashlarida, bolalarda mustaqil fikrlash qobiliyatini o’stirish masalasiga alohida e’tibor beradi. Ota – onalar muallimlardan bu masalaga aloxida ahamiyat berishni talab etadi. Bu masalada oilaviy hamda tashqi muxit muhim o’rin tutadi. Bola to’g’ri so’zli, va’daga vafodor, yaxshi xulqli qilib tarbyalanishi kerak.

Jaloliddin Davoniy ota – onaning bolani tarbiyalashdagi ahamiyatiga keng to’xtalgandi. Uning fikricha, oila tarbiyasida ota ham, ona ham teng huquqli, teng ishtirok etishi bolaning yaxshi xulq – odob qoidalarini muayyan bir kasbni egallashiga ko’maklashishi, ilm – fan va kasb – hunar egallashining moddiy asosi bo’lmish oziq – ovqat, kiyim – kechak, kerakli buyum va jixozlarni yetkazib berish uchun jozibalik ko’rsatishi kerak.

Sharq mumtoz adabiyotining buyuk namoyondalaridan biri Muslixiddin Sa’diy Sheroziy Sheroz shahrida 1184 yilda tug’ildi. Sa’diy Sheroziyning fikricha, oila, bolaning baxti, kelajagi uchun zamin yaratuvchidir. Oilada asosiy tayanch otadir. U ma’suliyatli tarbiyachidir. Ota o’z bolalarini tarbiyalashi, o’qitishi, hunarga o’rgatishi, jismonan chiniqtirishi kerak.

Sa’diy Sheroziyning pedagogik qarashicha bola qobiliyatli va kam qobiliyatli bo’lishi mumkin. Qobiliyat o’z – o’zidan rivojlanmaydi. Uning rivojlanishi uchun bolani tarbiyalash kerak, tarbiya bo’lmasa, boladagi qobiliyat so’nadi, tarbiyani 3 asosiy – aqliy, nafosat va jismoniy mehnat tarbiyasiga bo’ladi. Adib bolani

tarbiyalash vazifasini ularning ota – onalariga, ya’ni oilaviy tarbiyaga katta e’tibor beradi.

Sa’diy ota – onalarga xarakterini hisobga olgan holda axloqiy tarbiyani bolaning yoshligidan boshlashni tavsiya etadi, xarakter shakllangach, bolaga ta’sir etmasligini ta’kidlaydi.

XIX asr o’zbek ijtimoiy va adabiy xayotning yirik vakillaridan biri Komil Xorazimiy o’z asarlarida ma’rifat, axloqiy kamolot, vatanparvarlik g’oyalarini olg’a surdi.U ilm-ma’rifatning xalq, jamiyat farovonligiga, insonning axloq kamolatida tutgan o’rni, axloqiy va nafosat tarbiyasini uzviy birligi haqidagi pedagogik fikrlarini ham bayon etadi.

Komil Xorazimiyning fikricha ilm-hunar, ilm-ma’rifat inson axloqiy kamoloti, ijtimoiy ma’naviy xayotning rivoji uchun xizmat qilishi kerak. Kamtarlik eskirmaydigan, eng go’zal insoniy fazilatdir. Bu fazilatlarga ega bo’lganlar obro’-e’tiborli komil insonlardir. Kamtarlik insonni turli noxushlikdan xijolatdan saqlaydi.

Shoir va tarixshunos, tarjimon va xattot Munis Xorazmiy tilga ko’p erk bermaslikni maslaxat beradi. Uning ta’kidlashicha, ortiqcha so’zamonlik kishi boshiga qattiq tosh bo’lib tegishi mumkin.

Shoir yomon so’zli, ozor beruvchi murodlar sifatini tasvirlab, kishilarni jumladan, yoshlarni ular bilan hamsuhbat bo’lmaslikka undaydi. Munis Xorazmiy o’z asarlarida xalqni adolatli, ongli, bilimli bo’lishga, jaholatdan yiroq turishga da’vat etadi, uning fikricha, adolat sharaf ko’rki, osoyishtali, xushnudlikdir. U yoshlarni kamtarlik bilan muloqotda bo’lishga, ularni hurmat qilib e’zozlashga chorlaydi.

Munis Xorazmiyning asarlariga bayon etilgan ta’lim – tarbiyaga oid fikrlar faqat u yashagan davr uchun emas, balki hozirgi davr uchun ham qimmatlidir.

Muhammad Rizo Ogahiy o’z ijodiy faoliyatini pedagogik qarashlarida nafosat tarbiyasini yuqori baholanadi. Ogahiy milliy an’analarimiz mehmondo’stlikni go’zal fazilatlardan biri hisoblaydi. Mehmonga chuqur hurmat bilan qarash, mehmon kutish, kuzatish odobi Ogahiy ijodidan o’z ifodasini topdi, odamlarni bu fazilatni egallashga da’vat etdi.

Ogahiyning ta’kidlashicha, insonga do’st va dushmanni ajratib olish xayotda o’z

o'rnini topib olishda g'oyat muhimdir. Uning fikricha, to'g'ri so'z kishilar xayotda qiyinchilik bilan yashasalarda, dunyoning mavjudligini saqlab turadilar, mangu yashaydilar.

Ogahiy ta'lim-tarbiya ilmlarni egallash va tilni bilishda ham muhim ahamiyatga molik ekanligini ta'kidlaydi.

Muhammad Rizo Ogahiy o'z ijodiy faoliyatida, binobarin, yoshlarni odamlarni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo'lida xizmat qilishga da'vat etdi. U do'stlikni, mehmondo'stlikni, axloqiy go'zallikni ulug'ladi. Insonlarni ziyraklikka, to'g'ri so'zli bo'lishga chorlaydi. Ogahiyning bu fikr o'gitlari hozir ham pedagogik qadriyat sifatida qimmatlidir.

Mohlaroyim Nodiraning inson va tabiatiga nisbatan qarashlariga faqat shaxsiy tuyg'u emas, balki yoshlar tarbiyasida milliy an'analarning roli haqidagi fikrlari ham namoyondir. Nodiraning tarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik g'oyalari - adolat, insof, xalq manfaati muhim o'rinni egallaydi. Nodira xayotning tub mohiyatini yaxshilik binosini barpo etishdan iborat deb biladi. Uning fikricha, kimki tiriklik chog'ida yaxshilik bunyod etgan bo'ladi, o'zining bu ezgu ishlari bilan o'zidan keyin hayotda yorqin xotira qoldiradi. Umuman, Nodira o'z she'rlarida barkamol insonni ulug'laydi. Ta'lim – tarbiyaga oid ko'p foydali o'gitlarni bayon etdi.

Berdimurod Berdaq Qaraqolpog'iston xalq shoiri butun ijodi davomida xalqlar tengligi, insonparvarlik, vatanparvarlik, adolat haqidagi g'oyalarini olg'a suradi.

Berdimurod Berdaq insonning shaxsiy baxti xalq baxti bilan bog'liq deb biladi. Uning ta'kidlashicha, har bir odam haqiqiy baxtga erishishi uchun o'z shaxsiy manfaatini xalq manfaati bilan birlashtirishi, xalq baxti uchun kerak bo'lsa jonini ham ayamasligi kerak. Berdaqning fikricha, inson oliy axloqiy sifatlariga, chunonchi, beg'arazlik, olijanoblik, vijdoniylik, mehnatsevarlik, mardlik fazilatlariga ega bo'lishi lozim.

Berdaq yoshlarning aqliy tarbiyasida maktabning mavqei katta ekanligini ta'kidlaydi. Maktabda bolani yaxshi xulq-atvorli qilib tarbyalash lozim. Uning fikricha, maktabda dars beruvchi muallim o'z xushmuomilaligi, pok qalbligi,

haqgo’yligi, o’z fanini yaxshi puxta bilishi bilan bolalarga o’rnak bo’lishi kerak.

Berdaq oilaning bola tarbiyasida, muhim o’rin tutishni aloxida ta’kidlaydi, oila muxitida ota – onalar bilan bolalar o’rtasida o’zaro hurmat bo’lgandagina tarbiya yaxshi natijalarga erishishi mumkinligini aytadi. Berdaqning uqtirishicha, inson tug’ilgan kundanoq tarbiyaga muxtojdir, uning ilk tarbiyachilari, albatta ota – onalardir. Berdaqning fikricha, barcha odamlar insonparvar va adolatli bo’lsa jamiyat gullab yashnaydi. Buning uchun esa, yoshlarga ta’lim berish, unda ijobiy xulq-atvorni tarbiyalash lozim.

Markaziy Osiyo xalqlari ilm – fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqqan Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotiga munosib xissa qo’shgan ulug’ siymolardan biri Mirzo Ulug’bekdir. U, avvalo yosh avlodning aqliy va ma’rifiy tarbiyasiga katta ahamiyat berib, ularni dunyoviy bilimlarini egallashga da’vat etdi. Faqat rivojlangan fan va madaniyat inson tafakkurining komil topishini ta’minlashga ishondi.

Allomaning uqtirishicha, bolaning bilim olishga bo’lgan qiziqishi, havasini oshirishda u tarbiyalanayotgan muxit muhim o’rinni egallaydi. Mirzo Ulug’bek o’z pedagogik qarashlarida bolalarning jismonan sog’lom, harbiy hunarni puxta egallagan, jasur, mard bo’lib etishuviga aloxida ahamiyat beradi. Ulug’bekning fikricha, odam sog’lom va baquvvat bo’lishi uchun yoshlik chog’idayoq jismoniy mashqlar bilan shug’ullanishi, ta’lim – tarbiyada poraxo’rlik, qalloblik bo’lmasligi uchun mudarrislar odil va halol bo’lishi kerak.

Buyuk shoir va olim, fors – tojik mumtoz adabiyotning ulug’ namoyondasi Nuriddin Abduraxmon Jomiy o’zidan keyin turli fan, adabiyot, jumladan pedagogikaga doir o’lmas me’ros qoldiradi. U o’z asarlarida, ayniqsa, nasriy yo’lda yozilgan «Baxoriston» asarida ta’lim – tarbiya masalalari xususida fikr bildirdi. Jomiy o’z asarlarida yoshlarni ilmlarini egallashga da’vat etadi. U o’z pedagogik qarashlarida kishilarni adolat, xushmuomalalik va dono so’z bilan zulmkorlarga ma’sir etishga da’vat etadi.

**Xulosa**. Ilk davrlarda ta’lim yoshlarga, ota-onalarning yashash uchun tabiatdan foydalanishi, uy-ro’zqor yuritish, o’zaro va tabiatga munosabat axloqi, odobi sifatida

shakllana boshlagan bo'lsa, bilimlar hajmi kengaya boshlagach, maxsus tarbiyachilarga ehtiyoj tug'ila boshlangan. Ma'lum qabila, elat, millat miqyosidagi ta'lim-tarbiya qoidalari majmuasi kontseptsiyalarida ko'p hollarda alohida kishilar tomonidan takomillashtirilgan. Yoshlarga yoshligidan kasbga o'rgatish odat tusiga kirgan.

**TARQATMA MATERIALLAR:**




**"Tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo xalokat, yo saodat – yo falokat masalasidir. "**

**A. Avloniy**

- ***Jamiyat taraqqiyot davom etar ekan, u ma'naviy, axloqiy kamolot va ta'lim – tarbiyaning yangi qirralarini keltirib chiqara beradi. Axloqni takomillashtirishga extiyoj sezmaslik tanazzullik belgisidir.***
-

**Axloq borasida tubanlashish oson, lekin yuksalish qiyin. Axloqiy buxronlarga qarshi kurashishdan ko‘ra uning oldini olish oson.**

- **“Qalb - doimo o‘zgarib turishi sababli qalb, deb atalgan. Go‘yoki u saxrodagi bir shoxchaga ilinib qolib, goh u yoqqa, goh bu yoqqa ag‘darilayotgan barg kabidir.”**
- **(hadisdan)**

***O‘rta asrlar musulmon sharqi axloqi.***

- ***Musulmon SHarqida uch yo‘nalish alohida o‘rin tutadi. Bular – diniy-hadisiy, mashshoiyyunlik va tasavvuf axloqshunosligi.***
- ***Qur’oni karimdagi bosh g‘oya Alloh o‘z bandalarining komillikka erishuvi bilan bog‘liq. Zotan Alloh insonni komil bo‘la olish imkoniyatlari bilan birga yaratadi. Umuman olganda, komillik imkoniyatlarining barchasi insonda go‘zal axloq vositasida namoyon bo‘ladi.***
- ***«Bir payt payg‘ambarimizga old tarafdan bir odam keldi. «Ey Ollohning Rasuli, din nima?» deb so‘radi. Rasululloh: «GO‘ZAL AXLOQ!» deb javob berdilar. So‘ngra o‘ng tarafiga o‘tib so‘radi: «Ey Ollohning Rasuli, din nima?» Rasululloh: «GO‘ZAL AXLOQ!» deb javob berdilar. U odam Rasulullohning so‘l tarafiga o‘tib, yana: «Ey Ollohning Rasuli, din nima?» dedi. Rasululloh: «G‘azablanmaslik! Tushundingmi?» deb buyurdilar»***

**O‘RTA ASR SHARQ ALLOMALARI ESTETIKASI**



ABU NASR
AL-FAROBIY
(873-950)

- ezgulik bilan go’zallikni aynanlashtiradi.
- **San’at taqlidiylik husustiyatiga ega.**
- 1. She’riy nutq - mutloq yolg’on.
- 2. Sofistik nutq - asosan yolg’on.
- 3. Hitobiy nutq - bir xilda ham yolg’on, ham rost.
- 4. Dialektik nutq - asosan rost.
- 5. Isbotiy (apodiktik) nutq - mutlaq rost.
- She’riyatni tasviriy san’at bilan qiyoslaydi va har ikkala san’at turi ham mohiyatan bir xil asosga - taqlidga borib taqalishini aytadi.
- «Musiqa haqidagi katta kitob» asarida musiqiy bilimni ijro san’ati bilan bog’liq bo’lgan musiqiy amaliyotga va musiqaning «sof o’zini», ijrochilikka bog’lanmagan holda o’rganadigan nazariyaga ajratadi.

## O'RTA ASR SHARQ ALLOMALARI ESTETIKASI



ALISHER NAVOIY
(1441-1501)

- ichki va tashqi go'zallik g'oyasini ilgari suradi;
- so'zga alohida e'tibor beradi. So'z - ko'ngil qutisi ichidagi gavhardir.
- Badiiy asar faqat go'zallikni kuylashi bilangina cheklanishi kerak emas, balki o'zi ham shaklan go'zal bo'lishi lozim.
- Kam so'z ishlatib, ko'p mazmun anglatishi zarur:
- *Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,*
- *Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*
- *Har neniki sevmak, ondin ortiq bo'lmas,*
- *Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.*

## XOJA BAHOUDDIN NAQSHBAND VA NAQSHBANDIYA TA'LIMOTI








## AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI MA'NAVIY MEROSI



















"Al-Hidoya" asari qo'lyozmasi.
(XIII asr)

**MA'NAVIY BOYLIGIMIZ "ALPOMISH" DOSTONI: TURLI NASHRLARDAN NAMUNALAR**




# Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. (Evtanaziya)

- Ta'bir joizki oila baxti, farzandlarning tarbiyali etuk inson bo'lib etishida ota–onaning sa'y harakati, tarbiya mahoratiga bog'liq. Istiqlol ota–onalar zimmasiga buyuk kelajak quruvchilarini tarbiyalash, zaminimiz uchun fidoyi farzandlarni etishtirish mas'uliyatini yukladi.
- Tibbiy va ekologik tarbiyaning axloqiy asoslari. (Evtanaziya) Biologik axloq deganda, odatda, bizda ham, jahon axloqshunosligida ham asosan tibbiy axloq, tabobat muammolariga doir axloqiy yondashuvlar tushuniladi, xolos. Bu unchalik to'g'ri emas. Bizningcha, :
- Biri - insonlarning kichik biologik olam sifatidagi katta biologik olamga bo'lgan munosabatlari bilan bog'liq «tashqi»,
- Ikkinchisi - insonlarning «o'z-o'ziga va o'zaro munosabatlaridagi tibbiyot bilan bog'liq ichki» axloqiy masalalar. Evtanaziya



## G O' Z A L L I K

ma'naviy va moddiy xususiyatga ega bo'lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi hamda narsa-hodisalarning uyg'unligi, hamohangligi, mutanosibligi, maqsadga muvofiqligiga asoslangan qadriyatlar majmuidir.

## X U N U K L I K

narsa-hodisalarning shakli bilan mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlik va ana shu nomuvofiqlik natijasida yuzaga kelgan beo'xshov ziddiyat.

## U L U G' V O R L I K

insonning voqelikdagi narsa-hodisalarga axloqiy mezonlar bilan yondoshishi va ulardan yuksak estetik hayrat tuyg'usini hosil qiluvchi tushunchalar majmui.

## *Jamiyatdagi ulug'vorlik*

*Jamiyatdagi ulug'vorlik* umuminsoniy qadriyatlar, qahramonlik, jasorat, xalqparvarlik, bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg'unlashadi



# 3-MAVZU. KASBIY MA’NAVIYATNING O’ZIGA XOS PRINSIPLARI. KASBIY MA’NAVIYAT VA AXLOQNING O’ZARO ALOQADORLIGI VA O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Reja:**

**1. Ma’naviat va uning kasbiy faoliyatga ta’siri.**

**2. “Obro’-e’tibor” tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati. Kasbga va lavozimga munosib bo’lishni anglash.**

**3. Adolat, sadoqat, burch va halollik kasbiy ma’naviyatning bosh mezoni.**

**4. Kasbiy ma’naviyatda etiket normalari va ularning xodimlar faoliyatida namoyon bo’lishi.**

**5. Muomala madaniyati, uning asosiy shakl va qoidalari.**

***Tayanch atamalar:*** *kasbiy faoliyat, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, xodim, nutqi, muomala madaniyati, xulq-atvor, odob-axloq normalari, asosiy shakl va qoidalar.*

## 1. MA’NAVIYAT VA UNING KASBIY FAOLIYATGA TA’SIRI

“Kasbiy ma’naviyat” tushunchasini tahlil qilish uchun, birinchi navbatda, “kasb”, “ma’naviyat”, “faoliyat” kabi tushunchalarni ko’rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ushbu tushunchalar orasida “madaniyat” tushunchasi muhim o’rin tutadi. Chunki mulkan hodisotlar olamini qamrab olgan va mavhumotning yuksak darajasidagi eng umumiy falsafiy-ijtimoiy tushunchalardan biri hamda ma’naviyat nazariyasi tahlilini to’g’ri yo’naltira olishi ijtimoiy jarayonlarga xolis baho berishga yaqinlashishni va ijtimoiy hodisalarga munosib ta’sir ko’rsatish yo’llarini topishni anglatadi.

“Kasb” tushunchasi lotinchada professio, ya’ni maxsus nazariy bilimlarni va amaliy ko’nikmalarni taqozo etuvchi hamda hayot kechirishning oddiy manbai hisoblanuvchi mehnat faoliyati, mashg’ulot turi, degan ma’nolarni anglatadi. Kasbiy madaniyat muammosi bilan bog’liq qarashlarni o’rganish va umumlashtirish kasbiy

madaniyat abstrakt holda emas, balki kasbiy faoliyatning muayyan turi bilan bog'liq, degan xulosaga kelish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, kasbiy madaniyatning muayyan turlari va shakllarini tadqiq etishni talab etadi. Bu yerda kasbiy madaniyatning o'ziga xos shakli, kasbiy faoliyatning u yoki bu turiga tegishliligi haqida so'z yuritilayotgan bo'lib, unga ko'ra, huquqshunos, o'qituvchi, siyosatchi, harbiy xizmatchi, ichki ishlar idoralarida xizmat qilayotgan tezkor qidiruv, tergov hamda profilaktika xodimlarining kasbiy madaniyati to'g'risida so'z yuritish mumkin.

Kasbiy faoliyatning boshqa turlarida unga oz bo'lsa-da, o'xshash bo'lgan faoliyat turini uchratish qiyin.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga etib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasabalar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni yuksakligidadir.

Har bir jamiyatda muayyan guruhlar borki, egallagan kasblari ularni boshqa jamiyatdoshlariga nisbatan imtiyozli darajaga olib chiqadi. Ko'pchilik jamiyat a'zolarining hayot-mamotlari, sog'ligi, ma'naviy sog'lomligi, huquqiy himoyasi, ilmiy salohiyatining namoyon bo'lishi kabi omillar o'shanday imtiyozli kasb egalarining o'z kasbiy burch mas'uliyatini qay darajada his etishlariga, halollik va vijdon yuzasidan ish ko'rishlariga bog'liqligi hammaga ma'lum. Chunonchi, tabobat xodimini, jarrohni olaylik.

Deylik, u har bir operatsiya kunida bir necha kishini hayotga qaytaradi; yuzlab odamlar uning yordamiga muhtoj, unga umid va ishonch, ilinj bilan qaraydilar. Bordi-yu, shaxsiy manfaat yo'lida jarroh o'z bemoriga xiyonat qilsa-chi, ya'ni, uni qasddan halok etsa-chi? Kim uni shunday qilmasligini kafolatlaydi? Yoki jurnalistni olaylik. U shaxsiy manfaati yo'lida, kasbining kamyobligidan foydalanib, begunoh kishilarni ma'naviy azobga qo'yishi, atayin jamiyat oldida sharmanda qilishi va

shuning hisobiga o'zining ba'zi bir muammolarini hal qilib olishi mumkin emasmi?

Zero, to haqiqat yuzaga chiqquncha nohaq tanqidga uchragan shaxsning adoi tamom bo'lishi hech gap emas. Xo'sh, jurnalistning shunday qilmasligini kim kafolatlaydi? Shu bois boshqalarning qo'lidan kelmaydigan ishlarni bajara oladiganlar faoliyatida o'zboshimchalik, manfaatparastlik, xudbinlik va kasbni suiste'mol qilish singari illatlarga yo'l qo'ymaslik uchun, shuningdek, ular axloqiy darajasini yuksak bosqichda turishini ta'minlash maqsadida ko'p hollarda o'zaro qoidalar majmui yaratilgan. Bu qoidalar majmui, odatda, qasamyod yoki meyyorlar ko'rinishini olgan. Uni buzish o'ta odobsizlik va axloqsizlik, hatto jamiyatga xiyonat tarzida baholanadi. Bunday qasamyodlar juda uzoq tarixga ega.

Misol tariqasida hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan Qadimgi Yunon hakimi Hippokrat (milodgacha V-IV asrlar) tomonidan qisqa va lo'nda shaklda tuzilgan, tabobat xodimlari kasbiy odobi qonun-qoidalari jamlangan mashhur "Hippokrat qasami"ni keltirish mumkin.

Tarixda o'z dushmanini davolagan tabiblar ham ko'p uchraydi. Chunonchi, qadimgi hind eposi "Ramayana"da (II asr) behush yotgan Lakshman boshida turgan devlar shohining xos tabibi kechinmalari shu jihatdan muhim. Tabib oldida ikki yo'l bor edi: biri - saltanat dushmanini muhtoj bemor sifatida davolash, ikkinchi yo'l davolashdan bosh tortish bilan uni o'limga mahkum etish. Tabib uzoq mulohazadan so'ng tabiblik odobi qoidalariga bo'ysunishni - Lakshmanni davolashni afzal ko'radi. Zero, kasbiy odob qonun-qoidalari talabiga ko'ra, bemor to'shagi ustidagi tabib uchun do'st yoki dushman degan tushunchalar o'z ma'nosini yo'qotadi, uning qoshida faqat tibbiy yordamga intizor, shafqatga muhtoj, zaif inson yotadi. Davolanib hayotga qaytgan Lakshman devlar mamlakatining tengsiz buyuk jangchisi va saltanat valiahdi Indirjidni jangda halok etadi hamda tabib fuqaro bo'lgan Lanka davlatining tanazzuliga yo'l ochadi. Lekin, kitobxon tabibni xiyonatkor yoki sotqin demaydi, aksincha, uning ma'naviy jasoratiga, halolligiga, kasbiy burchiga sodiqligiga hayrat bilan tasannolar o'qiydi.

Yoki mashhur rus olimi akademik Andrey Saxarovning taqdirini olaylik. Buyuk nazariyotchi, fizik, termoyadro sohasida tengi yo'q mutaxassis, vodorod bombasining

asosiy kashfiyotchisi, Vatan mudofaasini mustahkamlashdagi xizmatlari uchun o'nlab orden va medallar sohibi, ikki marta Sotsialistik Mehnat Qahramoni, obro'li, badavlat bu insonga nima etishmasdi? Nega u hammasidan kechishga - ommaviy qirg'in qurollari, jumladan, o'zi yaratgan vodorod bombasi sinovlariga ochiq bayonotlar bilan qarshi chiqishga ahd qildi? Natijada qatag'onlarga asoslangan sho'rolar tuzumi uni ilmiy jamoatchilikdan ajratib, poytaxtdan olisdagi Rossiya shaharlaridan biriga badarg'a qildi, uning nomini matbuotda yoki kitoblarda qayd etilishini ta'qiqladi. Vaholanki, u hammadan izzatliroq yashay olishi mumkin edi. Saxarov yuksak axloq yo'lini tanladi – olimlik burchi, odobi talablarini bajarishni har qanday boylik, izzat-ikromdan baland qo'ydi. Buyuk olim o'z kashfiyoti insonning eng oliy huquqi bo'lmish - yashash huquqiga rahna solishi mumkinligi va qisman solayotgani uchun uni amalda qo'llanilishiga qarshi kurashdi. U sho'rolar hukumati va mafkurachilari tomonidan o'zining Vatan mudofaasi quvvatini susaytirishga harakat qilgan salkam xiyonatkor fuqaro deb e'lon etilishiga, boshiga behisob tuhmatlar, ta'na-dashnomlar yog'dirilishiga sabot bilan chidadi, ahdidan qaytmadi, yovuzlik saltanati qo'lida o'z olimlik iste'dodining qo'g'irchoq bo'lishiga, harbiy muruvvatga aylanishiga yo'l qo'ymadi. Oxir-oqibatda u inson huquqlarining jahon tan olgan eng buyuk himoyachilaridan biri sifatida butun insoniyat tahsiniga sazovor bo'ldi. Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin.

Bulardan tashqari, muallimlik odobi, huquq-tartibot xodimlari odobi, muhandis odobi singari birqancha kasbiy odob turlari borki, ular ham jamiyatda axloqiy munosabatlar silsilasida muhim ahamiyatga ega. Shuni aytish kerakki, barcha kasbiy odob qonun-qoidalarining ta'sir doirasi, miqyosi bir xil emas. Ba'zi bir kasbiy odobning buzilishi oddiy odobsizlik doirasidan chiqib, axloqsizlikka aylanib ketadi. Masalan, rahbarlik odobidagi ba'zi nuqtalarga to'xtalaylik. Rahbar quyi lavozimdagilarga mensimay, qo'pol munosabatda bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan hudud yoki tashkilotdagi oddiy odamlar arz-dodiga, orzu-istaklariga to'ralarcha qarashi odobsizlikka kirsa, uning shaxsiy boylik orttirishi yo'lida korrupsiya vositasida mamlakat, viloyat yoki tashkilot manfaatlarini qurbon qilishi axloqsizlik, nafaqat rahbarlik kasbiga, balki Vatanga ham xiyonat tarzida baholanishi

mumkin. Ba’zan kasbiy odobning kasbiy axloq deb atalishi ham ana shundan. Yuqorida keltirilganlardan ko’rinib turibdiki, kasbiy odob muammosi, ba’zilar o’ylaganidek, axloq falsafasining mayda masalalaridan emas. Uni har tomonlama o’rganish, kasbiy erkinlik va kasbiy burch munosabatini tadqiq etish XXI asr axloqshunosligida muhim o’rin egalladi. Zero, kasbiy odob shaxs va jamiyat axloqiy hayotida o’zini amaliy axloq tarzida namoyon etuvchi ma’naviy hodisa sifatida baholanishi lozim.

## 2. “OBRO’-E’TIBOR” TUSHUNCHASI, UNING MOHIYATI VA AHAMIYATI

Kasbga va lavozimga munosib bo’lishni anglash obro’-e’tibor ma’naviy tamoyil bo’lib, insonning ma’naviy sifatlari, mehnat faoliyati, nasl-nasabi, bilimi yoki kasbiy mahoratiga o’zgalar tomonidan berilgan yuksak baho. Boshqacha aytganda, obro’ insonning ruhiy psixologik, intellektual va amaliy xatti-harakatini ko’pchilik tomonidan e’tirof etilishidir. Obro’ ma’naviyatga bevosita taalluqli bo’lishiga qaramasdan, uning pasayishi yoki ortishi ko’p omillar bilan belgilanadi. Ezgu maqsadlarni ko’zlab amalga oshirilgan ishlar inson obro’si oshishiga, buzg’unchi, yovuz maqsadlar esa uning obro’si pasayishiga zamin hozirlaydi.

Katta-kichikligiga ko’ra obro’ o’ziga xos darajalarga bog’liq va uning shakllanishi shaxsning o’z oldiga qo’ygan maqsadlariga borib taqaladi. Shaxs maqsadlari va amalga oshiradigan ishlari guruh bilan bog’liq bo’lib, olinadigan obro’ ham shu guruh darajasida, jamiyatga tegishli bo’lgan jamiyat, davlatga tegishli bo’lgan davlat, tamaddunga tegishli bo’lgan tamaddun darajasida bo’lishi mumkin. Shuningdek, obro’ alohida yoki bir necha sohalarga tegishli bo’lishi mumkin. Masalan, tibbiyotda orttirilgan obro’ asosan shu sohaga yaqin soha vakillari o’rtasida namoyon bo’ladi. Masalan, Nobel mukofotini olganlar orasida ko’p soha vakillari bor. Lekin ularni hamma ham bilmaydi, ular ma’lum soha mutaxassislari o’rtasidagina yuksak obro’ga ega.

Biroq, ayrim mashhur shaxslar muayyan sohada jahon ilm-fani va madaniyatiga qo’shgan ulkan hissasi tufayli butun insoniyatning e’tirofiga sazovor bo’ladi, ularni barcha yaxshi biladi va hurmat qiladi. Masalan, Mirzo Ulug’bekning astronomiya

sohasidagi kashfiyotlari, Alisher Navoiyning adabiyot, xususan, she'riyatdagi ijodi ularning jahon miqyosida obro' qozonishlariga sabab bo'lgan.

Bundan tashqari, obro' guruh, jamiyat davlat, mintaqa, shahar darajasida ham namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, tarixda Buxoro – "Quvvatul din val islom", Samarqand – "Sayqali ro'yi zamin", Shahrisabz – "Qubbatul ilm val adab" deya e'zozlangan bo'lsa, Xorazm me'morchilik va san'at, Toshkent qurolsozlik, Farg'ona dehqonchilik madaniyati bilan obro' qozongan.

O'rta Osiyo esa madaniyatlar tutashgan mintaqa sifatida ma'lum va mashhur bo'lgan. Obro' "nom qozondi", "oti chiqdi", "dovrug' taratdi", "hurmat e'tibor topdi", "shon-sharafga erishdi", "tillarda doston bo'ldi" kabi atamalar orqali ham ifodalanadi. Obro' – inson xizmati tan olinganini ifodalovchi o'ziga xos mezon.

Hozir G'arbda, odatda, zohiriy obro' ko'rsatkichlari sifatida shaxsning moddiy farovonligi, turar joyi, avtomobil markasi, matbuotda tilga olinishi, oilaviy shifokori va ruhshunosining mavjudligi, kasbiy muvaffaqiyati va boshqalarga egaligi e'tiborga olinadi. Sharqda esa, bundan farqli o'laroq, shaxsning el-yurt oldidagi xizmati, ma'naviy yutug'i yoki xalq orasida topgan e'tibori, odamlarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'siri kabilar obro'ning asosi bo'lib xizmat qiladi.

## 3. ADOLAT, SADOQAT, BURCH VA HALOLLIK KASBIY MA'NAVIYATNING BOSH MEZONI

Adolat g'oyasi butun dunyo xalqlarini azaldan o'ylantirib kelgan. Islom olamida esa adolat g'oyasi haqiqatning mezoni hisoblanadi. Buyuk ajdodimiz sohibqiron Amir Temur "Bir kunlik adolat – yuz kunlik toat-ibodatdan afzaldir» deya adolatga yuksak baho bergan bo'lsa, hazrat Alisher Navoiyning "Kimki haqiqatni yolg'ondan, to'g'rini noto'g'ridan ajrata bilsa, u o'z adli bilan G'arbu Sharqni yoritgan bo'ladi" degan hikmatida mazkur iboraning ma'naviy-ma'rifiy mohiyati mujassamlashgan.

Adolatning o'zagi «adl» bo'lib, odillik, haqqoniylik degan ma'nolarni anglatadi. Huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari faoliyatida ushbu tushunchani quyidagicha ham izohlash mumkin: 1) sudda insof va adolat yuzasidan hukm chiqarish; 2) to'g'rini noto'g'ridan, rostni yolg'ondan ajrata bilish, biror tomonga yon bosmaslik; 3) zulmni bartaraf etish, insof yuzasidan ish ko'rish, mazlumni himoya

qilish.

Tilimizda «adl» so'zi bilan bog'liq bir qator so'z birikmalari mavjud. Masalan, adl mezoni deganda adolat tarozusi, ya'ni qonun asosida haqiqatni tiklagan kishi, adolat qonuni; adl tariqi deganda shariat nizomlari; adolat posboni deganda adolat himoyachisi, odil podsho, haqgo'y qozi, haqiqatni aniqlash, to'g'rilik, to'g'ri qaror qabul qilish nazarda tutiladi. Adolat (arab. odillik, to'g'rilik, hamma uchun barobar bo'lgan haqiqatning talab va prinsiplariga amal qilinishi) – insoniyatning azaliy orzusi, ezgu g'oyasi, ma'naviyat, axloq va huquqning meyyoriy kategoriyalaridan biri.

U jamiyat hayotidagi hodisalar, tartib-qoidalarning asl insoniy ideallarga, haqiqat mezonlariga qanchalik mos ekanini aniqlashda hamma zamonlarda ham asosiy ma'naviy mezon bo'lib xizmat qiladi. Jamiyatning shaxsga, shaxsning jamiyatga va bir shaxsning ikkinchi shaxsga munosabatida namoyon bo'ladigan adolat prinsipi ana shu munosabatlarni baholashning o'zgarmas o'lchovidir.

Adolat yuksak ma'naviy qadriyat bo'lib, "baxt", "ozodlik", "tenglik", "do'stlik", "tinchlik" tushunchalari kabi insonning azaliy ezgu intilishlari timsolidir. Adolat haqidagi ilk tasavvurlar juda olis zamonlarga borib taqaladi. Qadimgi davr mutafakkirlari uni universal qonun sifatida talqin etishgan. Masalan, Zardusht adolatni "arta" tushunchasi yordamida ifoda etar ekan, uni olamdagi ikki qutbdan biri deb hisoblagan.

Yunon faylasufi Aflotun adolat muammosini izchil o'rganib chiqishga harakat qilgan. Uning ijtimoiy-siyosiy konsepsiyasida adolat "hukmronlik" va "imtiyoz" tushunchalariga yaqin kategoriya sifatida sharhlangan. Faylasufning fikricha, har bir tabaqa ichida tenglik bo'lmog'i adolatdandir. Arastu bu g'oyalarni rivojlantirib, "tenglashtirish" va "taqsimlash adolati" tushunchalarini qo'llagan.

Arastu Iskandarga qilgan nasihatlaridan birida adolat haqida shunday fikrlarni keltiradi: "Bilgilki, adolat buyuk va qudratli xudoning yer yuzidagi o'lchovidir. Uning yordamida zaif bo'lgan haq odam kuchli bo'lgan nohaqdan o'z haqini oladi. Kimki Alloh bandalari orasida o'rnatgan ilohiy adolat o'lchovini buzsa va undan chetlashsa, katta nodonliklar qilib, xatoliklarga yo'l qo'yadi".

Adolat ma’naviyatning insonlararo munosabatlarda namoyon bo’lishidir. Adolatni ta’minlashning eng ishonchli usuli davr ruhiga muvofiq mukammal qonunlar ishlab chiqish va qonun ustuvorligini ta’minlashdir.

«Adolat» tushunchasi zamirida butun xalq, jamoa taqdiri, jamiyat, jamoa istiqboli, mamlakat va jamiyat kelajagi mujassam.

Amir Temurning «Kuch – adolatda» degan o’giti davlatining muhrida ham bitilgani bejiz emas, albatta. U o’z tuzuklarida adolatni davlatni idora qilishda asos bo’ladigan 12 qoidaning biri sifatida qayd etgan. Shu o’rinda ulkan imperiya tuza olgan va uni adolat mezonlari asosida boshqargan buyuk sohibqironning biz avlodlarga qoldirgan boshqaruvning 12 qoidasi quyidagilardan iborat:

Birinchisi – davlat va saltanatimga bog’lagan birinchi tuzugim – Tangri taoloning dini va Muhammad mustafoning shariatiga dunyoda rivoj berdim.

Ikkinchisi – o’n ikki tabaqa va toifadagi kishilar bilan mamlakatlarni zabt etdim, ularni idora qildim. Davlat, saltanat ustunlarini ushalar bilan quvvatlab, majlislarimni shular bilan ziynatladim.

Uchinchisi – maslahat, kengash, tadbirkorlik, faollik va hushyorlik ehtiyotkorlik bilan g’anim qo’shinlarini yengib, mamlakatlarni o’zimga bo’ysundirdim. Saltanat ishlarini murosayu madora, muruvvat va sabr-toqat bilan yurgizdim.

To’rtinchisi – davlat ishlarini saltanat qonun-qoidalariga asoslangan holda boshqardim.

Beshinchisi – amirlarim va sipohiylarimni martaba va unvonlar, zarur zevarlar bilan xushnud etdim. Bazmlarda ularga (o’z yonimdan) o’rin berdim, shuning uchun janglarda jonlarini fido qildilar.

Oltinchisi – adolat va insof bilan Tangrining yaratgan bandalarini o’zimdan rozi qildim. Gunohkorga ham, begunohga ham rahm qilib, haqqoniyat yuzasidan hukm chiqardim.

Yettinchisi – sayyidlar, ulamoyu mashoyix, oqilu donolar, muhaddislar, xabarchilar tarixchilarni tanlangan, e’tiborli odamlar hisoblab, izzatu hurmatlarini joyiga qo’ydim.

Sakkizinchisi – azmu jazm bilan ish tutdim. Biron ishni qasd qilgan bo’lsam,

butun zehnim, vujudim bilan bog'lanib, bitirmagunimcha undan qo'limni tortmadim. Har neki degan bo'lsam, unga amal qildim.

To'qqizinchisi – raiyat ahvolidan ogoh bo'ldim, ulug'larini og'a qatorida, kichiklarini farzand o'rnida ko'rdim.

O'ninchisi – turku tojik, arabu ajamning turli toifa va qabilalaridan bo'lgan va mening panohimga kirgan kishilarning ulug'lariga hurmat ko'rsatdim, qolganlarini ham holiga yarasha siyladim. Yaxshilariga yaxshilik qildim, yomonlarini esa o'z yomonliklariga topshirdim.

O'n birinchisi – farzandlar, qarindoshlar, oshna-og'ayni, qo'shnilar va men bilan bir vaqtlar do'stlik qilgan barcha odamlarni davlatu ne'mat martabasiga erishganimda unutmadim, (molu mulk va naqd pul bilan) haqlarini ado etdim.

O'n ikkinchisi – do'st-dushmanligiga qaramay, har joyda sipohiylarni hurmat qildim, chunki ular boqiy mato bo'lgan jonlarini foniy dunyo moli uchun sotadilar». Haqiqiy mansab egasi – rahbar barchaga birday odilona munosabatda bo'ladi.

Adolatning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini uning quyidagi vazifalarida ko'rish mumkin:

– jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni maqsadga muvofiq tashkil qilish;

– turli ijtimoiy guruh va sinflar manfaatlarining himoya qilinishini ta'minlash, ular orasida muvozanatni saqlab turish;

– jamiyatdagi mulkchilik munosabatlarini tartibga solib, ishlab chiqarish faolligini oshirish;

– fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;

– voqelikda keng ildiz otgan, lekin ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan munosabatlarni bartaraf etishga da'vat qilish;

– odamlarda kelajakka ishonch tuyg'usini uyg'otish va kuchaytirish.

Adolat insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy mezoni bo'lgani uchun ham doimo ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. U jamiyat hayotida alohida o'rin tutadigan ijtimoiy qadriyat bo'lgani bois kundalik faoliyat va umuman jamiyatda "ijtimoiy adolat" tushunchasi keng qo'llaniladi.

Ijtimoiy adolat jamiyatda demokratiyaning mavjudligi, insonning ijtimoiy

himoyalangani, barchaning qonun oldida tengligi, shuningdek fuqarolarning ish bilan ta’minlangani, tibbiy xizmat, uy-joy, ta’lim, madaniy ne’matlarga daxldorligini anglatuvchi ijtimoiy tizimdir. Ijtimoiy adolat real qadriyat bo’lib, u fuqarolik jamiyatining uzviy qismi hisoblanadi. Shuningdek, insonning ijtimoiy himoyalangani ham fuqarolik jamiyatining barqaror rivojini ta’minlaydigan adolat omilidir.

Barchaning qonun oldidagi tengligi fuqarolik jamiyati hayotidagi muhim omildir. Fuqarolik jamiyatida insonni inson qiladigan ijtimoiy adolatning asosi ta’lim, tibbiy xizmat, uyjoy, mehnat kabi ne’matlardan hamma uchun erkin foydalanish imkoniyatining mavjudligidir. Inson doimo jamiyat hayotida muhim o’ringa ega bo’lishga intilib yashaydi, bu – uning asosiy ehtiyojlaridan biri.

Fuqarolar huquq va burchlarining o’zaro mosligi ham fuqarolik jamiyatidagi adolatli munosabatlarni aniq izga soluvchi omildir. Bundan nafaqat jamiyat, balki shaxsning o’zi ham katta manfaat ko’radi. Ana shu moslik tufayligina inson boshqalardan hurmat va e’tirof kutishga haqli. Jinoyatga yarasha jazo tizimi bo’lmagan sharoitda har qanday jamiyat taraqqiyot borasida qiyinchiliklarga duch kelishi tabiiy. Agar jinoyatni jazosiz qoldirmaydigan tizim ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish kuchiga ega bo’lsa, mehnat va uning baholanishi o’rtasidagi moslik iqtisodiy munosabatlarni tartibga soladi. Bugungi zamonaviy jamiyatni ana shunday moslik qoidalarisiz tasavvur etish mushkul. Bu moslik butun iqtisodiy tizimning poydevorini tashkil etadi.

Adolat prinsipi masalaga qonun ustuvorligi, odillik nuqtai nazaridan xolis yondashish, haqiqatni bosh mezon deb bilish, shu yo’lda beminnat xizmat qilishdir. Adolat prinsipiga amal qilib, mamlakatimizda inson, uning huquq va manfaatlarini eng oliy qadriyat sifatida ro’yobga chiqarish borasida keng ko’lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Tabiiyki, bu o’zgarishlar yurtimizda ijtimoiy adolat va demokratik prinsiplarni chuqur qaror toptirish bilan uzviy va chambarchas bog’liq. Adolat prinsipi alohida inson xatti-harakatidan tortib, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy institutlargacha bo’lgan keng miqyosdagi munosabatlar tizimiga bir xilda yondashishni taqozo etadigan noyob ijtimoiy hodiSadir. U ba’zan qarama-qarshi va ziddiyatli holatlarga sabab bo’ladi, lekin oxir-oqibatda haqiqatni yuzaga chiqaradi.

Adolat prinsipi real ijtimoiy mexanizmga ega. U, avvalo, barqarorlik va ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashning eng muhim omilidir.

Adolat prinsipi jamiyatning o'ziga xos "asab tolasi" bo'lib, odamlarning ijtimoiy kayfiyatini yaqqol ifoda etadi. Ayni paytda u jamiyatdagi ezgu niyatli kuchlarni yagona maqsad yo'lida birlashtiradigan ta'sirchan va samarali qadriyatdir. Bugun jamiyatimiz o'zining ijtimoiy adolat konsepsiyasiga ega bo'lib, bunda xalqimizga azaldan xos bo'lib kelgan adolatga ishonch va ehtirom tuyg'usi ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyotda adolat prinsipining asosiy qoidasi – qo'shilgan hissa va olingan ulush mutanosibligi, manfaatlar uyg'unligini ta'minlashdan iborat.

Demokratik prinsiplar esa muvozanatga keltirish vositasi rolini bajaradi. Adolat prinsipining ratsional ahamiyatini oshirish uchun aniq meyyorlar, o'lchovlar talab etiladi. Jamiyat boyligiga qo'shilgan hissa va undan olingan ulush mutanosibligi demokratik meyyorlarga ham mos keladiki, bu iqtisodiyotda – mehnat va ish haqi; siyosatda boshqaruvdagi ishtirok va burch; huquqda – erkinlik va zarurat, huquq va burch, jinoyat va jazo; ijtimoiy sohada – insonning jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzi, ijtimoiy maqomining real mehnat natijalari, qobiliyat va salohiyatiga qanchalik mos ekanida namoyon bo'ladi.

Adolatning boshqa jihatlari ham demokratik mazmunga ega. Ular jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiy va bir xilda tatbiq etilishi mumkin. Amerikalik sotsiologlar R. Xyusman va D. Xetfild "adolat omili" tushunchasini asoslab, uni amalga oshirishda qo'l keladigan qoidalarni keltiradi. Bular quyidagilar: 1) inson o'zgalar bilan munosabatini o'zining jamiyat ishiga qo'shgan hissasi va buning evaziga oladigan ulushini taqqoslash orqali baholaydi; 2) qo'shilgan hissa va olingan ulushning nomutanosibligi norozilikka sabab bo'ladi; 3) inson o'ziga tegayotgan ulushdan qoniqmasa, o'zicha adolatni tiklashga harakat qiladi. Xullas, ijtimoiy adolatning mazkur qoidalari jamiyatning barcha a'zolari uchun umumiyligi va bir xilda tatbiq qilinishi bilan ahamiyatlidir. Shuningdek, bu qoidalar ijtimoiy uyg'unlikning zaruriy asosi hisoblanadi. "Sadoqat" so'zining lug'aviy ma'nosi «samimiy va chin do'stlik, samimiyat, vafodorlik bo'lib, insonga xos eng ezgu ma'naviy-axloqiy xislatni ifoda etadi, insonlararo munosabatlardagi birdamlik,

do’stlik, mehroqibat va samimiylik kabi fazilatlarni aks ettiradi.

Sadoqatlilik yoki sodiqlik sadoqatning amaliy ko’rinishidir. Vatanparvarlik – Vatanga va xalqqa sadoqatning oliy shakli. Tilimizda «sadoqat» so’ziga o’zakdosh bo’lgan sidq, siddiq, sadqa va sadaqa so’zlari ham qo’llanadi. «Sidq» so’zining ikki ma’nosi bor: birinchisi “rostlik, chinlik, to’g’rilik” bo’lsa, ikkinchisi “samimiyat va ixlos”dir. Bu xalqimiz o’rtasida keng tarqalgan sidqidildan, ya’ni chindildan, sidqu vafo, ya’ni “sadoqat va vofodorlik” iboralari tarkibida uchraydi.

“Siddiq” so’zining lug’atlarda to’rtta ma’nosi beriladi: birinchisi “g’oyatda rostgo’y kishi, ikkinchisi “Tangriga iymon keltirgan, unga chin dildan ishongan kishi», uchinchisi “Ya’qubning o’g’li Yusufning laqabi” va to’rtinchisi “Muhammad payg’ambarning birinchi xalifasi Abu Bakrning laqabi”.

“Sadqa” so’zi “qurbon, fido” degan ma’nolarni anglatib, xalq tilida “sadaqa” shaklida ham qo’llanadi. Bu so’z “qurboning bo’lay” ma’nosidagi “sadqang (sadaqang) bo’lay” iborasi hamda befahm odamga nisbatan “gapirgandan foyda yo’q ekan” ma’nosida ishlatiladigan “sadqai gap” iborasi tarkibida uchraydi. “Sadaqa” so’zi esa “tilanchilarga beriladigan xayr, ehson” ma’nosida ishlatiladi. Tilimizda qo’llanadigan “tasdiq” va “tasadduq” so’zlari ham “sidq” o’zagidan hosil bo’lgan.

Demak, “sadoqat” tushunchasining zamirida to’g’ri so’zlik va to’g’ri amallik, ya’ni so’z va amal birligi, biror kishi yoki narsaga (masalan, g’oya, maqsad, kasb-kor, oila, Vatan kabilarga) chin ko’ngildan ishonish va ixlos qo’yish, uning uchun o’z oromi va manfaatlaridan voz kechish, ezgu maqsad yo’lida o’zini qurbon qilishga ham tayyor turish kabi mazmun yotar ekan.

Husayn Voiz Koshifiy o’zining “Futuvvatnomai sultoniy yoxud javonmardlik tariqati” asarida shunday deydi: “Murid (ya’ni shogird) sadoqatli bo’lsin, chunki agar sidqidildan kirishmasa, pirning ma’rifati ko’nglidan joy olmagay va agar pirning so’zi diliga ta’sir etmasa, u maqsadiga yetolmagay...”. Kishi sadoqatli bo’lishi uchun o’zida bir qator fazilatlarni shakllantirishi va rivojlantirishi lozim. Birinchi navbatda, o’z nafsini yengish uchun shijoat ko’rsatishi, hammaga birday beminnat yaxshilik qilishi, o’zini tanish darajasiga ko’tarilguncha ilm egallashi, odob qoidalariga muntazam rioya etishi, yaqinlari, birodarlari, ustozlarining dilini ravshan etadigan

muloyim xulqli bo'lishi, boshqalarga dag'allik qilmasligi, insof doirasidan chiqmasligi, birovga ozor yetkazmasligi, mayda-chuyda ishlar bilan qanoatlanmasligi, omonatni saqlay bilishi, rahm-shafqatli bo'lishi, ota-ona va ustozlar o'gitiga qat'iy amal qilishi, eng asosiysi, bularning barchasini sidqidildan bajarishi lozim. Demak, insonning sadoqati ajdodlarning o'gitlari, pand-nasixatlari va vasiyatlariga to'liq va bekamu ko'st amal qilishda, ota-onaga, do'sti yorlarga bo'lgan mehr-oqibatda, el-yurti, xalqi, Vatani, ona zaminini sevish, ardoqlash va himoya qilishda namoyon bo'ladi.

O'zbek xalqining ma'naviy merosi, ota-bobolarimizning o'z hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, avlodlarga qoldirgan o'gitlari, pand-nasihatlaridan nafaqat O'zbekiston xalqi, balki butun dunyo xalqlari bahramand bo'lib kelmoqdalar. Agar mana shu meros, ajdodlarimizning avlodlar uchun qoldirgan pand-nasihatlari, badiiy va ilmiy asarlari avloddan avlodga o'tib kelmaganida edi, insoniyat bunday taraqqiyotga erishmagan bo'lardi. Shu nuqtai nazardan, har birimizdan ajdodlarimiz merosi va vasiyatlariga sodiq qolib, ularning ko'rsatmalariga amal qilgan holda turmush kechirishimiz va mehnat qilish talab etiladi.

Ota-ona, oilaga bo'lgan sadoqatimizni ota-onalarimizning og'irini yengil qilish, turish-turmushidan xabar olib turish, shirin so'z bilan ularning ko'ngillarini ovlash, ezgu ishlarimiz bilan ularning haqlariga duoi salomlar yetkazish orqali namoyon qilishimiz mumkin. Darhaqiqat, kishi biror ezgu ishni amalga oshirsa, birovning dardiga malham bo'lsa, el-yurtning tinchligi, osoyishtaligi, farovon turmushi uchun qayg'ursa, xalqimiz "otasiga rahmat", "oq sut berib oqqan onasiga rahmat" deb duoga qo'l ochadi. Har qanday ota va ona uchun farzandi orqasidan rahmat eshitish eng katta baxtdir. Farzandlarni kiyintirish, yedirib ichirish, tarbiyalash, ilmu ma'rifatli qilish, ularga mehr berish kabilar orqali har bir ota o'z oilasi va farzandlari oldidagi burchini ado etgan va ularga nisbatan sadoqatini namoyon etgan bo'ladi.

Burch – ma'naviy sohada yuksak mas'uliyat, lafzi halollik, va'daga vafo qilishni, huquqiy sohada qonun hujjatlari, shartnoma, xizmat bo'yicha yuklangan majburiyatni anglatuvchi tushuncha. Burch – inson ma'naviyatining tarkibiy qismi, ma'naviyat falsafasining fundamental kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Bu

tushuncha shaxsning zimmasiga qo'yilgan talablarga nisbatan mas'uliyati va majburiyatini bajarish ma'naviy zaruratga aylanishini ifodalaydi. Ma'naviy qadriyat – burchning manbai inson bo'lib, uning mazmun-mohiyati jamiyatga, ijtimoiy tuzilmalarga halol xizmat qilish munosabatida namoyon bo'ladi. Burch kategoriyasi mas'uliyat, o'zlikni anglash, vijdon, xulq kabi tushunchalar bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi. Chunki burch insonning ma'naviy qiyofasini tavsiflovchi voqelikdir. Burch ijtimoiy individual xususiyat va subyektiv jihatlarga ega. Avvalo, u mas'uliyat, majburiyat kabi umuminsoniy qadriyatlarga tayanadi.

Har bir kishining oila, ota-ona, Vatan, xalq oldidagi umumiy burchi bilan bir qatorda, burchning individual darajasi ham mavjud. Burch muayyan shaxsga xos va'daga vafo, o'z so'zida turish, obro'-e'tibor va sha'nini saqlash, halollik kabi xislatlarda yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bois burch va halollik bir-birini taqozo etadi. Ma'lumki, burchning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari Konstitutsiya va qonunlarda o'z aksini topgan. Uning iqtisodiy asoslarini turli shartnomalarda yaqqol ko'rish mumkin. Burch erkin, anglangan holda tanlab olingan taqdirdagina ma'naviy-axloqiy kategoriya sifatida amal qiladi.

Burchning negizlaridan biri iymon-e'tiqod bo'lib, bunday sifatga ega bo'lgan inson uni teran anglaydi, unga sadoqatli bo'lishga intiladi. Inson ma'naviyatida burchning alohida ahamiyati barcha soha vakillari faoliyatida dolzarblik kasb etadi. Burch vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Shu bois xodim o'z xizmat vazifasiga vijdonan, o'ta mas'uliyat bilan yondashishi talab etiladi.

Umuman, xodimning xizmat faoliyati va har bir xatti-harakati zamirida burchga, qasamyodga, el-yurtga sadoqati uning martabasini ziyoda qiladi va xalq ishonchini qozonishga olib keladi. Burch - insoniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi, ichki ishlar idoralari xodimlari burchi kabi kasblar doirasidagi tushunchalari ham mavjud. Burchning muhim jihatlaridan yana biri uning ma'lum vaqt mobaynida va jamiyatda o'ziga xos tarzda namoyon bo'lish xususiyatiga ega ekanidir.

Chunonchi, bir tuzum yo jamiyatda ijobiy hisoblangan burch talablari boshqasi uchun salbiy ma'no kasb etishi mumkin. Harbiylashgan va o'ta mafkuraviylashgan jamiyatlarda esa burch omma hamda shaxs hayotida fojiaviy tus olishi ham mumkin. Ustalik bilan yo'lga qo'yilgan targ'ibot natijasida bunday jamiyat a'zolarining ko'pchiligi oqni qora, qorani oq deb qabul qiladi.

Bu umumbashariy va milliy qadriyatlarni oyoqosti qilgan shafqatsiz totalitar tuzumlar mafkurasi va amaliyotida yaqqol namoyon bo'lganligini hozirgi keksa avlod yaxshi biladi. Tarixda o'z burchiga sadoqatli bo'lgan kishilar taqdiri og'ir kechganiga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, muhojirlikda yurgan Furqat mustamlakachilar mafkurasiga xizmat qilganida hayoti rohat-farog'atda kechishi mumkin edi. Lekin u Vatan va xalq oldidagi burchiga sodiq qolib, muhojirlikning og'ir qismatiga duchor bo'ldi, Vatanda yiroqda vafot etdi. Ba'zan burch tufayli kishilar sevgisidan, hatto aka-ukasi, opa-singlisi yoki farzandidan kechishga ham majbur bo'ladi.

Konstitutsiyamizda qonunlarga rioya etish, boshqa kishilarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, xalqimizning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosini avaylab-asrash, tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lash, Vatanni himoya qilish har bir fuqaroning burchi ekani qayd etilgan. O'z burchiga sodiqlik har bir kishining axloq-odobi, ma'naviy qiyofasini ifodalasa, so'zining ustidan chiqmaydigan, o'z burchini bajarmagan kishilar xalq orasida hurmat topmaydi. Burch o'z-o'zidan shakllanmaydi, u tarbiya jarayonida kamol topadi. Shu ma'noda, o'z burchini yaxshi anglaydigan, o'ziga talabchan, ishi, bilimi va kuch-quvvatiga ishonadigan, o'z qadr-qimmatini saqlay oladigan barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish bugungi kunning eng muhim vazifasidir.

Burch bajarilishi lozim va talab etiladigan vazifa, ya'ni majburiyat. Shaxsning ota-onasi, farzandlari, yoru do'stlari, ustoz-murabbiylari, Vatani, xalqi va kasbi oldidagi burchlari mavjud. Biroq ushbu burchlarni hamma ham birdek to'liq ado etavermaydi. Shuning uchun ham jamiyatda insonlar o'rtasidagi turli munosabatlarda muammolar paydo bo'ladi, insonlarning haq-huquqlari buziladi, huquqbuzarliklar va

jinoyatlar sodir etiladi.

Konstitutsiyamizning 52-moddasida O’zbekistonning har bir fuqarosi zimmasiga Vatanni himoya qilishdek muqaddas konstitutsiyaviy burch yuklatilgan. Xalq va mamlakat rahbariyati ishonch bildirgan kishilar o’z vazifalarini puxta va halol bajarsalar, Vatan va xalq osoyishtaligi ta’minlanib, barqaror taraqqiyot davom etadi. Buning uchun barchamizdan vijdonimiz uyg’oq bo’lishi kerak. Chunki bugun islohotning qay darajada amalga oshishi nafaqat rahbarlarning dunyoqarashiga, balki ularning halol va pok, tadbirkor va tashabbuskor bo’lishiga bog’liqdir.

## 4. KASBIY MA’NAVIYATDA ETIKET NORMALARI VA ULARNING XODIMLAR FAOLIYATIDA NAMOYON BO’LISHI

Axloqiy madaniyatda yaqqol ko’zga tashlanadigan munosabatlar ko’rinishidan biri, bu - etiket. U ko’proq insonning tashqi madaniyatini, o’zaro munosabatlardagi o’zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o’z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya’ni bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo’lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtirib qo’yilgan xatti-harakatni taqozo etadi.

Etiketning qamrovi keng, u, ma’lum ma’noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o’z ichiga oladi. Masalan, siyosiy arbob etiketi, mehmondorchilik etiketi va h.k.

Etiketga rioya qilishning mumtoz namunasini biz tez-tez ijtimoiy tarmoqlar va televideniye orqali ko’rib turamiz. Bu jarayon ayniqsa, davlat rahbarlariga horijiy mamlakatlar elchilarining ishonch yorliqlarini topshirish marosimlarida yaqqol ko’zga tashlanadi. Unda faqat bir xil holat, xalqaro miqyosda o’rnatilgan qoida hukmron. Uni Prezidentning ham, elchilarning ham buzishga haqqi yo’q. Yoki juda oddiy, kichkina bir misol: dasturxonda tanovul payti, pichoqni o’ng qo’lda ushlash zamonaviy mehmondorchilik etiketining qat’iy qoidalaridan biri sanaladi - uni buzish atrofdagilarda hayrat va istehzo uyg’otadi. Shu bois etiketni odat tusiga aylantirilgan, qat’iylashtirilgan muomala odobi deyish ham mumkin. Etiketning bunday zamonaviy

ko'rinishlari bilan birga, shunday milliy-an'anaviy shakllari ham borki, ularsiz millat madaniy hayotining tasavvur qilish qiyin. Masalan, salomlashish odobini olib ko'raylik.

Etiketning bu turiga ko'ra, ko'chadan o'tib ketayotgan odam, ko'cha bo'yida o'tirganlar yoki turganlarga salom berishi kerak, salom berganda o'ng qo'l chap ko'krakda, yurakning ustida turishi, bosh esa yengil ta'zimga egilishi lozim. Ko'rishish etiketida esa qo'lning uchini berib salomlashish ko'rishayotgan odamga nisbatan ginaxonlik, xafagarchilikni bildiradi - odobdan emas. Ko'rishganda yosh yoki martaba nuqtai nazaridan katta kishi birinchi bo'lib qo'l uzatishi lozim; ayollar bilan ko'rishganda ham erkak kishi tomondan shunday etiket qoidasi bajarilmog'i talab qilinadi.

Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa katta ahamiyatga ega. To'y marosimida, xususan, qiz bilan ota-onaning xayrlashuvi, nikoh kechasiga kirib kelishda kuyovning kelinni chap tomonda tutib, to'yxonaga boshlab kirishi v.h. etiket qonun-qoidalari to'liq bajarilishi lozim. Yoki aza marosimida fotihaga kelgan odamlarni milliy to'n va do'ppi kiygan, belbog' bog'lagan holda, qo'l qovishtirib, boshni bir bu quyi tutgan tarzda kutib olish qat'iy qoidaga asoslanadi. Bular, bir qarashda, etiketning milliy yoki kasbiy udum, odat, rasm-rusmlardan farqi yo'q ekan, degan taassurot qoldirishi mumkin. Bu yuzaki, yolg'on taassurot. Chunki udum, odat, rasm-rusmlar muayyan darajada erkinlikka ega, ba'zan ularni bajarmaslik ham mumkin. Lekin etiketda buning imkoni yo'q – etiket qonun-qoidalari majburiylik tabiatiga ega.

Etiketning yana bir alohida jihati bor: unda odob bilan go'zallikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin, qat'iy odob qonun-qoidalari chiroyli xatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, etiket estetika bilan ham bog'liq, aniqrog'i, o'zni tutish estetikasi talablariga javob beradi. Shunday qilib, etiket - takallufning mayda-chuyda jihatlarigacha ishlab chiqilgan odob qoidalari sifatida ijobiy, kishining ko'zini quvontiradigan muomala hodisasi. Lekin, ayni paytda, u asl axloqiy asosini yo'qotgan majburiy mulozamat tarzida ham namoyon bo'ladi: etiket qoidalarini bajarayotgan kishi aslida o'z xohish-ixtiyoriga qarshi ish ko'rayotgan

bo'lishi ham mumkin. Bu jihatdan u munofiqlikning bir ko'rinishiga aylanadi. Masalan, siz biror yoqqa shoshilib, darvozadan chiqdingiz, deylik. Ro'parangizda tanishingiz yoki qo'shningiz uchraydi. Siz ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, so'ng sharqona etiketga rioya qilib uni: "Qani uyga kiramiz, choy qilamiz, bir hangomalashamiz", deb ichkariga taklif qilasiz. Lekin, aslida, siz uning uyga kirishini aslo istamaysiz, vaqtingiz yo'q, hatto, shu uchrashganda ketgan vaqtingizni o'ylab, pitirlab turibsiz.

Demak, siz o'z istagingizga qarshi, etiket-mulozamat yuzasidan yolg'on gaplarni aytasiz, xunuk eshitilsa ham na chora - munofiqlik qilasiz. Shunga qaramay, umuman olganda, etiket shaxsni muayyan tartib-qoidaga, qanday ichki ruhiy sharoitda bo'lmasin, bosiqlikka, muloyimlikka va sabr-toqatga o'rgatishi bilan ahamiyatlidir. Xalqaro etiketning asosiy xususiyatlari uning universalligidadir. Turli mamlakatlar vakillarining, siyosiy qarashlar va turli dinlarga e'tiqodning, milliy an'analar va ruhshunoslikning, turli hayot tarzi va madaniyatlarning bevosita muloqotlari xalqaro etiketning asosini tashkil etadi.

Har bir millatning ehtirom qoidalari bu milliy urf-odatlar va xalqaro etiketning murakkab uyg'unligidir. Bugungi kunda zamonaviy xalqaro etiket barcha mamlakatlar va o'tib ketgan avlod-ajdodlar madaniyatining eng qimmatbaho qismini o'zlashtirib kelmoqda. Uning rivojlanib borish jarayoni davomida u, turli mamlakatlar vakillari muloqoti orqali xalqlarda mavjud eng yaxshi ehtirom meyyorlarni mujassam qilgan holda boyitilib bormoqda.

Har bir mamalakat o'z etiket tamoyillariga ega va ular xalqaro etiketning ajralmas qismi hisoblanadi[5]. Masalan, quyidagilar:

**Fransiya.** Fransiya etiketning vatani hisoblansa-da, unga boshqa mamlakatlardagi kabi katta e'tibor berilmaydi. Bir necha asrlar davomida Fransiyada "fransiyalik o'zini qay tarzda tutsa bu etiketdir", degan fikr saqlanib kelmoqda. Farang tili — jahon va diplomatiya tili. Bu borada, fransyaliklarning fikricha, hech narsa o'zgarmagan. Boshqa xalqlardan farqli o'laroq fransiyaliklar horijliklar

[5] Muhammadjonova L., Ortiqova D., Obidjanova F., Masharipova G. Professional etika va etiket. Darslik. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2018. – B. 129.

ularning tilini nafaqat bilishlarini, balki juda yaxshi darajada bilishlari kerakligini zaruriy, deb hisoblashadi. Fransiyada bir-birini qay darajada bilishidan qat'iy nazar qo'l berib salomlashish zaruriy odat tusiga kirgan. Bir kun davomida bir kishi bilan ikki marta, go'yo bu insonni birinchi bor ko'rayotgandek, qo'l berib salomlashish, ayni hurmatsizlik belgisi hisoblanadi. Suhbat chog'ida fransuzlar bir-birlarining gaplarini bo'laveradilar. Bu narsa tarbiyasizlik alomati sifatida tan olinmaydi, balki aksincha, suhbatdoshlarini diqqat bilan tinglayotganliklarini anglatadi va suhbatga qiziqishlari yuqori darajada bo'lgani uchun o'z fikrlarini tezroq bildirmoqchi bo'lganliklarini namoyon qiladi. Boshqa millatlar suhbatida mumkin bo'lgan hollar fransiyaliklar uchun tarbiyasizlik belgisi bo'lishi mumkin. Fransiyaliklar suhbat davomida qo'llari bilan harakat qilishni yaxshi ko'radilar. Ular ayni qo'llari yordamida o'z fikrlarini aniqroq yetkazadilar. Fransiyaliklar qo'llari harakatlaridan suhbatdoshning ichki dunyosi, intellektuali darajasi va ichki hissiyotlari haqida bilish mumkin. Ular hayotdagi barcha hollar uchun qo'l harakatlarini ishlatadilar: biror narsa yoqmagan hollarda, ishonchsizlikda, kechirim so'raganda, taajjublanganda, o'zini yo'qotib qo'yganda va sog'inganda.

**Buyuk Britaniya.** Inglizlarning asosiy fazilatlariga o'z-o'zini tuta bilshi, aytmoqchi bo'lgan gaplarini oxirigacha suhbatdoshiga yetkazmaslik, o'z muammolarini ichida saqlab yurish qobiliyati, yetarli darajada ochiq aytmaslik, mulkni qadrlash, mustaqil bo'lish xususiyatlari kiradi.

Fikr almashganda inglizlarning bosiqligi — suhbatdoshga bo'lgan hurmat belgisi. Suhbat davomida inglizlar qat'iy tushunchalardan voz kechib, "menimcha", "mening fikrimcha", «men o'ylaymanki» kabi tushunchalarni ishlatadilar. Suhbatdoshning gapini hech bir inkorsiz tinglash, gapiralayotgan fikrga rozilikni bildirish emas, aslo. Inglizlarning fikricha, barcha hayotiy voqealarda o'zini tuta bilish insonning asosiy fazilatidir. Muzokaralar odatda qisqa ob-havo to'g'risidagi yoki dunyo va mamlakat, sport yangiliklari haqidagi xabarlardan boshlanadi. Ob-havo haqida suhbatlashish inglizlar uchun nafaqat suhbat uchun eng qulay mavzu hisoblanadi, balki asosiy mavzuga o'tishga yoki suhbat davomida paydo bo'ladigan bo'shliqlarni to'ldirishga yordam beradi.

**Angliyada** ko'rishganda, ayollar qo'lini o'pish va hamma borligida "naqadar go'zal libos!" yoki "juda ajoyib tort!" kabi maqtovlar juda noo'rin hisoblanadi. Stol atrofida alohida suhbatlar qurish mumkin emas. Barcha o'tirganlar gapirgan kishini tinglashi va notiq o'z navbatida, boshqalarga eshitarli qilib so'z yuritishi zarur.

**Germaniya.** Germaniyada ehtirom, yaxshi muomala, sipo va kamtar kiyinish uslubi, murojaatlarda shartliliklarga amal qilish, aniqlik va ishbilarmonlik qadrlanadi. Germaniyaliklar o'z hurmatlarini biladilar hamda Germaniya Yevropa yuragi ekanligini hamisha yodlarida tutadilar. Muomala qilinayotgan paytda daraja va familiyalarni aytish qabul qilingan. Har bir muomaladagi shaxsning titulini aytib ketish muhimdir. Agar titul noma'lum bo'lsa, "doktor janoblari" deb murojaat qilish mumkin.

Germaniyada yoshi kattaroq yoki mansabi yuqori bo'lgan shaxsning tashabussi bilan kelishib olinmagan bo'lsa, "sen", deb murojaat qilish tavsiya etilmaydi. Qo'l berib salomlashish keng tarqalgan bo'lib, hatto qisqa muddatlik hayrlashish chog'ida ham keng ishlatiladi. Ayollar qo'l berish istagini bildirgunga qadar kutib turish tavsiya qilinadi. Odatda taklif etilganlarning hammasi bilan qo'l berib salomlashish keng tarqalgan. Istisnoni juda ko'p kishilar taklif etilgan hollar tashkil etadi. Restoranda atrofdagi taklif etilganlar, hatto noma'lum shaxslar bilan "Yoqimli ishtaha" ma'nosini anglatuvchi tushunchalar bilan salomlashiladi. Biror ichimlik iste'mol qilishdan avval bokal ko'tarilib, mezbon bokali bilan urishtiriladi (ammo, masalan, Fransiyada bokal ko'tariladi, lekin urishtirilmaydi).

**Amerika Qo'shma Shtatlari.** Amerikada o'z fikrini to'g'ridan-to'g'ri mumkin qadar ochiqchasiga bildirish qabul qilingan. Amerikaliklar o'zlari nima haqida o'ylasalar, hamisha shuni gapiradilar. Boshqa xalqlarda keng tarqalgan tildagi chuqur ma'no, mubolag'a amerikaliklarni to'g'ri fikrdan yanglishtiradi: ular har bir jumlani so'zma so'z qabul qilishga, aniq ekanligiga ishonch hosil qilib, tushunmagan narsani qabul qilmaslikka o'rganib qolganlar. Amerikaliklar uchun eng asosiysi bu individuallik va shaxs huquqidir. Shu bilan birga, ularning xususiyatlaridan biri, bu to'g'ri so'zlik va samimiylikdir. Amerikaliklar sodda va qulay kiyinishni, o'zaro oddiy va norasmiy muloqotni hamda korxonalarda rahbar va ishchilar o'rtasida

demokratik munosabatda bo’lishni afzal ko’radilar.

Amerikaliklar sog’lom, harakatchan, o’ziga ishongan, o’zlashtiruvchan bo’lib ko’rinishga harakat qiladilar. Ular vaqtni tejab, punktuallikni qadrlaydilar. Kechga qolishga yo’l qo’yilmaydi, kechga qolish hech bir narsa bilan oqlanmaydi. Muzokaralarda ular tezda asl maqsadga o’tadilar va rasmiyatchilikka vaqt ketkazishni yoqtirmaydilar. Muzokaralar qisqa fursatli, yuzma-yuz olib boriladi va professionalizm va maqsad sari intilishlarga qaratilgan bo’ladi.

**Yaponiya.** Yaponiya har doim o’zining an’anaviy yapon xushfe’lligi va xushmuomaligi bilan tanilgan. Yaponiyada yoshu qari past ovozda gaplashadi. Yaponlarda birmuncha issiqlik bo’lmasa-da, juda xushmuomala xalq hisoblanadilar. Yaponlar uchun xushmuomalik va odob-axloq qoidalari deyarli muqaddas hisoblanadi. Yapon etiketi ma’nosini tushuntirish uning tamoyillaridan boshlanadi. Yaponlarning oilaviy kutubxonasida boshqa adabiyotlar bilan birga etiket bo’yicha ko’rgazmali kitoblar, xushfe’llilik qonunlarini o’rganish uchun amaliy qo’llanmalarni uchratish mumkin. Idoralar va hukumat muassasalarida yangi xodimni ishga qabul qilishdan oldin, uning etiket qoidalarini qay darajada bilishini tekshiradilar. Yapon etiketi insoning uyda, ko’chada, ishda qanday tuta bilishi kerakligini belgilaydi. Yaponlar choyni qanday uzatishni, qanday kiyinishni, bosh kiyimlardan qanday foydalanishni bilishlari shart. Yevropa etiketidan farqli o’laroq, yapon etiketi qoidalari bo’yicha zinadan harakatlanayotganda erkak kishi chap tarafda turishi, zinadan ko’tarilayotgan paytda erkak kishi ayol kishidan avval, zinadan tushayotgan paytda esa erkak kishi orqada bo’lishi kerak. Yaponlar xushmuomala va o’zini qo’lga ola bilgan insonlardir. Ular uchun boshqa dunyo xalqlari kabi etiket qoidalari juda muhimdir. Yaponlar o’zlarining an’analariga boshqalarning rioya qilishini majburiy deb hisoblamasalar-da, ularga rioya qilganlarga nisbatan samimiy minnatdorchilik bilan muomalada bo’ladilar. Yaponiyada bosh egib so’rashish an’anasi hali ham keng tarqalgan bo’lgani uchun mehmonlarga ham bunga javoban biroz boshini egib salomlashish tavsiya qilinadi.

**Xitoy.** An’analarga alohida yondashish, tartib, o’rnatilgan qoida va an’analarga amal qilish uning xulq va odob ta’limotining asosi bo’lib qolgan. Hozirgi paytda

konfutsianlik shartlari va insonlar o'rtasidagi munosabatlarning jiddiy vertikal tizimi ortda qoldi. Muomala qilish, xulq-atvor tamoyillari, kiyim shartlari jamoat ierarxiyasiga bog'liq bo'lmagan holda qat'iylik tusini yo'qotdi. Ayollar erkaklar kabi bir xil imtiyozlarga ega bo'ldilar. Shu bilan birgalikda, kattalarga hurmat va milliy madaniyat, tarix, adabiyotga nisbatan e'tibor tuyg'ulari saqlanib qoldi. Shuni yodda tutish kerakki, Xitoyda etiketning asosiy xususiyati xushmuomalalikdir. Xitoyda yoshi katta yoki notanish shaxslar bilan muomualada "siz", deb muloqotda bo'lish, Yevropa davlatlariga nisbatan kam ishlatiladi.

Xitoyliklar asosan muloqotda bo'lganda "sen", deb muomalada bo'ladilar, bu, o'z navbatida, rus yoki, masalan fransuz kishilik olmoshiga to'g'ri keladigan to'liq analog bo'lib hisoblanmaydi. Muloqotda shaxs hurmat yuzasidan ikkinchi shaxsga nisbatan kishilik olmoshi o'rniga - janob (xonim) va familiyasini qo'shib murojaat qilishi mumkin[6].

**Arab davlatlari.** Arab etiketi arab dunyosining yozilmagan urf-odat qonunlarini ajralmas qismi hisoblanib, bajarilishi shartdir. Shu kunga qadar arablar jamiyat hayotining hamma sohalarida arab etiketiga rioya qilib kelmoqdalar.

Arab etiketi tipologik ravishda sharq xalqlari, asosan islomiy xalqlar etiketiga o'xshab ketadi. Arab etiketining alohida xususiyatlari – bu mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish, kamtarlik, jasurlik hamda yuqori shakllangan burch va do'stlik hissidir. Arablar uchun eng muhimi bu jamiyatdagi obro' e'tibordir. Obro'-e'tiborga ega bo'lish uchun bir qancha xususiyatlarga ega bo'lish kerak, bu esa xalqni burch va axloqiy anglash tushunchasi bilan aks etadi.

Bu tushunchalar quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassam etgan: rostgo'ylik, jasurlik, kattalarni hurmat qilish va saxiylikdir. Arablar insoniy xislatlar ichida samimiylikni yuqori qadrlaydilar. Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarda burch, majburiyat haqidagi tushunchalar muhim rol o'ynaydi. Arablar sergap, jiddiyatsizlik, yengiltaklik kabi xislatlarni qoralaydilar.

Xulq-atvor qonunlarida qo'shnichilik va mehmondo'stlik munosabatlariga

---

[6] Muhammadjonova L., Ortiqova D., Obidjanova F., Masharipova G. Professional etika va etiket. Darslik. – Toshkent: Adabiyot uchqunlari nashriyoti, 2018. – B. 131.

alohida ahamiyat berilgan. Arablar uchun mehmonni yaxshi kutib olish nafaqat majburiyat, balki muqaddas burchdir.

## 5.MUOMALA MADANIYATI, UNING ASOSIY SHAKL VA QOIDALARI

Kasb etika albatta insoniyatning turmushiga, insoniy ehtiyoji mohiyatiga bog’liq bo’ladi, ammo ijtimoiy va individual ong darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatda insonlarning xatti-harakatini boshqa shakllar qatorida Kasb etika ham ko’plab individlarning faoliyatlarini muvofiqlashtirishga, uni muayyan ijtimoiy qonunlarga bo’ysungan birlashgan umumiy faoliyatga aylantirishga xizmat qiladi.

Muomala har qanday odam, jamiyat faoliyatining zaruriy va umumiy sharti, har tomonlama rivojlanishining muhim omili, ongli odamni tabiatdan ajratib turuvchi mezonlardan biridir. Muomala juda murakkab jarayon bo’lib, u odamlarning o’zaro iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ijtimoiy-ma’naviy munosabatlarini, aloqalarining yigindisidan tashkil topadi.

Muomala madaniyatining shakllari juda ko’p, ularning ichida uchtasi alohida ko’zga tashlanib turadi:

- xulq-atvor madaniyati;
- tashqi ko’rinish madaniyati;
- nutq madaniyati.

Muomala madaniyati ushbu shakllarining barchasi bir vaqtning o’zida har bir odamda ichki mazmun va mohiyat, tashqi ifoda hamda ularning mushtarakligi yoki mushtarak emasligi tarzida sezilib turadi.

Muomala madaniyati uch tarkibiy qismdan iborat:

1. Fe’l-atvorning ichki mazmuni va mohiyati;
2. Yurish-turishning tashqi ifodasi;
3. Ular o’rtasidagi uygunlik va mutanosiblik darajalari.

Xulq-atvorning ichki mazmuni va mohiyatini shaxs axloqiy-huquqiy va estetik ongining rivojlanish darajasi tashkil etsa, tashqi ko’rinishini ularning sintezi bo’lgan estetik did, fahm-farosat belgilaydi. Har ikkalasining uyg’unligi va mushtarikligi esa yuksak madaniyat sohibi ekanligidan darak beradi.

Muomala madaniyatining umumiy qoidalari quyidagilardan iborat:

1. Odob va ehtiyot bilan muomala qilishdan hamma maqsadlar ro'yobga chiqadi. Muloyimlik bilan aytilgan so'zlar ko'ngilga roxat baxsh etadi. Shuning uchun hamma bilan odobga rioya etib muomala qiling, ochiq yuzli, shirin so'zli bo'ling.

2. Bir narsadan xafalanib, achchigingiz kelib turgan vaqtda hech kim bilan so'zlashmang, gazabingiz bosilguncha sabr qilib turing. Odamlarning kamchiliklarini kechiring, har ishda fikr qilish va e'tibor berishni unutmang.

3. Odamlarga aralashmay bir chetda turmang. Kim uchrasa, tekshirmay-ketmay darhol do'st bo'lib ketmang, har ishda hur fikrli, to'gri so'zli bo'ling, tilingiz va dilingiz birdek bo'lsin.

4. Qo'pol muomalali kishilarning muomalalariga yaxshi muomala bilan javob qaytaring.

5. O'zingizdan kichiklarni xo'rlamang, aqlingiz va martabangiz bilan maqtanmang, har kimning o'ziga munosib muomala qiling.

6. Hamsuhbatingiz go'zal muomala qilishini istasangiz, avval o'zingiz unga go'zal muomala qiling.

7. Xalqqa yaxshi ishlarni so'zlang, yomon ishlarni yashiring. Odamlar bilan muomalangiz shunday bo'lsinki, hayotingizda sizni sevsinlar, vafot etganingizdan keyin sizni eslab, qaygursinlar.

8. Juda zarur bo'lib qolgan vaqtdagina xalqdan yordam so'rash mumkin. Xalqqa o'z og'irligingizni solmang, ularning mollariga tama qilmang, o'zingiz ishlang, mehnat qiling rizq-ro'zingizni o'z mehnatingiz bilan yarating.

9. Bir ishni bajarishga ahd qildingizmi, so'zingizning ustidan chiqing, va'dangizga vafo qiling. Kim bilan do'st bo'lsangiz, do'stlikka sodiq bo'ling. Odamlarning shodliklariga shodlaning, qayg'ulariga qayg'uring. O'zingiz sevmagan narsani boshqalarga ravo ko'rmang.

10. Jamiyat manfaati uchun xizmat qiling, bu yo'lda sarflagan vaqtingizga achinmang, chunki boshqalarni seving, ularga yordam bering, kamchiliklarini tugatish uluglik va odamgarchilik belgisidir.

Quyida e’tiboringizga havola qilinadigan tavsiyalar qo’l berib so’rashishning odobiga tegishlidir:

1. Uzatilgan qo’l albatta muallaq qolmasligi kerak, bu – insonni yerga urish bilan barobar bo’lib qoladi.

2. Ikki qo’l bilan qo’lni siqib so’rashish haddan tashqari xursand holatda, minnatdorchilik belgisi sifatida qabul qilinadi.

3. Ikki qo’l berib so’rashish paytida albatta so’z bilan ifodalanadi, bunda minnatdorchilik so’zlari va boshqa iliq so’zlar qo’llash mumkin.

4. Qo’l berib so’rashish tez va qisqa bo’lishi lozim.

5. Qo’l berib so’rashish davomida ozgina egilib qo’yish, so’rashayotgan insonga nisbatan hurmatni belgilaydi.

6. Ostonada, stol ustidan qo’l berib so’rashish xunuk ko’rinadi.

7. Tanishini ko’rib qolgan taqdirda ham binoning boshidan bu boshiga qo’lni cho’zib kelish insonni kulgili holatga solib qo’yadi.

8. Ayol kishi bilan uchrashib qolganda, ayol birinchi bo’lib qo’l uzatmaguncha erkak qo’l uzatmaydi.

9. Ayol kishini qo’lini ko’p ushlab turish mumkin emas, bu uni noqulay vaziyatga solib qo’yishi mumkin.

Salomlashganda jargon, ko’cha so’zlarini, buzib talaffuz etiladigan “privetik”, “salyutik”, “chao”, “poka” kabi so’zlarni ishlatmaslik maqsadga muvofiq. Odatda, ro’paradan keluvchi kishiga u yetib kelguncha, ya’ni orada 3-4 qadam qolgach salom beriladi. Sizga mutlaqo tanish bo’lmagan kishi salom bersa, albatta “alik” olish va uning yanglishganligini sezdirmaslik kerak. Bunday holatda yelka qisish yoki hayron bo’lib qarash odobsizlik hisoblanadi. Umuman, o’zbekchilikda salomlashishni o’zi hamsuhbatingizning sizga bo’lgan munosabatini shakllantiradi.

G’arb odatiga ko’ra yoshi katta ayollar bilan ko’rishayotganda o’rnidan turib, tavoze’ bilan boshni silkitib salomlashiladi. Bizda esa bu nafaqat katta yoshlilar, balki umuman xotin-qizlarga nisbatan ham qo’llaniladi. Zero, har bir qiz yoki ayol o’sha xonadon egasining nomusi hisoblanadi. Bu bilan erkak boshqa bir erkakni oriyati va hurmatini o’z joyiga qo’yayotgan hamda boshqalardan ham o’ziga nisbatan shuni

talab qilayotgan bo’ladi.

Agar ayollar qurshovida bo’lsangiz, unda umumiy ravishda bir marta salomlashib qo’yiladi. Etiketni buzilishi ko’rishuvning shovqinli tarzi hisoblanadi. Odamlar oldida hozir bo’lishingiz bilan salomlashuvingiz u darajada o’zingizga qaratadigan tarzda bo’lmasligi lozim. Salomlashuv, tanishuv yoki suhbatdoshlik uchun eng qulay madaniyatli usuli hisoblanadi.

Muomalada yuzaga keladigan ziddiyatlar taraqqiyot ziddiyatlarning paydo bo’lishi, rivojlanishi va bartaraf qilinishi jarayonidan iborat. Shunga ko’ra, ziddiyatlarning ko’rinishi ham har xil bo’lib, ular narsa-hodisalarning harakati va rivojlanishida turlicha ahamiyat kasb etadi.

Ziddiyatlar ichki, tashqi, asosiy, asosiy bo’lmagan kabi ko’rinishlarga bo’linadi. Jumladan, ichki ziddiyatlar – narsa va hodisalardagi ichki jarayonlarning ifodasi, harakatlanishning manbai hamda rivojlanishning asosiy sababidir.

Tashqi ziddiyat - narsa va hodisalar o’rtasidagi munosabatlarning ifodasi hisoblanadi. Jamiyat rivojlanishining mazmuni va mohiyati ham asosan ichki ziddiyatlarning xal qilinishi bilan belgilanadi. Biroq, rivojlanishda tashqi ziddiyatlarning ishtiroki kamroq bo’ladi, degan fikrga bormaslik kerak. Zero, globallashuv va integratsiya jarayonlarida tashqi ziddiyatlarning ham o’z o’rni bor. Narsa-hodisalarning mohiyatini, holatini, kelib chiqish va rivojlanish qonuniyatlarini belgilovchi ziddiyatlar esa asosiy ziddiyatlar deb ataladi.

Muomala madaniyatida ziddiyatlar anglashilmovchilik, bir-birini tushunmaslik hamda o’zaro manfaatlar to’qnashuvi natijasida kelib chiqadi. Shuningdek, ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi sabablarning xususityalariga qarab tavsiflash mumkin.

R.L.Krichevskiy o’zining “Agar siz rahbarsiz” kitobida ziddiyatlarni keltirib chiqaruvchi omillarni 3 ta guruhga bo’ladi:

Birinchi guruh – mehnat jarayonidagi ziddiyatlar.

Ikkinchi guruh – insonlararo munosabatlarning psixologik xususiyatlari, ya’ni impatiya va antipatiya, madaniy-etnik xilma-xillik, rahbar hatti-harakatlari, psixologik moslasha olmaslik va hokazo.

Uchinchi guruh – jamoa a’zolarining o’ziga xosligi. Masalan, o’zini boshqara olmaslik, ehtiroslarga berilish, tajovuz, do’q-po’pisa, haqoratlash-so’kinish, munosabatga kirisha olmaslik. Ziddiyatlar ma’muriy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalari uchun ahamiyati hal etish yo’llariga ko’ra farqlanadi, umumiy ma’noda konstruktiv va estruktiv ziddiyatlarga ajraladi. Konstruktiv ziddiyatlarga tashkilotning hayotiy muammolarini hamda ularni hal etish orqali samarali taraqqiyotga olib chiqish xos.

Destruktiv ziddiyatlar salbiy, vayronkor natijalarga olib keladi. Shuningdek, ayrim hollarda bu vaziyat janjallarga va tashkilot faoliyatining susayishiga olib keladi. Ziddiyatli vaziyatlardan o’zini tuta bilish qoidalari rahbar ziddiyatlarni nafaqat ish sohasi, balki shaxsiy emotsional sohada ham ishlata olishi zarur.

Xo’sh, ziddiyatli shaxs bilan ishlash jarayonida o’zini qanday tutish lozim:

Birinchidan - bunday odamlarda ichki o’tkinchi kechinmalar bilan bog’liq ehtiyojlar mavjud bo’lib, ular shu orqali ehtiyojlarni qondiradi. Masalan, tajovuzkor o’zining tajovuzi orqali qo’rqoqligini yashirishi mumkin.

Ikkinchidan - o’z hissiyotlarini jilovlab, boshqaning hissiyotlarini ro’yobga chiqarish uchun imkoniyat yaratishi kerak.

Uchinchidan - bunday odamlarning qilayotgan harakatlarini jiddiy qabul qilmaslik.

To’rtinchidan - ziddiyatli holatlarda muvofiq keluvchi usulni tanlash uchun bunday usullar qaysi toifa odamlarga mos kelishini ajrata olishingiz zarur. Robert Bremson tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilishning bir necha turlarini ajratib ko’rsatadi: Tajovuzkor - agar so’ziga quloq solishmasa, kishilarga tojovuz qiluvchi qo’pol va shallaqilar.

Shikoyatchi – qandaydir g’oyani o’zlashtirib olgan holda boshqalarni katta gunohda ayblovchi, biroq ushbu muammoni yechish uchun biror ish qilmaydigan kishi. “Darg’azab bolakay” – bu toifa kishilar tabiatan o’zlarining to’g’ri yoki noto’g’ri fikrlarini o’tkazishga hamda jarayonni to’laligicha qo’l ostida tutib turishga intiladilar. Maksimalist - garchand zarurati bo’lmasada, biror-bir ishni ortga sudramaydigan kishi. Indamas (pismiq) – barcha alamlarini ichiga yutib yuradigan,

biroq payti kelganda birdan portlaydigan odam. “Sirli qasoskor” (ishkallar) – biror-bir nayraglar yordamida noqulayliklarni yuzaga keltiruvchi, “noto’g’ri qilingan ish uchun o’ziga adolat o’rnatuvchi” deb hisoblaydigan kishi. Ikkiyuzlamachi yoki “Yolg’onchi g’amxo’r” – o’zini sizga yaxshilik qilayotgan kabi ko’rsatadi, biroq qalbida boshqalarga nisbatan adovat, ko’rolmaslik mavjud bo’lgan odam. “Surunkali ayblovchi” – doimiy ravishda o’zgalarning aybini qidiradigan (tirnoq orasidan kir qidiradigan), o’zini doimo haq deb hisoblaydigan shaxs.

Hayotda uchraydigan bu kabi odamlarning toifalari talaygina. Shu munosabat bilan ziddiyatli holatlarda yoki tarbiyasi qiyin odamlar bilan muomala qilganingizda siz nafaqat do’stlik degan tushunchaning ma’nosini anglaysiz, balki muomalaning yuksak sifatlarini ham o’zlashtirib borasiz.

Dialektikaning ahamiyati aynan mana shu jarayonda namoyon bo’ladi. Ko’rinib turibdiki, ziddiyatlar insonlararo muomala madaniyatida tez-tez hissiyotli holatlarni yuzaga keltiradi va ayni paytda munosabatlarni chigallashtirishga hamda murakkablashtirishga olib keladi.

Ziddiyatli holatlarni yuzaga kelganda uning oldini olish uchun quyidagilarni tavsiya etish mumkin:

1. Ziddiyatli holatlarda insonning hatti-harakatini aql emas, balki hissiyotlar boshqarishini unutmang. Zero, aql yon bergan paytda inson o’zining so’zi va hatti-harakatiga javob bera olmaydi.

2. Muomalaning ko’plab muqobil usullaridan foydalaning, suhbatdoshingizni “jerkib” tashlamang, o’zingizga “Men ham yanglishishim mumkinku!?” degan savolni bering.

3. Ziddiyatning mohiyatini to’laqonli tushunishga harakat qiling va “Mabodo ziddiyat hal etilmasachi?” degan xavotirdan yiroq bo’ling.

4. Agar suhbatdoshingiz qattiq hayajonda yoki g’azablanayotgan bo’lsa, uni “sovutishga” intiling, zinxor undan baland kelishga urinmang: o’zingiz jim bo’lingda, undan buni talab qilmang.

5. Suhbatdoshingizga o’zini sizning o’rningizga qo’yib ko’rishini so’rang, ya’ni “Agar siz mening o’rnimda bo’lganingizda qanday yo’l tutgan bo’lar edingiz?” degan

savolni berib ko’ring.

6. Qilgan xizmatingizni haddan ziyod maqtayvermang va minnat qilmang.

7. Ziddiyatni yuzaga kelishiga sababchi bo’lgan hamkoringizni ha deb ayblayvermang.

8. Har qanday holatda ham o’zaro munosabatni saqlab qolishga harakat qiling. O’ylaymizki, ushbu maslahatlar sizning kelgusi faoliyatingiz uchun zarur bo’ladi.

9. Kasbiy ma’naviyatda xulq-atvor madaniyati va xodimning tashqi ko’rinishi insonning xulq-atvor madaniyati uning tarbiyasiga bog’liq. Voyaga etganlar milliy madaniyatning tashuvchisidir. Ular bolani o’zlariga o’xshatishga harakat qilishadi. Bola nutqni va kattalarning xatti-harakatlarini nusxalashtiradi va jamiyatning bir qismiga aylanadi. Xulq madaniyati, ilmiy atama sifatida, shaxsning axloqiy va axloqiy tamoyillari aks ettirilgan barcha xatti-harakatlarning umumiyligini anglatadi. Ushbu kontseptsiya insonning ichki va tashqi madaniyatining barcha sohalarini o’z ichiga oladi: jamoat joylaridagi xattiharakatlar, odob-axloq qoidalari, kundalik hayot, boshqa odamlar bilan munosabatlar, qiziqishlar va ehtiyojlar tabiati, gigiena, shaxsiy vaqtni tashkil qilish, estetik did, pantomima, yuz ifodalari, nutq madaniyati.

Shaxsning xulq-atvor madaniyati uning axloqiy, estetik va ma’naviy qiyofasini tavsiflaydi. Bu inson o’zi yashayotgan jamiyatning qadriyatlarini qanchalik egallaganligi va qabul qilganligini va ulardan mohirona foydalanganligini ko’rsatadi. Har birimiz o’zimizni axloq qoidalari va o’zimizni tutadigan madaniyatimiz va bizni o’rnini bosadigan kishilarga rioya qilishimiz shart. Jamiyatda o’zini tutish qoidalari odamga juda yoshligidan singdirilishi kerak.

Faqat bu holatda bola kelajakda o’z mahoratidan mohirona foydalana oladi. omon odatlarni begona o’tlar bilan solishtirish mumkin. Ular tegishli nazorat va tartib bo’lmagan joylarda o’sadi. Juda erta yoshda, chaqaloq allaqachon qanday qilib yurishni va o’z tanasini boshqarishni bilganida, ba’zi sanitariya-gigienik qobiliyatlarni va boshqalarga (nafaqat kattalarga, balki boshqa bolalarga) hurmatni shakllantirishni boshlash kerak. Uch yoshga kelib, bola mustaqil ravishda echinishi va kiyinishi kerak. Bu vaqtda unga kiyim-kechak va poyafzallarni qanday tutishni o’rgatish kerak. U yaxshilab o’ralgan yoki osilgan va joyida bo’lishi kerak. Bu

ko’rinadigan darajada oson emas. Ota-onalar beparvo nazorat qilishlari va chaqaloqni boshqarishlari kerak. Natijada, bola o’ziga va narsalariga g’amxo’rlik qilish odatiga ega bo’ladi. Xulq-atvor madaniyati tishlarni yuvish, qo’llarni yuvish va yuvish qobiliyatini ham o’z ichiga oladi. Bolani bunga ko’niktirish juda oson. Boshida u sizning yordamingiz va nazoratingizga muhtoj bo’ladi. Ota-onalar o’zlarining misollari bilan bolaga boshqalar bilan qanday aloqa qilishni ko’rsatishi kerak. Olti yoshga kelib, bola salomlashishi, xayrlashishi, minnatdorchilik bildirishi va jim turishi kerak, agar kerak bo’lsa, eslatmalarsiz.

Bolalar uchun yaxshi xulq-atvor maktabga borishni boshlaganda ayniqsa muhimdir. U ko’p qoidalarni o’rganishi kerak. Bularga quyidagilar kiradi: darslarga o’z vaqtida kelish, to’g’ri o’tirish, ish joyini tartibda saqlash, qichqirmaslik, qo’lingizni ko’tarmaslik va o’qituvchilarga to’g’ri murojaat qilish. Bu ko’nikmalarning barchasi keyingi hayotda bolaga foydali bo’ladi. Ular har kuni o’qituvchilar tomonidan ishlab chiqariladi. Muvaffaqiyatli birlashtirish uchun ota-onalarning ishtiroki talab qilinadi. Biroq, qoidalarni bilish etarli emas, ularga rioya qilish kerak. Aynan shu odamlar madaniy deb ataladi.

Xulq-atvor madaniyati - bu shaxsning rivojlanish darajasidan dalolat beruvchi va uning jamiyatga uyg’un ravishda moslashishiga yordam beradigan o’ziga xos qobiliyat va odatlar to’plami. Xatti-harakatlarning dastlabki qobiliyatlari bolalarda ongsiz yoshda ham rivojlanadi. Shu sababli, yosh ota-onalar uchun ularning xatti-harakati va hayot madaniyati haqida g’amxo’rlik qilish juda muhimdir. Nazorat va aniqlik bilan uyg’unlikda shaxsiy misol albatta ijobiy natija beradi. Yaxshilikka o’rgatish hech qachon kech emas. Biror narsani sog’insangiz ham, qo’lga olish uchun har doim imkoniyat bor. Unutmangki, yomon odatni yo’q qilishga uni jalb qilishdan ko’ra qiyinroq. Sabr-toqatli bo’ling va bir daqiqaga maqsaddan og’mang. Siz o’zingizni ham, bolangizni ham nazorat qilishingiz kerak bo’ladi.

Bu oson ish emas, lekin siz albatta engishingiz mumkin. “Madaniyatli bo’lish” - bu nimani anglatadi? Tashqi va ichki madaniyatlar bir-biri bilan chambarchas bog’liq emas, ba’zida ular bir-biriga ziddir. Shunday qilib, qo’pol xatti-harakatlar bilan mashhur bo’lgan kishi boy ma’naviy dunyo va mukammal ta’limning egasi bo’lishi

mumkin va aksincha, muloyim va xushmuomala o’rtoq oxirgi so’zga rioya qilgan holda bo’sh, nodon, kasbiy va axloqsiz bo’lishi mumkin. Xulq-atvorning tashqi madaniyati bu shaxsning uning atrof-muhit bilan o’zaro ta’siri. Bu dunyo bilan - hamkasblar, do’stlar, qarindoshlar bilan aloqada, odob-axloq qoidalariga va boshqa ijtimoiy normalarga rioya qilishda namoyon bo’ladi. Jamiyat bilan aloqa qilishga tayyorgarlik (gigiena, kiyim tanlash, tashqi ko’rinishingizni tartibga solish) ham ko’rib chiqiladi! Tashqi madaniyatni sun’iy va yuzaki narsa deb o’ylamaslik kerak. U bolaligidanoq ta’lim, mashg’ulot, aloqa jarayonida shakllanadi.

Bizdagi ko’plab harakatlar dasturlashtirilgan va biz muayyan xatti-harakatlar normalariga rioya qilishdan tortinmaymiz - ishlaymiz, yo’l beramiz, yordam beramiz. Jamiyat bilan barkamol o’zaro ta’sir ko’pgina tabiiy ravishda sodir bo’ladi, chunki u deyarli tug’ilgandan boshlab shakllantiriladi. Bu o’ziga xos “hayotiy qoidalar” - oqsoqollarni hurmat qilish, xushmuomalalik, mas’uliyatli, qo’pol bo’lmaslik, kechikmaslik, ruxsat so’rash va h.k. Ma’naviy barkamol insonda tashqi va ichki madaniyatlar bir-birini eng yaxshi tarzda to’ldiradi va uyg’un ravishda ta’kidlaydi. Ruhning go’zalligi, yuqori axloqiy meyyorlar, axloq va ta’lim, vizual pardoz, barkamol nutq va boshqalarga xushmuomala munosabatda bo’lish kerak.

Haqiqatan ham yaxshi inson har tomondan chiroyli ekaniga ishonish ajablanarli emas. Tashqi qiyofa shaxsning ichki madaniyatidan kelib chiquvchi jismonan sog’lomlik, tananing bekamu ko’stligi, xatti-harakatlarning yengil va nafisligi, kiyim-bosh va aft-angorning pokiza va ozodaligi hamda ularning o’zaro mutanosibligi, aniqrog’i, tana va kiyimning o’zaro uyg’unligidir.

Inson tashqi qiyofasining ko’rkamligini belgilaydigan omillar quyidagilardan iborat:

– jismonan sog’lomlik va inson tanasining bekamu ko’stligi;

– qaddi-qomatning tik va ixchamligi, harakatchan va xushbichimligi;

– yurish, qadam tashlash, oyoq olishning to’g’ri, chaqqon, yengil va nafisligi;

– tananing kiyim, ust-bosh bilan mutanosibligi;

– aft-angor va kiyim-boshning pokizaligi, ozodaligi va boshqalar.

Odamning tashqi qiyofasiga qarab, uning ichki dunyosi, kasbi-kori, yoshi, fe’l-

atvori, jamiyatda tutgan o'rni, tarbiya ko'rgan-ko'rmaganligi to'g'risida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Jismoniy jihatdan sog'lom va go'zal bo'lish uchun pedagoglar quyidagilarga e'tibor berishi kerak: birinchidan, shaxsiy ozodalik, ya'ni badan, yuz-qo'l, soch va shu kabilarni toza tutishi kerak. Buning uchun har bir xodimning shaxsiy buyumlari – alohida sochig'i, dastro'moli, sovuni, tarog'i erkaklarning ustarasi, ayol xodimlarning atir-upasi, tirnoq olgichi, oynasi va boshqa narsalari bo'lishi lozim.

O'zgalarning narsalaridan foydalanish odobga ham, gigiyena qoidalariga ham to'g'ri kelmaydigan xunuk ish hisoblanadi; ikkinchidan, yuz insonning ichki dunyosini aks ettiruvchi ko'zgu ekanligini unutmagan holda, uni har doim yuvib turish, soqolni olish, mo'ylabni tartibga keltirish, yuzning tiniqligini saqlash, ajinlar bosishiga, yara-chaqalar chiqishiga qarshi davolash hamda peshonani, burunni tirishtirib yurmaslik choralarini ko'rish lozim. Umuman olganda, o'qituvchi xodinmlar hammaning nigohi tushib turadigan, xushro'y, yoqimli bo'lishi va undan «nur yog'ilib turishi» kerak. Shuni unutmaslik lozimki, yuzdagi xunuklik, badbasharalik odamlarni qochiradi; uchinchidan, tishning, og'iz bo'shlig'ining tozaligiga e'tibor berish lozim. Chunki tishdagi illatlar va og'iz bo'shlig'idagi kasallik insondan yoqimsiz hid kelishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun kasal tishlar davolanishi, yo'q tishlar o'rniga sun'iy tishlar qo'yilishi kerak.

Tishdagi jilo odamning istarasini issiq qilib ko'rsatadi; to'rtinchidan, soch odam husnining bezagi hisoblanadi. Sochning chiroyli qilib olinganligi va taralganligi pedagog xodimlarining tashqi madaniyatidan dalolat beruvchi ko'rsatkichlardan biridir. Soch – husn va ayni paytda, boshni issiq-sovuqdan saqlovchi vosita. Yuvib-taralmagan soch xizmat vazifasini bajarishga beparvolikni, o'ziga va tevarak-atrofdagilarga hurmatsizlikni aks ettiradi. Bu kasbiy burch talabidir; beshinchidan, qo'llar yaxshi parvarish qilinishi, tirnoqlar o'z vaqtida olib turilishi lozim. Ovqatlanish, ovqat pishirish oldidan va ovqatdan keyin qo'llar, albatta, yuvilishi kerak.

Kiyim insonni hayvonot dunyosidan ajratib turuvchi turmush ziynati hisoblanib, quyidagi vazifalarni bajaradi:

1) odam tanasini boshqalar nigohidan yashirib turish;

2) turli tabiiy sharoitlarda – qishda sovuqdan, bahor va kuzda namgarchilikdan, yozda esa quyosh nurlaridan, chang va hasharotlardan himoya qilish;

3) yurish-turish va mehnat qilishda qulaylikni ta’minlash hamda sog’liqni saqlash;

4) ko’rkamlik, go’zallik bag’ishlab, odamni latofatli va nafosatli qilib ko’rsatish. Inson tug’ilishidan boshlab yo’rgaklanadi.

Ammo hozirda dastlabki kunlardanoq kiyina boshlaydi. Kiyim insonning suratini emas, balki uning butun ichki dunyosini siyratini ham ko’rsatadigan omildir. Madaniyatlilikning asosiy belgilaridan biri ham, bu – kiyinish etiketidir. Kimning qanday kiyinishiga qarab, uning estetik didi, farosati, oddiy va ma’naviy darajasini, hatto kasbini ham aniqlab olish mumkin. Kiyinish etiketi kiyinish odobi kishilarning o’zaro muomalasiga, bir-biriga bo’lgan munosabatiga, yurish-turishiga ham ta’sir qiladi. Lekin kiyinish haqida aniq bir andoza mavjud emas. Kiyim uchun olinadigan turli narsalarning har biri kishining didi, bo’y-basti, yoshi, moddiy imkoniyatlari hamda jamiyatda tutgan o’rniga bog’liq. Inson kerak bo’lmagan xaridlardan o’zini asrash uchun doimo o’zini boshqarib turishi lozim va yangi narsalar uyingizda mavjud bo’lgan kiyimlarning uslubiga, gazlamaning rangiga mos keladimi-yo’qmi, uni boshqa narsalar bilan kiysa bo’ladimi, va h.k. larga e’tibor berishi lozim.

Kiyinish shaxsning o’ziga xos xususiyati bo’lib, hamma vaqt go’zallik, uyg’unlik, noziklik, odob, xushmuomalalik haqidagi tushuncha darajasining belgisidir. Insonning tashqi go’zalligi kiyim rangining bir-biriga mosligidir, tabiiyligi va soddaligidadir. Xushbichim va chiroyli kiyinishning ma’nosi nimada? Ko’zga tashlanmaydigan hamda kishiga tabiiy go’zallik beradigan va uning ayrim kamchiliklarini bilintirmaydigan ust-bosh, chiroyli, xushbichim, gavdaga, yoshiga va faslga mos kiyim kiyishdir. Ammo bu faqat axloqiy tarbiya bilan bog’liq emas. Balki estetik tarbiyaning qanday shakllaganligi bilan bog’liq.

Rivojlangan estetik did insonni nafaqat kiyinish, yashash umuman turmush tarzini go’zallashtiradi, balki avvaldan qaysi andoza yoki qaysi ranglar rusm bo’lishini ilg’ash qobiliyatini paydo qiladi. Badiiy asarlar, san’at turlarini estetik

idrok etish, estetik anglashni shakllantirish didga juda yaxshi ta’sir qiladi. Bunda siz nafaqat boshqalar kabi chiroyli yashashingiz, balki o’z uslubingizni yaratib, ularning tanloviga ta’sir qilishingiz ham mumkin. Erkaklar va ayollar uchun zamonaviylik. Kiyim ma’lum davr va ijtimoiy sharoitda kishilarning go’zallik haqidagi qarashlari mujassamlashadigan moda – rusm bilan bog’liq.

Kishilik jamiyati rivoji jarayonida bu qarashlar o’zgara boradi, shu munosabat bilan moda ham uzluksiz o’zgarib turadi. O’zbek xalqining milliy madaniyati, urf-odatlari asrlar davomida davr va sharoitga, jamiyat taraqqiyotiga moslashib o’zgarib kelgan. Tarixga aylangan kiyim va liboslarni qanday kiyish urfi va qoidalari deyarli istisnoli jihatlardagina o’z kuchini saqlab qolgan. Ammo odamlar kiyimlarni tanlashda va ixtiro qilishdan toyganlari yo’q. Aksincha zamonaviylikka bo’lgan talablar oldingi davrdagiga nisbatan ancha ilgarilab ketdi.

Yaxshi kiyinish o’ziga xos san’at. Kishi bu san’atni egallashi uchun moda talablariga rioya qilibgina qolmay, o’z didini ham tarbiyalashi kerak. Didni tarbiyalash uchun qonunlari meyyor va o’zaro mos tushunchalarga asoslangan san’atning barcha turlari bilan tanishib borishi lozim. Zehn bilan tanlangan orasta libos uning egasinining didini yaxshiligini bildiradi.

Ko’ylak javoni to’la bo’lmasdan turib ham did bilan kiyinish mumkin. Yangi chiqqan zamonaviy libos ketidan quvish emas, balki siz uchun zarur bo’lgan narsa haqida o’ylab ko’rgan ma’qul. Zamonaviy moda mato turlarining yangiligi, uning tusi bilan ham belgilanadi. Jiddiy erkaklarga nisbatan ayollar zamonaviylik masalalarida ko’proq qayg’uradilar.

Erkaklarga nisbatan ayollar modasi o’zgaruvchanroqdir. Yubka va kamzullar bir kaltalashib ketsa, bir-ikki yildan so’ng – uzunlashib ketadi. Ko’ylakda ba’zida belni ko’rsatib turadigan holatlari paydo bo’lsa, ba’zida aksi bo’ladi. Erkaklarga nisbatan matolarning rangdor tuslari va fakturasi turli-tumandir va albatta, turli xil zamonaviy ziynatlar ham ayollar uchundir. Ammo erkaklar umuman zamonaviylikdan yiroq desak noto’g’ri bo’lar edi. Kuchli jins sohiblarining zamonaviylikka bo’lgan qiziqishi – oxirgi yillar yetarli darajada salohiyatga ega. Oyoq kiyim qanday tanlanadi. Jiddiy kostyumlarga to’q jigarrang va qora rangdagi, qulay va sifatli oyoq kiyimlar mos

keladi. Och jigarrang yoki jigarrang oyoq kiyimlar qora kostyumga umuman to’g’ri kelmaydi. Biroq qora oyoq kiyim jigarrang kostyumga mosdir. Qalin taglik, qo’pol sportiv botinkalar tantanali chiqish uchun mo’ljallangan kiyimlarga to’g’ri kelmaydi, faqatgina sportiv kiyimlar bilan yaxshi ko’rinadi.

Ayollar kiyadigan jinsi matoli kiyimlarga baland poshnali yoki chiroyli tuflilar emas, faqat sport oyoq kiyimlar bilan yaxshi turishini bilishlari zarur. Biroq bashing shimlarga bashang oyoq kiyimlar bo’lishi kerak.

Jozibali ayol yoshi, o’z darajasi, ma’lum holatlarga nisbatan doimo mos ravishda o’zini tutadi va kiyinadi. Tashqi ko’rinishda jozibalilikka erishish zamonaviylikka nisbatan zehn bilan yondashuvdadir. Zamonaviy kiyingan ayol deganda o’ta yorqin va qimmatbaho libos bilan o’ziga jalb qiladigan ayol nazarda tutilmaydi. Zero, bashanglik libosning qimmat baholigidan emas, balki nafislik va yuksak diddan iboratdir. Zargarlik do’konidagi rastalarga o’xshab, o’zini qimmatbaho taqinchoqlarga ko’mib tashlash kulgulilikdir.

Ayolning kostyumi, uni kiya olish qobiliyati ayol kishining botiniy madaniyatiga, badiiy didning darajasiga bog’liqdir. Bu uning iste’dodini zamonaviylikka harbiy buyruqqa kabi ko’r-ko’rona taqlid qilish qoidasi emas, balki xayolotni o’yiniga turtki beruvchi shunchaki ijodiylik sifatida qabul qilishiga bog’iqdir. Aqlli ayol o’z tanlovining imkoniyatlarini bir muncha kengaytirish maqsadida zamonaviylikdan bir oz qolib ketishdan yoki undan o’zib ketishdan qo’rqmaydi va oxir oqibat u barcha mavjud imkoniyatlardan ayollik fazilatini yorqin ifodalay oladigan va illatlarini berkitadigan variantlaridan birida to’xtaydi. Barcha holatlarda ayollik fahm-farosatining qobiliyatini o’stirish va uni tarbiyalash uchun modalar jurnalini doimiy ravishda kuzatib borish yetarli emas.

Buning uchun badiiy ko’rgazmalar, teatr kabi san’atga bog’liq joylarda bo’lib turish, ko’chadagi turli-tuman odamlarni kuzatish, musiqa tinglash, odamlar orasida bo’lish, xullas, ichki didni boshqalar didi bilan solishtirish va rivojlantirish zarur. Bundan tashqari, ichki, ruhiy ayollik latofatini o’zida rivojlantirmoq lozim. Buning uchun esa yuksak darajadagi badiiy kitoblarni o’qishni, bolalarga hayrihohlik bilan jilmayishni, yoshlikdan uzoqlashayotgan qalbni qanday u ta’sirchan yoki qattiq

bo’lmasin, yumshatishni maslahat beramiz.

**Xulosa.** Ayolga xos bo’lgan nazokatni tabiatdan olishga harakat qiling: tabiatning rang-barang bo’yoqlariyu, tizmalari va uning ohangini ko’ra bilishni o’rganing va albatta ayol kishini muhabbat yanada go’zallashtiradi. Hayotning ikir-chikir tashvishlariyu qiyinchiliklariga qaramasdan sevishni o’rganing. Muhabbatsiz go’zallik tez so’nadi. Biz esa “Go’zallik dunyoni qutqaradi” degan naqlni unutganimiz yo’q. Dunyoni saqlab qolish uchun doimo go’zal bo’lishga intiling. Bunga esa agar istasa, har qanday ayol tinimsiz o’z ustida ishlash orqali erishishi mumkin: agar u kunda o’zining tabiatini tarbiyalab borsa, agar u o’ziga va qalbiga oz bo’lsa ham erinchoqlikka yo’l bermasa. Agar o’z-o’ziga nisbatan talabchan bo’lsa. Agar odamlarni hurmat qilishni, sevishni va ularga nisbatan rahm-shafqatli bo’lishga o’zini o’rgatsa. Agar o’z didini rivojlantirib, aqlini charxlasa. Agar yaqinlarini egovlab, ularni janjal bilan qiynamasa, o’ziga o’zi hadeb achinavermasa va shikoyatchiga aylanmasa. Aynan mana shulardan keyingina ayol kishiga xos bo’lgan latofat boshlanadi va hech qanday bashang liboslar uning aksini berkita olmasligini unutmang. Jizzakilik, g’azab, surbetlik, qo’pollik, hasad, xo’jayinchilikka bo’lgan ehtiros va boshqa inson gunohlarini (afsuskiy, ayollarga xos bo’lgan) qimmatbaho va yaltiroq kiyimlar bilan berkitib bo’lmaydi. Shuningdek, har bir insonda nutq madaniyatini shakllantirish zarur.

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, nutq madaniyatining asosiy meyyorlarini ajratib ko’rsatish kerak:

- Normativ. Adabiy tilni xalq tilidagi iboralar va dialektikaning kirib kelishidan himoya qiladi va uni buzilmasdan va umume’tirof etilgan meyyorlarga muvofiq saqlaydi.
- Kommunikativ. Bu vaziyatga mos ravishda tilning funksiyalaridan foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi. Masalan, ilmiy nutqda aniqlik va so’zlashuv nutqida noaniq iboralarga toqat qilish.
- Axloqiy. Bu nutq odob-axloq qoidalariga, ya’ni muloqotda xulq-atvor meyyorlariga rioya qilishni anglatadi. Salomlar, murojaatlar, iltimoslar, savollar ishlatiladi.

➢ Estetik. Bu fikrni majoziy ifodalash va nutqni eshitish, taqqoslash va boshqa usullar bilan bezash texnikasi va usullaridan foydalanishni nazarda tutadi. Pedagog notiq bo'lishi zarur. Notiq bu san'atkordir, shu sababli u o'z kasbiga san'atkor sifatida yondashadi.

Shunday bo'lsa-da notiqlik san'ati bilan shug'ullanuvchi ko'pchilik nazariyotchilar hamda mashhur notiqlar nutq madaniyatining quyidagi xususiyatlarini e'tirof etadilar. Ularning fikricha, nutq madaniyati: birinchidan, inson umumiy madaniyatining bir qismidir, zotan madaniyatsiz odamda nutq madaniyati ham bo'lmaydi; ikkinchidan, u notiqning o'zidagi ilm va bilimni boshqalarga yetkazish usulidir; uchinchidan, obyekt va subyekt, notiq va tinglovchi o'rtasidagi munosabatni muayyan qoida va tartiblar doirasida kechishi jarayonidir; to'rtinchidan, obyektning subyektga, notiqning tinglovchiga yetkazadigan axborotlarni, ma'lumotlarni shunchaki to'kib yoki qalashtirib tashlash emas, ularni dildan chiqarib, mo'tadil marom, sevinch, hayajon, kuyunish, achinish, afsuslanish kabi xilma-xil holatlarda tinglovchilarga yetkazish jarayonidir.

**TARQATMA MATERIALLAR:**

- ***Burch – mohiyatan, jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat.***
- ***Vijdon – ko'zga ko'rinmas, lekin ulkan va mutloq aybsiz axloqiy xodisadir.*** **Vijdon** insonning oʻz-oʻzini boshqarish qobiliyati, ichki ruhiyatining axloqiy talablariga muvofiqligi, oʻzi uchun axloqiy maqsadlarni mustaqil ravishda shakllantirish va amalga oshirishni talab qilish nuqtai nazaridan tavsiflaydigan axloqiy toifadir.
- ***Nomus – mohiyatan shaxsning o'z qadr – qimmatini anglab etishi, shu qadr – qimmatning jamiyat tomonidan tan olinishi yoki olinmasligiga nisbatan bo'ladigan munosabat bilan belgilanadi***

Koʻp sonli boyligimizda Qimmatli soʻzlar:
Vatan, Sadoqat, Birodarlik va yana bor:
Vijdon, Hurmat ... Hamma tushunsa edi
Bu shunchaki soʻzlar emas,
Qanday muammolardan qochsak ham.
Bundan qochish mumkin emas!

*Aleksandr Yashi*







## Javobgarlik

- Javobgarlik – bu shaxsning axloqiy talablarni bajarishi, uning axloqiy faoliyatining axloqiy burchga muvofiqligi nuqtai nazaridan, shaxsning imkoniyatlari nuqtai nazaridan qaraladigan axloqiy kategoriya.
- Javobgarlik – xatti-harakatlarga hisobot berish, ularning mumkin bo'lgan oqibatlari uchun javobgar bo'lish majburiyati va zarurati.







## MAJBURIYAT

- Majburiyat o'z vazifalarini bajarishda **kasbiy va ijtimoiy talablarni bajarish** uchun **<u>axloqiy ehtiyojni</u>** anglatadi. **Ota-ona va farzandning burchi, birodarlik va do'stlik, vatan oldidagi burch, kasbiy burch** ...








## Axloqiy madaniyat va qadriyatlar oiladan boshlanadi

– **Bola qalbi tug'ilganida toza yozuv taxtasiga o'xshaydi. Unga nimalar yozilsa, shunga mos insonga aylanadi. Bola qalbining "yozuv taxtasi" bu – uning ko'zlari, quloqlari. U ko'rayotgan, eshitayotganlari – yozuvlar desa bo'ladi. Demak, bolamiz eshitayotgan gaplarimiz, ko'rayotgan amallarimiz – biz yozayotgan yozuvlar bo'lar ekan.**



***Etiket***

***Insonni o'zini tutishi uning ichki dunyosining boyligigni anglatadi.***



***Har bir mamlakat o'z etiket tamoyillariga ega va ular xalqaro etiketning ajralmas qismi hisoblanadi.***

***«Xalqaro etiketning asosiy xususiyatlari uning universalligidadir. Turli mamlakat vakillarining, siyosiy qarashlar va turli dinlarga e'tiqodning, milliy an'analar va ruhshunoslikning, turli hayot tarzi va madaniyat larning bevosita muloqotlari xalqaro etiketning asosini tashkil etadi».***




**Har bir millatning ehtirom qoidalari bu milliy urf-odatlar va xalqaro etiketning murakkab uyg'unligidir.**













Tabiiyki, har bir davlatning o'ziga xos milliy an'analari, jamiyatda o'zini tutish qoidalari bor. Bu qoidalar va an'analar ming yillar davomida va millat taraqqiyoti davomida rivojlanib, shakllangan. Bu qoidalarga din va e'tiqod ham ta'sir qiladi. Shu bois, noqulay ahvolga tushib qolmaslik, tashrif buyurayotgan mamlakat aholisini xafa qilmaslik uchun imkon qadar bu mamlakatning odobi, milliy xususiyatlari, urf-odatlari va marosimlarini o'rganishimiz kerak.


ЭНЦИКЛОПЕДИЯ
ЭТИКЕТА
Qaerda bo'lsangiz ham, mezbonlar sizdan o'z mamlakatiga qiziqishni, ularning an'analari va marosimlarini hurmat qilishni kutishga haqli.
Keling, turli mamlakatlarda nimalarga e'tibor berish kerakligini ko'rib chiqaylik.


Angliya
Inglizlarning asosiy fazilatlariga o'z-o'zini tuta bilshi, aytmoqchi bo'lgan gaplarini oxirigacha suhbatdoshiga yetkazmaslik, o'z muammolarini ichida saqlab yurish qobiliyati, yetarli darajada ochiq emaslik, mulkni qadrlash, mustaqil bo'lish xususiyatlari kiradi.

# Yaponiya



- Yaponiya har doim o'zining an'anaviy yapon xushfe'lligi va xushmuomaligi bilan tanilgan. Yaponiyada yosh-u qari past ovozda gaplashadi. Yaponlarda birmuncha issiqlik bo'lmasa-da, juda xushmuomala xalq hisoblanadilar. Yaponlar uchun xushmuomalik va odob-axloq qoidalari deyarli muqaddas hisoblanadi.

-Yapon etiketi ma'nosini tushuntirish uning tamoyillaridan boshlanadi. Yaponlarning oilaviy kutubxonasida boshqa adabiyotlar bilan birga etiket bo'yicha ko'rgazmali kitoblar, xushfe'llilik qonunlarini o'rganish uchun amaliy qo'llanmalarni uchratish mumkin.

# Fransiya

- Fransiya etiketning vatani hisoblansa-da, unga boshqa mamlakatlardagi kabi katta e'tibor berilmaydi. Bir necha asrlar davomida Fransiyada "fransiyalik o'zini qay tarzda tutsa bu etiketdir", degan fikr saqlanib kelmoqda. Farang tili - jahon va diplomatiya tili. Bu borada, fransiyaliklarning fikricha, hech narsa o'zgarmagan. Boshqa 69 xalqlardan farqli o'laroq fransiyaliklar xorijliklar ularning tilini nafaqat bilishlarini, balki juda yaxshi darajada bilishlari kerakligini zaruriy, deb hisoblashadi.



# Xitoy

- An'analarga alohida yondashish, tartib, o'rnatilgan qoida va an'analarga amal qilish uning xulq va odob ta'limotining asosi bo'lib qolgan. Hozirgi paytda konfutsianlik shartlari va insonlar o'rtasidagi munosabatlarniig jiddiy vertikal tizimi ortda qoldi. Muomala qilish, xulq-atvor tamoyillari, kiyim shartlari jamoat ierarxiyasiga bog'liq bo'lmagan holda qat'ilik tusini yo'qotdi. Ayollar erkaklar kabi bir xil imtiyozlarga ega bo'ldilar. Shu bilan birga, kattalarga hurmat va milliy madaniyat, tarix, adabiyotga nisbatan e'tibor tuyg'ulari saqlanib qoldi.
- Xitoyda yoshi katta yoki notanish shaxslar bilan muomualada "siz", deb muloqotda bo'lish, Yevropa davlatlariga nisbatan kam ishlatiladi. Xitoyliklar, asosan muloqotda bo'lganda "sen", deb muomalada bo'ladilar, bu, o'z navbatida, rus yoki, masalan fransuz kishilik olmoshiga to'g'ri keladigan to'liq analog bo'lib hisoblanmaydi. Muloqotda shaxs hurmat yuzasidan ikkinchi shaxsga nisbatan kishilik olmoshi o'rniga — janob (xonim) va familiyasini qo'shib murojaat qilishi mumkin.






## II-BOB. KASBIY MA’NAVIYAT VA ASOSIY AXLOQIY FAZILATLAR

## 4-MAVZU. OLIMNING IJTIMOIY MAS’ULIYATI. SHAXS KASBIY MA’NAVIYATIDA KORRUPSIYA, PORAXO’RLIK, MANFAATPARASTLIK KABI SALBIY ILLATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI

**Reja:**

**1. Olimning ijtimoiy mas’uliyati.**

**2. Bilimdonlik, malaka, idrok va zehn tushunchalari**.

**3. Hozirgi zamon olimining portreti.**

***4.*** **Shaxs kasbiy ma’naviyatida korrupsiya, poraxo’rlik, manfaatparastlik kabi salbiy illatlarga qarshi kurash masalalari.**

***Tayanch atamalar:*** *Olimning ijtimoiy mas’uliyati, bilimdonlik, malaka, idrok va zehn, neytralizm va ijtimoiy mas’uliyat, ilmiy elita va intellektuallar, hozirgi zamon olimining portreti.*

### OLIMNING IJTIMOIY MAS’ULIYATI

**Olimlarga qo’yiladigan malakaviy talablar.** Fan «havaskorlik» mashg’uloti bo’lgan davrda u asosan adabiy mehnat bilan bog’liq mavzular bilan cheklangan, keng ko’lamli va qimmatbaho tadqiqotlarni talab qilmagan. Ammo u xo’jalik faoliyatida amaliy naf ko’rish uchun mablag’lar kiritiladigan ijtimoiy mehnat tarmog’iga aylangach, vaziyat o’zgardi. Tadqiqotlar buyurtmaga muvofiq bajarila boshladi. Ilmiy tadqiqotlarning mavzularini belgilash olimlar ixtiyoridan chiqdi. Fanni rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlarini tanlash va ilmiy mehnatga baho berish fandan uzoq odamlar qo’liga tushdi. Bundan eng avvalo fundamental fan jabr ko’rdi, chunki unga ajratiladigan mablag’lar kamaydi, undan kadrlar ketib qola boshladi, uning obro’si pasaydi. Ammo gap shuning o’zidagina emas. Fan tizimi to’laligicha hokimiyat va mablag’larni o’z qo’lida jamlagan odamlar ixtiyoriga o’tdi. Olimlar nimani buyurishsa, shuni bajaradigan yollanma kasb egalari bilan bir qatorga

qo'yildilar. Bu ularning qarshiligi va noroziligiga sabab bo'ldi[7].

Ilmiy hamjamiyatda fanning erkinligi tamoyili keng e'tirof etiladi. Bu tamoyil tarafdorlari fan o'z rivojlanish mantiqiga ega ekanligini va uning shu jumladan ijtimoiy foydalilik nuqtai nazaridan ham eng muhim va istiqboli porloq bo'lgan yo'nalishlarini faqat mutaxassislar, professional olimlargina to'g'ri belgilashlari mumkinligini, fan imkoniyatlarini, uning yutuqlarini hayotga joriy etish yo'llarini baholashga ulardan boshqa hech kim qodir emasligini ta'kidlaydilar. Shuning uchun ham ular fanning ichki ishlariga jamiyat aralashishi mumkin emas, fanni rivojlantirish haqida qarorlar qabul qilish jarayonidan ilmga daxldor bo'lmagan odamlar chiqarilishi lozim, olimlar bilimlarni ijtimoiy fondlar yordamida, lekin sirtdan aralashuvlarsiz rivojlantirish huquqiga ega bo'lishlari darkor, deb hisoblaydilar[7]. *Olimlarga tadqiqot faoliyati erkinligi, uning muammolarini mustaqil tanlash, fanni rivojlantirish uchun mo'ljallangan resurslar qaysi ilmiy muammolarga va qay tarzda sarflanishi lozimligini hal qilish imkoniyati berilishi kerak. Aks holda fan imkoniyatlaridan amalda to'laqonli foydalanilmaydi.*

*Bunga javoban fanning erkinligi g'oyasining muxoliflari ilmiy faoliyat ustidan ijtimoiy nazorat tamoyilini ilgari suradilar*. Ularning fikricha, ilmiy hamjamiyat fanni rivojlantirishga faqat o'z ichki ishi sifatida qaraydigan «sekta»ga aylanib qolmasligi kerak. Agar olimlarga ilmiy tadqiqotlarning maqsad va yo'nalishlarini mustaqil belgilash huquqi berilsa, ular «ziyokor» maqsadlarga erishish ketidan quvib, «unumdor» maqsadlarni butunlay unutishlari mumkin. Bu holda fan olimlar qo'lida o'z qiziqishlarini g'azna hisobiga qondirish vositasiga aylanishi mumkin. Hamonki jamiyat fanni mablag' bilan ta'minlar ekan, u fanning rivojlanish jarayonini nazorat qilishga haqlidir.

Fanning differensiatsiyalashuvi o'z-o'zidan aksariyat olimlarni tor mutaxassislarga aylantiradi. Ular o'z sohasida bilimdon bo'lganlari holda, ijtimoiy ehtiyojlarni va amaliy hayotda, ishlab chiqarish, iqtisodiyot va siyosatda yuzaga kelayotgan vazifalarni lozim darajada baholay olmaydilar. Jamiyat ijtimoiy buyurtma

---

[7] Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2014. – B.412.
[7] Qarang: Кравец А.С. Идеалы и идоли науки. – Воронеж, 1993. – С 63.

mexanizmi orqali olimlarning kuchlarini jamiyat uchun amaliy nuqtai nazardan ayniqsa muhim bo’lgan vazifalarni echishga yo’naltirishi lozim. Fanni rivojlantirishga mablag’lar berar ekan, jamiyat bu mablag’lar nimaga sarflanishini belgilash imkoniyatigi ega bo’lishi kerak. Ijtimoiy nazoratsiz fandan jamiyat uchun foydali naf ko’rilishini ta’minlash mumkin emas.

*Hozirgi davrda fanining erkinligi va uning ustidan ijtimoiy nazorat o’rnatish o’rtasidagi ziddiyat odatda fanni rivojlantirish masalalarini hal qilishga olimlarni ham, amaliyot xodimlarini ham jalb qilish yo’li bilan echiladi*. Ko’pincha bu masalalarni ular ayni shu maqsadda tuziladigan kollegial organlar, ekspertiza hay’atlari va maslahat kengashlarida bahamjihat hal qiladilar. Ammo, shunga qaramay, mazkur prinsiplar o’rtasidagi ziddiyat yo’qolgani yo’q, u konkret masalalarni echishda ushbu prinsiplarning tarafdorlari o’rtasidagi to’qnashuv joyi bo’lib qolayotir. Vaqti-vaqti bilan, odamlarga muayyan xavf tug’dirishi mumkin bo’lgan yoki jamiyatning axloqiy meyyorlari va madaniy an’analari bilan to’qnashuvchi ilmiy tadqiqotlar haqida gap borganida, mazkur ziddiyat ayniqsa keskin tus oladi.

Hozirgi vaqtda qizg’in bahs-munozaralarga sabab bo’layotgan masalalardan biri – bu olimlar tadqiqotlarning maqsad va vositalarini tanlashda to’la erkin bo’lishlari kerakmi yoki jamiyat bu erkinlikni biron-bir tarzda cheklashi zarurmi, degan masaladir.

Ayrimlar ilmiy bilimlar bizga qay darajada xavfli yoki zararli bo’lib tuyulmasin, ularning rivojlanish jarayoniga to’sqinlik qilish mumkin emas, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, insoniyatga xos bo’lgan bilimlarni kengaytirishga intilishni to’xtatish mumkin emas. Ilmiy bilim esa o’z-o’zicha zararli bo’la olmaydi: zarar faqat undan yomon niyatda foydalanilishi oqibatida kelib chiqishi mumkin. Jamiyat bilimdan ayni shunday foydalanish hollarini to’xtatishi lozim.

Boshqa bir guruh olimlar ilmiy tadqiqotlarning mavzularini tanlash erkinligi hech bo’lmasa ularning qimmatligi tufayli cheklanishi lozim, deb hisoblaydilar. Jamiyat olimlarga o’z qiziqishlarini qondirish uchun jamoatning ko’p miqdordagi mablag’larini sarflash imkoniyatini bera olmaydi. Ammo eng muhimi – fanda

insoniylikka va axloqiy meyyorlarga zid bo'lgan tadqiqot metodlari va vositalari taqiqlanishi, oqibatlari insoniyatning mavjudligiga biron-bir tarzda tahdid soladigan, ekologik, ijtimoiy, genetik va boshqa xil halokatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan eksperimentlar yo'l qo'yib bo'lmaydigan bir hol deb e'tirof etilishi lozim.

Umumiy mulohazalardan kelib chiqib, olimlarda ilmiy tadqiqotlarning cheksiz erkinligi bo'lishi mumkin emasligini (va hech qachon bo'lmaganligini ham) tan olish zarur. Umummadaniy, eng avvalo axloqiy qadriyatlar fanni rivojlantirish manfaatlaridan ustun turadi. Odamlar qo'liga tabiatga va insonning o'ziga ta'sir ko'rsatishning ilgari olimlar hatto orzu qilishlari ham mumkin bo'lmagan o'ta qudratli vositalarini beruvchi hozirgi zamon fani uchun esa bu ayniqsa muhimdir. Ilmiy tadqiqot erkinligi insoniyatning mavjudligi uchun xavfli bo'lgan ilmiy eksperimentlarga tatbiq etilishi, hech shubhasiz, mumkin emas. Bu sog'lom fikrlovchi odamlar, shu jumladan fan odamlarida ham e'tiroz uyg'otmasa kerak.

**Bilimdonlik, malaka, idrok va zehn tushunchalari**. Ammo fundamental ilmiy tadqiqotlar qanday natijalar va oqibatlarga olib kelishini oldindan aytish aksariyat hollarda mumkin emas. Ular bizning hayotimizda amalga oshirishi mumkin bo'lgan foydali o'zgarishlarni ham, zararli o'zgarishlarni ham bashorat qilish qiyin. Ayni shu sababli biron-bir tadqiqotni uzil-kesil taqiqlash mumkin emas. Har bir holda bu masala alohida muhokama qilinishi lozim va vaziyatga (masalan, jamiyat yashash sharoitlarining o'zgarishi, madaniyatning rivojlanishi, yangi texnik va ilmiy g'oyalar paydo bo'lishi bilan bog'liq holatlarga) qarab uning u yoki bu qarorlari qayta ko'rilishi mumkin.

Umuman olganda, hozirgi zamon madaniyatining rivojlanish jarayonlari bugungi kunda fanning mavjudligi va rivojlanishini tadqiqotlarni va umuman ilmiy faoliyatni tartibga solishning u yoki bu shakllari va meyyorlarisiz tasavvur qilish mumkin emas, degan xulosaga kelish imkoniyatini beradi[9].

**Neytralizm va ijtimoiy mas'uliyat.** Fan falsafadan hali ajralib chiqmagan davrda uning ijtimoiy-madaniy mazmunini asosan ilmiy bilimlarning bilish-dunyoqarashga doir va mafkuraviy ahamiyatida ko'rganlar. Olimlar madaniy

[9] Qarang: Философия и методология науки / Под ред. В.И.Кунсова. – М., 1996. – 493-b.

an’analar va siyosiy-mafkuraviy mo’ljallar tazyiqi ostida yashaganlar va faoliyat ko’rsatganlar, jamiyat (davlat, jamoatchilik fikri) ularning dinga, cherkovga va hukumatga nisbatan xayrixohligini kuzatib borgan. Antik demokratiya andozasi sanalgan davlat – Afinada Anaksagor va Suqrot o’z noan’anaviy qarashlari uchun jazoga tortilgan, O’rta asrlarda esa «dahriyona» fikrlarni rivojlantirishga jur’at etganlar qattiq ta’qibga duchor bo’lganlar[10].

Uyg’onish davrida fan ilohiy sxolastika va falsafiy mushohadalar doirasidan chiqib, diniy aqidalarga bog’liq bo’lmagan haqiqatga doir izlanishlarning qaltis yo’liga kirgach, olimlar erkin ilmiy izlanish o’zlari shakkoklikda ayblanishlariga olib kelishi mumkinligi bilan hisoblashishga majbur bo’ldilar.

«Shakllanayotgan yangi fan uchun ijtimoiy-madaniy va siyosiy hayotning uch sohasi – din, axloq va davlat hokimiyati ayniqsa xavfli edi. Yangi fanning mazkur sohalar bilan munosabatlaridagi keskinlikni pasaytirish talab etilardi».

Bu masalaning echimi neytralizm tamoyilida topildi. Mazkur tamoyil London qirollik jamiyati Nizomida bayon etilgan: fan dinga ham, axloqqa ham, siyosatga ham aralashmaydi. Ammo fan rivojlanishining navbatdagi, klassik bosqichidayoq ilmiy hamjamiyatda ikki tendensiya o’rtasida tafovut yuzaga keldi.

Bu tendensiyalardan biri neytralizm an’anasini davom ettiradi va fan muammolarini mafkura, din, siyosat va axloq muammolaridan ajratishni nazarda tutadi. Olim o’z ishi bilan shug’ullanishi – o’rganishi, kashf etishi, ishlab chiqishi, loyihalashi lozim. Uning tadqiqotlari, kashfiyotlari, ishlanmalari va loyihalarining natijalari amalda qanday qo’llanilishi fan chegarasidan tashqaridagi masaladir. Uni echish mas’uliyati fanga yoki olimlarga emas, balki mazkur masala yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi va hokimiyatiga ega bo’lganlarga yuklatiladi.

*Neytralizm nuqtai nazari zamirida ilmiy bilimning tabiatan qadriyat emasligi haqidagi nazariya yotadi*. *Bu nazariyaga muvofiq, ilmiy bilim faqat deskriptiv (tavsiflovchi) va proskriptiv (buyuruvchi) iboralar sifatida ta’riflanishi mumkin, qadriyatlarga doir iboralar (ya’ni biror narsaning inson uchun qimmati haqidagi mulohazalar) fan vakolatiga kirmaydi va ilmiy bilimda mavjud bo’lishi mumkin emas.*

[10] Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2014. – B.417.

*Ikkinchi tendensiya olimning ijtimoiy mas'uliyati tamoyili ilgari surilishi bilan bog'liq*. Bu tamoyilga muvofiq, *olim o'z ilmiy faoliyatining metodlari va maqsadlari uchun ham, uning natijalari va oqibatlari uchun ham jamiyat oldida javobgar bo'lishi  insoniyat oldidagi mas'uliyatni his qilishi lozim.* Hamonki fan o'z kashfiyotlari jamiyatga keltiradigan foydani o'z xizmati deb bilar ekan, u mazkur kashfiyotlarning zararli oqibatlarida o'zini aybdor deb ham bilishi kerak. Olimning neytralligi uning ilmiy haqiqatga amal qilish, muayyan qadriyatlar va ijtimoiy-madaniy (mafkuraviy, diniy, estetik, siyosiy, axloqiy va boshqa) mo'ljallarga o'z munosabatidan qat'i nazar, bu haqiqatni himoya qilishga intilishi bilangina cheklanishi lozim. Ammo olim fan yutuqlaridan qanday foydalanilayotganiga bir chekkada qo'l qovushtirib qarab turishi mumkin emas. U o'ziga berilayotgan ijtimoiy buyurtmaga askar o'z boshlig'ining buyrug'iga qaragandek munosabatda bo'la olmaydi. Hamonki ilmiy tadqiqotlar olib kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarni hech kim olimlardan yaxshiroq baholay olmas ekan, bu ularga ilmiy kashfiyotlardan g'ayriinsoniy maqsadlarda foydalanilmasligiga erishish majburiyatini yuklaydi. Bundan tashqari, o'z ilmiy faoliyatining maqsadlari va metodlariga olimlarning o'zlari axloqiy nuqtai nazardan baho berishlari, axloqiy meyyorlarni buzish bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlardan voz kechishlari lozim. Olim o'z tadqiqotlarining g'ayriinsoniyligi va ulardan foydalanish uchun javobgarlikni to'laligicha ishni buyurtma qilgan va unga haq to'lagan ijtimoiy kuchlar, hukumatlar, firmalar yoki ayrim shaxslarga yuklashga haqli emas.

*Albatta, yirik ilmiy kashfiyotning barcha oqibatlarini ham oldindan aytib bo'lmaydi. Ularni baholashda kelishmovchiliklar va xatolar bo'lishi mumkin. Ilmiy tadqiqotning maqsadlari va metodlariga berilgan axloqiy baho ham bahsli bo'lishi mumkin. Ammo bu hol bunday baholarni berish va ular uchun ijtimoiy javobgar bo'lish majburiyatini olimlar zimmasidan soqit etmaydi.*

Olimlarning ijtimoiy mas'uliyati masalasi atom quroli yaratilishi munosabati bilan ayniqsa dolzarb ahamiyat kasb etdi. Endilikda fan yutuqlari ekologik yoki boshqa xil halokatlarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan har bir holda ushbu masala ko'tariladi. Hozirgi vaqtda olimlarning ijtimoiy mas'uliyati g'oyasi umume'tirof

etilmoqda.

Amalda fanni u yoki bu vazifalarga yo’naltiruvchi ijtimoiy muhim masalalar yuzasidan uzil-kesil qarorni kamdan-kam holda olimlarning o’zlari qabul qiladilar. Atom elektrostansiyasini yoki biron-bir gidrotexnika inshootini qurish o’rinli bo’ladimi? Sayyoralararo kosmik kemalarni yaratishga misli ko’rilmagan mablag’larni sarflash arziydimi? Ajal urug’ini sochuvchi yangi qurolni ishlab chiqishni moliyalashtirish kerakmi? Bunday masalalarni hokimiyat tepasidagilar, aksariyat hollarda olimlar bilan maslahatlashmasdan va ularning tavsiyalarini e’tiborga olmasdan hal qiladilar. Bu erda olimlarning ijtimoiy mas’uliyati prinsipi ular uchun muhim ijtimoiy-madaniy mo’ljal bo’lishi lozim. Agar hokimiyat organlari qabul qilgan qarorlar olimlar vijdonining da’vatiga zid bo’lsa, ular bunday qarorlarni bajarishda ishtirok etishdan bosh tortishlari va norozilik ovozini ko’tarishlari lozim. Aks holda ular o’z ishtiroki uchun ijtimoiy javobgar bo’ladilar.

Biz yuqorida fan ustidan ijtimoiy nazoratni tilga oldik. Ammo ijtimoiy nazoratning o’zi kifoya qiladimi? Axir rang-barang ijtimoiy kuchlar, shu jumladan fanni insoniyatning bir qismiga foyda keltirish va boshqalarga zarar etkazishga qodir bo’lgan natijalarni olishga yo’naltiruvchi kuchlar ham bor-ku. Jamiyat va jamoatchilik fikrini bunday kuchlar boshqargan taqdirda, ijtimoiy nazorat ham ularning qo’liga o’tadi. Bu holda ular ilmiy izlanishlarning insoniyat uchun xayrli bo’lmagan yo’nalishlariga nafaqat monelik qilmaydilar, balki ularni o’zlari rag’batlantiradilar. qurollanish poygasi buning yorqin misolidir.

Olimlarning ijtimoiy mas’uliyati ijtimoiy nazoratni to’ldiruvchi, jamiyat uni yo’lga qo’ya olmagan holda uning o’rnini bosuvchi omil bo’lishi va jamiyat yoki boshqa biron-bir ijtimoiy kuch uni monopoliyalashtirgan va undan g’ayriinsoniy maqsadlarda foydalangan hollarda unga qarama-qarshi kuchga aylanishi lozim.

**Ilmiy elita va intellektuallar** ilmiy muhitning alohida tipini tashkil etadi. *Ilmiy elita va intellektuallar – intellektual mulk bunyodkorlari. Intellektual mulkning o’zini umuman olganda kelib chiqishi mazkur olim yoki ilmiy jamoa mehnati bilan bog’liq bo’lgan bilim va axborotga mulk sifatida egalik qilish huquqi deb ta’riflash mumkin.*

*Elita (lotincha «eligo» so’zidan) «tanlash» degan ma’noni anglatadi. O’z-*

*o'zidan ravshanki, ziyolilarning rang-barang qatlamida ularning sara nusxalari va tipajlari alohida ajralib turadi.* Shu sababli ziyolilar qatlami muhitida intellektual elita doimo mavjudligini dadil taxmin qilish mumkin. *Intellektual elita ma'naviy boyliklar bunyodkorlari, professional hamjamiyat tan olgan atoqli nazariyachilar, muhandislar va tibbiyotchilarni o'z ichiga oluvchi jamiyat gultoji*, desak, mubolag'a bo'lmaydi. *Superintellektual elita inson faoliyati barcha jabhalarining ilmiy rivojlanishiga juda katta shaxsiy hissa qo'shgan olimlarning kichik guruhidir. Superintellektual elitaga Nobel mukofoti sohiblari kiritiladi.* ( *Shuni ta'kidlash joizki, 27 noyabr 1895 yilda Alfred Nobel 31 mln shved kroni(hozir bu 1,5 mlrd shved kroni) miqdorida kelgusida fizika, kimyo, fiziologiya va tibbiyot, adabiyot, sohalarida eng noyob ixtiro va kashfiyotlar mualliflarini dunyoda tinchlikni saqlash bo'yicha fidokorona mehnat olib borayotgan shaxslarni taqdirlash uchun mablag'ni vasiyat qilib qoldirgan. 1901- 2009 yilgacha dunyoning eng nufuzli Nobel mukofotiga jami 835ta olim sazovor bo'lgan. 1969 yildan iqtisodiyot sohasida erishilgan yutuqlar uchun ham Nobel mukofoti berilishi joriy qilindi. Ushbu mukofot bilan 39ta ayol 40 marta taqdirlanganligi ayollarning ham ijtimoiy faollashayotganligi ifodasidir. Keyingi 10 yillikda har bir yo'nalish bo'yicha 2000 dan ortiq talabgorlarning nomzodi ko'rsatilayotganligi birinchidan mukofotning nufuzi oshayotganligidan, ikkinchidan unga munosib talabgorlarning soni oshayotganligidan dalolatdir*)[11].

Elita ko'p sonli bo'lmaydi. Uning nufuzi miqdor omilining ta'siri bilan bog'liq emas. Shu sababli aholining eng ko'p moddiy boyliklarni o'zlashtirgan qismi emas, balki intellektual elitagina haqiqiy elita bo'lishi mumkin. Ayrim mutafakkirlar, masalan, Rene Genon haqiqiy elita tushunchasini butun tabiat bilan uyg'unlikda ish ko'ruvchi, sof intellektuallik va ma'naviyatni o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy elitaning shakllanishi bilan bog'laydi[12]. Umuman olganda, intellektual elita elitar bo'lmasligi ham mumkin. Bu qarama-qarshilik bozor iqtisodiyotining, ayniqsa uning elita o'ziga munosib hayotni ta'minlashi mushkul bo'lgan dastlabki bosqichlari oqibatidir.

---

[11] Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2014. – B.420-421.

[12] Qarang: Генон Р. Кризис современного мира. – М., 1991. – 80-b.

O’tgan davr adabiyotlarida intellektual elita muammosini muhokama qilishga yo’l qo’yilmagan. Marksiz-leninizm mafkurasi elitalar nazariyasining ilmiylikka zid xususiyatini to’la fosh etgan, deb hisoblangan. Shu sababli u mazkur atamadan foydalanmagan. Elitaning qabul qilinishi ierarxiyaviylikning qabul qilinishiga sabab bo’ladi. Bugungi kunda mazkur hodisaning maqomi va intellektual ahamiyati tan olingan.

*Intellektual elita tanqidiy tafakkuri, mustaqil fikrlashi bilan tavsiflanadi*. Katta qobiliyatga egalik empirik mezon bo’lib xizmat qiladi. Intellektual elita masalalarini o’rganishga bag’ishlangan jamoa monografiya mualliflari qayd etganidek, *«tug’ma qobiliyat o’z holicha hech narsani hal qilmaydi. Bu qobiliyatni rivojlantirish lozim. Bunga faqat ma’lumot olish, ilmiy bilimlar va metodologiyani o’zlashtirish yo’li bilan erishiladi. Shuningdek, qulay umumiy madaniy muhit va individlar ijtimoiy hayotining yaxshi shart-sharoitlari ham zarur. Nihoyat, omad deb atash odat tusini olgan muayyan holatlarning qulay kesishuvi kerak»*[13].

Tadqiqotchilar intellektual elita tipologiyasini tavsiflar ekanlar, ba’zan «prometeylar» va «sintetiklar» atamalariga murojaat etadilar. Bu nomlar mohiyati intuitsiya darajasida aniq. Prometeylar – bu yangi tushunchalar, nazariyalar, yangi fikrlash uslublarining bunyodkorlari. Sintetiklar umumlashtiruvchi xususiyatga ega kashfiyotlar qilishga moyil bo’ladilar. *Intellektual elitaga mansublikning eng diqqatga sazovor ko’rsatkichi kashfiyot yoki ta’limotga stixiyali tarzda uning muallifi nomi berilishidir*. (Masalan, Rentgen nurlari, Dalton kasalligi, Botkin kasalligi, Lobachevskiy geometriyasi, Fridman nurlari). *Intellektual elitaning hamma vakillariga ular faoliyatining barcha davrlarida yuqori darajada mahsuldorlik xosdir. Intellektual elita o’ta faolligining ikki davri ko’p kuzatiladi. Birinchi davr 32-36 yoshga, ikkinchisi – 42-46 yoshga to’g’ri keladi.*

Shunday qilib, *intellektual elita – ziyolilarning tug’ma emas, balki funksional tipi. U o’z zimmasiga yuklangan jamiyatning ma’naviy va intellektual rivojlanishini ta’minlash funksiyasi bilan bog’liq*. Mazkur qatlamning o’ziga xos xususiyatlari jumlasiga uning ochiqligini kiritish mumkin. Ziyolilarning aynan iqtidorli vakillari

[13] Гудков Л., Дубин Б. Интеллигенция. – Москва, 1995. – С.18.

intellektual elita safini to'ldiradilar. Ziyolilarning u yoki bu vakilini intellektual elitaga mansub deb topish masalasini hal qilishda ayrim zarur belgilarga ishora qiluvchi metodikalar mavjud. Bunday belgilar sifatida quyidagilar taklif qilinadi:

- muayyan olim fanlar akademiyasi, ilmiy muassasalar va jamiyatlarga haqiqiy a'zo, muxbir a'zo yoki faxriy a'zo etib saylangani;
- ilmiy faoliyat uchun mukofot va medallarga sazovor bo'lganlik;
- maxsus biografik ma'lumotnomalar va ensiklopediyalarga kiritilganlik;
- ilmiy nufuzi katta bo'lgan nashrlarning tahrir hay'atlarida ishtirok etish;
- olimning asarlari jahon ilmiy hamjamiyati a'zolari tomonidan yuksak baholanishi va ulardan iqtiboslar olish indeksining yuqoriligi.

Fanda amal qiluvchi «Matfey effekti»ga ko'ra, ilmiy hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan olimlar yangi mukofotlarga o'zlarining hali dovruq qozonmagan hamkasblariga qaraganda osonroq erishadilar.

*Intellektual elitaning ontopsixologiyasi ijodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omillarning ikki darajasi mavjudligini ko'rsatadi*. Birinchi daraja shaxsiy manfaatlar va ambitsiyalarga to'la stimullardan iborat bo'lib, ularning orasida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyoji, liderlikka intilish muhim o'rin tutadi. Ikkinchi daraja ijtimoiy ahamiyatga molik rag'batlantiruvchi omillar bilan belgilanadi. Bu erda ayrim faoliyat jabhalarining ustunligi, umuman jamiyat yoki uning ayrim tuzilmalari manfaatlari o'z rolini o'ynaydi. Unda ijodkor shaxsning ahamiyatiga urg'u berish, ijodni targ'ib qilishning har xil imkoniyatlaridan, shuningdek moddiy stimullar: grantlar, shaxsiy stipendiyalar, byudjetdan moliyalashtirishdan foydalaniladi. Har qanday jamiyat o'z intellektual salohiyatini o'stirishdan manfaatdor bo'lishi lozim.

*Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat olib borish bilan bir qatorda muayyan ilmiy mavzu bo'yicha muntazam tadqiqot ishi olib boruvchilar ilm ahlidir*. Ilm ahli (odamlari) vakillari o'z faoliyati mahsullarini olimlar jamoasiga taqdim etishi, konferensiya va davra suhbatlarida ishtirok etishi va pirovord natijada intellektual elita darajasiga chiqishi mumkin.

«Ilm ahli» ilmiy izlanishlarning mahsullarini faqat fan sohasida tayyorgarlikka

ega, bilimdon odamlarga berishlari mumkin. Tayyorgarlikka ega bo'lmagan odamlar ularni o'zlashtira olmaydilar. Shu narsa diqqatga sazovorki, *«ilm ahli» - olimlar butun dunyo bo'ylab tarqalgan va butun insoniyatga tegishli. Ular bir-birini qidiradi, bir-biri bilan aloqa qiladi. Olimlarning uchrashuvlari va muloqotini ta'minlash shakllari har xil nom bilan ataladi – bular seminarlar va konferensiyalar, simpoziumlar va kongresslar. Biroq muloqotning eng qulay va keng tarqalgan yo'li – olimlarning ilmiy asarlarini e'lon qilish. Maxfiy ishlovlarni hisobga olmaganda, har bir olim muammoga nisbatan o'z yondashuvi, erishishga o'z hayotini bag'ishlagan natijalari bilan butun dunyoni tanishtirishga harakat qiladi.*

**Hozirgi zamon olimining portreti.** Xo'sh, hozirgi zamon olimi kim va u qanday sifatlarga ega? Pol Feyerabend qalamiga mansub sahifalar davrimiz olimining o'ziga xos xususiyatlarini anglab etish, uning portretini yaratishga qaratilgan falsafiy ijodning yorqin namunasidir. U o'z do'sti va hamkasbi Imre Lakatos obraziga murojaat etib, olim portretini yaratadi. Portret juda aniq yaratilgan, chunki metodologning asosiy vazifasi haqiqatni ko'rsatishdir. Zamondoshlarining xotiralariga ko'ra, Pol Feyerabendning o'zi hazil-mutoyibaga moyilligi kuchli, ekstravagant shaxs bo'lgan. U soxta tavoze va har xil dabdababozliklar ustidan kulgan. Tanqidiy kayfiyatdagi shaxs sifatida, u ayovsiz tanqid tig'i ostiga olingan va muqarrar tarzda o'ziga nisbatan dushmanlik tuyg'ularini uyg'otgan.

Shunday qilib, *hozirgi zamon olimining portreti qo'yidagicha: Hozirgi davr olimi eng bahsli g'oyalarni vijdoni qiynalmay himoya qilishga qodir. U biron-bir muassasa va mafkuraga nisbatan boqiy muhabbat yoki nafrat tuyg'ularini his etmaydi. Uning maqsadlari barqaror bo'lishi yoki mulohazalar, zerikish, tajribaning o'zgarishi yoki atrofdagilarda kuchli taassurot qoldirish niyati ta'sirida o'zgarishi mumkin. U maqsadga yo bir o'zi, yo uyushgan guruh yordamida erishishga harakat qilishi mumkin. Bunda u aql-idrok, emotsiyalar, mutoyiba, «jiddiy manfaatdorlik pozitsiyasi» va odamlar o'ylab topgan har qanday vositalardan foydalanishi mumkin. U doim universal g'oyalar va universal andozalarga ochiq-oydin qarshi chiqadi. U ilmiy halollikni shijoat bilan himoya qilishda har qanday Nobel mukofoti sohibidan o'zishga qodir.* U Karlos Kastaneda tavsiflagan taomillar, hodisalar va kechinmalarga

juda qiziqadi[12]. Feyerabend, olim o'zini tabiat qonunlari bilan bog'lashga yo'l qo'ymagani uchungina muvaffaqiyatga erishadi, deb e'lon qiladi. Olim konformizm yo'lini butunlay rad etadi. Uning tafakkurida aql va antiaql, ma'no va ma'nosizlik, mo'ljal va tasodif, ong va ongsizlik, insonparvarlik va antigumanizm yaxlit holda mujassamlashadi. Ba'zan u o'z opponentlarining kayfiyatini juda aniq tushunadi, biroq emotsional, ma'naviy va ijtimoiy tizginlardan nafratlanishi ham mumkin. Xullas, insoniyat va fanga faqat o'z ishi bilan shug'ullangan odamlargina foyda keltiradi.

Olim portretiga yana shuni qo'shimcha qilish lozimki, u haqiqatni hamma narsadan ustun qo'yadi, bilim – hayotning oliy in'omi, haqiqat har qanday e'tiqodlar, mafkuralar va jamoatchilik fikridan muhimroq ekanligi, olimning vazifasi haqiqatni tarqib qilishdan iboratligi, demak, u shogirdlar va izdoshlarga ega bo'lishi lozimligiga uning ishonchi komil. Koinot va tabiatning azaliy muammolarini o'rganar ekan, u dunyoning o'tinchini eshitmaydi. Haqiqatni izlash, cheksiz olamni «anglash sifatini oshirish»ni olim o'z hayotining mazmuni deb hisoblaydi. Darhaqiqat, jonli mavjudot tug'ilishi bilan anglash qobiliyatiga ega bo'ladi va o'lganidan keyin undan ayriladi, biroq anglash sifati inson bosib o'tgan hayot yo'li, uning tajribasi va o'zlashtirgan bilimlar majmui bilan belgilanadi. Har bir inson o'z borlig'ini anglash va olam qonunlarini tushunib etishga intilishda erkindir.

Ma'lum ma'noda olim-noaniqlik, bemulohazalik va yolg'on-yashiqlar maydonidagi jangchi. Kurash bahs orqali olib boriladi. Bahsda haqiqat tug'iladi. Ilmiy bahs, munozara jangning qabul qilingan shakllari bo'lib, unda olim-jangchi o'zi aniqlagan haqiqiy bilimni himoya qiladi. Kurash bir necha frontlarda boradi. Olim jaholat va mutaassiblikka, o'z manmanligiga qarshi kurashadi. Muvaffaqiyatsizliklar olimni tanlagan yo'lidan to'xtata olmaydi. Shu sababli olim niyat yordamida boshqariladigan kuch-g'ayratning uzluksiz oqimi sifatida tushuniladigan ulkan irodali shaxs, deb aytish mumkin. Ilgari ma'lum bo'lmagan narsalarni aql chirog'i bilan yoritishga qaratilgan o'z faoliyatida u katta qiyinchiliklarni engib o'tadi. Haqiqiy olim bilimlarni insoniyat ravnaqi uchun foydali qilishga intiladi, u odamlar ustidan

---

[12] Qarang: Фейерабенд П. Избранные произведения по методологии науки. – М., 1986. – 333-334-b.

hokimiyatni egallash va ularni boshqarishga urinishlardan uzoq bo'ladi.

Oqilona qobiliyatlarning haddan ortiq rivojlanishi dunyoni idrok etishning boshqa barcha yo'llari torayishi va hatto buzilishiga sabab bo'ladi, degan taxmin mavjud. Albatta, borliq haqidagi ma'lumotlar axborot bazasining kamayishi uni yaxlit tushunib etishga ko'maklashmaydi, balki aksincha, dunyoni tor tushunishga yo'l ochadi. Olimlar intuitsiyaga tayanar ekan, bu bilan ular o'zining oqilonalik chegarasidan chetga chiqishga intilishini e'lon qiladi. Ratsionalizm Obyektni va dunyoning butun rang-barangligini konsepsiya chegarasiga so'zlar va tushunchalar tarzida sig'dirishga harakat qiladi. Ratsionalizm olimni ma'lum narsalar va hodisalar bilan bog'laydi va uni noma'lumni ma'lumga aylantirishga yo'naltirib, o'zi ma'lum koordinatalar tizimida qolishni ma'qul ko'radi. Butun fan binosining poydevorini tashkil etuvchi ilmiy tushuntirish mexanizmining mohiyati shundan iborat[13].

Fan tarixchilari professionallashuv jarayoni haqida so'z yuritar ekanlar, XX asrda fanda havaskorlar va diletantlar o'rnini asta-sekin maoshga ishlovchi professionallar kelgani va bu jarayon mobaynida ilmiy adabiyotlarning ohangi o'zgarganini qayd etadilar. Dalillarga qat'iy rioya qiluvchi teran fikrlash uslubi jiddiy professional olim uchun meyyorga aylandi. *Professionallashuv va ixtisoslashuv jarayonlarining kuchayishi olimlarning qadriyatlari va mo'ljallariga ikkiyoqlama ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, professionallar o'z sohalarida qat'iy nazorat o'rnatib, havaskor-noprofessionallarga yo'lni berkitdilar. Biroq, boshqa tomondan, ular o'zlari bevosita shug'ullanmaydigan masalalar, o'z kasbiy bilimlari doirasidan chetga chiquvchi muammolar xususida fikr yuritish va bahslashishga qarshi emaslar.*

Olimning mo'ljallarida doimo mavjud bo'lgan ikkiyoqlamalik R.Merton asarida o'z ifodasini topdi. 1965 yilda nashr etilgan «Olimning ambivalentligi» kitobida[14] olimlar o'z faoliyatida mo'ljal oluvchi qarama-qarshi yo'nalishdagi normativ talablar mavjudligi qayd etilgan. Normalar va qarshi normalarning qarama-qarshiligi ilmiy tadqiqotning deyarli har bir jihatida seziladi. Masalan, olim o'zi erishgan natijalari bilan hamkasblarini mumkin qadar tezroq tanishtirishi lozim. Biroq ularda xato o'tib

---

[13] Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2014. – B.425.
[14] Qarang: Мертон Р. Амбивалентность ученого. – Москва, 1965.

ketmasligi uchun u o’z natijalarini e’lon qilishdan oldin sinchiklab tekshirishi shart. Bundan tashqari, olim yangi g’oyalar va yo’nalishlarga nisbatan ta’sirchan bo’lishi lozim. Biroq, ayni vaqtda, u o’z ilmiy qarashlarini himoya qilishi va intellektual modaga berilmasligi kerak. Olimdan o’tmishdoshlar va zamondoshlarning o’z qiziqishlari sohasiga mansub barcha asarlarini bilish talab etiladi. Ayni vaqtda u tafakkurning mustaqilligini saqlab qolishi va uning eruditsiyasi qarashlarining o’ziga xosligiga ta’sir ko’rsatmasligi darkor. Olim o’zi erishgan natijalarni fan xazinasiga kiritishga harakat qilishi lozim, biroq u oldingi paradigma doirasida olingan barcha bilimlarga shubha bilan qarashi kerak. Shunday qilib, fan qadriyatlar va meyyorlar tizimining ambivalentligi doim olimning oldiga quyidagi muammoni ko’ndalang qilib qo’yadi: bir tomondan, insoniyat ravnaqi uchun yashash va ishlash, boshqa tomondan – o’z tadqiqotlarining natijalari halokatli bo’lgan taqdirda, ulardan foydalanish oqibatlari uchun mas’uliyatni o’z zimmasiga olmaslik.

Ko’pincha haqiqiy olimlar shijoatli odamlar bo’lsa-da, ularning aksariyati kundalik hayotda katta qiyinchiliklarga duch kelishi, ular, ta’bir joiz bo’lsa, «bu dunyoning odamlari emasligi»ga e’tibor qaratiladi. Turmushda ular doim ham oqilona ish tutavermaydi, xuddi yosh bolalardek qarov va homiylikka muhtoj bo’ladi, chunki ularning tafakkuri vaqtning har lahzasida fanning olis ufqlari sari intiladi.

*J.Xolton A.Eynshteynning olimni harakatlantiruvchi omillar haqidagi fikrlariga tayanib, quyidagi modelni taklif qiladi: «Olim, mutafakkir yoki ijodkor tajribada yuzaga kelgan dunyoning tartibsizligidan yashirinish uchun olamning soddalashtirilgan aniq qiyofasini yaratadi va unga o’z emotsional hayotining og’irlik markazini joylashtiradi»*[15]. Olim tadqiqot Obyekti yaxlit va to’laqonli ekanligiga o’zini ishontiradi. Eksperimentning qat’iy belgilangan chegaralari uzib yuborgan Obyektning o’zaro aloqalari olingan natijalarga ta’sir ko’rsatmaydigan, ikkinchi darajali deb baholanadi. Olim Obyektni ideallashtirishga majbur bo’ladi, aks holda u eksperiment o’tkaza olmaydi, ya’ni tabiat oldiga o’zi ta’riflagan ayrim savollarni qo’yib, ularga o’zini qanoatlantiruvchi javoblar ololmaydi. Hamonki shunday ekan, mazkur farazlar asosida tuzilgan bashorat va prognozlar taxminiy xususiyat kasb

[15] Холтон Дж. Что такое антинаука // Вопросы философии. 1992. №2. – 127-b.

etadi. Olim tabiatga aralashuvning barcha oqibatlarini bashorat qilishga qodir emas.

Ilmiy faoliyat natijalarini talqin qilish ham ko'p sonli qiyinchiliklar va muammolar tug'diradi, chunki olim ko'rgan yoki tushungan narsani til vositalari bilan rasmiylashtirish talab etiladi. Shunday qilib, olim til meyyorlari va shakllari olamiga kirishga majbur bo'ladi. Bu erda talqindagi tafovut omili olim qaerda va qanday o'qigani, uning mo'ljallari, mazkur eksperimentda qanday istiqbollarni ko'rayotganini namoyon etadi. Bu va boshqa ko'plab shunga o'xshash muammolarni bir tezis – ilmiy bilishning ijtimoiy tabiati, olim faoliyatining ijtimoiy belgilanganligi haqidagi tezis bilan birlashtirish mumkin.

N.Gilbert va M.Makley tomonidan olimlar fikrlarining tahlili «Mulohazalarning variantliligi metodologik kamchiliklar oqibati emas, balki ularning uzviy xossasidir», degan xulosaga olib keldi[16]. Olimlar ba'zan qo'llanilayotgan atamalar va nazariyalarning aniq-ravshan ko'rinib turgan ma'nosini tushunishni xohlamaydigan o'z hamkasblarining xulq-atvorini har xil baholaydilar. Olimlar o'z moyilliklari va fikrlarida o'ta beqaror bo'lib, ba'zan ularni hatto butunlay qarama-qarshi nuqtai nazar bilan almashtirishlari va intellektual raqiblar tomoniga o'tishlari mumkin. Natijada olim – haqiqat, yagona va obyektiv haqiqat ritsari, degan ideal shubha ostida qoladi. Agar bahsda haqiqat tug'ilgudek bo'lsa, u har xil fikrlar, qarama-qarshiliklar va bir-birini inkor etuvchi nuqtai nazarlarga qaramay, olimlar erishadigan murosasi madora mahsuli hisoblanadi.

*Olimning mehnati va konsensus, ya'ni murosaga kelish muammosi uning portretini to'ldiradi*. Bir qutbda nazariyaning mazmuni, uni tuzish metodlari xususida talab etiladigan yakdillik, eksperimental bazani asoslash va uning oqibatlari haqidagi xulosalar tursa, boshqa qutbda – opponent dalillarini tushunish, ularni munozara uchun o'rinli shaklga solishni xohlamaslik turadi. *Tadqiqotchilar konsensus ham, diskonsensus ham ochiq va yashirin tarzda mavjud bo'lishi mumkinligini qayd etadilar. Ochiq konsensus darsliklarda, monografiyalarda o'z aksini topadi. U institutsional yo'l: o'quv yurtlarida yangi kafedralar ochilishi, tadqiqotlar uchun mablag'lar ajratilishi bilan namoyon bo'ladi. Yashirin konsensus olimlar muhokama*

[16] Qarang: Гильберт Н., Маклей М. Открывая язык Пандори. – М., 1980. – 9-b.

*chog'ida «og'ir» mavzularni ko'tarmasligi yoki ular o'zlari ayni bir masala xususida bir xil fikrlashlarini taxmin qilishlarida namoyon bo'ladi.*

Konsensusga erishish taxminan quyidagi darajalarda amalga oshiriladi:

1) paradigma darajasi;

2) ilmiy tadqiqot dasturi darajasi;

3) maktablar va yo'nalishlar darajasi;

4) individual qarorlar va kelishuvlar darajasi.

Ma'lum yutuqlarga erishgan olimlar o'z mavqeini saqlab qolishga harakat qiladilar. Binobarin, ular o'zlari fanga qo'shgan hissaga muvofiq bo'lgan mavjud tasavvurlar tez almashishidan manfaatdor emaslar. Shu sababli olim mehnati Tabiatning Buyuk kitobi sahifalarida o'z izini qoldirish umidi bilan bog'liq. F.Frank olimlarni hamma narsani soddalashtirishda ko'p ayblashlarini qayd etadi. Bu to'g'ri: soddalashtirishsiz fan mavjud bo'lishi mumkin emas. Olimning ishi oddiy ta'riflarni topishdan iborat. Olim biron-bir oddiy tushunchaga ta'rif berganidan so'ng, u mazkur ta'rifdan kuzatilayotgan dalillarni chiqarishi, so'ngra ular kuzatish bilan amalda muvofiq ekanligiga ishonch hosil qilish uchun bu oqibatlarni tekshirishi lozim. Shunday qilib, *F.Frank fikriga ko'ra, olimning mehnati uch qismdan iborat bo'ladi:*

*1) tamoyil va g'oyalarlarni ilgari surish;*

*2) mazkur tamoyillarga tegishli kuzatilayotgan dalillarni olish uchun ulardan mantiqiy xulosalar chiqarish;*

*3) kuzatilayotgan dalillarni eksperiment o'tkazish yo'li bilan tekshirish.*

F.Frank bu uch qism inson ruhining uch har xil qobiliyati yordamida amalga oshirilishini ko'rsatadi. Agar eksperiment o'tkazish yo'li bilan tekshirish kuzatish, hissiy taassurotlarni qayd etish qobiliyati yordamida amalga oshirilsa, ikkinchi qism esa mantiqiy fikrlashni talab qilsa, u holda biz tamoyillarni qay yo'l bilan olamiz? Bu erda F.Frank borliqni tushunib etishning nafaqat oqilona, balki nooqilona usuli imkoniyatlarini ham hisobga olib, ancha ilg'or fikr yuritadi. «Umumiy tamoyillar insonga tushida kelishi, fanning umumiy tamoyillarini olish uchun zarur bo'lgan

qobiliyatni esa biz tasavvur deb nomlashimiz mumkin»[17], deb qayd etadi u.

*Hozirgi zamon olimining portretini Maks Veber taklif qilgan chizg'ilar bilan to'ldirish mumkin. U olimning burchi o'zini, o'z tafakkurining inersiyasini tinimsiz engishdan iborat, deb hisoblaydi. Hozirgi davr olimi – bu avvalo professional va mutaxassis. Kunlarning birida o'zining butun taqdiri qo'lyozmaning mazkur joyidagi mana shu taxminlarni u to'g'ri yoki noto'g'ri ilgari surayotganiga bog'liq ekanligi haqida o'ylashga qodir bo'lmagan odam fan bilan shug'ullanmasligi kerak.*

Olim ilmiy faoliyatga o'zining butun vujudi bilan berilishga qodir bo'lishi lozim. «Ehtiros eng muhim omil – ilhomning dastlabki shartidir. Birgina mo'ljal bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi. Albatta, mo'ljal ham dastlabki shartlardan biri hisoblanadi. Qo'qqisdan paydo bo'lgan faraz mehnat o'rnini bosmaydi. Boshqa tomondan, mehnat bunday farazning o'rnini bosishga yoki majburiy keltirib chiqarishga qodir emas. Ehtiros ham bunga ojiz. Ko'rsatilgan ikki omil va faqat birgalikda farazning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Biroq faraz u bizga kerak bo'lgan paytda emas, o'zi ma'qul ko'rgan paytda paydo bo'ladi. Ilmiy xodim har qanday ilmiy ishning yo'ldoshi bo'lgan tavakkalchilikni ham bo'yniga olishi kerak. Ilm jabhasida faqat bir ishga xizmat qiluvchi odamgina shaxs hisoblanadi»[18].

## SHAXS KASBIY MA'NAVIYATIDA KORRUPSIYA, PORAXO'RLIK, MANFAATPARASTLIK KABI SALBIY ILLATLARGA QARSHI KURASH MASALALARI

Korrupsiya dunyo miqyosida hal etilishi lozim bo'lgan global muammolardan biridir. Ushbu illat har qanday davlat va jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy putur yetkazadi, inson huquq va erkinliklarining poymol bo'lishiga olib keladi. Shu bois unga qarshi kurash xalqaro ahamiyat kasb etib, jahon siyosatining muhim masalalari qatoridan joy olgan.

Ma'lumki, bu illatning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi

[17] Франк Ф. Философия науки. – М., 1964. – 112-b.
[18] Вебер М. Избранные произведения. – М., 1990. – 709-711-b.

kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q. Shunday ekan, har bir millat mazkur illatga qarshi kurashish strategiyasini o'zi belgilaydi.

Shulardan kelib chiqib, 2017 yil 3 yanvar kuni "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinib, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmi yaratildi.

Mazkur Qonuning 3-moddasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga doir tushunchalarga ta'rif berilgan, ya'ni korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini, yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Mazkur Qonun o'z navbatida, fuqarolarga korrupsiya va korrupsiyaga oid huquqbuzarlikning nima ekanligi va ularning salbiy illatlari haqida ma'lumot beradi.

Yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari qilib, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, unga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi prinsipini ta'minlash kabi vazifalar ko'rsatib o'tilgan.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari bugunning muhim vazifalaridan

biridir. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar.

## KORRUPSIYA: UNING TARIXIY ILDIZLARI, KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH USULLARI

Korrupsiya bu - jamiyatni turli yo'llar bilan iskanjaga oladigan dahshatli illatdir. Mazkur illat demokratiya va huquq ustuvorligi asoslariga putur yetkazadi, inson huquqlari buzilishiga olib keladi, bozorlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi, hayot sifatini yomonlashtiradi va odamlar xavfsizligiga tahdid soladigan uyushgan jinoyatchilik, terrorizm va boshqa hodisalar ildiz otib, gullashi uchun sharoit yaratib beradi.

Ta'kidlab o'tish o'rinliki, ushbu zararli hodisa katta va kichik, badavlat va kambag'al bo'lishidan qat'iy nazar, barcha mamlakatlarda uchraydi. Ushbu zararli illatni bartaraf etish bo'yicha jahon hamjamiyati tomonidan bir qator samarali ishlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, hanuzgacha u bartaraf etilmayapti.

Biz quyida korrupsiyaning tarixiy ildizlariga va unga qarshi kurashish xususida fikr yuritmoqchimiz.

Korrupsiya (lot. Corrumpere — buzmoq) termini odatda mansabdor shaxslar tomonidan unga berilgan mansab vakolatlari va huquqlardan o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ko'zlab qonunchilik va axloq qoidalariga zid ravishda foydalanishini anglatadi.

Ko'p hollarda bu atama siyosiy elitadagi byurokratik apparatga qarata ishlatiladi. Korrupsiya ko'plab davlatlarning jinoyat va ma'muriy qonunchiligi bilan huquqqa qarshi harakat sifatida ta'qib qilinadi.

Korrupsiyaning tarixiy o'zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma'lum mavqega ega bo'lish uchun qabila sardorlariga sovg'alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O'sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to'siq ekanligini ko'rsatdi. Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo'rligi qattiq

tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro’siga juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo’rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, Injilda “Sovg’alarni qabul qilma, chunki sovg’a ko’rni ko’radigan qiladi va haqiqatni o’zgartiradi” deyilgan bo’lsa, Qu’roni Karimda “Boshqalarning mulkini nohaq yo’l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo’lgan narsalarni olish uchun o’z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

XVIII asrning ikkinchi yarmiga kelib jamiyat davlat boshqaruv apparatining ish sifatiga toboro ko’proq ta’sir ko’rsata boshladi. Bu o’sha davrda qabul qilingan bir qator qonun hujjatlarida o’z aksini topgan. Jumladan, 1787-yilda qabul qilingan AQSh Konstitutsiyasida pora olish AQSh prezidentini impechmentga tortish mumkin bo’lgan ikki jinoyatning biri sifatida ko’rsatib o’tilgan. Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi va ularning mamlakat hayotidagi o’rnining oshib borishi XIX-XX asrlarda rivojlangan davlatlarda korrupsiyaning dunyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan ancha kamayishiga olib keldi.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko’rsatadi.

Ikki xil ma’noni anglatuvchi qonunlar — ushbu vaziyat huquqni qo’llovchi mansabdor shaxs tomonidan qonunlarni turlicha qo’llash imkonini yaratadi. Shuningdek, ayrim mutaxassislar jinoyat, ma’muriy qonunchilikdagi “vilka” sanksiyalarni ham korrupsiyaga qulay sharoit yaratishi mumkinligi haqida fikr yuritishgan. Ya’ni, sanksiyaning aniq miqdori yo’qligi sudyada uni o’z hohishiga qarab qo’llashga sharoit yaratib beradi.

Ijro hokimiyatining birligi tamoyilinining buzilishi

aynan bitta faoliyatning turli instansiyalar tomonidan tartibga solinishi:

- aholining davlatni nazorat qilishdagi sust ishtiroki;
- davlat sektoridagi xizmat qilayotgan xizmatchilar daromadlarining xususiy sektorda topish mumkin bo’lgan daromadlardan kamligi;
- iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi;

- inflyasiyaning yuqori darajasi;
- mamlakat yuqori boshqaruv organlarining aholidan uzilib qolganligi;
- mamlakatdagi diniy va axloq qoidalari.

Jahon mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurashning quyidagi usullari mavjud.

Ichki nazorat - bu usul boshqaruv apparatining o'zida nazoratni kuchaytiruvchi tuzilmalar (har xil ichki inspeksiyalar va boshqa nazorat organlari tuzish orqali) yarat ishni taqazo etadi. Bu tuzilmaning asosiy vazifasi xodimlarning ichki etiket qoidalari ga rioya qilishini nazorat qilishdir. Hozirgi kunda bizning yurtimizda ham bir qator h uquqni muhofaza qilish organlarida aynan shu vazifani bajaruvchi ichki tuzilmalar ya ratilgan.

Tashqi nazorat bu usulda ijro apparatidan mustaqil tuzilmalarning mustaqilligin i oshirish nazarda tutilib, aynan ushbu tuzilmalar orqali korrupsiyaga qarshi samarali kurash olib boriladi. Ya'ni, sud hokimiyatining maksimal darajada mustaqilligiga eris hish ommaviy axborot vositalariga ko'proq erkinlik berish va h.k.

Saylov tizimi orqali kurashish demokratik davlatlarda saylangan vakillarni korr upsiya uchun jazolashning asosiy usullaridan biri keyingi saylovlarda unga ovoz ber maslik hisoblanadi. Korrupsiyaga saylovlar orqali ta'sir o'tkazish eng samarali usul hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori natijalarga erishgan Shvetsiya, Singapur, Gonkong, Portugaliya kabi davlatlarning tajribasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etish korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin egallaydi.

Bunda Konstitutsiyaviy nazorat organlari, huquq-tartibot organlarining ahamiyati ortadi. Ya'ni, korrupsiyaga olib kelishi mumkin bo'lgan normalarni konstitutsiyaviy nazorat organi tomonidan konstitutsiyaga zid deb topish, aholining huquqiy savodxonligini oshirish kabi metodlardan unumli foydalanish ushbu davlatlarni korrupsiya darajasi juda past bo'lgan davlatlar qatoriga olib chiqqan.

O'zbekiston erkin va ozod diyor. Unga fuqarolarning barcha turdagi huquq va manfaatlari qatori vijdon va diniy e'tiqod erkinligi ham kafolatlangan. Shunday ekan, istiqboli porloq yurtni, yuksalib borayotgan jamiyatimizni ko'z qorachig'idek asrash

bugungi kun yoshlariga, qolaversa, qalbida ota-onasiga, farzandiga, eliga, Vataniga nisbatan zarracha muhabbati bor insonlarga ma’suliyat yuklaydi.Bu borada viloyatimizda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Har yili hokimlik vakillari, din peshvolari,qishloq va mahalla ma’sullari hamkorligida o’quv muassasalarida, shahar va qishloqlarda hamda turli tashkilotlarda tadbirlar tashkil etilmoqda. Suhbatlar davomida kishilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, hushyorlik, yurtni asrash, terrorizm va ekstremizmning jirkanch maqsadlari hamda yakunida uning qanaqa oqibatlarga olib kelishi haqidagi fikrlar keng jamoatchilikka, yoshlarga bayon qilinmoqda.

Jaholat. Bu so’zni eshitgan zahotiyoq ko’zimiz qorong’ulikni ko’rgandek, yuragimiz esa ovchi qo’ygan tuzoqqa tushgan qush kabi xavotir bilan pitirlab qoladi. Bilasizmi, bu titroq qo’rquvdan emas, balki jaholat insoniyat yovuzligining naqadar tuban ifodasini anglatishidan dahshatga tushasan kishi! Mana shunday jaholatning qurbonlari, taassufki, bugungi porloq zamonning ertasi bo’lgan kelajak avlodning ildiziga bolta urmoqchi bo’layotgan manqurt kimsalardir.

Mening nazarimda inson uchun birinchi baxt, bu hayotga hazrati inson bo’lib kelish baxt bo’lsa, ikkinchi baxt mustaqil Vatanning ertasi bo’lib yashash baxtidir. Mustaqil Vatan! Qalbida g’urur, iftixor va ona vatanga muhabbati bo’lgan har bir insonni to’lqinlantirib yuboradigan ulug’ va jarangli so’z! bir vaqt mustaqillik nimaligini bilmay, sahroda suv izlagan yo’lovchi kabi o’tib ketgan ota-bobolarimiz orzusidagi kun, bugun emasmi?!

Vatanim, sening qadding tog’lar kabi baland, mehring quyoshdek issiq, jannatmakonim, men uchun xuddi onam yopgan nondek azizsan! Allohga ming bora shukurlar bo’lsinki, Vatanim bugun mustaqil, uning har bir qarichida tinchlik deb atalmish ulug’ ne’matning isi kelib turibdi.

**Xulosalar.** Har qanday ijodiy faoliyat, ilmiy tadqiqot ishining natijasi muayyan darajada inson manfaatlarini himoya qilish, insonga xizmat qilishni ko’zda tutishi uning ijtimoiy madaniy yo’nalishini o’zida namoyon etadi.

Ilmiy faoliyat ijtimoiy mas’uliyatni talab qiladi, zero har qanday ixtiro jamiyat taraqqiyotini jadal rivojlanishiga munosib hissa qo’shishda o’z ifodasini topmog’i

lozim.

Murosaga kelish olimlar hamjamiyatining o'ziga xos omili, ular munosabatini davom ettirishning asosiy ko'rsatkichidir.

Ilmiy va intellektual elita jamiyatning kam sonli kishilari to'plami bo'lib, ularning g'oyalari insoniyat sivilizatsiyasiningdavomchilari sifatida namoyon bo'ladi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Korrupsiya so'zining lug'aviy ma'nosi va real ma'nosini sharhlang.
2. Korrupsiya ko'proq qanday doiralarda yuz beradi?
3. Korrupsiyaning kelib chiqish ildizlari.
4. Korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar.
5. Korrupsiyaning tarixi.
6. Ikki xil ma'noni anglatuvchi qonunlar.
7. Tashqi nazorat
8. Aholining huquqiy savodxonligini oshirish.
9. BMTning Korrupsiyaga qarshi haqaro konvensiyasining imzolanishi.

**Adabiyotlar:**


1. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi (BMT Bosh assambleyasining Rezolyusiyasi bilan 2003 yil 31 oktyabrda qabul qilingan. https://lex.uz/docs/-1461329.

2. O'RQ-419, 2017 yil 3 yanvar "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-3088008.

3. O'RQ -170, 2014 yil 14 may "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi Qonuni. https://lex.uz/docs/-2387357.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 fevraldagi «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunining qoidalarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-2752-sonli qarori. https://lex.uz/ru/docs/-3105125.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi «Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3723-sonli qarori. https://lex.uz/docs/-3735818.

6. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 9 yanvardagi «Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to’g’risida»gi PF-5618-sonli Farmoni. https://lex.uz/docs/-4149765.

7. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O’zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-5729-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4355387.

8. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 iyundagi “O’zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi faoliyatini tashkil etish to’g’risida” gi PQ-4761-sonli qarorining maqsadi. https://lex.uz/docs/-4875782.

9. Закон Республики Узбекистан от 7 июля 2008 г. № ЗРУ-158 «О присоединии Республики Узбекистан к Конвеции Организации Объединенных Нации против коррупции (Нью-Йорк, 31 октября 2003 года)». https://lex.uz/docs/1369507.

10. Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. 2017 y 22 dekabr. Lex.uz

11. Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. 2018 y 28 dekabr. Lex.uz

12. Mirziyoyev Sh. M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. 2020 y 24 yanvar. Lex.uz

13. Конвенция об уголовно ответственности за коррупции. – Совет Европы. Серия Европейсвких договоров. № 173. Страсбург: 1999. 27 январь.

14. Конвенция об гражданско-правовой ответственности за коррупции.- Совет Европы. Серия Европейсвких договоров. № 174.

15. Конвенция Организации объединенный нации против коррупции. Нью-Йорк: ON, 2004.

16. Абу Муслим. Коррупция. – Москва: Юрист, 2012.

17. Qobilov Sh.R., Abdullajonov N.B. Korrupsiya va xavfsizlik. Toshkent: Akademiya, 2006.

## QO’SHIMCHA VA TUSHUNTIRUVCHI MATNLAR

***HOZIRGI ZAMON OLIMINING PORTRETI***

*Hozirgi davr olimi eng bahsli g‘oyalarni vijdoni qiynalmay himoya qilishga qodir. U biron-bir muassasa va mafkuraga nisbatan boqiy muhabbat yoki nafrat tuyg‘ularini his etmaydi. Uning maqsadlari barqaror bo‘lishi yoki mulohazalar, zerikish, tajribaning o‘zgarishi yoki atrofdagilarda kuchli taassurot qoldirish niyati ta’sirida o‘zgarishi mumkin. U maqsadga yo bir o‘zi, yo uyushgan guruh yordamida erishishga harakat qilishi mumkin. Bunda u aql-idrok, emotsiyalar, mutoyiba, «jiddiy manfaatdorlik pozitsiyasi» va odamlar o‘ylab topgan har qanday vositalardan foydalanishi mumkin. U doim universal g‘oyalar va universal andozalarga ochiq-oydin qarshi chiqadi. U ilmiy halollikni shijoat bilan himoya qilishda har qanday Nobel mukofoti sohibidan o‘zishga qodir.*




KORRUPSIYASIZ
TA'LIM
KORRUPSIYA - SHAXSNING O'Z MANSAB YOKI XIZMAT MAVQEIDAN SHAXSIY MANFAATLARINI YOXUD O'ZGA SHAXSLARNING MANFAATLARINI KO'ZLAB MODDIY YOKI NOMODDIY NAF OLISH MAQSADIDA QONUNGA XILOF RAVISHDA FOYDALANISHI, XUDDI SHUNINGDEK BUNDAY NAFNI QONUNGA XILOF RAVISHDA TAQDIM ETISH. (O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING "KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH TO'G'RISIDA"GI QONUNINING 3-MODDASI)
KORRUPSIYA - TA'LIM SIFATIGA SALBIY TA'SIR QILADI, UNGA ERISHISH IMKONIYATLARINI CHEKLAYDI VA ADOLA'TGA BÖ'LGAN ISHONCHGA PUTUR YETKAZADI
Sening tanloving!
TA'LIM BERISH SIFATINI PASAYTIRADI
TA'LIM SIFATINI OSHIRADI
BOLALARNI MAKTABGA BORISHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI SO'NDIRADI
BILIM OLISHGA BO'LGAN QIZIQISH VA INTELEKTUAL SALOHIYATNI OSHIRADI
KORRUPSIYAGA ASOSLANGAN HAYOT
KORRUPSIYASIZ HAYOT
BILIM OLISH ISHTIYOQINI PASAYTIRADI
ENG YAXSHI NATIJALARGA VA JAMIYAT E'TIROFIGA ERISHISHGA YORDAM BERADI
ISHDA BILIM VA KO'NIKMALARNING YO'QLIGI, HAYOTDAN QONIQMASLIKKA OLIB KELADI
BARQAROR VA NUFUZLI ISH BILAN TA'MINLAYDI
QONUNNI BUZISHGA BOSHLAYDI VA KORRUPSIYANI KELTIRIB CHIQARADI
KAFOLATLI YORUG' KELAJAK
KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA RESPUBLIKA IDORALARARO KOMISSIYASI
AGAR SIZDAN PORA TALAB QILISHSA
BOSH PROKURATURANING ISHONCH TELEFONIGA QO'NG'IROQ QILING. 1007
YXHT
Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti
O'zbekistondagi Loyihalar Koordinatori


Korrupsiya bolalarning barkamol o'sishiga to'sqinlik qiladi va bilimsizlikni keltirib chiqaradi
O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasining ishonch telefoni:
1007
Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi
Farzandlaringizni kelajagi Sizning qo'lingizda!


Agar korrupsiyaga barham berilmasa,
ertangi kunimiz qanday bo'ladi
Имтихон дафтарчаси
ДИПЛОМ
Tanlash Sizdan!
Korrupsiyaga qarshi kurashish
bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi
O'zbekiston Respublikasi
Bosh Prokuraturasining
ishonch telefoni:
1007


BIZ
KORRUPSIYAGA
QARSHIMIZ!
Ta'lim
Tibbiyot
Ilm-fan
KORRUPSIYA
ISLOHOTLAR
KORRUPSIYA
STOP
CORRUPTION

# 5-MAVZU. KASBIY MA’NAVIYAT VA AXLOQDA BAXT MUAMMOSI. BOSH MA’NAVIY QADRIYATLAR VA ASOSIY AXLOQIY FAZILATLAR

**Reja:**

**1. Kasbiy ma’naviyat va axloqiy madaniyat.**

**2. Axloqiy tarbiyaning yo’llari va vositalari.**

**3. Kasbiy ma’naviyat va axloqda baxt muammosi.**

**4. Bosh ma’naviy qadriyatlar va asosiy axloqiy fazilatlar.**

*Tayanch atamalar: Axloqning boshqa ijtimoiy - ma’naviy hodisalar bilan o’zaro aloqalari: axloq va din, axloq va huquq, axloq va siyosat, axloq va san’at, axloq va fan, axloq va mafkura, baxt, ma’naviy qadriyatlar, asosiy axloqiy fazilatlar.*

## KASBIY MA’NAVIYAT VA AXLOQIY MADANIYAT

Davlat va fuqarolik jamiyatidagi axloqiy yuksaklik darajasini ular fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo’lgan munosabatlarida foydalanishi, o’z - o’zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o’z ichiga oladi. Qisqasi, u shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi. Zero axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatining qator unsurlarini o’z ichiga olgan tuzilmadir. U shaxsning o’zgalar bilan o’zaro munosabatlarida namoyon bo’ladi.

Axloqiy madaniyat jamiyat sub'ektlari va ularning munosabatlari bilan ifodalanadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: a) jamiyat sub’ektlarining axloqiy ongi madaniyatining belgilari va elementlari; b) xulq -atvor va muloqot madaniyati; v) axloqiy ishlar va faoliyat madaniyati. Axloqiy madaniyat jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti madaniyatining boshqa turlari bilan bog’liq, lekin birinchi navbatda u axloqning antipodlariga: yovuzlik, tengsizlik, adolatsizlik, nomus, nomus va vijdon etishmasligi va boshqa axloqqa qarshi. hodisalar.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri - muomala odobi. U mohiyatan o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir - biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir - biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmona yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Bu o'rinda buyuk ingliz yozuvchisi Daniel Defo qalamiga mansub mashhur «Robinzon Kruzoning sarguzashtlari» asarini eslashning o'ziyoq kifoya: Jumaboyni topib olgan Robinzonning naqadar quvonishiga ham sabab ana shunda.

Madaniyat dunyosi urf-odatlar bilan bog'liq, bu meyyorlar va qadriyatlar, bu ijod - hamma narsani madaniyat borligi deb atash mumkin. Shaxs madaniyat yaratuvchisi va tashuvchisi sifatida juda ko'p qirrali. U o'zining axloqiy madaniyati va estetik nuqtai nazaridan, psixologik yetukligi va intellektual rivojlanishining o'lchovi, mafkuraviy pozitsiyasi nuqtai nazaridan tavsiflanishi mumkin.

Axloq – ma'naviy madaniyatning asosi. Shaxsning axloqiy madaniyatining tuzilishiga inson ongi madaniyati va kundalik o'zini tutish madaniyati kiradi. Axloqiy ong va xulq-atvor madaniyatini xulq-atvorda etarli darajada aks etadigan bunday axloqiy ong madaniyatini izchil shakllantirishga obyektiv ijtimoiy ehtiyojni ifodalovchi elementlarning ajralmas tizimi sifatida ko'rib chiqish kerak. O'z navbatida, axloqiy xulq-atvor madaniyati - axloqiy ongning obyektiv madaniyatining bir shakli. Axloqiy madaniyatning bu xususiyati uning yagona "maqsadi", "missiyasi" bilan izohlanadi, bu shaxsning "axloqiy ishonchliligini" shakllantirishdan iborat. Axloqiy ong va xulq-atvor madaniyatining birligi shaxsning jamiyat axloqiy madaniyatini egallashini va bu madaniyatni amalda amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Shaxsning axloqiy shakllanish jarayoni unga axloqiy tarbiya - shaxsning axloqiy faoliyat sohasidagi bilimlarini shakllantirish kabi maqsadli ta'sir elementlarini o'z ichiga oladi; axloqiy tarbiya - axloqiy faoliyat sohasidagi malakalarni shakllantirish; axloqiy tarbiya va o'z –o'zini tarbiyalash - axloqiy munosabatlarning shakllanishi, shaxsning qadriyat yo'nalishlari va boshqalar.

Aynan mana shu omillarning birligi asosida shaxsning axloqiy madaniyat shakllanadi va uning axloqiy donoligi axloqiy talablar bilimining birligi va uyg'unligi

sifatida ularning harakatlarda namoyon bo’lishi, topish qobiliyati, eng yaxshi olijanob echim va samimiy axloqiy tuyg’u, hayotning noyob shaxsiy tajribasi va axloqiy madaniyat jamiyatining asosiy boyligi hisoblanadi.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr - qimmatini, izzatini joyiga qo’yishni, an’anaviy axloqiy meyyoriy talablarni bajarishni taqazo etadi. Shuning barobarida, u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko’zga ko’rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo’lishi so’z, nutq vositasida ro’y beradi. So’zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarini tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o’zini, eng avvalo, shirinsuhanlik, kamsuqumlik, bosiqlik, hushfe’llilik singari axloqiy meyyorlarda namoyon qiladi.

Muomala odobining yana bir «ko’zgusi» bu – insoniy qarash, nigoh. Ma’lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo’l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so’zga aylanmagan hissiyoti, talablari o’z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo’l siltab ketish – muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba’zan qarab qo’yishning o’zi so’zdan ham kuchliroq ta’sir ko’rsatadi. Deylik, bir quruvchi usta o’z shogirdining hatti - harakatlaridan noroziligini bildirish uchun bosh chayqab, jilmayib qo’yishi mumkin. Ikkinchi usta esa, bir lahza o’qrayib qarash bilan munosabatini ifodalaydi. Birinchi usta yuz ifodasi va hatti - harakati bilan; «Obbo shovvoz - ey, sal shoshilibsan - da, ha, mayli, zarari yo’q, shunaqasi ham bo’ladi», degan ma’noni anglatsa, ikkinchi ustaning qarashidan; «Yana ishni rasvo qilibsan - ku, qachon odam bo’lasan?!», degan so’zlarni uqish mumkin. Shubhasiz, birinchi usta muomalada odobga rioya qilgan bo’lsa, ikkinchisi uning aksi – shogirdining emas, o’zining odobsizligini ko’rsatmoqda.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat va odob o’rgatishsiz bir - biriga ta’siri, tarbiya va o’z - o’zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovordir. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bunda ota - onaning, mahalla - ko’yning ta’siri katta. Undan foydalana bilash kerak. Zero axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

Axloqiy madaniyat yaqqol ko'zga tashlanadigan munosabatlar ko'rinishidan biri, bu – etiket. U ko'proq insonning tashqi madaniyatini, o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun - qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondoshsa, ya'ni bir holatda bir necha muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir hil qoidalashtirib qo'yilgan hatti - harakatni taqozo etadi.

## AXLOQIY TARBIYANING YO'LLARI VA VOSITALARI

Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib etishuvini ta'minlaydigan uzluksiz jarayonlaridan biri. Unda individ axloqiy qadriyatlarni anglab etadi, o'zida axloqiy fazilatlarni barqaror etadi, axloqiy tamoyillar va meyyorlar asosida yashashga o'rganadi. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri - qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilmog' - u, nima qilmaslik lozim. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota - onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero qush inida ko'rganini qiladi: ota - ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, axloqiylik insonda faqat axloqiy tarbiya vositasidagina vujudga keladi, degan moddiyatchilik qarashlari ko'p yillar mobaynida hukmronlik qilib keldi. To'g'ri, axloqiy tarbiyaning ahamiyati nihoyatda katta. Lekin axloqiylik insonga uning insoniylik belgilaridan eng muhimi sifatida ato etilgan ilohiy ne'mat. Shu ma'naviy ne'mat – asosni axloqiy tarbiya yordamida takomillashtiramiz.

Axloqiy tarbiya inson farzandini takomilga, komillikka etkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Ularning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda, har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi, maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositasidagi

an’anaviy tarbiya bilan o’yinchoqlar va o’yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvaffaqiyatli qo’llaniladi; bunda bolaning qizg’anchiqlik, g’irromlik qilmaslikka, halol bo’lishga o’yinlar yordamida da’vat etiladi. Bolalar axloqiy tarbiyasida televideniye, radio, qo’g’irchoq teatri, kino san’ati katta rol o’ynaydi.

Umuman, axloqiy tarbiyaning eng kuchli vositasi san’at. Bu vosita aholining barcha tabaqasini, turli yoshdagi shaxslarni qamrab oladi. Ayniqsa, san’atning badiiy adabiyot turi keng qamrovli. Ertakdan tortib, romangacha bo’lgan janrlarda chop etilgan asarlar shaxsning axloqiy shakllanishida ulkan xizmat ko’rsatadi. Ular orqali kitobhon tarbiyalanuvchi sifatida ezgulik va yovuzlik nimaligini badiiy idrok etadi; ideal tanlashda ham ularning ahamiyati katta. Bundan tashqari, badiiy adabiyotning bevosita axloqiy tarbiyaga mo’ljallangan hikoyatlar, rivoyatlar va nasihatlar majmualari borki, biz ularni, yuqorida ko’rganimizdek, pandnomalar deb ataymiz: «Kalila va Dimna», «Qobusnoma», «Guliston», «Zarbulmasal» singari bunday mumtoz asarlar an’anaviy axloqiy tarbiya vositasi sifatida necha asrlardan buyon qanchadan - qancha avlodlarga xizmat qilib keldi, bundan buyon ham shunday bo’lib qoladi.

Axloqiy tarbiyaning barcha zamonlar uchun dolzarb bo’lgan yo’li bu – namunaviylik tamoyili. Oilada, avvalo, yuqorida aytilganidek, ota - ona bolaga axloqiy namuna bo’lishi kerak. Maktabda va oliy o’quv yurtida muallimlarning ta’lim berish usullaridan tortib, to «mayda - chuyda» hatti - harakatlarigacha o’z shogirdlari tomonidan shaxsiy namuna tarzida qabul qilinishini nazardan qochirmaslik lozim. Ustoz - shogirdlik munosabatlaridagi muomala odobi, halollik, rostgo’ylik yoshlar axloqiy tarbiyasining shakllanishini ta’minlovchi omillardandir.

Hozirgi paytda axloqiy tarbiyaning eng kuchli zamonaviy vositasi sifatida televideniyeni keltirish mumkin. U deyarli barcha san’at turlarida yaratilgan asarlarni ekranlashtirish va ekranda ko’rsatish imkoniga ega. Bundan tashqari, unda maxsus axloqiy tarbiyaga bag’ishlangan muntazam ko’rsatuvlar ham berib boriladi. O’zbek tilidagi «Otalar so’zi - aqlning ko’zi», «Rivoyat», «Oqshom ertaklari» singari ko’rsatuvlar bunga misol bo’la oladi.

Axloqiy tarbiyaning aqliy - ma’naviy va jismoniy tarbiya bilan qo’shib olib

borilishi maqsadga muvofiq. O'shanda jamiyatimiz har jihatdan kamol topgan fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Mamlakatimizda buning uchun barcha huquqiy - ijtimoiy shart - sharoitlar yaratilgan.

Axloq – ma'naviyat tizimida eng salmoqli o'rinni egallaydi va undagi boshqa sohalar bilan mustahkam aloqada ish ko'radi. Endi ana shu aloqalarning eng muhimlariga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Avvalo, axloq bilan din masalasini olib qaraylik. Bu borada yana, yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha qilib, shuni aytish mumkinki, mohiyatan din inson hayotining axloqiyligini taqozo qiladi. Shu bois diniy - shar'iy tamoyillar va meyyorlar, hadisi sharifdagi o'gitlar axloq - odob qoidalari bilan chambarchas bog'liq. Chunonchi, inson eng oliy qadriyat sifatida qat'iy muhofaza etiladi. Odam o'ldirish mumkin emas, odam o'ldirish eng ulkan axloqsizlik hisoblanadi. O'g'rilik, birovning haqini eyish, munofiqlik, aldash, yolg'on gapirish va shu kabi boshqa turli illatlar ham diniy - shar'iy, ham axloqiy nuqtai nazardan man etiladi. Aksincha, insonni e'zozlash, odamlarning bir-biriga ko'makdosh bo'lishi, to'g'rilik, rostgo'ylik, halollik, rahmdillik, qavmdoshi qanday yuksak darajada bo'lmasin, unga hushomad qilishdan tiyinish, faqat yaratgangagina sig'inish singari fazilatlar ayni paytda ham diniy taqvo, ham axloqiy talab tomonidan ma'qullangan hatti-harakatlardir. Din, ta'kidlaganimizdek, insonni axloqiylashtirishning vositasi tarzida ish ko'radi. Demak, diniy taqvo bilan axloqiy talabning ildizi bir. Har ikki holatda ham vijdon ko'zga ko'rinmaydigan boshqaruvchi muruvvat sifatida namoyon bo'ladi. Bu botiniy ko'rinish; zohiriy ko'rinish esa shar'iy hukmlar va huquqiy qonunlarda o'z aksini topadi.

Axloqiy talab huquqiy qonun - qoidalarda o'z aksini topadi, deyish bilan biz axloq va huquqning mustahkam aloqaga ega ekanini tasdiqlab turibmiz. Zero aslida ham shunday. Muayyan jamiyatdagi huquqiy qonun - qoidalar o'sha mintaqa xalqi tomonidan asrlar mobaynida ishlab chiqilgan axloqiy aqidalar, tamoyillar, meyyorlar, shuningdek, nisbatan umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan urf - odatlar zamirida vujudga keladi. Lekin ba'zi bir urf - odatlar, an'analar huquqiy meyyorlar darajasiga ko'tarila olmasligi ham mumkin. Buning sababi, ularning, avvalo, nisbatan xususiy

tabiatga ega bo’lganida, qolaversa, axloqiy va huquqiy taraqqiyot talablariga javob bera olmasligida. Masalan, johiliyat davrida arablarda qiz tug’ilsa, uni tiriklay ko’mib tashlash odati bo’lgan. Keyinchalik, musulmonlik yoyilganda, bu odat g’ayri muslimlik odati sifatida rad etildi. Hozirga kelib, unday hodisa huquqiy qonunlar asosida jinoyat deb qaraladi. Bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin.

Ko’rinib turibdiki, axloq bilan huquq, garchand, bir ildizga ega bo’lsa - da, ularning jamiyat axloqiy hayotini boshqaruv usuli har xil: axloq asosan tushuntirish, pand - o’gitlar vositasida ish ko’rsa, huquq majburiy usul, jazo choralari orqali ish olib boradi. Ayni paytda, shuni ham aytish kerakki, huquq axloqqa nisbatan ancha aniq va ancha muayyan ichki bo’linishlarga ega. Chunonchi, xalqaro huquq, fuqaro huquqi, jinoiy huquq, mehnat huquqi va h. k. nisbatan qat’iy chegaralangan huquqiy meyyorlar mavjud. Axloq esa huquqqa nisbatan ancha keng qamrovli. Chunonchi, huquqiy qonunlar mavjud tuzumga, muayyan shaxs va yosh doirasidagi kishilarga tadbiq etilsa, axloqiy qoidalar, hikmatlar, pand - o’gitlar barcha tuzumlar hamda turli yoshdagi kishilarga taalluqli bo’ladi. Shuningdek, huquqiy meyyorlar aniq manzilni taqozo qiladi, axloqiy qoidalar esa mavhumligi va umumiyligi bilan ajralib turadi.

Axloqning siyosat bilan aloqasi ham nihoyatda qadimiy: ilk davlat yuzaga kelgandan buyon mavjud. Masalan, miloddan avvalgi XVIII asrda Bobilon podshosi Hammurapi tomonidan ishlab chiqilgan qonunlar majmui huquqiy hujjat bo’lsa - da, uning asosida axloqiy fazilat – adolatni barqaror etish yotadi. Zero, Hammurapi bu qonunlarni mamlakatda haqiqat qilish, adolat o’rnatish, etim-esirlar va beva - bechoralarga himmat, rahm-shafqat ko’rsatish maqsadida joriy etganini ta’kidlaydi.

Axloqshunoslik tarixida axloq bilan siyosatning munosabatlari borasida ikki hil qarash mavjudligini ko’rish mumkin. Ularning biriga ko’ra, siyosat axloqiy bo’lmog’i lozim, ikkinchisiga binoan esa siyosat axloq bilan sig’ishmaydi.

Birinchi qarash mohiyatan axloqni siyosatdan yuqori qo’yadi: siyosat axloqqa bo’ysundirilishi shart. Boshqacha qilib aytganda, maqsadlar va vositalar birligiga erishmoq lozim, ya’ni buyuk, pokiza ideallar faqat axloqiy pok vositalar orqali amalga oshirilmog’i kerak. Lekin bunda axloq siyosat vazifasini bajarmasligi lozim. Aks holda muayyan davlat institutlarining, hususan, huquq - tartibot va harbiy

idoralar singari tashkilotlarning ishini ortiqcha darajada cheklab, ularni juda zaiflashtirib qo'yish mumkin.

Ikkinchi qarash esa, mohiyatan siyosatning axloq bilan hisoblashmasligini taqozo etadi. Bu qarash tarafdorlari axloqni siyosatga bo'ysundirishni, undan, kerak paytida, tamomila yuz o'girish lozimligini ta'kidlaydilar. Ular nazdida, axloq buyuk ideallarga erishuv yo'lidagi bir g'ov, jamiyatni umuminsoniy qadriyatlar bilan o'ralashtirib qo'yadi, ko'ngli bo'shlikka, sustkashlikka, pirovard natijada bosh-boshdoqlikka olib keladi. Shu bois buyuk maqsadlarga tezroq erishish uchun har qanday vositadan foydalanish mumkin. Zero oxir-oqibat erishilgan maqsad yo'l qo'yilgan razilliklar, qotilliklar, aldovlar va firibxarliklarni yuvib ketadi. Vaholanki, bu usul orqali faqat vaqtinchalik g'alabaga erishish mumkin. Oqibatda esa, bu g'alaba nafaqat yo'qqa chiqadi, balki mag'lubiyatga aylanadi.

Demak, siyosatda axloqdan ko'z yumish, uni axloqiylashtirishda yuzaga keladigan ba'zi nuqsonlardan yuz bor, ming bor ko'p va fojeiydir. O'z siyosatini tubdan axloqiylashtirish – har bir zamonaviy davlatning hozirgi kundagi birlamchi vazifasi.

Axloq bilan san'atning o'zaro aloqalari haqida gap ketganda, eng avvalo, uni et bilan tirnoq tarzidagi yaqinlik ekanini ta'kidlamoq lozim. Chunki har bir haqiqiy san'at asarida asosiy ziddiyat sifatida ezgulik bilan yovuzlikning kurashi in'ikos yotadi, insonparvarlik, haqiqatgo'ylik, to'g'rilik, adolat, muhabbat, sadoqat singari fazilatlar tarannum etiladi, taqdir, o'lim va o'lmaslik, hayotning mazmuni, baxtga erishish singari muammolar o'rtaga tashlanadi. Axloqiy ideal muammosi esa har bir badiiy asarning shohtomiri hisoblanadi. Masalan, Alisher Navoiyning Farhodi, Shirini, Shekspirning Romeosi, Julettasi, Oybekning Navoiysi mazkur mualliflar asarlaridagi axloqiy ideallardir. Ularsiz Navoiy, Shekspir va Oybek asarlarini tasavvur qilish mumkin emas.

Shunisi ham borki, ba'zi san'at asarlarida axloqiy idealga duch kelmaydi kishi, hatto biror bir ijobiy qahramonni ham uchratmaydi asar boshdan-oyoq salbiy badiiy qiyofalar turish-turmushini aks ettirishga bag'ishlanadi. Bunday badiiy qiyofalarni muallif o'z zamonasi erishgan axloqiy daraja nuqtai nazaridan turib yaratadi. Misol

tariqasida, Bayronning «Beppo» dostonini, Gogolning «O'lik jonlar», Zavqiyning «Hajvi ahli rasta», Abdulla Qodiriyning «Kalvak mahzumning xotira daftaridan» asarlarini keltirish mumkin. Bu asarlarda axloqiy muammolar, yuksak axloqiylik masalasi avvalgi misollardagidek bevosita emas, balki bilvosita – satirik usul orqali o'rtaga tashlanadi.

Bundan tashqari, so'z san'atida, ta'bir joiz bo'lsa, o'ziga xos «axloqiy janrlar» mavjud. Ularni xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham uchratish mumkin: maqol, metal, hikmatlar, hikoyatlar, rivoyat, masal pandnoma v. h. shular jumlasidandir. Umuman olganda, axloqsiz badiiy asarning bo'lishi mumkin emas, barcha san'at asarlari uchun axloqiylik umumiy zamin ahamiyatiga ega.

Bundan tashqari san'at axloqshunoslik targ'ibotchisi, axloqiy tarbiyaning eng qulay vositasi sifatida ham namoyon bo'ladi. Chunonchi, badiiy adabiyotning, kino san'ti, tasviriy san'at va teatr san'atining, ayniqsa, bu borada ahamiyati beqiyos. Bu san'at turlari yoshlarda axloqiy idealning shakllantirishda katta xizmat qiladi. Chunonchi, o'yinlarda bolalarning mard, jasaratli, matonatli, vatanparvar va halol amerikalik hindular sardoriga, Alpomishga, Go'ro'g'liga va boshqa xalq qahramonlariga taqlidi fikrimizning dalilidir.

Axloqning fan bilan o'zaro aloqadorligi masalasi ham muhim. Ba'zi bir qarashlarga ko'ra, axloqning fanga aloqasi yo'q. Bunday qarashlarni to'g'ri deb bo'lmaydi. Zotan axloqshunoslik tadqiqot Obyekti sifatidagi axloqning maqomiyoq uning fanga aloqadorligini ko'rsatib turadi.

Ayniqsa, axloqning ijtimoiy fanlar bilan aloqa. Chunonchi, ko'pgina ilmiy qarashlar, nazariyalar insonni bevosita yoki bilvosita yuksak axloq egasi, donishmand va halol inson bo'lishga chaqiradi.

Lekin, ayrim nazariyalar ham borki, ularni axloqsiz deb atash o'rinli. Bunga ko'plab misollar keltirish mumkin. Masalan, mashhur «Maltus nazariyasi». Ingiliz iqtisodiyot nazariyotchisi Maltus (1766 - 1834) ilgari surgan g'oyaga ko'ra, aholi geometrik progressiyaga, iste'mol maxsulotlari arifmetik progressiyaga muvofiq rivojlanadi. Aholi o'sa borib, yer yuzida qashshoqlik, oziq-ovqat etishmovchiligi vujudga keladi. Shu bois urushlar olib borish tabiiy hol sifatida o'zini oqlaydi. Maltus

bu o'rinda urushni targ'ib etish bilan axloqsizlikning eng yuksak ko'rinishini namoyon etishini ta'kidlaydi.

Ma'lumki, barcha fanlar, hususan, tabiiy fanlar har biri o'z sohasida haqiqatning ayon bo'lishiga xizmat qiladi. Axloqning pirovard natijasi esa insonni haqiqatga olib borish, uni komil mavjudot qilib tarbiyalashdir. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, axloq va fan bilvosita munosabatga krishadi. Ayni paytda ilm - fanda erishilgan olamshumul yutuqlar insoniyat jamiyati oldiga yangi - yangi axloqiy vazifalar va muammolarni qo'yadi. Chunonchi, so'nggi paytlarda fan - texnika taraqqiyotining yuksak darajasi va ekologik buhronlarning yuzaga chiqishi sababli ekologik axloqshunoslik singari axloq olamining yangi yo'nalishlari vujudga keldi; noosferadan yoki boshqacha aytganda tehnosferadan etosferaga – axloqiy muhitga o'tish zarurati insoniyat jamiyati axloqiy madaniyati oldidagi eng dolzarb vazifa sifatida qo'yilmoqda; zero bu vazifaning faqat axloqshunoslik doirasidagi muammogina emasligini, keng qamrovli ekanini, butun Yer yuzining bundan keyin mavjud bo'lishi yoki bo'lmasligi muammosiga aylanganini bugun yaqqol sezish mumkin.

Shu bois texnikaviy fanlar taraqqiyotining navbatdagi bosqichlari faqat axloq talablariga mos, ta'bir joiz bo'lsa, axloqiy nazorat ositida amalga oshmog'i lozim.

To'g'ri, ba'zilar bizga, fan – mutlaq obyektiv hodisa, u mohiyatan holis, shunga ko'ra, uni axloqqa bu qadar bo'ysundirish nojoiz, deb e'tiroz bildirishlari ham mumkin. Biroq, fanni odamlar, turli hissiyot, ehtiroslarga moyil, turli axloqiy fazilatlar, hatto illatlarga ega bo'lgan kishilar yaratishini yodga olsak, bunday e'tirozlarning o'zi nojoiz ekanligiga ishonch xosil qilamiz. Zero, har bir olimning ma'naviy - axloqiy holati, uning o'z kashfiyotida qay darajadadir aks etmasligi mumkin emas. Hullas, fan ham bevosita, ham bilvosita axloq bilan bog'liq va aynan shu bog'liqlik tabiiy - texnikaviy fanlarni insoniylashtirish vazifasini bajaradi.

Axloq bilan mafkuraning aloqasi ham jamiyat hayotida juda katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir mafkura muayyan g'oyalar va qarashalr tizimidan iborat bo'ladi. Rasmona mafkurani axloqiy g'oyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Lekin g'oya hech qachon o'z-o'zicha, shunchaki mavjud bo'lmaydi. U albatta insonda in'ikos

topadi va muayyanlashadi. Bu haqda Hegel o'zining «Falsafiy bilimlar qomusi» asarida shunday deydi: «G'oya haqida gapirganda, uni qandaydir olis va narigi tomondagi narsa tarzida tasavvur qilish kerak emas, g'oya, aksincha, butunicha shu yerda ishtirok etadi hamda, shunindek, har bir ongda, kam deganda, buzilgan va zaiflashgan holda mavjud bo'ladi». Demak, muayyan g'oyalarni, shu jumladan, axloqiy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan kishilargina mafkurani yaratadilar va uni ommalashtiradilar.

Har bir demokratik davlat va jamiyatda bir necha mafkura mavjud bo'lishi tabiiy. Lekin ular ichidan biri etakchilik mavqeini egallaydi. Bu etakchilik zinhor boshqa mafkuralarni inkor etmaydi va jamiyat a'zolari ko'pchiligi irodasini aks ettirishi bilan ajaralib turadi. Uni shuning uchun ham milliy mafkura deb atashadi. Erkin demokratik fuqorolik jamiyatini o'z oldiga vazifa qilib qo'ygan bizning mamlakatimizda bu masalaga jiddiy e'tibor berilgan. Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutciyasidagi birinchi bo'lim, birinchi bobning 12 - moddasida shunday yozib qo'yilgan: «O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning hilma - hilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mufkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emas».

Demak, O'zbekiston Respublikasida davlat demokratiya tamoyillariga asoslangan holda, barcha mafkuralarning yashash huquqini ta'minlovchi insitut sifatida ish ko'radi. Milliy mafkuramiz esa boshqa biror-bir mafkurani kamsitmasdan, ko'pchilik jamiyat a'zolarining ijtimoiy-falsafiy, axloqiy-estetik g'oyalari mujassami sifatida mamlakat va millat taraqqiyotiga xizmat qiladi. Chunonchi, u, eng avvalo, yuksak axloqiylikka asoslangan. Milliy mafkuramiz jamiyatimizda vatanparvalik, millatparvarlik, ziyolilik tamoyillarini ustuvor bilib, har bir fuqoroni buyuk davlat yaratishda ishtirok etishga chorlaydi. Ayni paytda, umumbashariy ma'naviy qadryatlarni e'zozlashga, boshqa millatlar va elatlarga hurmat bilan qarashga chaqiradi, tenglar ichida teng bo'lish g'oyasini ilgari suradi. Bu mafkura xalqimiz ma'naviy mezonlariga, uning ezgulik va farovonlik haqidagi ideallariga, erksevarlik, tinchliksevarlik tamoyillariga mos keladi, shu sababli unga ehtiyoj bor.

Tarixdan axloqiylikni chetlab o'tishga yoki uni axloqsizlikka niqob qilib,

axloqni soxtalashtirib umr ko'rishga uringan mafkuralar ham bizga ma'lum. Ular, odatda, muayyan davlatning yagona mafkurasi deb e'lon qilinadi va u millatga yolg'on vositasida singdirishga uriniladi. Olmoniyada gitlerchilar ilgari surgan milliy sosializm mafkurasi yoki sobiq sho'rolar ittifoqidagi kommunistik mafkura shular jumlasidandir. Har ikkala mafkura ham o'zini tan olganlardan «mafkuraviy dushmanlar»ni jisman yo'qotishni talab etdi – eng buyuk axloqsizlikni axloqiylik sifatida targ'ib qildi. Lekin niqoblangan axloqsizlikning umri uzoq emas. Bu holatni buyuk rus shoiri Aleksandr Pushkin «Tiklanish» degan she'rida bag'oyat go'zal tasvirlagan.

## KASBIY MA'NAVIYAT VA AXLOQDA BAXT MUAMMOSI

Baxt nihoyatda katta tushuncha, har bir inson o'zining muammosini, uning yechimini topish yoki darkor narsaga erishishni baxt deb bilishiga haqqi bor. Baxtli odamlar nafaqat o'zlari uchun, balki boshqalar uchun yaxshilik qilishadi. Ular birovning xolisona hojatini chiqarsa, og'irini yengil qilsa o'zlarini baxtli his qiladilar. Bog'chaga boradigan bola bir kun uyida qolsa, bog'chaga bormasa katta baxt. Ularga butun dunyoning boyligi va qudrati kerak emas, mana shu jihat ularni baxtsiz odamlardan ajratib turadi.

Baxtli bo'lishingizga yordam beruvchi 3 omil:

1. Baxtli odam g'azablanmaydi.

Ular kechiradi va unutadi. Chunki ular xafagarchilikni yashirish g'azab va og'riqni ushlab turishni anglatishini bilishadi. Bunday odamlar bu narsalarni his qilishni xohlamaydi. Ular baxtli bo'lishni xohlaydi.

2. Ular shukr qiladi.

Ular doimo o'zlariga minnatdor bo'lgan hamma narsani eslatib turadi. Minnatdorchilik ularning hayotining muhim qismidir, shuning uchun ular stressni yengishga, baxtli va qoniqarli bo'lishga qodir.

3. Hammaga hurmat bilan muomala qiladi.

Odamlar o'zlarini baxtli his qilsa va hayotga ijobiy nuqtai nazar bilan qarasa,

ular boshqalarga yaxshiroq munosabatda bo’ladi va ular bilan mustahkam munosabatlar o’rnatadi. Ular baxtni tarqatadi va bu atrofdagilarga yuqadi.

Lekin turfa toifadagi odamlar borki, ular ham o’zini baxtli sanaydi, ulardan yaratgan egamning o’zi asrasin. Bular:

Birovning dilini vayron qilsa, qalbini yaralasa orom olguvchilar;

Birovning muvaffaqiyatsizligini ko’rsa quvonguvchilar;

Elning boshiga ish tushgan vaqtda o’z manfaatini hamma narsadan ustun qo’yuvchilar;

Birovning oilasida notinchlik bo’lsa ko’ngli yorishuvchilar;

Birovning oilasi buzilsa “do’ppisini osmonga otguvchilar”;

Faqir, yordamga muhtoj insonlarning ustidan kuluvchilar;

Senga omad boqqanini ko’rsa, eshitsa ko’ngli xufton bo’lg’uvchilar;

Elning buyuk qadriyatlarini yo’qqa chiqarib zamonga to’nkab qo’yuvchilar;

O’zinig nopok ishlari bilan, yuzsizligi bilan dilozorligi bilan boshqalarni qalbiga hadik solguvchilar;

Manmanlikni o’zining asosiy quroli qilib olganlar.

## Baxt deganda nimani tushunish lozim?

Baxt tushunchasi qadimgi davrlardan boshlab, inson psixologik holatining mazkur elementi barcha zamonlarning mutafakkirlari diqqat markazida bo’lib kelgan va kelmoqda. Baxt - insonning mavjudligi sharoitida umrining mazmunli va to’kisligi, o’zini-o’zi anglashidan imkon qadar qanoat hosil qiladigan holati sanaladi. Baxt fenomeni psixologiya, falsafa, fiziologiya, sotsiologiya va iqtisodiy nazariyalarda hamda dinlarda o’rganiladi.

Baxt fiziologiyasi «baxt gormonlari» deb ataladigan – endorfin, serotonin va dofamin gormonlari bilan chambarchas bog’liq. Ularning sintezi va organizmdagi aylanishi endokrin, bakterial va virusli kasalliklar tufayli buziladi. Serotonin miya va markaziy asab tizimining neyromediatori bo’lib, u oshqozon-ichak traktida va asab tizimining qismlarida ishlab chiqariladi. Agar endorfin asosan qisqa muddatli eyforiya va quvonch holatiga ta’sir qilsa, serotonin uning muntazam ishlab chiqilishi va neyronlarda ushlash jarayonlari ko’p darajada baxt va uzoq muddatli qoniqish

hissini ta’minlaydi.

Antik etikada baxt muammosi markaziy kategoriya edi. Aristotel uni birinchilardan bo’lib o’rgangan, u baxtni «yaxshilikka to’la qalbning faoliyati» deb ta’riflagan. Yaxshilikni baxtga eltuvchi vosita sifatida tavsiflagan. Ellinizm davrida baxt epikurizm falsafasida zavqda ifodalangan. Sharq falsafasi moddiy dunyoda baxtga erishib bo’lmasligini e’lon qilib, o’zining biologik, fiziologik, ijtimoiy, iqtisodiy va mantiqiy jihatlarida individual baxtli hayotga erishishning amaliy yo’llarini o’rgatadi. Xususan, sharq falsafasi vakili Dalay-lama shunday deydi:

«Yaxshi hamki, baxtga erishishning ikki usuli bor. Birinchi usul - tashqi. Yaxshi uy-joy, yaxshi kiyim, ko’proq yoqimli do’stlar orttirish orqali biz ma’lum darajada baxt va qoniqish topa olamiz. Ikkinchi usul - ruhiy rivojlanish yo’li bo’lib, u ichki baxtga erishish imkonini beradi. Biroq bu ikki yondashuv ekvivalent emas. Ichki baxtsiz tashqi baxt uzoq davom eta olmaydi.

Agar hayot sizga qora ranglarda tortilsa, yuragingizda nimadir etishmayotgan bo’lsa, siz qanchalik hashamatlar orasida bo’lsangiz ham, baxtli bo’lolmaysiz. Ammo ichki xotirjamlikka erishgan bo’lsangiz, eng qiyin sharoitlarda ham baxt topishingiz mumkin».

Baxt va pul o’rtasidagi munosabatni o’rganuvchi iqtisodchilar va sotsiologlarning ta’kidlashicha, makrodarajada yalpi ichki mahsulot darajasi yuqori bo’lgan boy mamlakatlar aholisi kambag’al mamlakatlar aholisidan ko’ra nisbatan o’zlarini baxtliroq his qilishadi. Mikro darajaga kelsak, aksariyat iqtisodchilarning xulosasi shunday: baxt pulga bog’liq, ammo pul qancha ko’p bo’lsa, ular bu baxtga shunchalik ta’sir qilmaydi. Psixologlarning ta’kidlashicha, baxt uchun ma’lum bir minimal pul kerak. Biroq, asosiy muammolar hal etilgach, baxt va pul o’rtasidagi aloqa tezda xiralashadi.

Baxt qanday kriteriyalar bilan o’lchanadi?

BMT Bosh Assambleyasi 2011 yilda tashkilotlarga a’zo mamlakatlarni o’z xalqi baxtiga baho berishga va undan davlat siyosatida mezon sifatida foydalanishga chaqiruvchi rezolyusiya qabul qildi. Shundan so’ng 2012 yil 2 aprel kuni Butan (rivojlanishning asosiy ko’rsatkichi sifatida yalpi ichki mahsulot o’rniga yalpi milliy

baxtni qabul qilgan birinchi va yagona davlat) bosh vaziri Jigme Tinli raisligida BMTning «Baxt va farovonlik: yangi iqtisodiy paradigmani belgilash» mavzusidagi birinchi yuqori darajadagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. 2012 yildan BMT barqaror rivojlanish echimlari tarmog'i tomonidan chop etiladigan xalqaro baxt indeksi yuritila boshlandi.

Milliy baxtni baholash uchun 6 ta omildan foydalaniladi: aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, umr ko'rish davomiyligi, fuqarolarning o'z hayotiy qarorlarini qabul qilish erkinligi, saxiylik va korrupsiyaga munosabat. Har bir omil 10 balli tizimda baholanadi. O'zbekiston 2022 yilda mazkur indeksda yakuniy hisobda 6,0 ball to'plagan. Xususan, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot darajasi bo'yicha – 1,2 ball, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha – 1,09 ball, umr ko'rish davomiyligi bo'yicha – 0,60 ball, fuqarolarning o'z hayotiy qarorlarini qabul qilish erkinligi – 0,71 ball, saxiylik bo'yicha – 0,28 ball, korrupsiyaga munosabat bo'yicha esa – 0,24 ballni qayd etgan.

O'zbekistonda baxtiyorlik iqtisodiyoti yangi soha hisoblangani bois empirik tadqiqotlar soni nisbatan kam ekani kuzatiladi. Nurdinova & Adachay (2020) baxtiyorlik iqtisodiyoti haqida qisqa ma'lumot bergan bo'lsa, Hivvatari (2019) O'zbekistondagi ishonch va hayotdan qoniqish orasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan. Jahon Baxtiyorlik Hisobotining 2006-2019 yillari ma'lumotlari asosida O'zbekiston uchun hisoblagan indeksda umumiy o'sish sur'ati kuzatiladi. 2010 yilda mazkur indeks qiymati 5,09 bo'lib, 2006-2019 yillar orasidagi eng past darajani ko'rsatadi. 2017 yilda indeks 6,42 qiymat bilan eng yuqori darajani ko'rsatadi.

Mehnat bozoridagi ishtirokiga ko'ra hayotdan qoniqish va baxtning o'rtacha qiymati solishtirilganda, mavsumiy ishda ishlayotgan va vaqtinchalik ish bilan band bo'lganlar eng baxtsiz kategoriya ekanligi kuzatildi. Bu kategoriyaning doimiy daromadga ega emasligi, ertangi kun haqidagi qayg'ulari baxtiyorlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgani orqali izohlanadi. Hayotdan qoniqish darajasi 6,0 qiymat bilan eng past ko'rsatkichi ham mavsumiy ish bilan band va boshqalarga to'g'ri keladi. Tadbirkor va o'z biznesiga ega bo'lgan respondentlarning baxtiyorlik darajasi 3,69 qiymat bilan eng yuqori ekanligi ko'rildi. Tadbirkor va o'z-o'zini band qilgan

respondentlarning baxtiyorligi qat’iy grafik asosida ishlamaslik, o’zini-o’zi boshqarish vakolati mavjudligi va boshqalarga nisbatan erkin mehnat sharoitiga ega ekanligi bilan izohlash mumkin. Hayotdan qoniqish darajasi eng yuqori kategoriya talabalar ekanligi kuzatilgan.




Mehnat bozoridagi ishtirokiga ko’ra hayotdan qoniqish va baxtiyorlikning o’rtacha qiymati

Umuman olganda, baxt ko’proq kishilarning emotsional holati bilan baholanib, ijobiy hislarning ko’pligi bilan izohlanadi. Ilmiy adabiyotda baxt subyektiv farovonlik, hayot sifati kabi atamalarning bir-biriga sinonim sifatida ishlatilishi kuzatiladi. Lekin statistik ma’lumot va so’rovnomalarda baxt va hayotdan qoniqish orasidagi farq kuzatiladi.

Baxt bosh mezoniy tushuncha sifatida deyarli barcha asosiy tushunchalarda va tamoyillarda o’z «hissa»siga ega. Shu jihatdan atoqli tasavvufshunos Najmiddin Komilov: «Juda ko’p irfoniy tushuncha istilohlarning sharhi muhabbatga borib taqaladi», - degan fikrlari ayni haqiqat. Na ezgulikni, na yaxshilikni, na vatanparvarlikni, na insonparvarlikni muhabbatsiz tasavvur etib bo’lmaydi.

Qo’shimcha qilib shuni aytish mumkinki, muhabbat — insoniy mohiyatning erkin tarzda namoyon bo’lishidir, u zo’ravonlik yoki zo’rma-zo’rakilik bilan chiqisha olmaydigan hodisa. U meyyorlar, an’analar, qonunlarga bo’ysunmaydi, lekin, yuksak axloqiylik ifodasi tarzida insonga ulkan mas’uliyat yuklaydi, uni jasoratga chorlaydi, kutubxonasi insonni tashqi va transtendental olam bilan bog’laydigan, uni

yolg’izlikdan olib chiqadigan buyuk kuch. Muhabbatning obyekti doimo go’zallik, manfaatsizlikdir. Muhabbat uchun Alloxmi, Vatanmi, yormi - muhabbat egasiga undan-da go’zalroq narsa yo’q. Ayni paytda bir obyektni sevgan kishi boshqa obyektlarm ham sevishi tabiiy. Deylik, yorga bo’lgan haqiqiy muhabbat Vatanga, insoniyatga muhabbatni inkor etmaydi, aksincha, barqaror qiladi. Zero, «o’z-o’zicha», «yakka», «xudbin» muhabbatning bo’lishi mumkin emas. Inson o’zi o’zgaga aylanganida, o’zgani o’ziga aylantira olganida haqiqiy muhabbat egasi hisoblanadi. Mana shu obyekt bilan subyekt orasidagi farqning «yo’qolishi» eng buyuk, eng mukammal lazzatdir.

Demak, muhabbat inson axloqiy hayotining cho’qqisi, komillik belgisidir. Shu bois haqiqiy muhabbat egalari yoshlar tomonidan doimo axloqiy ideal tarzida qabul qilinadi: Farhod va Shirin, Romeo va Juletta va h.k. Shunday qilib, muhabbatni shaxs erkinligining axloqiy zarurat sifatidagi o’ziga xos ko’rinishi, baxtga erishuvning asosiy omili deyish mumkin. Ta’kidlash lozimki, muhabbat — oliy tuyg’u, shu ma’noda u oliy tushuncha. Lekin uni tuban, quyi narsa-hodisalarga nisbatan ham qo’llash hollari uchrab turadi. Chunonchi, Fromm singari g’arblik mutafakkirlar, ba’zi rus faylasuflari muhabbat tushunchasini mol-dunyoga, pulga nisbatan qo’llaydilar. Ularga nisbatan «o’chlik», «ruju», «hirs» singari tushunchalarni qo’llash ma’qul.

Muhabbat ham, axloqshunoslikdagi ko’pgina tushunchalardek, «juftlik» xususiyatiga ega, uning ziddi - nafrat. Nafrat tushunchasi, albatta, muhabbat singari keng qamrovli emas. U aksil muhabbat tarzida namoyon bo’ladi, obyektdan chetlashishni, undan begonalashishni taqozo etadi. Hazar, jirkanch hissi nafratning kundalik turmushdagi tor, «mayda» ko’rinishidir. Nafratning ularga nisbatan «yirikligi» uning ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligidir. Ayni paytda, nafrat g’azabdan keskin farq qiladi. U, g’azabga o’xshab, o’z obyektini yo’qotishga intilmaydi, undan faqat yuz o’giradi. Uni muhabbat egasida o’z muhabbati obyektiga nisbatan tashqi bir kuchning noinsoniy, adolatsiz, noinsoflarcha munosabati tufayli o’sha kuchga qarshi qo’zg’aladigan hissiyot deyish mumkin. U davomiylik tabiatiga ega, g’azab kabi o’tkinchi hodisa emas. Agar g’azabning asosida inson fe’lining

salbiy holati - badjaxllilik yotsa, nafrat uchun chuqur o'ylab qabul qilingan uzil-kesil qaror yotadi. Ko'rinishdan nafrat kishida yoqimsiz taassurot uyg'otsa-da, ko'p hollarda u illat emas, axloqiy fazilat sifatida insonning vijdonliligidan, botiniy jasoratidan dalolatdir.

Shu o'rinda buyuk fransuz yozuvchisi Emil Zolyaning «Nima menda nafrat uyg'otadi» degan estetikaga doir kitobiga yozgan so'zboshisidan olingan quyidagi fikrni keltirish maqsadga muvofiq: «Nafrat - muqaddas. Nafrat bu - kuchli va qudratli yuraklarning noroziligi, bu - o'rtamiyonalik va pastkashliklardan qahrlanadigan odamlarning jangovar jirkanchi. Nafratlanmoq - sevmoq degani, o'zida otashin va mardona qalbni his qilmoq, nimaiki sharmandalik va nodonlik bo'lsa, o'shanga nisbatan chuqur hazar tuyg'usini tuymoq degani. Nafrat yengillik beradi, nafrat adolat o'rnatadi, nafrat yuksaltiradi».

Ma'lumki, muhabbat egasi o'z sevgisini va sevgilisini qizg'anib, asrab qolishga harakat qiladi. Ana shu qizg'anish hissi meyyoridan oshib ketganda rashkka aylanadi. Rashk esa, uni qanchalik ta'rif-tavsif qilmaylik, meyyorning buzilishi, illat. Natijada ba'zan iztirobni yo'qotishga intilish muhabbat obyektining o'zini yo'q qilishga, fojiaga olib keladi.

**Baxt.** Hayotning ma'nosi ideal bilan bog'liq bo'lgani kabi baxt atamasini ham hayotning ma'nosi tushunchasidan ajratib olingan holda tahlil etish mumkin emas. Buyuk ajdodimiz Abu Nasr Forobiy: «Baxt - har bir inson intiladigan maqsad, zotan u muayyan komillikdir», - deganida ko'p jihatdan haq edi.

Har bir intilishning ro'yobga chiqishi esa muayyan tayyorgarlikni va kurashni taqozo etadi. Buyuk shoirimiz G'afur G'ulomning: Taqdirni yaratur odam, g'oyibdan kelajak baxt bir afsona, - degan hikmatli satrlari shu jihatdan diqqatga sazovor. Baxt haqida gap ketganda, albatta, omad to'g'risida to'xtalib o'tish lozim.

Darhaqiqat, bir umr omadli odam yo'q, omad - tasodif, baxt - zaruriyat; omad - istisnoli, baxt - qonuniy hodisa. Omad - shaxsning bir zumlik holatini aks ettiradi, baxt esa inson nimaga erishmog'i lozim, degan savolga bir umr mobaynidagi amaliy javobdir. Baxtni tushunish har bir davrda, ma'lum tarixiy sharoitda millat, shaxs va jamiyatning taraqqiyot darajasiga qarab, turlicha muayyanlashish xususiyatiga ega.

Ya’ni, ideal kabi uning ham tabiati o’zgaruvchan. Axloqshunoslikda baxt mezoniy tushunchasini alohida o’rganadigan an’anaviy evdeymonchilik deb ataladigan yunoncha «eudaimonia» (baxt) so’zidan olingan yo’nalish mavjud.

## BOSH MA’NAVIY QADRIYATLAR VA ASOSIY AXLOQIY FAZILATLAR

Inson hayotida axloqiy meyyorlar ham katta ahamiyatga ega. Ular tamoyillarga nisbatan ancha sodda, umumlashmagan, tor qamrovli. Ularni kundalik hayotimizda muayyan axloqiy fazilatlarni aks ettirgan tushunchalar va tamoyillarning amalga oshish ham deyish mumkin, ular axloqiy talablaming eng oddiy, lekin keng tarqalgan shakli sifatida ro’yobga chiqadi. Halollik, rostgo’ylik, hayolilik, insoflilik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik singari me yorlar ayniqsa diqqatga sazovor.

**1. Halollik va rostgo’ylik**. Halollik vijdon, adolat va burch kabi axloqshunosiik mezoniy tushunchalari bilan bog’liq, insonning o’zgaga munosabati o’ziga munosabatidek sof, pokiza bo’lishini talab qiladigan axloqiy meyyordir. Dastavval u diniy tushuncha sifatida vujudga kelib, har bir musulmonning ijtimoiy ahvoli va iqtisodiy xatti-harakatlari sifatini belgilab beruvchi shar’iy meyyor bo’lib amal qilgan.

Har bir diniy e ‘tiqodning asosida axloqiylik yotadi va u ko’p hollarda ibodatdan baland qo’yilgan: solih bandalar, «Qur’on»da aytilganidek, eng avvalo go’zal axloq egalaridir. Shu boisdan keyinchalik halollik nisbatan tor shar’iy qobiqdan chiqib, asta-sekinlik bilan shaxs hayotidagi eng qamrovli axloqiy meyyorga aylandi, teran ma’naviylik kasb etgani holda, kundalik hayotdagi insoniylikni belgilaydigan umuminsoniy fazilat bo’lib qoldi. Masalan, bugungi kunda ixtisoslashgan mehnat taqsimotining takomillashuvi, ilm-fan taraqqiyotining yuksalishi natijasida biz kasbiy halollik, ilmiy halollik, iqtisodiy halollik va boshqalar haqida gapirishimiz mumkin.

Insoniyat jamiyatida haromlik yoxud nopoklikning halollikka nisbatan kam uchramasligi doimo axloqshunoslarni tashvishga solib kelgan. Chunonchi, imom G‘azzoliyning harom yeyish haqida to’xtalib, mana bunday deyishi bejiz emas: «...Xohi zulm bilan olingan bo’lsin (kuch ishlatib, xoinona undirish va bosqinchilik-o’g’rilik mollari bilan olish); xoh zavq va o’yin yo’li bilan olinsin (qimor va shunga

o'xshash narsalar bilan bo'lganiday); xoh hiyla va nayrang yo'llari bilan olinsin (tovlamachilik va aldamchilik, tarozidan urish kabi); o'z moli va boyligini harom ishlarga (ichkilikbozlik, qimor, fohishabozlik) - hammasi harom yeyishga kiradi».

Afsuski, G'azzoliy sanab o'tgan holatlarni atrofimizda ko'p ko'ramiz. Chunki norok yo'l tutish oson, lekin halollikka erishish qiyin. Buning sababi shundaki, halollikning mavjudligi fidoyilik axloqiy tamoyili va rostgo'ylik axloqiy meyyori bilan shartlanadi; doimo halollik qilishi yoki halol yashashi uchun kishi albatta nimalardandir kechishi, kimlargadir qarshi borishi, faqat rost gapirishi, so'z bilan ish birligiga erishishi kerak. Shu bois halol inson jamoatchilik o'rtasida obro'ga ega, hurmatga sazovor bo'ladi. Qaysi jamiyatda halol fuqarolar ko'paysa, o'sha yerda baxt va farovonlik hukm suradi.

Rostgo'ylik yoki to'g'ri so'zlilik insonning haqiqatga intilishi bilan bog'liq, haqiqat esa doimo sinfiylik-tabaqaviylik, partiyaviylik-mafkuraviylik va tarixiylik-davriylikdan yuqori turadi. Haqiqatning ifodaviy shakllaridan biri rostgo'ylikdir. Demak, rostgo'ylik - insonning keyinchalik kasb etgan - o'z ongiga, ruhiga singdirgan, ijtimoiy-hayotiy, davriy-tajribaviy xususiyat emas, balki uning mohiyatida berilgan fazilat. Masalan, yaqinda tili chiqqan yosh go'dakni olaylik. U nima desangiz ishonadi, o'zi nimaiki desa - rost.

Go'dakning soddaligidan, ishonuvchanligidan, to'g'risini aytishidan biz - kattalar kulamiz; lekin haqiqat ustidan, rostgo'ylik ustidan kulayotganimizni o'ylab ham ko'rmaymiz. Go'dak kattarib, «aqli kirib» borgani sari atrof-muhitda yolg'on mavjud ekanligini, rost gapirsa yo kulgi bo'lishi, yo jazo olishi mumkinligini anglab yetadi va asta-sekin yolg'onga o'rgana boshlaydi, dastlabki maishiy yolg'on ijtimoiy bosqichga ko'tariladi. Endi xususiy yoki guruhiy manfaatdorlikni ta'minlovchi yolg'on atrofdagi voqelikning hamrohiga aylanadi. Insonni bu yo'ldan faqat yuksak ma'naviylik, birinchi galda axloqiy tarbiya qutqaradi.

Ezgulik, nomus, or, qadr-qimmat, insonparvarlik, halollik, insof nima ekanini tushunib yetgan kishigina rostgo'y bo'la oladi. Rostgo'ylik oson emas. U insondan sabr-toqat, matonat va jasoratni talab qiladi, rostgo'y inson qo'rquvdan forig' bo'ladi, har qanday holatda ham vijdoniga qarshi bormaydi: kimlarningdir ko'ziga qarab,

yaqinlarini yoki hamkasabalarini xafa qilishdan, o'z moddiy manfaatdorligiga zarar yetkazishdan cho'chimaydi.

To'g'ri, bunday munosabat tufayli rostgo'y inson aziyat chekishi, ta'na-dashnomlarga qolishi mumkin. Lekin bularning hammasi bir odamga yoki muayyan guruhga voqelikni asl holida yetgazganligidan, ularni noto'g'ri yo'lga solib yubormaganligidan qalbda paydo bo'lgan qoniqish hissi, xotirjamlik va orom tufayli yuvilib ketadi, ichki bir quvonch unga baland ruh bag'ishlaydi. Yolg'onga kelsak, uni ko'pchilik donishmandlar eng katta yovuzliklar sirasiga kiritishgan. Chunki, yolg'onchi kishilar bo'lgan yoki bo'layotgan voqea-hodisalar haqida noto'g'ri axborot berib, odamlami adashtiradilar, o'zlari ham adashadilar.

Kimningdir yoki kimlarningdir yolg'orini tufayli odamlar ishonchga loyiq narsalarga ishonish, ishonchsizlikka sazovor narsalarga ishonmaslik imkonidan mahrum bo'ldilar va turmushda, hatto hayot-mamot masalalarida noto'g'ri qarorlar qabul qiladilar, bu narsa esa fojiaga olib keladi. Yolg'on gapirgan odam ham «quruq» qolmaydi, u ham o'z «fojiaviy ulush»iga ega bo ladi, unga bundan buyon nomussiz, kazzob, ishonib bo'lmaydigan odam sifatida munosabat qilinadi, bu bir tomondan, ikkinchi tomondan, o'zi ham zarar ko radi. Bunga o'zbek xalq ertaklaridan biridagi ikki marta yarim kechada «Uyim yonib ketdi!» deb yolg'ondan faryod ko'tarib, hammani – sog'u kasalni, qariy-u yoshni oyoqqa turg'izib ovora qilgan, uchinchi marta haqiqatan ham uyiga o't tushganida ko'targan dod-voyiga hech kim e'tibor qilmagan yolg'onchining qismati misol bo'la oladi.

O'z qishloqdoshlarining ishonchini yo'qotgan ertak qahramoni faqat o'zgalarnigina emas, o'zini ham aldadi: uchinchi chorloviga hech kim yordamga kelmadi, uyi tag-tugi bilan yonib ketdi, boshpanasiz qoldi. Har qanday yolg'onchining peshonasida ana shunday «boshpanasiz», panohsiz qolish qismati bor. Zero, har bir inson uchun o zgalarning unga bo'lgan ishonchi panohdir; o'zgalarning ishonchi insonning o'ziga ishonchini shakllantiradi va mustahkamlaydi.

**2. Hayolilik va insoflilik.** Bu meyyor hulqiy go'zallikning asosiy belgilaridan hisoblanadi. U, garchand, bir qarashda, uyat hissi bilan oxshash bo'lsada, aslida o'zini ko'proq andisha va iboga yaqin fazilat tarzida namoyon qiladi, unda axloqiy

mohiyat, estetik xususiyat - nafosat bilan uyg'unlashib ketadi. Hayodan odatda, inson qizaradi, bu qizarish, ayniqsa, xotin-qizlarda ichki go'zallikning yuzaga chiqishiga sabab bo'ladi va alohida bir nafislikni, mayinlikni vujudga keltiradi. Insonning o'zi sodir etgan yoki boshqalar vositasida amalga oshirilgan axloqiylikka zid xatti-harakatlardan noqulay vaziyatga tushishi, o'ng'aysizlanishi, mulzam bo'lishi uyat hissida ham mavjud. Lekin bu holatlar uyatda ijtimoiylik kasb etgan bo'ladi, shu sababli ular xatti-harakat sodir qilingandan so'ng ham davom etadi va ko'p hollarda vijdon azobiga aylanadi.

Hayotda esa mazkur holatlar sof ma'naviy tabiatga ega va vaqt doirasida cheklangan bo'lib, ular xatti-harakat sodir etilayotgan paytdagina yuzaga chiqadi. Sharq donishmandlari, xususan, Abu Lays as-Samarqandiy, G'azzoliy, Navoiy kabi allomalar, keyinchalik Avloniy, Fitrat singari jadid mutafakkirlari, hayoni yuksak axloqiy qadriyat sifatida olib qaraganlar, uni ikkiga - odamlar oldidagi hayoga va Alloh oldidagi hayoga ajratganlar hamda nomusning bir ko'rinishi deb ta'riflaganlar. Chunonchi, «Hayo, - deb yozadi Abdulla Avloniy «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida, - dilni ravshan qiladurgan bir nurdurki, inson har vaqt shul ma'naviyatning ziyosiga muhtojdur... Iffatning pardasi, vijdonning niqobi hayodir».

Darhaqiqat, hayolilik kishining ma'naviyatli, ma'rifatli, nomusli, ochiq ko'ngilli ekanini anglatadi, uning ziddiyati behayolik esa, aksincha, ma'naviyatsizlik, nopoklikka moyillik, qalban qattiqlik kabi illatlar bilan xarakterlanadi. Bugungi kunda hayolilik alohida ahamiyatga ega. Turli sivilizatsiyalarning o'zaro aloqalari, ba'zan esa omuxtalashuvi, urbanizatsiya, modaparastlik singari zamonaviy hodisalar o'zbek oilasidagi an'anaviy hayolilikka ma'lum ma'noda salbiy ta'sir ko'rsatayotadi, ayniqsa, xotin-qizlar va yoshlarning o'zini tutishida, muomalasida, kiyinishida bu ta'sirni yaqqol sezish mumkin.

Shu sababli oiladagi va maktabdagi tarbiyada hayolilik hulqiy go'zallik, nazokat; behayolik esa hulqiy xunuklik va qo'pollik ekanini uqdirish shaxs erkinligining doimo o'zgalar oldida mas'uliyat bilan bog'liqligini izchil ravishda tushuntirib borish muhim vazifalardan biri.

Darhaqiqat, adolat mohiyatan davlatning fuqaroga, jamiyatning shaxsga

nisbatan munosabati tarzida namoyon bo'ladi. Bordi-yu, o'zaro adolatli munosabatlar haqida gap ketsa, unda odatda yuksak martabadagi tarixiy shaxsning quyi martabadagi shaxsga munosabati nazarda tutiladi. Insof esa ana shu adolatning tor qamrovli xususiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'ladi. U fuqarolar, jamiyat a 'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar meyyoridir. Insoflilik ham halollik kabi vijdon tushunchasi bilan bog'liq, ma'lum ma'noda halollikka o'xshab ketadi. Lekin bu yuzaki taassurot. Chunki, halollik o'z haqi, ya'ni moddiy va ma'naviy huquqini o'zgalarning haqiga xiyonat qilmagan holda ajratib yashashni anglatadi. Insoflilik esa ijobiylikda halollikdan ham bir qadam olg'a tashlangan holatdir: unda kishi o'z halol haqidan o'zganing hisobiga kechadi; «o'zga»ning sharoiti o'zinikidan nihoyatda og'ir va yomon ekanini hisobga olib, o'z qonuniy haqini yoki ularning bir qismini ixtiyoriy ravishda o'zgaga beradi, muruvvat ko'rsatadi.

Misol tariqasida olimning bir xatti-harakatini olib ko'raylik: olim xorijda nashr etilgan kitoblaridan biri uchun 30.000 AQSH dollari miqdorida berilgan qalam haqini to'laligicha mehribonlik uyiga o'tkazdi. Vaholanki, mazkur qalam haqi uning halol aqliy mehnati tufayli ishlab topilgan mablag, unga hech kimning davo qilishga haqqi yo'q. Lekin u, o'zi va oilasining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli shu 30.000 dollarsiz ham risoladagidek bo'lishi mumkinligini, mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari va tarbiyachilarining sharoiti esa bu darajada emasligini hisobga olib, muruvvat ko'rsatdi: o'zi yoki avlodi uchun halol jamg'arma tarzida olib qo'yishi mumkin bo'lgan mablag'dan, insoflilik ko'rsatib, ixtiyoriy tarzda kechdi. Bu axloqiy xatti-harakatning olimlik vakolati doirasiga mutlaqo aloqasi yo'q. Ana shu insof yuzasidan qilingan muruvvat esa halollikni yana bir pog'ona yuksakka ko'tardi.

**3. Xushfe'llilik, shirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik**. Xushfe'llilik, sliirinsuxanlilik, kamtarinlik, bosiqlik singari axloqiy xatti-harakatlar meyyoriylik nuqtayi nazaridan g'oyat muhim. Chunki, har bir jamiyat darajasi ma'lum ma'noda undagi fuqarolar muomala madaniyatining yuksakligi bilan ham belgilanadi. Zero, xushfe1, shirinsuxan inson o'zining har bir muvaffaqiyatsizligiga fojia sifatida qaramaydi, alam yoki g'azab bilan yomon kayfiyatini boshqalarga o'tkazishga intilmaydi; atrofdagi axloqiy muhitni buzmaydi. Natijada o'ziga ham, o'zgalarga ham

ko’tarinki kayfiyat, turli-tuman omadsizliklarning o’tkinchiligini anglatuvchi hayotbaxsh bir umid bag’ishlaydi. Jamiyat doimo o’shanday odamlarni hurmat qiladi va ulardan o’rnak olishga intiladi. Xushfe’llilik, shirinsuxanlilik qay darajadaligi ko’proq ixtiyor bilan, kishining ma’lum bir insoniy tabiatga intilishi bilan bog’liq bo’lsa, bosiqlik, kamtarinlik, kamsuqumlik aksincha, ko’proq iroda kuchi natijasida yuzaga keladi. Zotan, insonning o’z g’azabini bosa bilishi, noroziligini barvaqt bildirmasligi; so’zlagisi, biror-bir gap bilan o’zini ko’rsatgisi kelib qolganda o’sha xohish-ixtiyorni to’xtata olishi kuchli irodani talab qiladi. Shu bois muomalada bosiq, kamtarin, «yetti o’lchab bir kesish» tamoyili asosida ish ko’rgan shaxslar oqil odamlar sanaladi va ular jamiyatda ham namunaviylik maqomiga noil bo’ladilar.

Ayni paytda, ba’zi bir odamlar guruhi uchun meyyorga aylanib qolgan illatlar ham borki, ular haqida to’xtalib o’tmaslikning iloji yo’q. Ular ichidan eng keng yoyilgan, ma’lum ma’noda yuqumli ma’naviy kasallikka aylanib borayotgan ikkitasini - xudbinlik va shuhratparastlikni ko’rib chiqaylik.

**4. Xudbinlik va shuhratparastlik. Xudbinlik** - o’z individual ehtiyojlarini hamma narsadan yuqori qo’yadigan axloqiy xislat illatni anglatuvchi tushuncha, biror-bir insonning moddiy-maishiy manfaatlarini boshqalarnikidan ustun qo’yilishini bildiruvchi manfaatparastlikdan va o’z shaxsini mutlaqlashtirishiga qaratilgan shaxsiyatparastlikning ba’zi unsurlaridan iborat salbiy xatti-harakatlar majmuyidir. U sharqona jo’mardlik axloqiy tamoyili va insoflilik meyyorining aksi: agar jo’mardlik, biror shaxs, jamoa yoki jamiyat baxti, farovonligi yo’lida kishining hatto o’ziga eng zarur bo’lgan narsalardan ham voz kechishiga tayyor turishini anglatsa, xudbinlik o’z manfaatlari yo’lida, hech kimni, hech bir jamoani, hech qanday jamiyatni tan olmaydigan salbiy meyyor egasining bo’rtib ko’zga tashlanadigan xususiyati. Xudbinlikni inson shaxsining o’ziga bo’lgan muhabbati bilan chalkashrtirmaslik lozim. Biz Imom G‘azzoliy muhabbatning besh turi haqida so’z yuritib, insonning o’ziga, o’zining a’zolariga, salomatligiga bo’lgan muhabbatini birinchi o’ringa qo’yganini yaxshi bilamiz. Uningcha, bu muhabbat Alloh, ota-ona, qarindosh-urug’, do’st-birodar, muhtoj-ehtiyojmandlar xizmatida bo’lishga imkon yaratuvchi vosita hisoblanadi.

Xudbinlik esa muhabbat hissiga emas, nafsga, hirsga, rujuga asoslanadi, o’zini adolatsizlik, insofsizlik va berahmlilik xislatlarida namoyon etadi. To’g’ri, hammaning ham qo’lidan jo’mardlik kelavermaydi, lekin insonning o’ziga bo’lgan muhabbati, boshqalarning ham o’ziga shunday muhabbati borligini inkor etmasligi kerak. Shu qoida buzilgan joydan xudbinlik boshlanadi. Xudbinlik jinoyat emas, xudbin odam qonunni buzmaydi, aksincha doimo qonun oldida «toza», faqat qonuniy haqini qanday sharoitda bo’lmasin - birovlarning fojiasi ustidanmi, o’limi ustidami, nimaligidab qat’iy nazar, undirib oladi. Uning aqidasi: «Go’zal bino qulasa-qulayversin, men o’zimga tegishli yuzta g’ishtni sug’urib olishim kerak».

Shuni afsus bilan qayd etish lozimki, xudbinlik jamiyatda ko’payib borsa-borayaptiki, kamaymayapti. Xudbinlikm yo’qotishning faqat bir yo’li bor, u ham bo’lsa jamiyatda axloqiy tarbiyani zamonaviy tarzda keng joriy etish.

**Shuhratparastlik** - shon-shuhrat ketidan quvadigan va bu yo’lda har qanday axloqsizlikdan qaytmaydigan insonlar toifasining xislati. Shuhratparast odam o’z nomining doimo atrofdagilar va jamiyat diqqat markazida turishiga, mashxurlikka, shov-shuvga, maqtovga ehtiyoj sezadi. Bu ehtiyoj oxir-oqibat uni jamiyatning axloqiy-ijtimoiy talablari bilan ham, individual xususiyatidagi o‘z biologik va ma’naviy-intellektual imkoniyatlari bilan ham mutlaqo hisoblashmaydigan ijtimoiy nafs bandasiga aylantirib qoladi. Shuhratparastlikning axloqiy illat sifatidagi xatarli tomoni shundaki, u ravnaq topib borish xususiyatiga ega: dastavval kishi o’z «men»ining boshqa «men»lardan kam boymasligini talab qiladi, keyin asta-sekin o’z «men»ining barcha «men»lardan baland turishini xohlab qoladi va nima qilib bo’lsa ham shu xohishni amalga oshirishga intiladi. Natijada u mavjud voqelikni, atrofdagilarning o’ziga bo’lgan asl munosabatini real baholay olmaydi; qayerda uni «ko’tar-ko’tar» qilib maqtashsa, o’sha yerga o’zini uradi, hayotda asl insoniy vazifasini bajarishdan chalg’iydi, tuzatib bo’lmas xatolarga yo’l qo’yadi. Shuhratparastlikka yorqin misol, umumbashariy timsol sifatida, odatda salkam 2,5 ming yildan buyon Herostratning nomi keltiriladi: u abadiy shuhrat qozonish uchun olamning yetti mo’jizasidan biri - Efes shahridagi Artemida kutubxonasi ibodatxonasiga o’t qo’ygan. Uning nomi hozirgacha taajjub, hayrat, ayni paytda

nafrat va la’nat bilan tilga olinadi.

Shuhratparastlik ham xuddi xudbinlik kabi zamonaviy jamiyatda avj olgan illatlardan hisoblanadi. Agar xudbinlikning keng yoyilishiga ma’lum ma’noda shaxs erkinligining qonuniy muhofazasi, ba’zi, demokratik tamoyillar yo’l ochib bersa, shuhratparastlik uchun zamonaviy ommaviy axborot vositalari ko’k chiroq vazifasini o’taydi: Nitshe aytganidek, hozirgi paytda har qanday kichkinagina «men», yo’lini topib, sahnadan, sahifadan yoki ekrandan o’zi haqida jahonga jar solish huquqiga va imkoniga ega insondir.

Matbuot va so’z erkinligidan «o’ziga xos» foydalanadigan, «mashhurlar» haqidagi shov-shuvlar bilan shug’ullanadigan son-sanoqsiz gazetalar, ko’rsatuv va eshittirishlar shuhratparastlarning yomg’irdan keyingi qo’ziqorinlardek paydo bo’lishini ta‘minlamoqda. Misol tariqasida ko’pchilik ommaviy axborot vositalarida aslida xorijiy mualliflar musiqalarini, qo’shiqlarini noqonuniy o’zlashtirgani - o’g’irlagani (plagiat) uchun jazolanishi kerak bo’lgan shuhratparast «san’atkorlar»ning ko’klarga ko’tarilishini keltirish mumkin.

Shuhratparstlikning bunday keng yoyilishiga qarshi faqat axloqiy tarbiya vositasida kurashish qiyin, shu sababli ularga nisbatan axloqiy yo’l bilan birga ichki va xalqaro huquq meyyorlaridan ham unumli foydalangan holda ish ko’rish maqsadga muvofiqdir.

**Xulosa.** Agar axloqshunoslikning mezoniy tushunchalari bir-biriga bog’liq bo’lsa, axloqiy tamoyillarning bog’liqligi yanada mustahkamroq - ular biridan ikkinchisiga o’tib turish xususiyatiga ega; axloqiy meyyorlar esa bir-biri bilan shu darajada chambarchaski, ba’zan birini ikkinchisidan aniq ajratish qiyin, zero, ular xulq va odob doirasidagi axloqiy amaliyotlardir.

## Nazorat uchun savollar:

1. Halollik axloqiy meyyorining diniylik bilan bog’liqlik tomonlari nimada?
2. Rostgo’ylik meyyorining ahamiyati nimalar bilan belgilanadi?
3. Hayolilik meyyorining zamonaviylik xususiyatlarini nimalarda ko’rish mumkin?
4. Insoflilik axloqiy meyyori haqida nimalrni bilasiz?

5. Xushfe’llik, shirinsuxanlik, kamtarinlik va bosiqlik to’g‘risida nimalar deya olasiz?

6. Xudbinlikning shaxs va jamiyat uchun zararli illat sifatidagi mohiyati nimalardan iborat?

7. Shuhratparastlikda nimalarni asosiy sabablar qilib ko’rsatish mumkin?

7. Fazilat va illat qanday tushunchalar?

8. Ezgulik va yovuzlik bilan yaxshilik va yomonlik juft tushunchalarining axloqiy mohiyati va bir-biridan farqi nimada?

9. Adolat, shafqat va muruvvat tushunchalarini qanday sharhlab bera olasiz?

10. Burch tushunchasining o’ziga xosligi qanday xususiyatlar bilan belgilanadi?

11. Nomus va qadr-qimmat tushunchalarining shaxs va jamiyat hayotidagi o’rni haqida nimalar deya olasiz?

12. Ma’naviy barkamol insonni qanday tasavvur qilasiz?

13. Hayotning ma’nosi bilan maqsadning farqi nimada?

14. Baxt deganda nimani tushunasiz, omad deganda-chi?

**TARQATMAMATERIALLAR:**



## *Qadriyatlar*

- *Jamiyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida shakllanadi va rivojlanadi;*
- *U o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta'sir etadi;*
- *Kishilar ongiga singib ijtimoiy ahamiyat kasb etadi va moddiy, ma'naviy boyliklarni takomillashtirib boradi.*

## *Qadriyat tushunchasi*

- *Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining, moddiy va ma'naviy boyliklari rivojining yakuni;*
- *U inson kamoloti va kelajagi uchun ham kat-ta ahamiyat kasb etadi-gan ijobiy maxsulidir.*
- *Qadriyatlar olamni bilish va uni amaliy o'zgartirishning muhim omilidir.*








**Ob'ektiv**

- *qadriyatlar kishilarning moddiy turmush darajasi, sharoiti, imkoniyatlari asosida shakllanadi va rivojlanadi.*

- *qadriyatlar ijtimoiy, moddiy, ma'naviy hodisa bo'lsa ham ularning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga nisbatan bo'lgan munosabati asosida belgilanadi.*

**Sub'ektiv**

- *Qadriyatlarni baholash turli xildagi manfaatlar bilan ham bog'liqdir.*

- *Muayyan qadriyatlarga amal qilishga, ularni baholashga shaxsiy, guruhiy, milliy, umuminsoniy manfaatlar ham bevosita ta'sir etishi shubxasizdir.*

**Qadriyat turlari**

1. *Inson yashab turgan moddiy muhit bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.*

2. *An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan ahloqiy qadriyatlar*

3. *Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida shakllangan mehnat malakalari va ko'nikmalari, bilim va tajribalari, qobiliyat va iste'dodlarida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.*

4. *Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik xayrixoxlik hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'layotgan qadriyatlar.*

5. *Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar.*




**An'analar, urf-odatlar va marosimlarda namoyon bo'ladigan ahloqiy qadriyatlar**



*Bu qadriyatlar kishilarning o'zaro munosabatlarida, turmush tarzi va faoliyatida, yurish-turishida, ahloqi va odo-bida ko'zga tashlanadi.*
*Ahloq insonning ichki ruhiy e'tiqodi, odob esa uning amalda namoyon bo'lishidir.*

**Insonning aql-idroki va amaliy faoliyati zaminida namoyon bo'ladigan qadriyatlar.**





**Bu qadriyatlar insonning mehnat malakalari, ijti-moii qiziqishlari, mehnat maxsuloti turlarini yaratish sohasidagi amaliy imkoniyatlari, bi-limi, iste'dodi va qobiliyatlaridir..**

**Odamlar o'rtasidagi jamoatchilik, hamkorlik xayrixoxlik hamjihatlikka asoslangan munosabatlarda namoyon bo'layotgan qadriyatlar.**



**Inson tirik mavjudot sifatida tabiatning mahsulidir. Lekin u inson sifatida faqat jamiyatda, odamlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlar ta'sirida shakllanadi**

**Kishilarning yoshi, kasbi, jinsi va irqiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan qadriyatlar**



**Chorvador benoyon dalalarni, dehqon esa sug'orish mumkin bo'lgan erlarni ko'nroq qadrlaydi.**

**Kishilar biror ijtimoiy, tabiiy narsa va hodisaga ko'nincha o'z kasb-hunarlari, manfaatlaridan kelib chiqib baho beradilar.**






**UMUMINSONIY QADRIYATLAR**

***Umuminsoniy qadriyatlar deb barcha insonlarning tarixi, me'rosi, isteьdodi, istiqboli va manfaatlarida mavjud bo'lgan tutash, umumiy zaminlar va manfaatlar asosida tashkil tongan, taraqqiyotning yangi bos-qichida ham barchaning man-faatiga mos keladigan ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy hodisalar va boyliklarga aytiladi.***



*Mintaqaviy qadriyat*

*Mintaqaviy qadriyatlar ham umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'langan. qadriyatlarning bu turkumi bir-biriga yaqin bo'lgan sharoitlarda yashagan va mehnat qilgan, tarixi tutash bo'lgan mamlakatlar va xalqlarda uchraydi. bu qadriyatlar hozirgi kunda ham katta aha-miyat kasb etmoqda*



**Inson kuchi, aqli-zakovati bilan yaratilgan tabiat go'zalliklari, arxitektura, san'at va madaniyat asarlari - barchasi moddiy, ya'ni noosfera qadriyatlardir**

**Axloq, odob, bilim, ilm, malaka, iymon, insof, e'tiqod va boshqalar ma'naviy qadriyatlar. Moddiy va ma'naviy qadriyatlar bir-biri bilan bog'liqdir.**

***O'rta Osiyo xalqlari ming yillar davomida bir-biri bilan yaqindan iqtisodiy va siyosiy aloqalar o'rnatganlar.***

***Ularning turmush sharoitlari, tili, madaniyati, dini, urf-odatlari bir-biriga yaqin bo'lishi ko'nlab umum mintaqaviy qadriyatlar shakllanishiga olib kelgan.***

***Bu qadriyatlar turli joylarda bir-biridan biroz farq qilsada, mohiyat jihatidan yaqindir.***

***Milliy qadriyat***

*Milliy qadriyatlarning shakllanishi va rivojla -nishi har bir millatning o'ziga xos tarixi, tili, madaniyati, axloqiy va nsixologik fazilatlari, yashash sharoiti, turmush tarzi, ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'langandir.*



*Milliy qadriyatlarning har bir ko'rinishini uzoq tarixiy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlarini chuqur o'rganish orqaligina to'g'ri tushunib olish mumkin.*

## DINIY QADRIYAT

*Diniy qadriyatlar ham ja-miyatning ma'lum tarixiy davr va sharoitlardagi talablari, ehtiyojlari asosida shaklla-nadi.*

*Ma'lumki, har qanday din ham hayot talablari, turmush sharo-iti va ehtiyojlaridan ajralgan holda naydo bo'lmagan.*

*Barcha dinlarning kelib chi-qishiga ma'lum tarixiy davr-lardagi ijtimoiy, siyosiy, g'oya-viy sharoitlar, ular bilan bog'-langan ehtiyojlar sabab bo'lgan.*








### *Abu Nasr al-Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd (lotincha Avverroes)*

- *Baxt - har bir inson intiladigan maqsad, zero, u muayyan komillik hisoblanadi», - deydi Forobiy.*
- *Ibn Sinoning fikriga ko'ra, Yaratganga muhabbat odamni inson zoti qobil bo'lgan komillik darajasiga olib chiqadi. YA'ni ruhning quyi kuchlari va qismlari uning ulug'vor va olijanob kuchlari hamda intilishlari bilan yaqinlikda bo'lib, ular ta'siriga tushishi natijasida fazilat kasb etadi.*
- *Ibn Rushd (axloqshunoslik ilmi taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan allomalardan. Uning fikriga ko'ra, ezgulik va yovuzlik, ular tabiiy yoki ijtimoiy xususiyatga ega bo'lishidan qat'i nazar, o'z holicha mavjuddir. Tabiiy ezgulikning manbai Alloh, lekin ezgulik yovuzlik bilan yonma-yon keladi. CHunonchi, olov foyda keltirishi barobarida, o'rmonga o't ketsa, hayvonlar va o't-o'lanlarni halok etish xususiyatiga ega. Garchand olovni Xudo yaratgan bo'lsa ham, uning bu xususiyatini o'zgartira olmaydi, xuddi shuningdek, rangni yaratgan Xudo unga eshitishimiz mumkin bo'ladigan xususiyat ato eta olmaydi.*

## Adabiyotlar:


1. Abdulla Sher. Axloqshunosiik. – Toshkent: O'AJBNT - «Yangi asr avlodi», 2003, 196-214-b.

2. Abdulla Sher. Yaxshilik va yomonlik. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 10-jild. - Toshkent: «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2005.

3. Золотухина - Аболина. Достоинство человека//Современная этика. – Москва: Ростов-на-Дону, 2003.

4. Кант И. Из «Лекции по этике»//Этическая мысл, 1988. – Москва: Политиздат, 1988. С. 299-333.

5. Кант И. Из «Лекции по этике»//Этическая мысл, 1990. - Москва: Политиздат, 1990. С. 297-322.

6. Скрипник А.П. Моральное зло. - Москва: Политиздат, 1992. С. 247- 262.

7. Словар по этике. - Москва: Политиздат, 1989.

# 6-MAVZU. YANGI O’ZBEKISTONDA KASBIY MA’NAVIYAT VA AXLOQIY TARBIYANING DOLZARB MASALALARI

**Reja:**

1. **Yangi O’zbekistonda kasbiy ma’naviyat.**
2. **Axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari.**
3. **Menejmentda axloqni takomillashtirish yo’llari va yo’nalishlari**
4. **Odob-axloq qoidalari**
5. **Kasbiy va insoniy fazilatlar.**

***Tayanch atamalar:*** *kasbiy ma’naviyat, axloqiy tarbiya, insoniy fazilatlar, takomillashtrish, yo’nalishlar, ta’limning tashkiliy shakli.*

## YANGI O’ZBEKISTONDA KASBIY MA’NAVIYAT

**Kasb tanlash** faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soxa mutaxassislariga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha o’quvchilarning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so’ngra kasbga yo’llash kerak.

**Kasbga yo’naltirish** - bu ilmiy asoslangan va o’zini kasbini jamiyat ehtiyojlari sifatida, shuningdek, o’zini qiziqish va qobiliyatlarini hisobga olib, turg’un kasb tanlash uchun hayotga endi qadam qo’yayotgan yoshlarga yordam beradigan psixolog-pedagog, ota-ona maslahatlari tizimidir.

Insoniyat paydo bo‘libdiki u har doim o‘zini boqishga, ehtiyojlarini va manfaatlarini qondirishga harakat qilgan va hozirda ham shu yo‘ldan bormoqda. Inson o‘z ehtiyojlarini eng avvalo oziq – ovqat, boshpana, kiyim – kechaklarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishdan boshlagan. Keyinchalik yangi sivilizatsiyalar paydo bo‘lgach, ya’ni insoniyat madaniyatlashib borgan sari o‘z ehtiyojlariga kerak bo‘lgan maxsulotlarni ishlab chiqara boshlagan. Bular eng avvalo shu sohadagi kasb egalarini paydo bo‘lishiga va jamiyatni shu maxsulotlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirishga intilishlarni paydo qilgan. Jamiyat rivojlana borgan sari yangi kasblar paydo bo‘lgan

va rivojlanib borgan. Insonlar esa yaxshi va baxtli yashashga intilganlar. Buning uchun kasb tanlaganlar, tajriba oshirganlar va bilimlarni to‘plaganlar.

**Kasb - inson ish faoliyatining ma’lum tajriba, tayyorgarlik talab etadigan faoliyat turi, sohasi, hunardir.** Kasbga umumiy yoki maxsus ma’lumot hamda amaliy tajriba yo‘li bilan erishiladi. Kasb ichida mehnat faoliyatining eng tor xarakteri bilan ajralib turuvchi ixtisoslari bor. Ba’zi kasblarda bir qancha ixtisoslar masalan: chilangar kasbida – remontchi chilangar, asbobsoz chilangar, yig‘uvchi chilangar kabi yo‘nalishlar mavjud. Demak, har bir kasbga xos bo‘lgan yo‘nalishlar mavjud bo‘ladi. Bu esa inson faoliyatini kengayib borayotganligini, har bir sohani o‘ziga xos tor jabhalari borligini tasdiqlaydi.

Hayotiy jarayonlar kasblarni doimiy emasligini ko‘rsatadi. Kasblarni ayrimlari paydo bo‘ladi. ayrimlari yo‘q bo‘lib ketadi. Bu kasblarni ayrimlari texnika va texnologiya sohalarini taraqqiyoti bilan bog‘liq holda takomillashib boradi, yangi ko‘rinishga ega bo‘lgan kasblarni paydo qiladi, eskilarini yanada takomillashtiradi. Misol uchun hozirgi zamonning to‘quvchisining ishini ilgari zamondagi to‘quvchi mehnati bilan taqqoslab bo‘lmaydi. Hozirda to‘quvchi stanoklarni avtomatlashganligi tufayli bir qancha to‘quv stanoklarini bir vaqtda boshqaradi.

Kasblarni o‘zgarib borishiga ijtimoiy – iqtisodiy tizim ham o‘z ta’sirini o‘tkazib boradi. Hozirda boshqaruvchi – master yoki inspektorlar mavjud bo‘lib, ular boshqa sohalardan tubdan farqlanib turadi. Bunga misol qilib shifokorlik kasbni olishimiz va uni jamiyatdagi rolini ko‘rsatib berish mumkin. Jamiyatdagi “erkin tadbirkorlik” jarayoni vrachni endi nafaqat davolovchi, balki tadbirkorlik ishi bilan shug‘ullanuvchi qilib qo‘ydi. Endi tadbirkor vrach o‘z ustida ishlash, davolashning yangi va samarador tomonlari ustida bosh qotirishga, o‘z kapitalini o‘stirib borishga intilishi kerak bo‘ladi. Bu jarayon hamma kasblarga ham taalluqlidir. Jamiyatda yashayotgan har bir insonga qulaylik yaratish, uning ehtiyojlarini qondirish, yaxshi yashashi uchun sharoitlar yaratish bor kasblarni takomillashtirishga va yangi kasblarni paydo bo‘lishiga olib keladi.

Jamiyat rivojlangan sari kasblar ham ko‘payib boradi. Shu bilan birga kasb bu jamiyatdagi qabul qilingan huquqiy – normativ qonunlarga amal qilishi zarur

bo‘ladi. Jamiyatda man qilingan va uning axloqiga to‘g‘ri kelmaydigan kasblar jamiyat tomonidan ta’qiqlanadi va jazolanadi. O‘zbekistonda uning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda ko‘pgina kasblar hayotga kirib kelmoqda. Bular haqida esa maktabda va boshqa o‘quv maskanlaridagi o‘qituvchilar, psixologlar ma’lumotlar berib, ularni tanishtirib borishlari kerak bo‘ladi.

Jamiyatdagi har qanday mehnatga layoqatli inson o‘zining mehnati bilan jamiyat taraqqiyotiga o‘z ulushini qo‘shib boradi. Inson o‘zining mehnatida jismoniy, aqliy, psixologik imkoniyatlarini sarflab, o‘z qobiliyatlarini, ijodiy imkoniyatlarini sarf qiladi. Bular uni ijodiy mehnatdan qoniqishini ta’minlaydi.

Shuni aytish kerakki, kasb-hunar va uni egalari azaldan xalqimiz tomonidan e’zozlanib kelingan. O‘zbekistonda hozirda bilimdon, o‘z kasbini yaxshi egallagan, mustaqil fikrlovchi, o‘z kasbiga ijodiy yondashuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, izlanuvchan, intiluvchan mohir ustalar, kasb egalari ko‘proq talab qilinmoqda.

Hozirda o‘sib kelayotgan yoshlar o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib minglab kasblar ichidan o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan kasbni tanlab olishlari va o‘z hayotlarini mazmunli, yaxshi o‘tkazishlari uchun intiladilar. Ularga bu kasblarni tanlashlarida kasb psixologiyasining o‘rni va ahamiyati juda katta. “Men kelajakda kim bo‘laman?”, “Yaxshi yashashim uchun qaysi kasbni tanlashim kerak?”, “Mendagi iqtidor shunga etadimi?”, “Kelajagimdan qoniqamanmikan?” degan ko‘plab savollar yoshlarni o‘ylantiradi. Bu savollarga javob olish uchun ular atrofdagilarni kuzatadilar, hayotdan ma’lum bir malakalar olishga intiladilar. Kattalarni maslahatlarini o‘ylaydilar va ikkilanib yuradilar.

Izlanuvchi yoshlar kasb – hunar va uni egallash, hayotlarini, kelajaklarini hal qiluvchi omil ekanligini bilib boradilar. Shulardan kelib chiqib, **kasb – bu inson hayoti uchun zarur bo‘lgan, jamiyatdagi huquqiy normalarga javob beradigan, insonni kelajagini belgilab beradigan o‘ziga xos murakkab bo‘lgan jarayon** deb belgilashimiz mumkin.

Hozirda O‘zbekistonda yoshlarni ta’lim va kasb bilan ta’minlash masalasi dolzarb masalalardan biridir. O‘z kasbini egallay olmagan ko‘plab yoshlarni xunarli qilish, ulardan jamiyatga keladigan foydalarni ta’minlash, ota – ona, mahalla, jamiyat

oldida turgan katta masalalardan biri hisoblanadi. Kasbga qiziqish, undan manfaat topish insonning o‘ziga, qolaversa ota – onasiga, jamiyatga kerakligini anglash muhim vazifalardan hisoblanadi. Bular esa yoshlar oldiga ko‘plab vazifalarni qo‘yadi:

1) O‘zi uchun foydali bo‘lgan kasbni to‘g‘ri tanlab olishni;

2) Bu kasbni yaxshi egallashni va o‘z kasbni ustasi bo‘lib etishishni;

3) Kasbi haqida ko‘plab bilimlarni egallashni;

4) Kasbiga ijodiy yondosha olishni;

5) Mehnatsevar, o‘z ishini o‘zi tashkil qila oluvchi, kasbiga xos ahloqni egallashi;

6) O‘zining shogirdlarini yaratishga intilishi;

7) Jamiyatga va ota - onasiga yaxshi nomlar bilan maqtov olib kelishi;

8) Kelajakda nafaqaga chiqishga ehtiyojlar paydo bo‘lganda uning ishlarini davom ettiruvchi shogirdlarni yaratishi va o‘z maktabini qoldirishi;

9) Kasbini o‘ziga xizmat qiluvchi va kelajagini ta’minlovchi hunar sifatida shakllantirishi.

Bu kabi talablar yoshlarga ko‘pgina imkoniyatni yaratib beradi. Kasbga bo‘lgan ehtiyoj yoshlarni oldiga qo‘yadigan talablar bilan uzviy bog‘liqdir. Yoshlar o‘zlariga yoqqan kasblarni tanlaganlardagina unga qiziqadilar va unda o‘zlariga foyda ko‘radilar.

Kasb egallagan inson kasbiy etikadan xabardor bo’lishi lozim. Kasbiy etika - bu shaxsning jamiyatga va o’ziga bo’lgan axloqiy munosabati darajasini obyektiv shakllarda: kasbiy faoliyatning mazmuni, vositalari, jarayoni va natijalarida aks ettiradigan axloqiy bilimlarning bir qismidir. Kasbiy etika quyidagicha talqin etiladi:

1) o’zaro munosabatlarning axloqiy xususiyatlarini ta’minlaydigan ijtimoiy va kasbiy guruhning xulq-atvorining ma’lum bir to’plami, bu kasbiy faoliyatning o’ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi;

2) axloqiy meyyorlarning turli xil kasbiy faoliyat turlarida namoyon bo’lishining o’ziga xos xususiyatlarini o’rganadigan gumanitar fanlar bo’limi;

3) odamlarning kasbiy burchga munosabatini belgilaydigan noyob axloqiy

meyyorlar to’plami;

4) odamlar o’rtasidagi ijtimoiy va kasbiy munosabatlarning axloqiy xususiyatini belgilaydigan xulq-atvor qoidalari;

5) axloqiy ijtimoiy-kasbiy munosabatlar va meyyorlarning mohiyati, kelib chiqishi, ijtimoiy funksiyalari va o’ziga xos xususiyatlarini o’rganadigan, ularning turli xil tarixiy davrlarda rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradigan amaliy falsafiy intizom;

6) axloqning xususiyatlarini, ishning ma’lum bir sohasidagi axloqning umumlashtirilgan tamoyillarini amalga oshirishning o’ziga xos xususiyatlarini o’rganadigan fan sifatida axloqning mustaqil bo’limi.

Kasb axloqi - o’ziga xos axloqiy va kasbiy munosabatlar, shuningdek jamiyatdagi hukmron axloqning o’ziga xos kasbiy faoliyatining o’ziga xos xususiyatlariga moslashtirilgan tamoyillari va meyyorlari.

Kasbiy etikani o’rganishning maqsadi - bu xodimlarning axloqiy meyyorlarini, ularning shaxsiy printsiplariga aylangan qoidalarini o’zlashtirish darajasini aniqlash.

Kasb axloqini o’rganishning asosiy vazifalari:

1) xodimlar o’rtasidagi axloqiy ong va kasbiy standartlar o’rtasidagi kasbiy munosabatlarni shakllantirish va aks ettirish jarayonini o’rganish;

2) kasbiy va axloqiy fazilatlarning mohiyatini ochib berish va professional mukammal mutaxassis tayyorlash;

3) mutaxassislarga, mansabdor shaxslarga, menejerlarga kasbiy funksiyalarni bajarishda axloqiy tarkibiy qismlar to’g’risida maslahat berish;

4) tanlangan kasbning ijtimoiy vazifalari va maqsadlari, uning jamiyat uchun ahamiyati to’g’risida xabardorligini nazorat qilish.

Kasbiy etikaning o’ziga xos maqsadi bor, u har bir kasbiy faoliyatning professional va axloqiy qoidalarini shakllantirishdir. Inson faoliyatining turlari (ilmiy, pedagogik, badiiy va boshqalar) mos keladiganlarini belgilaydi, kasb axloqi turlari, o’zlarining urf-odatlari va kasbiy xulq-atvor meyyorlariga ega bo’lib, ushbu kasb vakillari tomonidan yillar davomida ishlab chiqilgan asosiy professional va axloqiy meyyorlarning uzluksizligidan dalolat beradi.

Kasbiy axloq axloqning bir jihati sifatida uning umumiy insoniy tamoyillari va munosabatiga asoslanadi, ammo ularni kasbiy muammolar nuqtai nazaridan o'rganadi.

Kasbiy etika tarkibida quyidagi tarkibiy qismlarni ajratish mumkin:

- odamlarning o'zlarining kasbiy faoliyatiga munosabati, lekin ularning kasbiga va faoliyat jarayonida siz aloqada bo'lgan odamlarga munosabati (vijdonlilik, mas'uliyat, kasbiy burch va h.k);
- kasbiy faoliyat motivlari (vatanparvarlik hissi, moddiy rag'batlantirish, martaba oshirish, kasbning obro'si va boshqalar);
- kasbiy maqsadlarni amalga oshirish vositalari (o'qitish, ta'lim va h.k);
- kasbiy vazifalarni boshqarish va ishlab chiqarishni tartibga solish (jamoada ishni tashkil etish, vijdonli ishchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar);
- kasbiy faoliyat natijalarini baholash (moliyaviy, axloqiy, boshqaruv va boshqalar);
- jamiyatning o'zgarishi va yangi kasblarning paydo bo'lishi bilan bog'liq holda kasb ma'naviyati masalalarini nazariy va uslubiy jihatdan rivojlantirish.

Kasbiy axloq - bu muayyan axloqiy talablarni belgilaydigan shaxslar uchun kasbiy xulq-atvor qoidalari. Ularning maqsadi kasbiy faoliyatda maksimal natijalarga erishishdir.

Kasbiy faoliyatda birinchi axloqiy talablarning tug'ilgan joyi Qadimgi Misrdir. Biroq, axloqning ushbu turiga oid axloqiy muammolar Qadimgi Yunoniston faylasuflari - Platon, Aristotel va boshqalarni ham qiziqtirgan. Masalan, aynan shu davrda taniqli Gippokrat qasamyodi paydo bo'lgan, axloqiy nuqtai nazardan butun jamiyat uchun muhim bo'lgan kasbiy faoliyat turini tartibga solgan.

Ma'lum bir kasb doirasidagi odamlarning axloqiy munosabatlarini tartibga solish tegishli kasbiy talablarni ancha erta shakllantirishni talab qildi. Shuning uchun aytishimiz mumkinki, kasbiy etika talablarining shakllanishi u nazariy jihatdan o'rganila boshlangunga qadar sodir bo'ladi.

Bugungi kunda bu jarayonni tartibga soluvchi keng axloqiy tizim

mavjud mehnat faoliyati: xizmat axloqi, boshqaruv etikasi, xizmat munosabatlari axloqi, menejer etikasi va boshqalar. Jamiyat axloqining inqirozli sharoitida u nuqsonli axloqni ma’lum darajada qoplaydi va tarbiyaviy rol o’ynaydi.

Zamonaviy jamiyatning rivojlanishi yanada katta mehnat taqsimotiga va yangi professional faoliyat sohalarining paydo bo’lishiga olib keladi. Ushbu tendensiya tegishli axloq kodekslarining paydo bo’lishiga yordam beradi. Bundan tashqari, zamonaviy bozor munosabatlari mavjud vaziyat bilan o’zaro bog’liq bo’lgan professional mafkurani talab qiladi. Uning axloqiy va qadriyat asoslari - faoliyat, korxona, kasbiy va ishbilarmonlik madaniyati va boshqalar. Bu kasbiy axloqni jamoat axloqi bilan birdamlikda ko’rib chiqish zarurligini tasdiqlashga asos bo’ladi. Kasbiy va ijtimoiy axloq o’rtasidagi ziddiyat yuzaga kelganda, ikkinchisiga ustunlik beriladi.

Kasbiy axloq, har qanday nazariya singari, professional vaziyatda yuzaga keladigan barcha savollarga aniq javob bera olmaydi. Uning vazifasi «mumkin» va «mumkin emas» chegaralarini belgilashdir. Shuning uchun har bir keyingi avlod jamiyatning yangi talablarini inobatga olgan holda «shaxs - professional - jamoa - jamiyat» o’zaro ta’sir mexanizmini o’zgartirishi kerak.

Kasbiy axloq tarixiy jihatdan ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida rivojlanib bordi. U shaxs va jamiyat o’rtasidagi munosabatlarda vositachidir. Faoliyatda inson axloq darajasini obyektiv shakllarda tasdiqlaydi, ya’ni. uning mavjudligini birgalikda belgilaydi. Kasbiy etika saviyani aks ettiradi shaxsning ikkilamchi sotsializatsiyasi.

tarbiya muayyan shaxsning ma’naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o‘stirilishiga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Buni oila va tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlari amalga oshiradilar.

Bizga ma’lumki, har qanday tarbiya ta’lim bilan chambarchas bog‘liq holdagina mavjud bo‘ladi. Chunki, ta’lim va ma’lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko‘payibgina qolmay, balki ma’naviy-axloqiy sifatlari qaror topishi ham tezlashadi. Ana shu sababdan ham ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar.

Milliy tarbiya  har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki, uning o‘sishi va taraqqiyoti uchun  moddiy va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarish to‘xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod ushbu boyliklarni  yaratishda o‘z ajdodlaridan yuqoriroq darajaga ko‘tarilmog‘i darkor. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan to‘g‘ri tarbiyalashda zamonaviy meditsina, pedagogika, psixologiya fanlari tavsiyalarini har qaysi oilada joriy qilish ayniqsa zarur. Har bir oila, ota-ona, eng avvalo, bola timsolida shaxsni ko‘rishi, uning uchun shaxsga tegishli barcha huquq va erkinliklar ta’minlashi borasida o‘zining mas’ul ekanligini doimo his etib turishi nihoyatda muhim. Milliy tarbiyada milliy g‘oyaga, milliy g‘ururni yuksaltirishga xizmat qiladigan  timsollar, ramzlarning har biri – katta bir darslik, kuchli tarbiya vositasi hisoblanadi. Bundan tashqari, buyuk ajdodlar tavallud sanalarini nishonlash ham ma’naviy va tarixiy ahamiyatga ega. Bunday marosimlarni o‘tkazish orqali yoshlar yangi qadriyatlar asosida tarbiyalanadilar, ular qalbiga tarixni anglash va qadrlash, o‘tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, shu xalqqa mansubligi bilan g‘ururlanish tuyg‘ulari singdiriladi.

Umuman olganda, yoshlarning etnik qiyofasi millatning bugungi milliy tarbiyasi, mentaliteti, madaniyatining o‘zaro dialektik munosabati vositasida shakllanadi. Ma’naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati, o‘z mas’uliyati bilan ongli ravishda, ozod va hur fikrli inson bo‘lib yashaydi.

Ammo inson o’zining shaxs sifatida shakllanishi hamda rivojlanishi jarayonida ko’plab obyektiv va subyektiv, tabiiy va ijtimoiy, ichki va tashqi, o’ziga bog’liq bo’lgan va bo’lmagan hamda tasodifiy omillarga duch keladi. Shunga ko’ra shaxs passiv mavjudot bo’lmay, hamisha ijtimoiy faol va harakatchan bo’ladi. Har qanday ta’sirga ongli munosabatda bo’ladi.

Shunga muvofiq tarbiya-shaxsni muayyan faoliyatga maqsadli yo’naltirish jarayoni hisoblanadi.

O’zini-o’zi tarbiyalash-shaxsni o’zida muayyan sifatlarni shakllantirish (ijobiy, salbiy) jarayoniga aytiladi. Chunki shaxs o’zini-o’zi to’g’ri tarbiyalasa ijobiy, noto’g’ri tarbiyalasa salbiy sifatlar kurtak yozadi. Pedagogik adabiyotlarda o’zini-o’zi tarbiyalash deganda asosan ijobiy sifatlar nazarda tutiladi.

Ma’rifatparvar Abdulla Avloniy « …tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidur»[26], deganda yaxshi tarbiya insonga hayot va quvonch baxsh etishini, yomon tarbiya esa haloqatga olib kelishi mumkinligini ta’kidlab ko’rsatgan.

Milliy tarbiyashunoslikning qadimiy ildizi diniy-ma’rifiy, hayotiy kitob «Avesto» tarixini ulug’ ajdodimiz Zardusht yaratgan muqaddas kitobdagi ezgu fikr, ezgu so’z va ezgu amal bugungi kunda ham o’z mavqeini yo’qotgan emas. Ezgu fikrlagan odam, demak, o’zini-o’zi to’g’ri tarbiyalaydi[27].

Pedagogika fanida tarbiya keng va tor ma’noda olib qaraladi. Tarbiyaning keng ma’nosi ijtimoiy hodisa, voqelik sifatida qaralib, shaxsning jamiyatdagi o’rni, ya’ni ijtimoiylashuv jarayonini o’zida ifoda etadi.

Tarbiyaning tor ma’nosi esa, pedagogik jarayonda tarbiyachi yoki o’qituvchi tomonidan tashkil etilgan tarbiyaviy darslar tushuniladi. Bular ma’naviy-axloqiy, mehnat tarbiyasi yoki nafosatga oid bo’lishi mumkin va hokazo[28].

Ma’naviy-kasbiy tarbiyaning o’ziga xos xususiyatlaridan biri shaxsni muayyan jarayonning a’zosi yoki shunchaki ishtirokchisi sifatida emas, uning muallifi va

---

[26] Avloniy, Abdulla. Turkiy guliston yohud ahloq. - Toshkent: O‘qituvchi, 1992. - 14 b.
[27] Abdulla Sher. Ahloqshunoslik. - Toshkent: O‘AJBNT, 2003 .- 256 b.
[28] Ибрагимов Х. Теоретические основы профессионального самовоспита-ния будущих учителей в педагогических училищах и колледжах: Дис… док. пед. наук. – Москва, 1996.- 360 с.

ijodkori sifatida qarashga yo'naltirilgan. Asrlar davomida ma'naviy tarbiyaning negizida barkamol avlod tarbiyasi, ya'ni shaxs kamoloti g'oyasi ilgari surilgan. Uning dinamik tavsifi o'z-o'zini tarbiyalashdan iborat bo'lib, ijtimoiy rivojlanish bilan hamohang yashash, o'zining ongi va dunyoqarashini uzluksiz boyitib borish degan ma'noni o'zida aks ettiradi[29].

Inson ma'naviyatini uning egallab turgan kasb-hunari bilan uyg'unlikda qaralishi, aynan komillik sari intilish, muayyan g'oya, maqsad, motiv, ehtiyoj va e'tiqod mazmunini ifodalashini ko'rsatadi.

O'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalashda g'oya o'z e'tirofini e'tiqodda topishi lozim.

E'tiqod-shaxs faoliyati uchun ma'naviy asos, yo'l-yo'riq va mo'ljal bo'lib xizmat qiluvchi, aql, iroda vositasida anglangan bilimlar va g'oya'ning ifodasi hisoblananadi.

Demak, g'oya e'tiqodga aylanmog'i, e'tiqodda o'z e'tirofini topmog'i lozim. Bu jarayon o'zin-o'zi tarbiyalashning hosilasi bo'lib, ota-ona, muallim, mahalla ahli, qarindosh-urug' shaxsga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi desak o'rinli bo'ladi. Shunga muvofiq asosiy maqsad-insonni bir umr tarbiyalashga emas, balki bir umr o'zini-o'zi tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi lozim. Shaxs yoshlikdan o'zini-o'zi tarbiyalashi asosida mehnatga, muayyan kasbga va oilaviy hayotga tayyorlanib boradi.

Mustaqil fikr, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, kasbiy faoliyatga mas'uliyat bilan qarash, kasb burchini oqlashga intilish, tanqidiy fikrlash, o'zini-o'zi tahlil etish, o'zining faoliyatiga o'zi baho bera olish kabi ma'naviy-kasbiy sifatlar bilan bog'liq qobiliyatlar, talabaning o'zidagi hissiy-emotsional barqarorlik bilan uyg'unlashib, egallayotgan bilimi, tafakkur yuritishi, yutug' va kamchiliklarni anglay olishi uning refleksiv faoliyatini belgilaydi. Ushbu faoliyatning nazariy-amaliy mohiyati tadqiqot ishining tarkibiy qismini tashqil etadi.

---

[29] Abdulla Sher. Ahloqshunoslik. - Toshkent: O'AJBNT, 2003. - 256 b.; Гарифьянов Р. С. Педагогические руководства самовоспитанием студен-тов. Дис…кан. пед.наук. – Казань, 1978. - 211с.; Дьяченко Е.В. Профессиональное воспитание учащейся малодёжь.-2-е изд., перераб. и. доп. - Москва: Высшая школа, 1988- 144 с. ; Ибрагимов Х. Теоретические основы профессионального самовоспитания будущих учителей в педагогических училищах и колледжах: Дис… док. пед. наук.- Москва, 1996.- 360 с.; Как построить своё "Я,,.Под ред. В.П.Зинченко. - Москва: Педагогика, 1991.- 136 с.

Tadqiqotchi S.B.Elkanov bo’lajak o’qituvchi shaxsining o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashi xususiyatini alohida ishlab chiqqan bo’lib, bu yo’nalishda asosiy e’tibor talabani o’zini-o’zi tarbiyalashi va o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashga xos aloqadorlikda tahlil etilgan[38].

S.B.Elkanov o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalash keng qamrovli tushuncha ekanligini alohida qayd etib, bu mutaxassislikka oid bilimlarnigina egallashni nazarda tutmaslik lozimligini uqtiradi. SHu bilan birgalikda talaba talabalik davrida o’zini-o’zi tarbiyalashga qodir bo’la olgan bo’lsa, talabalik yillarida o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalash asosida undagi g’oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik, psixik jarayonga xos xususiyatlar, emotsionallik va boshqa ruhiy holatni boshqarishga qaratilgan sifatlarni vujudga keltirishi mumkinligi haqida fikr yuritadi[39].

S.B.Elkanov tomonidan o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashga qaratilgan ilmiy, o’quv-biluv hamda uslubiy harakterdagi tahlillar ham asosan kommunistik mafkura g’oyasi bilan sug’orilganligini aytib o’tish joizdir.

Pedagogika fanlari doktori Sh.Q.Mardonov va tadqiqotchi A.T.Gulboevlar «Ijtimoiy taraqqiyotda shaxsni o’zining ijtimoiy mohiyatini, inson sifatida o’z o’rnini anglashi, uni tezlashtirish uchun imkoniyatlari va kasbiy faoliyatini unga yo’naltirishini taqozo etadi. O’z aql-zakovati va kasbini jamiyat oldida turgan ustuvor vazifalarni echishga qaratmog’i zarur», - deb ko’rsatadi[40].

To’g’ri va o’rinli aytilgan fikr, ammo bu jarayonda o’zini-o’zi tarbiyalash asosida o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashining mohiyatiga e’tibor qaratish lozimligi mantiqan ko’rinib turganligini alohida ta’kidlab o’tish zarur.

Yuqoridagi fikrlar tahlili o’laroq avvalo shaxs shunchaki bilimdon mutaxassis bo’lish uchungina o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashi lozim degan xulosa chiqarmaslik kerak.

O’zini-o’zi kasbiy tarbiyalash asosida talaba:

- o’zini-o’zi bilishi, o’z harakati va xulq-atvorini tartibga solishi;

---

[38] Елканов С.Б. Основы профессионального самовоспитания будущего учи-теля: Учеб. пособие для ст-ов пед. ин-тов. - Москва: Просвещение, 1989. - 189 с.

[39] Елканов С.Б. Основы профессионального самовоспитания будущего учи-теля: Учеб. пособие для ст-ов пед. ин-тов. - Москва: Просвещение, 1989. - стр. 21-29.

[40] Mardonov Sh.K., Gulboev A.T. Shaxsning o‘z-o‘zini tarbiyalashi // Tarbiya. 2009. № 1. - B. 4.

• kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni egallashi;

• o'zida mustaqil fikr va ijodiy faoliyatning namoyon bo'lishi;

• kasbga oid bilimlarni amalga tatbiq etish ko'nikmalarining shakllanishi;

• o'z-o'ziga va kasbiy faoliyatiga o'zi baho bera olishi;

• o'zini-o'zi maqsadli boshqarishi va uni amalga oshirish uchun intilishi;

• muayyan hayotiy va kasbiy tajribaga ega bo'lishi;

• orzu-istak bilan yashashi va istiqbol rejalarini jamiyat manfaatlari hamda ijtimoiy hayot rivoji bilan uyg'unlashtira olishi;

•keng dunyoqarashning (iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va boshqa) tarkib topishi;

•kasbiy faoliyat jarayonida yuksak mahorat hamda kasbiy komillik sari intilib yashashi lozim.

Talabani o'zini-o'zi kasbiy tarbiyalashiga asosiy **motivatsiya**, ya'ni turtki vazifasini o'taydi. Oliy o'quv yurtidagi ijtimoiy muhit ana shu jarayonni ilmiy asosga qo'yilishini taqozo etadi. Talabani qurshab turgan muhit unga ma'naviy madad bermasa, talaba o'zini yolg'izlangan his etsa, undagi kasbiy bilim, yangilikka intilish tobora chuqurlashish o'rniga sayozlashib borishi mumkin. Demak, ijtimoiy muhitning ma'naviy sog'lomligi shaxs kamolotiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatuvchi omil vazifasini o'taydi. Ayniqsa insonparvarlik, yaxshilik qilib yashash, qo'lidan kelgan yordamni ayamaslik, mehrli va sahovatli bo'lish, o'zini-o'zi kasbiy tarbiyalashni yanada mazmunan boyitadi. Talabada egallagan kasbiy bilim va tajribalarini Vatan ravnaqi uchun sarf etish tuyg'usi vujudga keladi. «Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bevosita bog'liq»[41].

Qadim-qadimdan xalqimiz bolalarni yoshlikdanoq jismonan sog'lom, baquvvat, epchil bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Bu jarayonda bola:

- hayot sinoviga bardoshli bo'ladi;
- mustaqil fikrli va topqir bo'ladi;

---

[41] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch.-Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B. 73.

- epchil, chaqqon va hushyor bo’ladi;
- unumli mehnat qila oladi;
- irodali, vijdonli va qo’rqmas bo’ladi;
- boshlagan ishini sifatli bajaradi.

Ko’rib o’tilgan jarayonlar kelgusida shaxsni o’zini-o’zi ma’naviy-kasbiy tarbiyalashga asos bo’lib xizmat qiladi. Uzluksiz jismoniy kamolot shaxsning ma’naviy kamoloti bilan uyg’unlashib, pishib boradi. Ayniqsa, shaxs o’zining xulq-atvori, hatti-harakati va asabini to’g’ri boshqara oladi. Shoshma-shosharlikga yo’l qo’ymaydi. Sabotlik, kamtarlik va vazminlik bilan ish yuritadi. Bu jarayon shaxs axloqiga va harakterining barqarorlashib borishiga o’z ta’sirini ko’rsatadi. Shuningdek, «… har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko’rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobilyatiga ega bo’lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga etkazish ta’lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifalari bo’lishi lozim…»[43].

Shaxsning intelektual rivojlanishi uning ruhan, jismonan va aqlan sog’lomligini taqozo etadi. Fuqarolik jamiyat va huquqiy davlat barpo etishda shaxs Konstitutsiyada belgilab berilgan qonunlarga, davlat hokimiyatiga hurmat hamda o’zida insonparvarlik, vatanparvarlik tuyg’usini shakllantirgan bo’lishi, millatlararo muloqot madaniyatiga amal qilishi, milliy ong va dunyoqarashni rivojlantirgan bo’lishi lozim. Bu jarayon fuqarolik tarbiyasining mazmun-mohiyatini ifodalab, milliy tarbiyaning tarkibiy qismini tashkil etadi.

Shaxsni muayyan mamlakatning fuqarosi sifatidagi dunyoqarashi uni obyektiv voqelikka, hayotga, ayrim voqea-hodisalarga bo’lgan qarashlari hamda munosabatini belgilab beradi. Bu jarayon o’zini-o’zi tarbiyalash va o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashining uyg’unligida amalga oshadi[45].

Talaba-yoshlarning o’zini-o’zi tarbiyalashi va o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashida jismoniy kamolotining o’rni muhim:

---

[43] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - 61 b.

[45] Елканов С.Б. Основы профессионального самовоспитания будущего учи-теля: Учеб. пособие для ст-ов пед. ин-тов. - Москва: Просвещение, 1989.- С. 25.

1) vazifa va mazmun jihatdan: talabaning jismoniy, ruhiy sog'lomligini ta'minlash, ishchanligi va ta'lim-tarbiyaviy faolligini oshirish, har xil kasalliklarga beriluvchanligining oldini olish, jismoniy tarbiya, ya'ni ehtiyoj darajasiga ko'tarish va sog'lom hayot tarzini ta'min etish;

2) tayanch-harakat organlarining rivojiga ko'ra: qomatni tik va chiroyli tutish; yurganda to'g'ri muvozanatni ushlash; chaqqonlik va harakatning tezligi; jismoniy baquvvat bo'lish; har xil toliqish, charchash va og'riqni sezish chidamliligini oshirish; mimik va pantomimik harakatlarning uyg'un bo'lishi; pedagogik texnika talablariga amal qilish;

3) sog'lom hayot tarzini ta'min etishga ko'ra: ko'tarinki kayfiyatda yurish; har qanday muammoli vaziyatlarda bosiq bo'lish; organizmni chiniqtirib borish (toza havo, sayr, badan tarbiya, gigienik talablarga amal qilish, jismoniy mashqlar) turar joy va mahallalarda ko'kalamzorlashtirish hamda obodonlashtirish ishlarida faol qatnashish; chekish va spirtli ichimliklarni ma'n etish; ovqatlanish va dam olish rejimiga qat'iy amal qilish; madaniy dam olishni yo'lga qo'yish; qarindosh-urug'lar holidan xabar olib turish; qo'ni-qo'shnichilik munosabatlarini milliy urf-odatlar talabida bajarish; tabiatga sayohat uyushtirish; sportning biron turi bilan muntazam shug'ullanish, jumladan gimnastika turlarini (badiiy, gigienik, davolovchi, ishlab chiqarishga oid turi bilan shug'ullanish va hokazo).

Ko'rinib turibdiki, barkamol shaxsning ta'lim-tarbiyaviy faoliyati uzluksiz jarayon bo'lib, pedagogik texnologiya doirasida amalga oshiriladi hamda talabaning ijobiy fazilatlarini shakllantirish maqsadiga qaratiladi. Ikkala jarayon shaxsning ongi va xulq-atvoriga ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy rivojlanishining asosi hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyoti muayyan shart-sharoitlarga asoslangan holda pedagogik jarayonning yaxlitligini ta'minlaydi.

# O’Z-O’ZINI RIVOJLANTIRISH VA MA’NAVIY-KASBIY TARBIYALASH

O’z-o’zini rivojlantirishning eng yuqori darajasi bo’lib, unda tartibsiz emas, balki yo’naltirilgan, ongli o’zgarishlar ro’y beradi, bu tizim elementlari va ularning funksiyalarining sifat jihatidan o’zgarishiga olib keladi, bu o’z-o’zini rivojlantirish bilan birga keladi. Tizimning erkinlik darajalari soni va atrof-muhit bilan yangi dinamik aloqalar va munosabatlarning paydo bo’lishi va murakkablashishi, ichki o’rtasidagi o’zaro ta’sir dialektikasi ularning va tashqi omillar tizimning mustaqillik darajasi, aniqrog’i, uning o’zini o’zi tashkil etish darajasi bilan belgilanadi. Tizim qanchalik o’z-o’zidan tashkil etilgan bo’lsa, tashqi omillarning ta’siri shunchalik kam ahamiyatga ega. O’z-o’zini tashkil qilish qobiliyati tizimning erkinlik darajasini, uning avtonomligi va barqarorligini to’g’ridan-to’g’ri mutanosib ravishda belgilaydi.

O’z-o’zini rivojlantirish jarayoni cheksizdir, shu bilan birga, shaxsga nisbatan qo’llaniladigan o’z-o’zini tashkil etish jarayoni, qo’shimcha tushuntirishsiz, oqilona tizimning maxsus fazilatlari - o’zini o’zi bilish mexanizmlarining yo’qligi bilan belgilanadigan chegaraga ega bo’ladi. O’z-o’zini bilishni o’z-o’zini rivojlantirishning birinchi nisbatan mustaqil funktsional bloki sifatida ajratib ko’rsatish, uning o’zini o’zi tashkil etish bilan ajralmas funktsional bog’liqligini ta’kidlash kerak. O’z-o’zini tashkil etish, o’z-o’zini boshqarish mexanizmlariga asoslanish.

Bilim faqat ongli xarakterga ega: ichki maqsad shaxsning o’zi tomonidan shakllantiriladi; o’z-o’zini tartibga solish tizim sifatida shaxsning turli tarkibiy qismlari o’rtasida amalga oshiriladi; tashqi maqsadlar va ta’sirlarga nisbatan munosabatlarning rivojlanishi mavjud. Sinergetik yondashuv vakillari (N.N. Moiseev, I. Prigojin, G. Xaken va boshqalar) o’z-o’zini rivojlantirishning negizida turli xil variantlardan ongli ravishda tanlash imkoniyati, o’z-o’zini boshqarishning yanada rivojlangan shakllari paydo bo’lishiga yordam beradi, deb ta’kidlaydilar.

Shaxsning samarali rivojlanishi nafaqat o’zi haqida ma’lumot olish (o’zini o’zi bilish), rejalashtirish, ta’minlash va o’z xatti-harakatlarini boshqarish (o’zini o’zi

tashkil etish) vositalarini, balki maqsadni belgilash mexanizmlari va mohiyatini ham ko'rib chiqishga majbur qiladi.

Tadqiqotning alohida jihati - bu institutda o'qish jarayonida shaxsning maqsadli kasbiy va ijodiy o'zini o'zi rivojlantirish maqsadi, sharti va natijasi sifatida kasbiy o'zini o'zi anglash, o'z-o'zini anglash jarayoni maqsadlarni belgilash, rejalar, loyihalar va g'oyalarni ishlab chiqish, shuningdek ularni amalga oshirish usullarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shaxsning to'laqonli o'zini-o'zi anglashi, albatta, shaxsning pedagogik faoliyati nafaqat mavjud qobiliyatlarni ochib berish, balki yangi muhim va yangi fazilatlarni egallash va rivojlantirish maqsadida o'ziga qaratilgan dastlabki bosqichni nazarda tutadi. O'zini ijodiy o'zini-o'zi amalga oshirishga qodir bo'lgan yaxlit shaxs sifatida ideal imidjga («o'zini o'zi tarbiyalash») «qurish» uchun shaxsni ongli ravishda takomillashtirish uchun potentsial kuchlar. Buning uchun biz o'z-o'zini anglashdan oldingi nisbatan mustaqil o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlari blokini - o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonlarini o'z ichiga olgan o'z-o'zini tarbiyalashni ajratamiz.

O'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalash shaxs fazilati hisoblanib, integrativ jarayonda o'zining yaxlitlik xususiyatiga ega hisoblanadi. Tarbiya jarayonining tuzilmaviy xususiyatlari, shuningdek ular o'rtasidagi funksional aloqalarning ifodasi ma'naviy-kasbiy faoliyatda o'z echimini topadi.

O'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalash insonda daxldorlik va manfaatdorlik tuyg'usini yuzaga chiqaradi. «Mening onam», «Mening oilam», «Mening uyim», «Mening o'qituvchim», «Mening maktabim», «Mening qishlog'im», «Mening Vatanim» negizidagi «Men» takomili o'zini-o'zi va kasbiy o'zini-o'zi tarbiyalash asosidagina shakllanadi.

Barkamol shaxs, ya 'ni shaxsni har tomonlama kamol toptirish, komil inson muammosi pedagogik tadqiqotlarning predmeti bo'lib kelgan. Shunga muvofiq uzluksiz ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya jarayoni bir-birini uyg'un holda to'ldirib va takomillashib boradi. «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi

- bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi»[46].

Ayniqsa, talaba va talaba-yoshlarning ongi shuuri, tafakkuri, dunyoqarashini zabt etish uchun jahon miqyosida shiddatli va murosasiz g'oyaviy kurashlar ketayotgan hozirgi sharoitda buni doimo nazarda tutmoq zarur. Chunki, Vatanni seva olmaslik, milliy qadriyatlardan uzilib qolish, milliy turmush tarzini eskilik sarqiti deb qarash, ko'r-ko'rona Ovrapaga taassub qilish, hayo, ibo, uyat va andishaga qurilgan turmush tarzi qolib, begona ko'chalarga kirib qolish ham aslida o'z-o'zini tarbiyalashga kiradi.

Bugungi talaba-yoshlar bo'lajak mutaxassis sifatida ijtimoiy faollik namunalarini ko'rsatib, loqaydlik, boqimandalik kayfiyatiga berilmay mehnat qilishga, innovatsion texnologiyalar yaratishga, chuqur bilim olishga intilib yashamoqda. Xorijiy tillarni mukammal biladigan, axborot texnologiyasi imkoniyatlaridan unumli foydalana oladigan, ijodkor, iqtidorli, dunyo ko'rgan yoshlar shakllanmoqda. Zamon bilan hamnafas yoshlarning ijtimoiy, ma'naviy-kasbiy tafakkurini bir so'z bilan ta'riflash qiyin. Fan va texnika taraqqiyoti, hayot tarzining rang-barangligi tarbiya muhitiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Tezkor davrning yuksak talablaridan kelib chiqib, talaba shaxsini o'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalashida demokratik tamoyillarga amal qilishi muhim vazifa hisoblanadi.

Shunday sharoitda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» bilan kurashish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Talaba shaxsini o'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalashiga integrativ yondashuv negizida barkamol shaxsni shakllantirish, komillikka intilib yashashning pedagogik mohiyatini asoslash turadi. Bu boradagi ilmiy manbalar eng qadimgi yozma yodgorliklardan bo'lmish «Avesto»da o'zining dastlabki ifodasini topgan. Ilm egallash, ma'rifatli bo'lish, insoniy fazilatlarni o'rganish, mehnat qilish, ma'naviy-axloqiy etuk shaxs bo'lish, ruhan, aqlan va jismonan uyg'un rivojlanish uchun aynan o'zini-o'zi tarbiyalash asosida erishish mumkinligi ko'rsatib berilgan[50].

---

[46] Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - 62-b.
[50] Abdulla Sher. Ahloqshunoslik. - Toshkent: O'AJBNT,2003. - 3-107- b.

Barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilgan ilmiy asarlar negizida ma'naviy-kasbiy etuklik turishi, unga erishishda o'zini-o'zi tarbiyalashning o'rni masalasi Imom Ismoil al-Buxoriyning Hadislarida[51], Abu Nasr Forobiyning qarashlarida[52], Xoja Bahovuddin Naqshbandning o'gitlarida[53], Mahmud az-Zamaxshariyning nozik iboralarida[54] ko'rib o'tilgan.

Fozil odamlarni tarbiyalash ajdodlarimizning asriy orzusi ekanligini ular yaratgan bebaho manbalarda ko'rish mumkin. Abu Nasr Forobiyning «Agar inson xayrixohlik, go'zallik, oliyjanoblik va ulug'vorlikka boshqa odamlar orqali emas, balki o'zi va o'z ruhi o'rtasidagi mavjud narsa orqali erishgan bo'lsa, ul (odam) haqiqatdan ham xayrixohlik va barkamollikka erishadi. Buni uning o'zidan boshqa hech kim sezmagan taqdirda ham uning ruhi ulug'vor va oliyjanob bo'ladi va o'sha odam bu fazilatlarga erishganidan bag'oyat xursand bo'ladi», - deb ko'rsatishi o'zini-o'zi tarbiyalashning mohiyatini anglatadi[55]. Allomaning ushbu fikrlari mazmunida pedagogika va psixologiya fanlarining o'zaro integratsiyasi ta'min etilganligini ko'rish qiyin emas.

Insonning xayrixohligi, go'zalligi, oliyjanobligi va ulug'vorligining insonparvarligini bildirsa, uning ruhiy mutanosibligi ichki refleksiyasini ifoda etadi. Insondagi hatti-harakat uning ruhiyati bilan uzviy bog'liq. Samaradorlikni ta'minlaydigan ruhiyat uning go'zalligi, go'zal xulqi va xayrixohligidan kelib chiqadi. Ruhan sog'lomlik shaxsning o'zini-o'zi ma'naviy-kasbiy tarbiyalashi bilan chambarchas bog'lanib ketadi.

Alloma Ibn Sino «Odamlarning botiri mushkulotdan qo'rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo'rqog'idir», - deydi[56]. Bu jarayonda ma'naviy va jismoniy uyg'unlik qonuniyatlari borligi yaqqol ko'zga tashlanib turibdi. Ma'naviy va jismoniy integratsiya insonni qo'rqmaydigan, mard, jasur bo'lishligini

---

[51] Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Al-Buxoriy. Hadis1.Al-jome' As-Sahih (Ishonarli to'plam). -Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati,1991. - 560 b.
[52] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 223 b.
[53] Abul Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali. Bahouddin Balogardon /Tahrir hay'ati: A.Rustam va boshq. - Toshkent: Yozuvchi, 1993. - 208 b.
[54] Abul Qosim Mahmud az-Zamaxshariy. Nozik iboralar. - Toshkent: Kamalak, 1992. - 80 b.
[55] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. - Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - 52 b.
[56] Islom tasavvufi manbalari (Tasavvuf manbalari va tarixi). Ilmiy majmua.// Tuzuvchi, so'zboshi va izohlar muallifi fil.fan.dok. prof. X.Boltaboev. - Toshkent: O'qituvchi, 2005. - 79 b.

ta’minlashi uni kamolot sari intilishini bildiradi.

**Xulosa.** O’zini-o’zi ma’naviy-kasbiy tarbiyalash orqali inson ruhiyatini anglash va uni ilmiy asosda tasvirlash masalasi oydinlashadi. Bu jarayon o’ziga xos integrativ yondashuvlarni talab etadi. Shu bilan birgalikda kelgusida refleksiv xususiyatlarning namoyon bo’lishini taqozo etadi.

1. O’zini-o’zi tarbiyalash va o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashning uyg’unlashuvida talabaning mustaqil fikr rivoji etakchi ahamiyatga ega hisoblanadi. Mustaqil fikr muayyan bilim, ko’nikma va malakalar asosida rivojlanadi.

2. Mustaqil fikr, tashabbuskorlik, javobgarlikni his etish, kasbiy faoliyatga mas’uliyat bilan qarash, kasb burchini oqlashga intilish, tanqidiy fikrlash, o’zini-o’zi tahlil etish, o’zining faoliyatiga o’zi baho bera olish kabi ma’naviy-kasbiy sifatlar bilan bog’liq qobiliyatlar, talabaning o’zidagi hissiy-emotsional barqarorlik bilan uyg’unlashib, egallayotgan bilimi, tafakkur yuritishi, yutug’ va kamchiliklarni anglay olishi uning refleksiv faoliyatini belgilaydi. Ushbu faoliyatning nazariy-amaliy mohiyati tadqiqot ishining tarkibiy qismini tashqil etadi.

**3.** Ijtimoiy muhitning ma’naviy sog’lomligi shaxs kamolotiga o’zining ijobiy ta’sirini ko’rsatuvchi omil vazifasini o’taydi. Ayniqsa insonparvarlik, yaxshilik qilib yashash, qo’lidan kelgan yordamni ayamaslik, mehrli va sahovatli bo’lish, o’zini-o’zi kasbiy tarbiyalashni yanada mazmunan boyitadi. Talabada egallagan kasbiy bilim va tajribalarini Vatan ravnaqi uchun sarf etish tuyg’usi vujudga keladi.

**Mavzuni takrorlash uchun savollar:**

1. Talaba shaxsini o’zini- o’zi ma’naviy-kasbiy tarbiyalashining ilmiy-nazariy asoslari nimalarfan iborat?

2. Talaba shaxsining ma’naviy-kasbiy tarbiyasi nimalarga asoslanadi?

3. Kadrlar tayyorlash milliy modelida shaxs-kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va Obyekti nimalardan iborat?

4. O’zini-o’zi ma’naviy-kasbiy tarbiyalashnatijasida nimalarga erishildi?

## TARQATMA MATERIALLAR:









***Odob - inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida burilish yasaydigan darajada muhim ahamiyatga ega bo'lmaydigan, milliy urf-odatlarga asoslangan chiroyli xatti-harakatlarni o'z ichiga oladi.***

***Xulq - oila, jamoa, mahalla-ko'y miqyosida ahamiyatli bo'lgan, ammo jamiyat va insoniyat hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydigan yoqimli insoniy xatti-harakatlarning majmui.***

***Axloq - jamiyat, zamon, ba'zan umumbashariy ahamiyatga ega, insoniyat tarixi uchun namuna bo'la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig'indisi, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa.***

## GLOSSARIY

| Atamaning o'zbek tilida nomlanishi | Atamaning ingliz tilida nomlanishi | Atamaning rus tilida nomlanishi | Atamaning nomlanishi |
|---|---|---|---|
| **Axloq** | **Morality** | **Мораль** | **Axloq** - (arab. xulqning ko'pligi; lot. moralis - xulq-atvor) - ijtimoiy ong shakllaridan biri, ma'naviy hayot hodisasi, ma'naviyat sohasiga oid tushuncha. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabat-larini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. Axloq normalari kishilarning hatti-harakatlarida o'z ifodasini topadi. Bunda ba'zi hatti-harakatlar, xulq-atvorlar axloqiy, ba'zilari axloqsizlik deb baholanadi. Axloq ijtimoiy ongning eng qadimgi shakllaridan biridir. Davr o'zgara borgan sari har qanday hodisa kabi axloq ham |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | o'zgaradi, rivojlanib, takomil-lashib, ma'naviy madaniyat-ning ko'rinishlaridan biriga aylanib boradi. Axloqni alohida falsafiiy fan – "Etika" yoki "Axloqshunoslik" o'rganadi. Ilm, bilim, dunyoqarash, idrok va iymon insonning xulq-atvorida o'ziga xos tarzda aks etadi. Insoniylik madaniyati esa axloqiy fazilatlar orqali namoyon bo'ladi. Axloq ijtimoiy munosabatlar zaminida alohida shaxs sifatida mavjud bo'lgan insonlarning o'z-o'zini idora qilish shakllari va meyyori, o'zaro muloqot va munosabatlarda ularga xos bo'lgan ma'naviy kamolot darajasining namoyon bo'lishi hamdir. |
| **Andishalik** | **Anxiety** | **Беспокойство** | **Andishalik** - andishalik – insonning eng yaxshi fazilatlaridan biridir. Andishali odam atrofdagilar o'ziga qaratib oladi, odamlarni u bilan birga yaxshi his |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | qilishlari uchun imkoniyat yaratib bera oladi. Biz andishali odam deb: injiq bo'lmagan, charchatmaydigan, xafa qilmaydigan, noo'rin hazillarga yo'l qo'ymaydigan odamlarni nazarda tutamiz. U bepisandlik bilan kishini tashqi qiyofasini zimdan qarab chiqib, tanbeh bermaydi. Undan so'ramaslaridan turib maslahat qilishga o'tib ketmaydi. U barchani oldida kimnidir qanday vaziyat va sabab bo'lmasin yerga urib tanqid ostiga olmaydi. Andishali kishi hamisha qay vaziyatda o'zini qanday tutishi lozimligini yaxshi biladi. Qayerdan biladi? Unga ichki his va tarbiya yordam beradi. Unday odamlarni nozik, mulozamatli va zehnli deb aytaydilar. Har bir kishi andishali bo'lishni o'rganishi mumkin. Buning uchun sizga qanday munosabat qilishlarini istasangiz, xuddi shu tarzda boshqalarga nisbatan Shunday |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | munosabatda bo'lishingizning o'zi kifoya. |
| **Axloqiy ideal** | **Moral ideal** | **Нравственый идеал** | **Axloqiy ideal -** axloq - meyyorlarining yuksak, orzu qilingan darajadagi tasavvufi, barcha eng yaxshi xislatlarga ega, har tomonlama tarbiyalangan inson obrazi. |
| **Axloqiy madaniyat** | **Ethical culture** | **Этическая культура** | **Axloqiy madaniyat-** axloqiy tarbiyaga doir asarlar, qarashlar, g'oyalar, ko'nikmalar va ularga amal qilinishi. |
| **Axloqiy meyyorlar** | **Ethical standards** | **Этические стандарты** | **Axloqiy meyyorlar-** jamiyatda o'rnatilgan xulq-atvor qoidalari, ular urf-odat, ko'nikma, marosim qoidalari sifatida namoyon bo'ladi, axloqiy qadriyatlar sifatida qaraladi, ularga amal qilmaslik jamoatchilik tomonidan qoralanadi. |
| **Axloqiy tarbiya** | **Moral education** | **Нравственное воспитание** | **Axloqiy tarbiya -** inson tarbiyasining muhim qismi hisoblanib, odamga yoshligi-dan boshlab to'g'rilik, halol-lik, izzat hurmat, burch-mas'uliyat, sog'lom turmush tarzi, or-nomus, sharm-hayo, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | Vatan azizligi, oila muqaddasligi, e'tiqod mustahkamligi xislatlarining singdirib borilish jarayonidir. |
| **Axloqiy tafakkur** | **Moral thinking** | **Моральное мышление** | **Axloqiy tafakkur** - axloq masalalariga bag'ishlangan fikrlar, qarashlar g'oyalar, har bir insonnning axloqiy meyyorlar va qadriyatlarni anglash, ilmiy mushohada qilish jarayoni. |
| **Axloqiy fazilatlar** | **Ethical qualities** | **Этическое качество** | **Axloqiy fazilatlar** - inson xulq-atvori, yurish-turishidagi eng yuksak, ijobiy hatti-harakatlar, o'y-fikrlar va ezgu amallar majmuasi: ezgulikka intilish, yaxshilik qilish, izzat-hurmatli bo'lish, mehnatsevarlik, or-nomusli bo'lish, vatanparvarlik, insonparvarlik, saxovatlilik, halollik, pokizalik kabi xislatlarning namoyon bo'lishi |
| **Axloqsizlik** | **Not aesthetics** | **Не эстетичность** | **Axloqsizlik**-jamiyatda qabul qilingan axloqiy meyyorlardan chetga chiqish: boqimandalik, yolg'onchilik, ichkilikbozlik, fohishabozlik, o'g'rilik, hasad, g'iybat, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | tuhmat, vatanfurushlik, e'tiqodsizlik va shular kabi barcha salbiy xislatlarning namoyon bo'lishi. |
| **Adolat** | **Justice** | **Справедливость** | **Adolat** — yuksak ma'naviy tushuncha bo'lib, adolatning o'zi biror-bir qadriyatni anglatmaydi, lekin qadriyatlar orasidagi nisbatni belgilaydi, ularni baholash maqomiga ega. Shu bois unda jamiyatni tartibga soluvchilik xususiyati bor; adolatda ikki xil ma'naviy jihat – ham axloqiy, ham huquqiy talablar mujassamlashgan. Uni ma'lum ma'noda axloq sohasidagi miqdor o'lchovchi ham deyish mumkin: u talab bilan taqdirlashni o'lchab turadigan tarozidir. Adolat bor joyda ijtimoiy jabrga, beboshlikka yo'l yo'q. Eng oddiy, ibtidoiy fazilatlar, masalan, mehribonlik, shafqat, muruvvat hayvonlarda ham mavjud, lekin hayvonlarda ular o'z guruhiga, eng avvalo, o'z zurriyotiga qaratilgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | bo'ladi. |
| **Aksiologiya** | **Axiology** | **Аксиология** | **Aksiologiya** - (yunon. axio – qadriyat va logos – fan, ta'limot) atamasi ilmiy bilimlar sohasiga o'tgan asrning ikkinchi yarmida, nemis qadriyatshunosi E.Gartman va fransuz olimi P.Lapi tomonidan kiritilgan |
| **Andisha** | **Andisha** | **Андиша** | **Andisha** - yuksak ma'naviyatga xos, axloqiy tarbiya natijasida shakllanadigan ma'naviy-axloqiy tushuncha, Etika fanining meyyoriy tushunchasi, "Ma'naviyatshu-noslik", "Ma'naviyat asoslari" fanlarining asosiy kategoriya-laridan biri. Kishilar bilan bo'lgan munosabatda oqibatini atroflicha o'ylab munosabatda bo'lish, mulohaza qilish Aandishaning o'ziga xos xususiyatlaridandir. Andishali inson o'z hatti-harakati, ma'naviy-ruhiy qarashlarida yuksak axloqiy tamoyillardan kelib chiqqan holda faoliyat yuritadi. Bunday inson |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | o'zgalarni olijanob axloqiy meyyorlarga asoslangan holda qadrlaydi. |
| **Burch** | **Burch** | **Берч** | **Burch** - jamiyat, davlat va shaxslarga nisbatan muayyan individdagi munosabat, ular oldidagi majburiyat. U vijdon, e'tiqod, mas'uliyat kabi tushunchalar bilan mustahkam bog'liq. Umuman, hayotda insonning har bir hatti-harakati zamirida burchga sadoqat yoki xiyonat yotadi. Burchning insonlik burchi, musulmonlik burchi, nasroniylik burchi, fuqarolik burchi, otalik burchi, onalik burchi, farzandlik burchi singari barcha davrlar uchun umumiy bo'lgan tushunchalari ham, jurnalistlik burchi, shifokorlik burchi, olimlik burchi kabi kasbiy odob doirasidagi tushunchalari ham mavjud. Burch tushunchasining o'ziga xos jihatlaridan yana biri – uning vaqt va jamiyatda muayyanlashish xususiyatidir. |

| Ijobiy xislatlar | Positive traits | Положительные качество | **Ijobiy xislatlar** - odob saqlash, rasm - odat bo’lib qolagan odob qoidalaridan chetga chiqmaslik hamda etika va estetika talablarini bajo keltirishdir. Odoblilik samimi-yatga asoslangan bo’lib, insonning boshqalarni xijolat qiladigan, ranjitadigan yoki quvontiradigan narsalarning hammasini anglab olishini, boshqalarning ehtiyoj – talablarini va kechinmalarini tushuna bilishini shart qilib qo’yadi. Farosatli kishi noqulay vaziyat sodir bo’lishini oldini olishga intiladi. Chiroyli hatti–harakatlar qoidalarini yodlab olib, unga odatlanish mumkin, lekin odob qoidalarikishidan ko’proq narsani talab qiladi. Odobga o’rganish uchun inson o’zini boshqa inson o’rniga qo’yib ko’rishi kerak bo’ladi. Farosatlilik jamiyatga, inson-ning o’ziga yoki birovga xavf tug’dirmaydigan hollarda boshqalarning ishiga aralash- |
|---|---|---|---|

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | maslikni talab qiladi. |
| **Vijdon** | **Conscience** | **Совесть** | **Vijdon**-ma'naviyatdagi ta'sir doirasi nihoyatda keng tushunchalardan biri. Vijdon – Z.Freyd ta'biri bilan aytganda, men, men ustidan nazorat o'rnatib, uni boshqarib turuvchi ikkinchi bir, yuqori darajadagi men. Agar uyat hissi insonning tashqi, jamiyatga bog'liqligidan kelib chiqsa, vijdonning ichki o'z-o'ziga bog'liqligini namoyon etadi. Bu ichki bog'liqlik tashqi bog'liqlikka nisbatan teran va doimiydir: uyat ma'lum bir vaqt ichida odamning o'z nojo'ya harakati tufayli yuzaga kelgan o'ng'aysizligi bo'lsa, V. azobi, bu oddiy o'ng'aysizlik emas, balki qalbdagi, odamdagi odamiylikka e'tiqodning faryodi, talabi; uni qondirmas ekansiz, hech qachon azob to'xtamaydi. |
| **Kasbiy odob** | **Professional etiquette** | **Профессиональный этикет** | **Kasbiy odob** - jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi hatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir. Odob (arab. adab so'zining ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar bilan munosabat (oila, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi. Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va meyyorlari, shuningdek, maqsadga muvofiqlik va go'zallik (estetika) talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharm- |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | hayo, kamtarlik, xushmuomalalik kabilar)ni o'z ichiga oladi. |
| **Kamtarlik** | **Humility** | **Смирение** | **Kamtarlik –** avvalo, o'z–o'ziga talabchanlik, o'z harakatlariga, ishiga, bilimiga tanqidiy qarash, o'ziga, kuch - quvvatiga ortiqcha baho bermaslikdir. Kamtarlik kishilarga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Inson odobli bo'lsa, u kishilar bilan shunchalik sodda kamtarona muomala qiladi, o'z ishlariga va harakatlariga kamtarlik bilan baho beradi. Boshqalarga nisbatan shirinsuxan bo'ladi. Kamtar inson boshqalardan o'zini ustun qo'ymaydi, o'ziga bino qo'yib, soxta shuxrat ketidan quvmaydi, yutuqlardan esankiramaydi. Kamtarlik - tortinchoqlik va haddan tashqari andishalilikdan farq qiladi. Ular orqasidan inson o'z qadr-qimmatini tushirib qo'yish mumkin. Kamtarlik tabiiylikdan kelib |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | chiqadi. U kishilarga bo'lgan munosabatda ham yaqqol ko'rinadi. Kamtarlik inson ichki ma'naviy dunyosining tashqi ifodasi hisoblanadi. |
| **Kibr** | **Arrogance** | **Высокомерие** | **Kibr** - kibru havo, dimog'dorlik – o'z qobiliyati-ga, o'z shaxsiyatiga ortiqcha baho berish, o'zini boshqalar-dan yuqori his etish, kalondimog'lik oqibatida namoyon bo'ladigan, salbiy shaxsiy sifatdir. |
| **Kiberterror izm** | **Kiberterror ism** | **Кибертерроризм** | **Kiberterrorizm** - kompyuter sistemasiga hujum |
| **Ma'naviy-axloqiy tarbiya** | **Spiritual and moral education** | **Духовно-нравственные воспитание** | **Ma'naviy-axloqiy tarbiya (**M.a.t.) – yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan tarbiya jarayoni. Ma'naviyat - tarbiyaning eng ta'sirchan quroli va ayni paytda uning natijasi. Axloq - ma'naviyat-ning o'zagi.Axloq - bu avvalo, insof va adolat tuyg'usi, imon, halollik degani. Qadimgi ajdodlarimiz komil inson tarbiyasi haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | zamonaviy tilda aytsak, Sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar**.** M.a.t.da axloq bilan ma’naviyat mezonlariga asoslanib, insonda ma’naviyat hamda axloqni shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirish uchun ta’sirni kuchaytirishga e’tibor qilinadi. |
| **Munozara** | **Discussion** | **Обсуждение** | **Munozara** - biror masala yuzasidan taraflarning bahsini, tortishuvini anglatadi. Baho jarayonida har bir ishtirokchi o’zining haq ekanligini isbotlashga intiladi. Munoza-rada so’zlanadigan nutq mavzu mazmunini ochuvchi dalillarga hayajonli, tinglovchilarni qiziqtiradigan va muhokamaga tortiladigan bo’lishi lozim. Munozarada notiq o’zini vazmin tutadi. Suhbatdoshini hurmat qiladi. Uning shaxsiyatiga tegadigan so’zlardan foydalanmaydi. |
| **Muomala madaniyati** | **Behavioral culture** | **Поведенческая культура** | **Muomala madaniyati -** insonlar, xalqlar, millat va elatlar, qavmlar orasida o’zaro |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ma'naviy aloqa, salomlashuv, so'zlashuv, kelishuv va boshqa insoniy munosabatlar-dir. Muhim aloqa vositasi-muomala madaniyati ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro suhbatini, munosabatini ko'rsatuvchi omil. muomala madaniyati nafaqat kishilar orasidagi aloqa vositasi, balki shu bilan birga dunyoning, olamning ma'naviy instrumen-ti hamdir. Sizning qanday shaxs ekaningizni, o'zaro muloqotda o'z ifodasini topadi. |
| **Murojaat qilish** | **Appeal** | **Обращение** | **Murojaat qilish** - Murojaat qilish (obrashenie) - insondan ko'p narsani talab qilmaydi. U insonni tarbiya ko'rganligidan dalolat beruv-chi harakatlar majmuasidir. Murojaat qilish har–xil bo'lib, bu insonni qayerda, kim bilan, qay paytda, suhbatdosh bilan o'rtalaridagi munosabatdan kelib chiqqan holda bildiriladi. Murojaat qilib aytilayotgan so'zlar nafaqat unga bo'lgan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | hurmat, balki o'z maqsadiga erishish uchun ham qo'llanadi. Insoniy munosa-batlar asosida aytilayotgan so'zlar faqat axloq normalari-ga bo'y sunadi, bu esa qarindoshlar o'rtasidagi, sevishganlar o'rtasidagi, er–xotin o'rtasidagi, do'stlar yoki mansabdor shaxs va qo'l ostidagi inson bilan bo'ladigan munosabatlarda qo'llaniladi-gan so'zlardan tubdan farq qiladi. Murojaat qilish ham bir necha turlarga bo'linadi: ular - rasmiy, ishonchli, intim va nomsiz. |
| **Muhokama** | **Discussion** | **Обсуждение** | **Muhokama** - ma'lum bir masala yuzasidan ko'pchilikni fikrini to'plashni, ma'lum to'xtamlariga kelishini anglatadi. Muhokamada bahs predmetining hamma tomonlari nazarga tashlanadi. Har bir ishtirokchi o'zining erkin fikrlarini o'rtaga tashlaydi. Mavzu ishtirokchi-larning turli hajmdagi dialoglari, monologlari |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | asosida yoritiladi. |
| **Madaniyat** | **Culture** | **Культура** | **Madaniyat** - u jamiyat taraqqiyoti davomida insonlarning faoliyati tufayli qo'lga kiritilgan barcha moddiy va ma'naviy yutuqlarning majmuidir |
| **Mafkura** | **Ideology** | **Идеология** | **Mafkura** - jamiyatdagi muayyan siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, badiiy, falsafiy, ilmiy qarashlar, fikrlar va g'oyalar majmui |
| **Ma'naviyat** | **Spirituality** | **Духовность** | **Ma'naviyat** - insonning butun umri davomida, uning kuchiga kuch qo'shadigan, idrok va aql-zakovatini kengaytiradigan va mustahkam-laydigan vosita |
| **Mentalitet** | **Mentality** | **Менталитет** | **Mentalitet** - aql, tafakkur, fikr yuritish tarzi, fikrlash usuli, kishi ruhiyati tarzi |
| **Millat** | **Nation** | **Нация** | **Millat** - ma'lum davlat fuqarolarining yagona til va o'z-o'zini anglash asosida tashkil topgan etnik birligi |
| **Milliy ma'naviy tiklanish** | **National – spiritual renevv** | **Национальное-духовное возобновление** | **Milliy** - o'z mustaqilligini qo'lga keltirishi natijasida milliy rivojlanish |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | borasida ana shu boy berilgan imkoniyatlardan foydalanish, o'tmishda yaratilgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni milliy rivojlanishiga yo'naltirilgan umummilliy faoliyatdir |
| **Milliy ong** | **National** | **Национальное сознание** | **Milliy ong** - millatning mavjud bo'lishi, uning tarixiy taraqqiyoti va istiqboli bilan bog'liq omil hisoblanadi |
| **Milliy g'urur** | **National proud** | **Национальная гордость** | **Milliy g'urur** - har bir millatning o'z-o'zini anglashi natijasida sodir bo'ladigan ichki ruhiy kayfiyat |
| **Nutq** | **Speech** | **Речь** | **Nutq** - bu til deb ataluvchi, o'ta muhim vazifalarni bajaruvchi noyob quroldan foydalanish jarayoni, til birliklari imkoniyatlarining borliq, tafakkur, ong hamda vaziyat kabi hodisalar bilan muhim munosabatda nomoyon bo'lishidir. Nutq jarayoni - tilning o'z vazifasini bajarish hamda amalga oshirish jarayonidir. |
| **Optimizm** | **Optimism** | **Оптимизм** | **Optimizm** - (lot. optimus – eng yaxshi, degan |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | | ma'noni bildiradi) kechayot-gan voqea, hodisalarning borishiga ikki xil qarama-qarshi fikrlar yoki munosabatlarni yaxshilikka yo'yish bilan ifodalash |
| **Pessimizm** | **Pessimism** | **Рессимизм** | **Pessimizm** - (lot. ressimus – eng yomon) kechayotgan voqea-hodisalarning sodir bo'lishiga ikki xil qarama-qarshi fikrlar yoki munosabatlarning oqibatini samarasiz (fatalizm emas), tushkunlikka yo'yish bilan ifodalaydi |
| **Renessans** | **Renaissanic e** | **Ренессанс** | **Renessans** - qadimgi yunon madaniyati, fani, falsafasining tiklanishini ifodalaydi |
| **Siyosat** | **Policy** | **Политика** | **Siyosat** - davlat miqyosida va davlatlararo munosabatlarda hokimiyatni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat |
| **Taqdir** | **Fate** | **Судьба** | **Taqdir** - har bir inson hayoti va faoliyatini hamda olamdagi barcha hodisalarni yagona yaratuvchi – Ollox amriga bog'lovchi, diniy aqida |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **Fan** | **Science** | **Наука** | **Fan** - ijtimoiy ong shakllaridan biri. Fan tabiat, jamiyat va tafakkur haqidagi yangi bilimlar hosil qilishdan to ularni tadbiq qilishgacha bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi |
| **Fuqarolik jamiyati** | **Civil society** | **Гражданское общество** | **Fuqarolik jamiyati** - yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir |
